nazarga tutiladi. Tilshunoslikning onomastika bo'limi ismlar tizimini aniqlash va o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Onomastika ismga xos asosiy tushunchalar, ularning tizimiy xususiyatlarini o'rganadi. Onomastikaning toponimiya, antroponimiya, oronimiya kabi yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar B. Qilichevning "Onomastika" o'quv qo'llanmasida batafsil yoritilgan [11,7].

"Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi leksik guruhlarga ajratiladi: antroponim – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), toponim – geografik obyektlarning atoqli nomlari, teonimiya – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, zoonim – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, kosmonim – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari, astroponim – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyini o'zida ifodalaydi. Bundan tashqari, onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi realionimlar (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan mifonimlar xayoliy to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi. Zoonimika – hayvonlarga qo'yilgan (shartli) atoqli nomlarni; kosmonimika – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqa ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan fazoviy nomlarni, astronimika – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar)ning nomlarini o'rganadi".[1,20] Teonimika esa, turli diniy tasavvurlar bo'yicha ifodalangan ma'budlar, xudolar, payg'ambarlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini qamrab oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda onomastika o'tgan asrning ikkinchi yarmidan rivojlana boshlagan sohalaridan biri hisoblanib, uning negizidagi teonimlar ya'ni Alloh va ilohiy tushunchalarni bildiruvchi atoqli otlar ayni davrdan o'rganila boshlandi.[2,65] Professor Sh. Maxmaraimova "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida onomastik birliklarga keng to'xtalib, teonimik hodisani deonimlashuv hodisasi sifatida e'tirof etgan. Olima unda o'zga tildagi deonimlashuvdan ko'p holatlarda nom hosil bo'lishining referentativ asosiga ko'ra farq qilishini, ya'ni o'zbek tilidagi deonimlashgan birliklar kishilarning ichki va tashqi xarakter-xususiyatini aks ettiruvchi belgilar orqali yuzaga chiqishini va asosan, sifat turkumidagi so'zlarda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. [4,22] Ammo hosila nominativlarning barchasini ham lisoniy jihatdan turg'un deonimlar deb hisoblash to'g'ri emasligini, o'zbek tilida mavjud deonimlashgan nominativlar lisoniy qiymatdan ko'ra ko'proq nutq vaziyatiga mos okkazonal qo'llanish xususiyatiga ega ekanligini hamda onomastikaning mustaqil obyekti bo'la olmasligini e'tirof etadi. [3,21]

Muxtorxon eshon Umarxo'jayevning "Diniy atama va iboralarning qisqacha ommabop izohli lug'ati"da faol qo'llanadigan va xoslangan payg'ambarlar, farishtalar, valiylar, anbiyolar, avliyolar, sahobalarning ismlari, Muhammad alayhissalom hayoti va faoliyati bilan bog'liq joylarning nomlari keltirilgan. [6,70]

"Payg'ambar" so'zining lug'aviy ma'nosi (forschadan — xabar keltiruvchi, xabar yetkazuvchi) — xristianlik va islomda xudodan vahiy olgan va uni odamlarga yetkazgan shaxs. Xudo bilan uning bandalari o'rtasida vositachi, xudoning yerdagi vakili, elchisi hisoblanadi. Payg'ambarlar kelajakni biladigan, diniy va tarixiy voqealarni, inson taqdirini oldindan aytib beradigan shaxs sifatida tasavvur qilinadi.

Ma'lumki, «Qur'oni Karim 22 yil 2 oy 22 kun mobaynida Rasulullohga oyatlar holida nozil bo'lgan. Teonimlar payg'ambarlar nomi miqdori bilan ham bog'liq. Ular haqidagi eng ishonchli ma'lumot Ibn Murdavayhi Abu Zarr al-G'iforiy rivoyatida quyidagicha berilgan: "Ey Allohning Rasuli, payg'ambarlar qancha?" deb so'radim. U zot sollallohu alayhi vasallam: "Bir yuz yigirma to'rt mingta", dedilar. "Ey Allohning Rasuli, ulardan qanchasi rasullar?" dedim. "Uch yuz o'n uchtasi, ko'pchilik" dedilar. Demak, teonimlar miqdori ham bahs-munozaraga sabab bo'lishi mumkin. »[12]

Qur'oni Karimda payg'ambarlar bilan bog'liq qissalar, asosan, ibrat va isbot uchun keltiriladi. Unda zikr qilingan payg'ambarlarning o'ziga xos xususiyatlari e'tirof etiladi. Ularning ibratli hayoti musulmonchilikka da'vat va ibrat maktabi namunasi sifatida misoldir.

[8,57]

Qur'oni Karimda Sulaymon alayhissalomning vafotlaridan mustasno biron payg'ambarlarning vafoti haqida so'z yuritilmaydi. Chunki u zotning vafot etishlari bilan bog'liq voqea o'ziga xos hikmatga va ibratga munosib hisoblanadi. Shuningdek, payg'ambar alayhissalom Nuhning oila a'zolari – o'g'li Lut, alayhissalomning xotini, Ibrohim alayhissalom otasi va boshqa shaxslar bilan bog'liq hikoyatlardagi insonlarni teonimga misol qilib ko'rsatish mumkin.

Qur'onda Alloh taolo payg'ambarlarni ketma-ket yuborishining sababi, insoniyat to'g'ri yo'ldan qattiq adashganda, gunoh va nobakorlikka qulog'igacha ko'milib ketganda, o'sha to'planib qolgan muammolarni bir yo'la hal etish va tinchitish uchun payg'ambarlarni yuborganligi ta'kidlanadi. Nuh alayhissalom ham xuddi ana shundoq holatda payg'ambar bo'lganlar. O'sha paytda insoniyat hidoyat yo'lidan shu darajada adashgan ediki, uni Nuh alayhissalomdek ulug' payg'ambar to'qqiz yuz ellik yil da'vat qilishi ham foyda bermadi. Oxiri Nuh alayhissalom butun borliqda jonzodlarning xaloskori sifatida yuborildi. Ibrohim alayhissalom vaqtlariga ham odamzot qattiq adashgan edi. Undagi gunohlar oddiy gunohlar bo'lmay qolgan edi. O'sha paytda hamma yoqni but-sanam bosib ketgan edi, podshohlar xudolik da'vosini qildi va h-zo. [7,93]

Natijalar va muhokamalar. Qur'on va Hadisda payg'ambarlarning soni qat'iy ko'rsatilmagan. Ba'zi diniy manbalarda ular 124 mingta deyilgan. Qur'onda faqat Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Ismoil, Ishoq, Ya'qub, Yusuf, Lut, Ayyub, Zulkifl, Yunus, Muso, Horun, Shuayb, Ilyos, Alyasa, Dovud, Sulaymon, Zakariyo, Yahyo, Iso va Muhammad kabi suygan bandalar nomi zikr etilgan. Alloh elchilarining aksariyati nomi avvalgi dinniy muqaddas kitoblarda - Tavrot va Injilda ham qayd etilgan. Ulardan birinchisi Odam (as), oxirgisi Muhammad (s.a.v) sanaladi. Ular har qanday gunohlardan pok hisoblanadilar. Qur'onda Muhammad ismi 4 marta, Muso ismi 136 marta, Iso ismi 25 marta, Nuh ismi 43 marta nozil etilgan. Qur'onda hammasi bo'lib, 25 nafar ana shunday zotlar ismlari zikr qilingan. [5,58] (“As’ila val-ajviba” kitobidan. Muallif: Muhammad ibn Abi Bakr ibn Abdulqodir ar-Roziy, “Muxtorus-sihoh” muallifi.) Ular quyidagilar:

1.Odam alayhissalom	6.Ibrohim alayhissalom	11.Yusuf alayhissalom	16.Yunus alayhissalom	21.Zakariyo alayhissalom
2.Idris alayhissalom	7.Lut alayhissalom	12.Ayyub alayhissalom.	17.Dovud alayhissalom	22.Yahyo alayhissalom
3.Nuh alayhissalom	8.Ismoil alayhissalom.	13.Shuayb alayhissalom	18.Sulaymon alayhissalom	23.Zul-Kifl alayhissalom
4.Hud alayhissalom	9.Ishoq alayhissalom	14.Muso alayhissalom	19.Ilyos alayhissalom	24.Iyso alayhissalom.
5.Solih alayhissalom	10.Ya'qub alayhissalom	15.Horun alayhissalom	20.Al-Yasa' alayhissalom	25.Muhammad alayhissalom

Payg'ambarlar ismlari tavsifi quyidagicha:

- (آدم) Odam alayhissalom Ma'nosi: Yer, tuproq.
 (نوح) Nuh alayhissalom Ma'nosi: Hodiyl – hidoyatga chaqiruvchi.
 (إدریس) Idris alayhissalom (Birinchi bo'lib qalam bilan yozganlar. Alloh taolo bu zotni to'rtinchi osmonga ko'tarib qo'ygan) Ma'nosi: Asos soluvchi va bag'ishlovchi.
 (هود) Hud alayhissalom Ma'nosi: Rafiq – do'st. To'rt arab payg'ambar: Hud, Solih, Shuayb, Muhammad alayhissalatu vassalomlarning biri.
 (صالح) Solih alayhissalom Ma'nosi: Solih – salohiyatli.
 (لوط) Lut alayhissalom Ma'nosi: Berkinuvchi, yashirinuvchi.
 (إبراهيم) Ibrohim alayhissalom Ma'nosi: Ummatlar otasi.
 (إسرائيل) Isroil alayhissalom Ma'nosi: Alloh yo'lida qattiq jiddi jahd qiluvchi, Muhofaza qiluvchi Ingliz tilida: Israel Ibroniycha ismi: (يعقوب) yoki (يعقوب). Ma'nosi: Ergashuvchi, o'rinbosar bo'luvchi.
 (إسحق) Is'hoq alayhissalom Ma'nosi: Kuluvchi, hushchaqchaq. Farishtalar onasi Soraga xursandchilik xabarini berganlarida hayratda qolganidan qo'lini yuziga qo'yib kulib yubordi. Farzandli bo'lganida bu farzandim xabari kelganida kulgan edim, shuning uchun uni Is'hoq deb nomlagum dedi. Ismoil alayhissalomga ota bir, ona boshqa in.
 (إسمعیل) Ismoil alayhissalom Ma'nosi: Alloh qabul qildi. Hojar ona Safo va Marva orasida chanqog'ini bosish uchun suv izlab borib kelardi. Olti marotaba borib keldi. Suv topa olmadi. Yettinchi martada Alloh uning duosini ijobat qildi. Shunda: «Alloh duoyimni qabul qildi», dedi. Shukr tariqasida ham duoyu fig'onining qabul bo'lganidan esdalik bo'lib qolishi uchun farzandini Ismoil – Alloh qabul qildi deb nomladi.
 (يوسف) Yusuf alayhissalom Karimning o'g'li Karimning o'g'li Karimning o'g'li Karim. Yusuf ibn Yaqub ibn Is'hoq ibn Ibrohim alayhimussalom Ma'nosi: Alloh ziyoda qiladi. Haqiqatda qo'yilgan ismdan sohibiga nasiba bo'ladi deganlaridek, Alloh Yusuf alayhissalomning chiroyni va boshqa yaxshiliklarini ziyoda qilib berdi. Payg'ambarimiz unga butun go'zallikning yarmi berilgan deganlar.
 (یونس) Yunus alayhissalom. Iroqdagii Naynavo ahliga payg'ambar etib yuborilgan. Baliq qornida uch kechayu uch kunduz qolib ketgan. Ma'nosi: Kabutar. Ingliz tilida: Jonah
 (أيوب) Ayyub alayhissalom Ma'nosi: To'g'ri yo'lda yuruvchi.
 (شعيب) Shuayb alayhissalom Ma'nosi: Ustun bo'luvchi, ajralib turuvchi.
 (موسى) Muso alayhissalom Ma'nosi: Qutqaruvchi, xaloskor.
 (هارون) Horun alayhissalom Ma'nosi: quvvat joyi.
 (إلیاس) Ilyos alayhissalom Ma'nosi: Robb – mening Ilohim.
 (الیسع) Alyasa' alayhissalom Ma'nosi: Parvardigor – mening xaloskorim.
 (ذي الكفل) Zulkifl alayhissalom Ma'nosi: Allohning quvvati.
 (داود) Dovud alayhissalom Ma'nosi: Mahbub, suyukli.
 (سليمان) Sulaymon alayhissalom Ma'nosi: Salom beruvchi.
 (عزیر) Uzayr alayhissalom Ma'nosi: Yordamlashuvchi.
 (دانیال) Doniyol alayhissalom Ma'nosi: Allohning qazosi, ya'ni hukmi.
 (زکریا) Zakariyo alayhissalom Ma'nosi: Allohning zikri, ya'ni zikr etuvchi.
 (یحیی) Yahyo alayhissalom Ma'nosi: Mehribon, yoqimli.
 (عیسی) Iso alayhissalom Ma'nosi: Alloh xalos etadi, qutqaradi.
 (محمد) Muhammad sollallohu alayhi vasallam Ma'nosi: To'xtovsiz maqtaluvchi.

Qur'on Karim tarkibidagi umumiy ma'lumotlarda ham quyidagi teonimlarni uchraydi:

- 1 Qur'onning ismi Furqon
- 2 Qur'onning laqabi. Majid
- 3 Qur'onning tili. Arabiy
- 4 Qur'on nozil b'lgan yil. 611 milodiy yili
- 5 Qur'on nozil b'lgan oyi. Ramazon oyi
- 6 Qur'on nozil b'lgan kecha. Qadr kechasi
- 7 Qur'on nozil b'lgan joy. Makka hiro g'ori
- 8 Vahiyini yuborgan. Alloh Ta'olo
- 9 Vahiyini qabul qilgan. Muhammad Sallohu Alayhi Vasallam
- 10 Vahiy farishtasi. Jabroil Alayhi Salom
- 11 Birinchi nozil b'lgan oyat (قَالَ خِيَدًا أَكْبَرُ مِنْ إِبْرَاهِيمَ)
- 12 Oxirgi oyat. (أَنْ يَدْمَأْسُ إِلْمُكَلُ تُيَضَرُو يَتَمَّعْنَ عَنْ مُكَيْلٍ عِ تَمَمَّتْ أَوْ مَكْنِي دَمُكَلُ تَلْمُكُ أَمْوِي لَأ)
- 13 Birinchi nozil b'lgan sura. Muddassir surasi
- 14 Oxirgi nozil b'lgan sura. Nasr surasi
- 15 Eng buyuk sura. Baqara surasi
- 16 Eng kichkina sura. Kavsar surasi
- 17 Eng barakatli oyat. Oyatul kursi
- 18 Eng buyuk oyat. Baqara suraning 286 oyasi
- 19 Eng kichkina oyat. (نَأْتُمْ أَهْدُم)
- 20 Qur'onning onasi. Fotiha surasi
- 21 Qur'onni qalbi. Yosin surasi
- 22 Qur'onning kelini. Rahmon surasi

- 23 Qur'on hammasi. Bir mujallad
- 24 Nozil bulgan muddat. 23 yilda
- 25 Qur'on necha juz. 30 juz
- 26 Qur'onning suralari. 114 ta
- 27 Qur'onning hizbi. 120 hizb
- 28 Qur'onning oyati. 6236 = 6666
- 29 Qur'onning sajdalari. 14 sajda
- 30 Qur'onning ruku'lari. 540 ta

Asrlar davomida payg'ambarlar tarixi diniy-irfoniy jihatdan o'rganilib kelingan. Ammo kongnitiv lingvistik jihatdan yondashilmagan. [9,53] Keyingi vaqtlarda "Qur'oni Karim"ning suralarida payg'ambarlar hayoti va ularning tavsiflari alohida keltirilgan. Masalan: «Albatta, Alloh Odam va Nuhni hamda Ibrohim va Imron avlodlarini olamlar uzra (payg'ambarlik uchun) tanladi». (Oli Imron, 33.)

«Ba'zi payg'ambarlar haqida ilgari qissalarni bayon etgan edik. Ba'zi payg'ambarlar qissalarini esa aytganimiz yo'q». (Niso, 164.)

Qur'on kitobi ko'p tillarga tarjima qilinmoqda. Biz uning fransuz tilidagi variantini ikki tilda muqoisa qildik:



Xulosa. Qur'oni Karim, haqiqatan ham butun olamning "Yaratguvchisi", "Rabbisi", "Parvardigor" – Allohdan kelgan ilohiy ko'rsatmalar majmuidir. Allohni to'qsan to'qiz nom

bilan e'tirof etish teonimlar miqdorini oshiradi. Qur'onda va uning atrofida zikr etilgan payg'ambarlar no^mlari esa, teonim so'zlarning cheksiz ekanligini isbotlaydi. Qur'oni Karimni tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilishdan maqsad, payg'ambarimiz Muhammad sallalohu alayhi vasallam, u kishining qarindoshlari, zabjalari, farzandlari va u kishini ko'rgan anbiyoyu avliyolar nomi ham teonimlar tizimiga kiritilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Zero, Yangi O'zbekiston sharoitida din erkinligiga alohida e'tibor qaratilmoqda va avliyolar nomi ham ulug'lanmoqda. Teonimlar inson tafakkuriga singib, diniy qarashlarga munosabatlar o'zgarib bormoqda. Qur'oni Karim matnlarida uchraydigan semantik-funksional shakllangan nutqiy hosilalar zaminida ham teonimlar muhim o'rin tutganligi va ularning kongnitiv lingvistik xususiyatlari borligi ko'zga tashlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Qur'oni Karimda diniy matnlarga xos bo'lgan payg'ambarlar nomlarining semantik-funksional ahamiyat kasb etishini bilish tilshunoslik fani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

Bobokalonov R. R. (2022). Концепция теолингвистика. а. анализ рамки «христианства» theonema во французском производстве острова пингвинг. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 20(20). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7687

Bobokalonov R. R. Новербал мулоқот воситаларининг психонейролингвистик ва лингвокултурологик талқини, Центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 2 № 2 (2020): Maqola va tezislar (buxdu.uz)

Bobokalonov R. R., Достижения узбекских ученых в области лингвистики текста на основе научных результатов в мировой лингвистике, Центр научных публикаций (buxdu.uz): Том 21 № 21 (2022): Статьи и тезисы (buxdu.uz)

Махмараймова Ш. Ҳозирги о'zbek tili. Leksikologiya. -Т.: FIRDAVS-SHOH. 2021.

Muhammad ibn Abi Bakr ibn Abdulqodir ar-Roziy. "As'ila val-ajviba" kitobi. <https://beproclub.com.pl/quroni-karim-kitob-o-zbek-tilida/>

Muxtorxon Eshon Umarxo'jayev. Diniy atama va iboralar. Qisqacha ommabop izohli lug'at. – Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyoti, 2016. 43-61-70-betlar

Nuriddinova R. O'zbek teonimlari xususida « Adabiyot gulshani» Navoiy, 2004.2-qism. --B. 91-93

Narzoullaeva D. B. «THÉOLINGUISTIQUE-UNE TENTATIVE DE VULGARISATION DU TERME. Innovative development in educational activities, 2 (6), 58–63.» (2023).

Narzullaeva D. B. «Developing the communication competence of french-speaking students through dialogues in the development of oral speech.» *Involta Scientific Journal* 1.10 (2022): 53-57.

Narzullayeva, D. B. «“Qur'oni Karim”da ruhiy holatni belgilovchi nutqiy konfiguratsiyalar.» центр научных публикаций (buxdu.uz) 35.35 (2023).

Qilichev B. E. "Onomastika" [Matn] : o'quv qo'llanma – Buxoro: 2023. –7 bet. ISBN 978-9943-9203-3-0

<https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/shayx-muhammad-sodiq-muhammad-yusuf-quroni-karim-va-ramazon-haqida.html>

ELEKTRON LUG'AT YARATISHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA BOSQICHLARI (OGAHIY ASARLARI MISOLIDA)

Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Zamonaviy davrda har bir millatning ko'rkiga aylangan tilshunoslik hozirgi kunga kelib butun dunyo e'tirofidadir. Binobarin, elektron lug'atlar mavzusi kompyuterlar va internet paydo bo'lganidan keyin dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mazkur maqolada elektron lug'at yaratishning lingvistik asoslari va bosqichlari haqidagi bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Elektron lug'atlar, veb manbalar, mobil manbalar, qidiruv tizmlari, algoritmlar, so'zlar va ularning ma'lumotlar bazalari.

Аннотация. В современном мире лингвистика, ценящая каждым народом, получила мировое признание. В результате обсуждение электронных словарей стало значимым с момента появления компьютеров и Интернета. В данной статье описаны лингвистические основы и этапы создания электронного словаря. This article describes the linguistic foundations and stages of creating an electronic dictionary.

Ключевые слова: Электронные словари, веб-ресурсы, мобильные ресурсы, поисковые системы, алгоритмы, слова и их базы данных.

Abstract. In the contemporary world, linguistics, appreciated by every nation, has gained global recognition. As a result, the discussion of electronic dictionaries has become significant since the introduction of computers and the Internet.

Key words: Electronic dictionaries, web resources, mobile resources, search engines, algorithms, words and their databases.

Raqamli texnologiyalar yuqori darajada rivojlangan davrga kelib elektron lug'atlar borasidagi tadqiqotlar rivojlana boshladi. Ular ilmiy bilimlarning moddiylashtirilgan tarkibiy qismlarini shakillantiradilar. Ushbu lug'atlar va ma'lumotnomalar ilmiy-texnik ma'lumotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi [1].

Raqamli texnologiyalar zamonaviy davriga kelib elektron lug'atlarni til ixlosmandlari, talabalar va mutaxassislar uchun ajralmas yordamchi sifatida paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu qulay raqamli vositalar lug'at, ta'riflar va tarjimalarning keng ma'lumotlar bazasiga darhol kirishni ta'minlaydi, bu esa tilni o'rganish, ma'lumot olishning qulayligi va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Elektron lug'at odatda an'anaviy bosma lug'atning raqamli yoki elektron ko'rinishda tasvirlanadi. Bu bir nechta tillardagi so'zlar va iboralar uchun ta'riflar, tarjimalar, talaffuz yordami va turli lingvistik ma'lumotlarni taqdim etuvchi dastur yoki qurilmalarga joylashtiriladi.

Elektron yoki raqamli lug'atni foydalanuvchilarga qulay interfeys va avtomatik, tezkor qidiruv vositalari bilan jihozlangan dastur yoki portal deb ta'riflash mumkin [2]. Elektron lug'atlarning turlari odatda bajaradigan vazifalariga ko'ra farqlanadi. Ularning asosiy afzalligi - rasm, video, audio kliplar kabi audiovizual o'qitish vositalaridan foydalanishdir [3].

Elektron lug'at yaratishda turlicha leksikografik yondashuvlarni qo'llashimiz mumkin bo'ladi:

1. Monolingual – ta'riflar, sinonimlar va misollar keltirgan holda yagona tilga e'tibor qaratish.
2. Ikki tilli - til o'rganuvchilar uchun odatda qo'llaniladigan ikki til o'rtasida tarjimalarni taklif qilish.
3. Ko'p tillilik - turli xil foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatadigan bir nechta tillarni o'zida jamlaydigan lug'atlar bazasi.
4. Ixtisoslashgan - tibbiy yoki yuridik terminologiya kabi ma'lum bir sohaga qaratilgan elektron lug'atlar.

Elektron lug'atlar foydalanuvchilarga so'z yoki iboralarni tezda qidirish imkonini beradi. Ko'pgina elektron lug'atlar bir nechta tillarni o'z ichiga oladi, bu esa elektron lug'atlarga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Elektron lug'atlar yaratishda har bir o'ziga hos xususiyatlarni namoyon qilib boradi.

Elektron lug'atlar borasida Nesi "elektron lug'atni tasniflashga harakat qildi va ikkinchi tilni tushunish uchun elektron lug'atlardan foydalanish bilan bog'liq ko'nikmalarni ahamiyatini o'rgandi [4].

Elektron lugʻatlarning foydalanuvchilar orasida keng tarqalgan mashhurligiga qaramasdan, akademik hamjamiyatda ushbu leksikografik mahsulotlarni loyihalash bosqichlari boʻyicha yagona yondashuv mavjud emas. Boshqacha qilib aytganda, aniq texnik echimlarnioʻz ichiga olgan elektron lugʻatlarni yaratish jarayoni batafsilroq tasvirlanmagan. Shu sababdan mavjud dasturiy bazalardan foydalanish orqalielektron lugʻat yaratish urfga aylangan. Shuni taʼkidlash kerakki, lugʻatni yaratish uchun zarur shartlar birinchi oʻrinda turadi.

Aniqroq aytganda, har qanday lugʻat loyihasining boshlanishi analitik bosqichdan boshlanishi kerak. Ushbu bosqich leksikografik mahsulotlar doirasidagi hozirgi landshaftni va foydalanuvchilarning muhim talablarinioʻrganishni, yangi lugʻat yaratishning dolzarbligi va foydaliligini baholashni va uning parametrlarini aniqlashga taʼsir qiluvchi omillarni oʻrganishni oʻz ichiga oladi.

Baʼzi elektron lugʻatlar foydalanuvchilarga toʻgʻri talaffuz qilishni, soʻzlarni maʼnolarini, sinonimlarini, antonimlarini, amonimlarni va boshqa oʻzlashtirishni yaxshilashimkoniyatlarini taklif qiladi.

Sinonimlar va antonimlarelektron lugʻatlar soʻralayotgan atama uchun oʻxshash maʼnoli (sinonimlar) va qarama-qarshi maʼnoli soʻzlarni (antonimlar) taklif qilishi mumkin.

Ikki tillilugʻatlarda elektron versiyalar turli tillar oʻrtasida tarjimalarni taqdim etishi mumkin. Baʼzielektron lugʻatlardan internetga ulanmasdan foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi, buesainternetga ulanish boʻlmagan holatlarda foydali boʻlishi mumkin.

Elektron lugʻatlar yaratish borasida bir nechta tajribalar mavjud boʻlib, tajribali mutaxassislar taʼmonidan maxsus dasturlash tillarida amaliy ilovalar sifatida qoʻllanilmoqda. Elektron lugʻatlar uchun dasturiy taʼminot modelini yaratishda quyidagi bosqichlarga asoslangan holda modellar quriladi.

Elektron lugʻat yaratish bosqichlari

Oddiy lugʻatlarni tahlil qilish

Ananaviy lugʻatlardan maʼlumotlar bazasini shakillantirish (Ogahiy asarlari misolida)

Maʼlumotlar bazasini dasturiy taʼminot bilan bogʻlash

Maʼlumotlar sifati va yaxlitligini taʼminlash

Sinov va takomillashtirish

1. Oddiy lugʻatlarni tahlil qilish

Har qanday ananaviy lugʻat oʻzida koʻplab jihatlarni jamlaydi. Binobarin, lugʻatlar bir nechta turga boʻlinadi.

Kichik lugʻatlar(choʻntak lugʻat)

Qisqacha(izohli va tarjima) lugʻat

Katta lugʻat(izohli va ensklopedik)

Kichik lugʻatlar – odatda soʻzlashuvda ishlatiladigan soʻzlar va ularning tarjimalarinioʻzida mujassam qiladi. Bu turdagilugʻatlar bir tilli yoki bir nechta tilli boʻladi.

Oʻzbek va ingliz tillari lugʻatlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak har bir soʻz oʻz navbatida boshqa tilda tarjima qilingan soʻzga moslashtirilgan boʻladi.

Soʻzlar oʻz oʻrnida bir nechta maʼnolarda qoʻllanilishi mumkun. Lekin odatda ananaviy lugʻatlarda alifbo tartibida soʻzlar tartiblanib maʼnolar izohlanib boriladi. Soʻzlar va ularga moslashtirilgan tarjima soʻzlar orqalielektron lugʻatlar uchun maʼlumotlar modellari yaratiladi.

Soʻzlar moslashtirish maqsadida katma ket joylashtirilib boriladi.

aboard – kemada, poezda [4].

Kichik turdagilugʻatlarni yuqorida koʻrsatib oʻtilganidek tartiblab boramiz va maʼlumotlar bazasiga joylashtiramiz.

Qisqacha lugʻatlar- bu turdagi lugʻatlar odatda izohli lugʻatlar sirasiga kiradi. Yanieski yozuvlardan yangioʻzbek yozuviga izohlab tarjima qilish kabi toʻplamnioʻzida jamlaydi. Bularga misol qilib “Devonu lugʻati-t-turk”kabi lugʻatlarni misol qila olamiz. “Divanu lugʻati-t-turki”ning soʻzma-soʻz tarjimasini “Turk soʻzlari devoni” boʻladi[9]. “Devonu lugʻati-t-turk” ning lugʻat qismida 7500 soʻz sakkiz boʻlimda izohlanadi.

Katta lugʻat – bu turdagi lugʻatlar izohli lugʻatlar va ensklopedik lugʻatlarnioʻz ichiga oladi. Oʻzbek ensiklopedik lugʻati - ikki jildliensiklopedik lugʻat boʻlib oʻzida 30 000ga yaqin izohni jamlagan boʻlib, ilk oʻzbek tilidagiixcham ensiklopediyadir.

agent- biron shaxs nomidan ish yuituvchi, tashkilot, muassasa[10].

2. Ogahiy asarlarilugʻatlardan maʼlumotlar bazasini shakillantirish.

Ananaviy lugʻatlardan foydalangan holda maʼlumotlar bazasini shakillantirib olamiz.

So'zlar(words) - jadvalida Ogahiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar va ularning izohlari joylashtirilib boriladi.

{zihi} – qanday ajoyib, ajabo;

{jonlarga} – jonlarga;

{aysh-u} – aysh-ishrat;

{tarab} – rohat;

{firoqing} – og'riq va ayrilik;

{taab} – ozor va mashaqqat;

Asarlarda qo'llanilgan so'zlar jamlanmasini tahlil qilish va har bir so'zni izohlash uchun words jadvalidan foydalaniladi. O'z navbatida wordsjadvali quyidagi ustunlarni o'zida jamlaydi:

id(int) - jadvalning umumiy identifikatsiyasi

word(varchar) – asarlarda qatnashgan so'zlar

comment(text) – so'zlarning izohlari

...

Ma'lumotlar bazasi shu ketma-ketlik asosida shakillantirib boriladi va ma'lumotlar bazasi to'ldiriladi.

3.Ma'lumotlar bazasini dasturiy ta'minot bilan bog'lash

Ma'lumotlar bazasiga so'zlar joylanganidan keyin maxsus dasturlash tillari yordamida dasturiy ilova yaratiladi.

Hozirgunga kelib matnli ma'lumotlarni tahlil qilish va su'niy intellekt dasturiy ta'minotlarini yaratish uchun maxsus dasturlash tillari yaratilgan bo'lib bunga misol sifatida PYTHON dasturlash tilini aytib o'tish lozimdir.

PYTHON dasturlash tilida maxsus "ToolKit" mavjud bo'lib o'zida NLTK nomli kutubxonani mujassam qiladi. Shunday ekan ma'lumotlarni tahlil qilish dasturiy ta'minoti sifatida joriy dasturlash tilidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumotlar sifati va yaxlitligini ta'minlash

Ma'lumotlar sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlar bazasiga ma'lumotlarni maxsus dasturiy ta'minot orqali joylashimiz kerak bo'ladi.

Ma'lumotlarni sifati buzilish holatlari:

1. Ma'lumotlar bazasiga ma'lumot joylashdagi xatoliklar

2. O'zbek alifbosidagi ('), ("") va hakazolar mavjudligi

Yuqorida keltirib o'tilgan holatlarni oldini olish maqsadida ma'lumotlar bazasiga joylanayotgan ma'lumotlar PYTHON dasturiy ta'minotiga bog'lanishi kerak bo'ladi chunki ma'lumotlar bazasi tizimlari ma'lumot joylash uchun juda noqulay hisoblanadi.

PYTHON dasturlash tili orqali administrator paneli yaratiladi va ma'lumotlar bazasiga mahkamlaniladi. Ma'lumot dasturlash tili yordamida ma'lumotlar bazasiga joylashtirilib boriladi.

5.Sinov va takomillashtirish

Har bir dasturiy ta'minot sinovdan o'tkaziladi va yangi versiyalarini yaratish maqsadida takomillashtirilib boriladi. Dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazish dasturiy ilovalar va tizimlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Uning asosiy maqsadi dasturiy ta'minot ilovalarini baholash, ular oxirgi foydalanuvchilarga chiqarilishidan oldin nuqsonlar, xatolar yoki muammolarni aniqlash va hal qilishdir. Dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazishning asosiy maqsadlari dasturiy ta'minotning belgilangan talablarga mos kelishini, to'g'ri ishlashini, ishonchliligi va xavfsizligini ko'rsatishini tasdiqlashdir.

Dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazishning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Sinov toifalari:

- funktsional test - dasturiy ta'minotning oldindan belgilangan spetsifikatsiyalarga mos kelishini baholash, birlik sinovi, integratsiya testi va tizim sinovi kabi testlarni o'z ichiga oladi;

- funktsional bo'lmagan testlar - unumdorlik, xavfsizlik, foydalanish qulayligi va kengaytirilishi kabi funktsional bo'lmagan jihatlarga e'tibor qaratish;

- qo'lda sinov - avtomatlashtirish vositalarisiz sinovchilar tomonidan qo'lda amalga oshiriladi;

- avtomatlashtirilgan test - test ishlarini bajarishni avtomatlashtirish uchun test vositalari va skriptlardan foydalanish;

2. Sinov darajalari:

- birlik testi - alohida dasturiy ta'minot komponentlari yoki funktsiyalarini alohida tekshirish;

- integratsiya testi - turli xil dasturiy modullar yoki komponentlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni

baholash;

- tizim testi - butun dasturiy ta'minot tizimini umumiy talablarga javob berishini ta'minlash uchun sinovdan o'tkazish;

- foydalanuvchilarni qabul qilish testi - dasturiy ta'minot ularning kutganlariga mos kelishini tekshirish uchun oxirgi foydalanuvchilarni jalb qilish;

3. Sinov hayot tsikli:

- testni rejalashtirish - test maqsadlari, ko'lami va strategiyasini aniqlash;

- test dizayni - test holatlari va tegishli test ma'lumotlarini yaratish;

- testning bajarilishi - test holatlarini bajarish va natijalarni qayd etish;

-kamchiliklar haqida hisobot berish–aniqlangan muammolarni hujjatlashtirish va hisobot berish;

- testni yopish - test natijalarini umumlashtirish va dasturiy ta'minotni chiqarishga ruxsat olish.

4. Sinov usullari:

- qora quti testi-ichki kod tuzilishini bilmasdan dasturiy ta'minotning funkcionalligini baholash.

- oq quti testi - ichki kod tuzilishini bilgan holda dasturiy ta'minotni tahlil qilish;

- grey-box testi - qora quti va oq quti testing elementlarini birlashtirish.

5. Sinov asboblari - sinovni avtomatlashtirish, testlarni boshqarish va nuqsonlarni kuzatishni soddalashtirish uchun turli xil sinov vositalari mavjud. Masalan, Selenium, JUnit, TestNG va JIRA.

6. Regressiya testi - yangio'zgarishlar yoki tuzatishlar yangi nuqsonlarni keltirib chiqarmasligi yoki mavjud funkcionallikni buzmasligiga ishonch hosil qilish uchun dasturiy ta'minotni takroriy baholash.

7. Ishlash testi -har xil sharoitlarda dasturiy ta'minotning ishlashini baholash, masalan, yuk testi, stress testi va miqyoslilik testi.

8. Xavfsizlik testi - zaifliklarni aniqlash, dasturiy ta'minotning xavfsizlik tahdidlari va hujumlariga chidamliligini ta'minlash.

9. Foydalanish imkoniyatini tekshirish - dasturiy ta'minotning foydalanuvchilarga qulayligi va umumiy foydalanuvchi tajribasini tahlil qilish.

10.Uzluksiz test - tezroq va ishonchliroq nashrlarniosonlashtirish uchun testlarni dasturiy ta'minotniishlab chiqish quvuriga integratsiyalash.

11. Agile va DevOps testlari - Agile va DevOps metodologiyalariga moslashish uchun sinov amaliyotlarini rivojlantirish, qisqaroq rivojlanish davrlarini va tez-tez nashrlarnirag'batlantirish.

12.Sifat kafolati – sinovni o'z ichiga olgan dasturiy ta'minotniishlab chiqishning umumiy sifatini ta'minlaydigan jarayonlar va tadbirlarni birlashtirish.

Dasturiy ta'minotniishlab chiqish va tast jarayonini shakllantirish ilovalarning hayotiy tsiklini muhim tarkibiy qismini tashkil etadi va yuqori darajadagi dasturiy mahsulotlarnietkazib berishga hissa qo'shadi.

Xulosa. Zamonaviy internet tarmoqlarida har bir millatning til boyliginioshiruvchi vositalar kelajakda sun'iy intellektga asoslangan dasturiy ta'minotlar ko'payishiga asos bo'la oladi. Elektron lug'atlar o'z navbatida mukammallashtirilib insonlar uchun til o'rganishdagi ko'plab muammolarniosonlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G. Vyshkin, N.N. Nemich, A.A. KhokhlovaUtime College, Haifa, Israel)

2. Синица А.И.Использование электронных словарей на уроках русского языкаи литературы *Электронный ресурс+: Электронный журнал «РОНО». 2014. URL:http://erono.ru/art/?ELEMENT_ID=18805 (дата обращения: 25.03.2021).

3. Сабельникова, А.М.Использование электронных словарей в обучении английскому языку / А.М. Сабельникова, Н.В.Зимовец // Лексикография и коммуникация – 2018: сб. материалов IV междунар. науч. конф., Белгород, 26-27 апр. 2018 г. / М-во образования и науки РФ, НИУ БелГУ ; отв. ред. А.П.Седых. Белгород, 2018. С. 233-236.

4. Nesi, H. 2000. The Use and Abuse of EFL Dictionaries. How Learners of English as a Foreign Language Read and Interpret Dictionary Entries. Lexicographica. Series Maior 98. Tübingen: Max Nie-meyer.

5. Iznigizcha-o'zbekcha lug'at.»Niso Poligraf». S Nazarov, F Nazarova, N Adizova, D Poltayeva. 2013 yil

6. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'at-t-turk.

7. Ensiklopedik lug'at. 1-jild. A-N (Bosh muharrir - Q.Xonazarov)

ALISHER NAVOIY ASARLARIDAGI O'SIMLIK NOMLARINING O'RGANILISHI: TALQIN VA MUAMMOLAR

Usmanova Maxfuza Sadikovna
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti, v.b.dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy asarlarining lug'at boyligi deb ataluvchi leksik tizimning mohiyati, so'zlarning qo'llanish doirasi, hajmi va chegarasini belgilash o'zbek tilshunoslik fani uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanligi, Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simlik nomlari to'planib, ular geneologik, leksik - semantik va semantik-uslubiy yo'nalishlarda tadqiq etildi, tarkibida o'simlik va daraxt nomlari bo'lgan qo'shma so'zlar, so'z birikmalarining ham semantik-uslubiy jihatlari, badiiyatdagi o'rni tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: lug'at, fitonimlar, qiyosiy tahlil, semantik-uslubiy yo'nalish, geneologik, leksik-semantik tadqiq.

ИЗУЧЕНИЕ НАЗВАНИЙ РАСТЕНИЙ В ТВОРЧЕСТВАХ АЛИШЕРА НАВОЯ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ И ПРОБЛЕМЫ

Usmanova Maxfuza Sadikovna
Джиззакский государственный педагогический университет, доцент

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность лексической системы, которую называют словарным запасом произведений Навои, определение объема, размера и границ слов, имеющих актуальное значение для науки узбекского языкознания, названия растений в языке узбекского языкознания. Собраны произведения Алишера Навои, исследованы генеологические, лексико-семантические и семантико-стилистические направления, проанализированы сложные слова, содержащие названия растений и деревьев, семантические и стилистические аспекты словосочетаний, их роль в искусстве.

Ключевые слова: словарь, фитонимы, сопоставительный анализ, семантико-методологическое направление, генеологические, лексико-семантические исследования.

STUDY OF PLANT NAMES IN ALISHER NAVOIY'S WORKS: INTERPRETATION AND PROBLEMS

Usmanova Makhfuza Sadikovna
Jizzakh State Pedagogical University, associate professor

Abstract: In this article, the essence of the lexical system, which is called the vocabulary of Navoi's works, the definition of the scope, size and limits of words is of urgent importance for the science of Uzbek linguistics, plant names in the language of Alisher Navoi's works are collected, they are geneological, lexical-semantic and semantic-stylistic directions. was researched, compound words containing names of plants and trees, semantic and stylistic aspects of word combinations, their role in art were analyzed.

Key words: dictionary, phytonyms, comparative analysis, semantic-methodological direction, geneological, lexical-semantic research.

1. Kirish. O'zbek tilining qardosh turkiy tillar orasida eng boy va serqatlam bo'lishida, rivojlangan jahon tillari qatoridan munosib joy egallashida, o'zbek adabiy tilining taraqqiyotida ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning o'rni beqiyos. Alisher Navoiy asarlari tafakkur gulshani bo'lish bilan birga, g'oyat boy so'z xazinasi hamdir. Shoir asarlarida o'zbek xalqi turmush tarzi va dunyoqarashining barcha sohalariga oid so'z va iboralar mavjud. "...o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog'imiz zarur." [1] Bu boradagi ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaytirishga asos bo'lmoqda.

Navoiy asarlarining lug'at boyligi deb ataluvchi leksik tizimning mohiyatini, so'zlarning qo'llanish doirasini, hajmi va chegarasini belgilash o'zbek tilshunoslik fani uchun dolzarb

ahamiyatga ega.

O‘zbek tilshunosligida turli sohalarga doir so‘z va terminlar maxsus o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiy tili tarixining to‘liq shakllanish davri hisoblangan Alisher Navoiy ijodi bilan bog‘lik mukammal, umumlashtirilgan leksikologik tadqiqotlar ko‘p emas.

Navoiy asarlari tili leksik boyligining ma‘lum qismini o‘simliklar dunyosini aks ettirgan so‘zlar tashkil qiladi.

Maqolada Alisher Navoiy asarlari tilidagi o‘simlik nomlari to‘planib, ular geneologik, leksik - semantik va semantik-uslubiy yo‘nalishlarda tadqiq etildi, tarkibida o‘simlik va daraxt nomlari bo‘lgan qo‘shma so‘zlar, so‘z birikmalarining ham semantik-uslubiy jihatlari, badiiyatdagi o‘rni tahlil qilindi. Bu dolzarb masalaning ijobiy hal etilishi Navoiy asarlari leksik boyligi haqidagi ilmiy, nazariy bilimlarni to‘ldiradi, o‘zbek tili leksikasi taraqqiyot yo‘lini to‘g‘ri belgilashda ulush bo‘lib qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160 son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori, 2017 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi, 2020 yil 21 oktabrdagi PF – 5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy maqolamiz natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

2. Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunoslari Navoiy merosini chuqur tadqiq etish bo‘yicha jiddiy izlanishlar olib borishgan. Navoiy asarlari til xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘lami va miqdori ko‘p bo‘lganligi, ularning barchasini sanab ko‘rsatish imkoniyati yo‘qligi sababli uning asarlari tilini o‘rganishga salmoqli hissa qo‘shgan A.K.Borovkov, A.M.II‘erbak, A.Rustamov, F.Abdullaev, G‘.Abdurahmonov, O.Usmonov, E.Fozilov, B.Bafoev, S.Ashirboev, U.Sanaqulov, E.Umarov, X.Doniyorov, H.Dadaboev, N.Husanov, Sh.Umarova, I.Nosirov, Z.Hamidov, B.Yusupov, D.Abduvalieva, Sh.Hayitov va boshqa olimlarning nomlarini alohida e‘tirof etish lozim. Alisher Navoiy asarlari tilining so‘z boyligi, bu boyligining geneologik asoslari statistik metod orqali atroflicha chuqur tadqiq etilgan: shoir asarlaridagi so‘zlarning qaysi tilga mansubligi yuzasidan monografiya e‘lon qilingan, alohida asarlarining leksikasi leksik-grammatik, leksik-semantik, leksik-tematik, semantik-stilistik, lingvopoetik jihatlardan dissertatsiya ishi sifatidagi tadqiqotlarga tortilgan, uning asarlari tilidagi terminlar, atoqli otlar maxsus o‘rganilgan.

3. Tadqiqot metodologiyasi. Fitonimlarni tadqiq qilishda, tavsifiy usul bilan bir qatorda, nomlarni tahlil qilishning tarixiy-qiyyosiy va tarixiy-etimologik usullardan ham foydalanildi. Kerakli o‘rinlarda Navoiy asarlari tilidagi fitonimlar hozirgi o‘zbek tilidagi shu soha leksikasi bilan qiyoslandi, bu yo‘l bilan ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari ochib berildi.

4. Tahlil va natijalar.

Quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

- shoir qo‘llagan fitonimlarning ko‘pchiligi o‘z ma‘nosidan tashqari, umumiste‘mol (ko‘chma) ma‘nolarga ham egaligi, gul leksemasi (50 dan ortiq ma‘noda) va sarv leksemasi (20 dan ortiq ma‘noda) ko‘pma‘noliligi bilan boshqa nomlardan ajralib turishi, o‘simlik nomlarining semalari asosida turli ko‘chma ma‘nolar hosil qilish badiiy uslub xususan, o‘xshatish va sifatlash san‘atlari uchun xizmat qilishi ko‘rsatildi;

- Navoiy asarlari tilidagi fitonimlarning statistik-morfologik tahlili ularning, asosan, tub so‘zlar ekanini ko‘rsatdi, lekin o‘simlik nomlaridan ko‘plab sodda yasama va qo‘shma so‘zlar hosil qilinganki, ular (gul leksemasidan 60 dan ortiq so‘z yasalgan) ayni o‘simlik nomini emas, balki ularning semalariga aloqador bo‘lgan boshqa (ko‘chma) ma‘nolarni anglatishga xizmat qilgan. So‘z yasalishi, asosan, ot, sifat va ravish turkumlari doirasida bo‘lganligi ko‘rsatildi.

- o‘simlik nomlari leksemalarida «o‘simlik», uning «hosili» va «mahsuloti» (tanasi) semalari birgalikda mavjud ekanligi va ulardan biri ikkinchisidan ko‘chma ma‘no yo‘li bilan hosil qilinmasligi ko‘rsatildi;

- ko'chma ma'nolarning fitonimlar leksemasining semantik strukturasi zaminida hosil qilinishi va qo'llanishi Navoiy badiiy matnlari asosida sharhlendi. Fitonimlardan badiiy tilda foydalanish mahorati ulug' shoir tafakkur qudratining, so'z san'atidagi mahoratining, badiiy uslubi jilokorligi va jozibadorligining belgilaridan biri ekanligi misollar vositasida tavsiflandi.

5. Xulosa. 1. Navoiy asarlari o'z mazmun-mundarijasiga ko'ra juda boy bo'lib, unda turkiy-o'zbek xalqi turmush tarzining, ruhiy va ma'naviy olamining turli sohalariga oid so'zlar mavjud: diniy-tasavvufiy, afsonaviy, harbiy terminlar, kishi ismlari, taxalluslari, inson tana a'zolari nomlari, ijtimoiy-siyosiy va huquqqa oid terminlar, uy-ro'zgor, kiyim-kechak, kasb-hunar, ta'lim-tarbiya, oziq-ovqat, ob-havoga oid leksema, jugrofiy, astronomik tushunchalar va osmon jismlari terminlari, yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar, kush nomlari, mayda jonivorlar, o'simlik, daraxtlar, kon bilan bogliq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar, sport uyinlari, musikiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik terminlari Navoiy asarlarining so'z xazinasini tashkil qiladi.

2. Fitonimlarda xalq yashab kelgan tarixiy-geografik hududga va iqlimga mos keluvchi nabotot olami namoyon bo'ladi. Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simlik olamiga oid nomlar va ulardan yasalgan so'zlar eski o'zbek adabiy tilining shu sohadagi leksik boyligini va ularning badiiy san'atdagi o'rnini ifodalab turadi.

3. Tildagi boshqa so'zlardan farqli o'laroq, o'simlik nomida shu o'simlikni to'la qamrab olgan tushuncha ham, uning «mevasi» tushunchasi ham, «guli» va «ildizi» tushunchasi ham ifodalanadi. Muayyan o'simlik nomining qaysi ma'noda ekanligi matn mazmunidan (kontekstdan) anglashiladi.

4. O'simliklar olamiga mansub bo'lgan jami 305 ta so'zga nisbatan bular foiz hisobida: umumturkiy va o'zbekcha so'zlar 11,1%ni, arabcha so'zlar 17,4%ni, fors-tojikcha so'zlar 66,9%ni va aralash tarkibli so'zlar 4,6%ni tashkil etadi.

5. Alisher Navoiy asarlari tilidagi o'simliklar olamiga mansub so'zlarni hozirgi o'zbek tilida saqlanganlik-saqlanmaganligiga ko'ra to'rt turga bo'lish mumkin:

- a) ayni o'sha shakl va ma'noda yetib kelgan so'zlar;
- b) fonetik shakli biroz o'zgargan so'zlar;
- v) ma'nosida o'zgarish yuz bergan so'zlar;
- g) shoir tilida mavjud bo'lib, hozirgi tilda mavjud bo'lmagan so'zlar.

Adabiyotlar:

Mirziyoev Sh.M. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganing o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so'zi. 2019 yil 22 oktabr.

М.Усманова Использование в произведениях А.Навои сложных существительных с морфемой «Гул» Халқ таълими. Илмий –методик журнал 2011/4. 88- 89 бет

М.Усманова Alisher Navoiy asarlarida o'simlik nomlari Filologiya masalalari №1 M.Fuzuliy nomidagi Azarbayjon milliy ilmlar akademiyasi. Baku.: "Ilm va tahsil" nashriyoti 2012 yil 110-115 bet

М. Усманова Alisher Navoiy asarlarida o'simlik nomlarining umumiy tavsifi. DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI(8) 2013 yil Turkiya

М.Усманова Application of phytonyms in the works of alisher Navoi . European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 12, 2019. ISSN 2056-5852. 49-52 бет

М.Усманова Genetic classification of phytonyms in navoi works. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Volume: 6 Issue: 11 November 2020. India 532-535 6

LIRIK JANR HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

*Yo'lchiev Qahhor Vahobovich,
filologiya fanlari doktori, Farg'ona davlat universiteti dotsenti,*

Annotatsiya: Maqolada lirik she'rlarni janrlarga ajratish muammosi haqida so'z yuritiladi. Bunda I.Sulton, B.Sarimsoqov, H.Umurov, D.Quronov tasnif tamoyillariga tayangan holda lirik janrlarning shaklanishidagi xilma xillik hamda janr yuzaga kelishda topoxtinos ahamiyatiga alohida diqqat qilgan.

Kalit so'z va iboralar: sub'ektivlik, janr, tasnif, tamoyil, obraz, kechinma, makon va vaqt, misralar miqdori, uchlik janri, mazmuniy kompozitsiya.

НЕКОТОРЫЕ МЫШЛЕНИЕ О ЛИРИЧЕСКОМ ЖАНРЕ

*Юлчиев Каххор Вахобович,
Доктор филологических наук, доценти Ферганского государственного университета*

Аннотация: В статье рассматривается проблема разделения лирических стихотворений на жанры. При этом обсуждая принципы классификации И.Султона, Б.Саримсакова, Х.Умурова, Д.Курунова от лирических жанров, обратил внимание наряду с разнообразием, значимостью жанров, и на топохронос.

Ключевые слова и выражения: субъективность, жанр, классификация, принцип, образ, опыт, пространство и время, количество стихов, жанр троицы, содержательная композиция.

SOME FEEDBACK ABOUT LYRICAL GENRE

*Yulchiev Qahhor Vahobovich,
Doctor of Sciens in Philology, Dotsent Ferghana staty university*

Annotation: The article actually addresses the problem of dividing lyrical poems into genres. At the same time, I.Sulton, B.Sarimsakov, H.Umurov, D.Kuronov, in the situation based on the principles of classification, in the shock of lyrical genres, along with the diversity of genres, the importance of the emerging topoxtinos was emphasized.

Keywords and phrases: subjectivity, genre, classification, principle, image, experience, space and time, number of verses, trinity genre, meaningful composition.

I.Kirish. So'nggi paytlarda birlik va uchlik she'r tadqiqiga oid ishlarga turlicha munosabatlar bildirilishi ko'paydi. Aslida lirik janr muammosi barcha davrlarda ham dolzarb bo'lgan. O'z davrida Platon, Arastu, N. Bualo, G. F. Gegel, V. G. Belinskiy, Fitrat, L.Timofeev, G.Pospelov, I.Sulton, B.Sarimsoqov, U.To'ychiev kabi qator olimlar muammo bo'yicha izlanish olib borishgan. Bugungi kunda ham tadqiqotlar davom etmoqda.

Lirik janr tamoyili va tasnifi turlicha bo'lib, turfalik lirik asarlarni janrga ajratishda qiyinchilik keltirib chiqaradi. Avvalo, badiiy asarlarni janrlarga ajratish ularni adabiy turlarga bo'lish kabi oson va qulay emas. Ikkinchidan, janr tur kabi tizimli yoki uzoq vaqt muqim turmaydi, tarixiy kategoriya sifatida o'sib, o'zgarib, yo'q bo'lib yoki paydo bo'lib, boshqasi bilan birikib boradi. Uchinchidan, ijodkor asar yaratar ekan ekan, unga mos shakl, janrni tanlaydiki, bu janrning mazmun-mundarijaga bog'liqligini ham ko'rsatadi. To'rtinchidan, lirik janrlar individual ko'rinish olishi mumkin.

II.Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mazkur muammo adabiyot nazariyasi nisbatan rivojlangan mamlakatlar, xususan, ingliz adabiyotshunosligida ham etarli darajada hal etilmagan. Rene Uellek va Ostin Uorrenlar janrlar tarixini o'rganishdan ma'ni bormi yoki yo'qligi, asarlarni janrlarga bo'lishda shu paytgacha aniq, qat'iy meyo'r belgilanmaganini tahlil etib quyidagi xulosaga kelishadi. "SHu tariqa janr muammosi ham adabiyotshunoslik tarixi, ham tanqidida asosiy muammolardan biri sifatida

ko'riladi. Bunda adabiyotshunoslikning ikkala sohasi uchun o'zaro bog'liq hisoblanadi" [1,255]. Darhaqiqat, lirik janrlarning qat'iy chegarasi va alohida normalarini ishlab chiqarish imkoni murakkabligi sababli rus manbalarida ham ularni mavzu (sevgi, grajdanlik, falsafiy va peyzaj), meditatif (borliqning mangu muammolari ustida tafakkur qiladigan) va suggestiv (ishontiradigan, ta'sir etadigan), maishiy vazifalari (folklor lirikasi) bo'yicha bir nechta aspektlarda tasnif qilish tavsiya etilgan [8,183-184].

"Aslida, ko'plab adabiy nazariyalar, beixtiyor ma'lum bir adabiy janrni ilgari surishadi va o'z talqin (xulosalar)ida shundan kelib chiqishadi. Asos sifatida olingan aniq adabiy shaklni belgilay turib mazkur jarayonni adabiyot tarixi nazariyasi orqali kuzatish qiziq bo'ladi" [1,44]. Chunki janr zamon, millat, jamiyat badiiy-estetik tarqqiyoti talablari asosida ma'lum o'zgarishlarga uchraydi. Lekin janr sifatida o'zining o'zak muammolarida umuminsoniy tamoyillarni saqlab qoladi. YA'ni lirikada istaymizmi yo'qmi shaxs botiniy olami, inson kechinmasi ifodalanadi. Botiniy olamda barcha insonda umumiylik ko'p bo'ladi. Lekin har bir she'r misolida undagi sub'ektivlik betakrorlik kasb etadi. Lekin lirik "janrlarni tizimlashtirish va tasniflash qiyin, ular bunga qat'iy qarshilik qilishadi" [17, 284]. Buni E.Xalizev janrlar ko'pligi, ularni yagona tizim, tartibga solish qiyinligi, janr turli xalqlarda o'ziga xosligi va tarixiy kategoriya ekanligi kabi qator omillar bilan izohlaydi. Ko'rinadiki, rus adabiyotshunosligida ham muammo echimi kutayotgan dolzarb muammolarda sanaladi.

Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyotshunosligida lirik asarlar tasnifi bir necha marta amalga oshirildi. Masalan, "Adabiy turlar va janrlar" asari ikkinchi jildining uchinchi bobi o'zbek lirik janri tasnifiga bag'ishlangan [4,141-237]. Unda lirik turga kiritilgan asarlar dastlab mazmun jihatdan, so'ngra shakl jihatidan tasnif qilingan. Har ikkalasi ham o'z navbatida yana ichki bo'linishlarga ega. Avvalo, tasnifda asarlarning mazmun va shakl jihati ajratib olingan. Ikkinchidan, unda folklor, musiqaga tegishli asarlar ham tasnifga tortilgan. Keyinchalik H.Umurov ham shunday yo'l tutgan: "1. Mazmun jihatidan: a) estetik belgi, pafos va muayyan mazmun yo'nalishiga asoslanadigan janrlar: marsiya, elegiya, invektiva, bahs, hasbi hol, soqiynoma, topishmoq, qasida, muammo, ta'rix, xat, manzara, monolog, bag'ishlov, vasiyat, vasf, debocha, nazira, faxriya; b) asosan musiqiy asari hisoblansada, adabiy matnga xam suyangan janrlar: romans, kontata, marsh, syuita, qushiq, madhiya;

v) og'zaki va yozma lirikada qo'llanib kelingan janrlar: alla, yor-yor.

2. SHakl jihatidan: a) shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko'ra lirika

janrlari: aytishuv, mustazod, sonet, muvashshah, mushoira, shiru shakar, qit'a, g'azal, tuyuk, ruboiy, masnaviy, fard, tarkiband, tarjiband, o'rama, shoiriy, tirada, turli bandli janrlar, oq she'r, sarbast; b) Misra soni va kompozitsiyaga kura lirika janrlari: musallas, murabba, muxammas, musaddas, musabba, musamman, mutasaa, muashshar, to'rtlik, oktava; v) Qayta tashkil topish (transformatsiya)ga ko'ra lirika janrlari: kit'aiy, kesishgan, taronaiy, ruboiyona» [16, 227-228]. E.V.Xalizevning yuqorida keltirilgan janrlarning ko'pligi va ularni yagona tizimga solish ilojsizligini haqidagi fikrini inobatga olsak, mazkur tasnif ba'zi o'rinlarda o'zi oqlaydi.

Adabiy asarlarni tur va janrga bo'lishda "Adabiyot nazariya"sida "Lirikaning asosiy janrlari" faslida misra, bayt shakllari, g'azal, qasida, masnaviy, ruboiy haqida ma'lumot berilgan [3, 178-179]. Lekin bular etarli emas, deb hisoblaymiz.

Психолингвистическое и когнитивное влияние. Выбор синонимов может оказывать психолингвистическое воздействие на пользователей языка, определяя, как сообщения принимаются и обрабатываются. Изучение синонимов также приносит пользу изучающим язык, повышая когнитивную гибкость и владение языком.

Литературы

Успенский, Б.А. (1973). Обзор русских синонимов. Мутон.

Виноградов, В. В. (1952). Русский язык. Издательство «Прогресс».

Даль, В. И. (2009). Толковый словарь живого великорусского языка. Алфавит.

Васмер, М. (1964). Русский этимологический словарь. Издательство «Прогресс».

Ломоносов, М. В. (2013). Полный курс русского языка. Независимая издательская платформа CreateSpace.

Кубрякова Е. С. (2018). Языкознание и языковедение: русская лингвистическая традиция. Де Грюйтер Мутон.

Терентьев, Е. И. (2003). Структура русского языка. Издательство Славица.

ВИРТУАЛ МУЛОҚОТНИНГ АСОСИЙ ЖАНРЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ

Халилова Рухсора Рауповна,

Бухоро давлат университети, филология фанлари бўйича фалсафа доктори,
доцент.

Аннотация: Ушбу мақолада нутқ жанри нутқ ҳаракати, нутқ ҳодисаси, нутқ стратегияси, нутқ тактикаси ва ҳ.к. тушунчалар билан таққосланади. Тилишуносликда жанр нутқ актининг типик вакили бирлиги сифатида, баъзида нутқ актига қараганда анча йирикроқ бирлик сифатида тушунилади, бироқ бу атамани жамиятда тез суръатлар билан ривожланаётган компьютерлаштириш жараёни билан ўзаро боғлаш зарур бўлади. Виртуал мулоқотни коммуникатив-прагматик ва жанрларга бўлиб ўрганиш орқали тармоқ фойдаланувчиларининг нутқини таҳлил қилиш имконни беради. Бу эса виртуал майдондаги нутқий мулоқот муаммосини ёритиб бериш юзасидан илмий тадқиқотларни янада чуқурлаштириш зарурати мавжудлигини тақозо этади.

Калит сўзлар: нутқий мулоқот, виртуал нутқий мулоқот, мулоқот жараёни, коммуникатив майдон, форум, аудио-визуал мулоқот, интернет, чат, нутқ жанри

ОСНОВНЫЕ ЖАНРЫ И ОСОБЕННОСТИ ВИРТУАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ

Халилова Рухсора Рауповна,

Бухарский государственный университет, по филологии доктор философских наук, доцент.

Аннотация: В данной статье жанром речи является речевой акт, речевое явление, речевая стратегия, речевая тактика и др. по сравнению с понятиями. В лингвистике под жанром понимают типичную репрезентативную единицу речевого акта, иногда гораздо более крупную, чем речевой акт, но необходимо соотносить этот термин с быстро развивающимся процессом компьютеризации общества. Анализ речи пользователей сети путем изучения виртуального общения на коммуникативно-прагматическое и жанровое. Это требует необходимости дальнейшего углубления научных исследований по выяснению проблемы речевого общения в виртуальном пространстве.

Ключевые слова: речевое общение, виртуальное речевое общение, форум, глобальная и региональная сеть, аудиовизуальная коммуникация, интернет, чат, жанр речи.

MAIN GENRES AND FEATURES OF VIRTUAL COMMUNICATION

Ruksora Raupovna Khalilova,

Bukhara State University, in philology Doctor of Philosophy, Associate Professor.

Annotation: In this article, the genre of speech is a speech act, speech phenomenon, speech strategy, speech tactics, etc. in comparison with concepts. In linguistics, a genre is understood as a typical representative unit of a speech act, sometimes much larger than a speech act, but it is necessary to relate this term to the rapidly developing process of computerization of society. Analysis of the speech of network users by studying virtual communication into communicative-pragmatic and genre. This requires further deepening of scientific research to clarify the problem of verbal communication in virtual space.

Key words: speech communication, virtual speech communication, forum, global and regional network, audiovisual communication, Internet, chat, genre of speech.

Жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида компьютер технологияларидан кенг фойдаланиш истаги пайдо бўлганини кузатиш мумкин. Интернет ҳозирги давр кишиси ҳаётига шу қадар мустаҳкам ўрнашиб олганки, кибермайдон, компьютер ҳамжамияти, киберфуқаро (яъни кибермайдон фуқароси) ва шу каби ҳодисалар ҳақида гапириш мумкин. Шу билан бирга, кибермаконда мулоқот табиий тил ёрдамида амалга оширилади

ва интернет маконининг тилини ўрганувчи тилшунослик фанлари, киберлингвистика учун алоҳида аҳамият касб этади.

Киберлингвистика фаолият соҳаси компьютер-медиа алоқаси (СМС) бўлиб, кибермайдонда кишиларга ўз виртуал шахсиятларини тил (матн) ифодаси орқали яратишлари учун чексиз имкониятлар билан амалга оширилади. Бу орқали виртуал оламни англаш содир бўлади, бошқа шунга ўхшаш шахслар билан ижтимоий ўзаро таъсирлар, ўз қоидалари ва раҳбарлари билан онлайн ҳамжамият яратилади. Интернет ўз-ўзини шакллантирувчи ва бошқарувчи мураккаб тизим. У тармоқ воситаларини ягона стандарт асосида (ягона тилда) ишлашни таъминловчи дастур сифатида иккита асосий вазифасини бажаради. Яъни, биринчиси ахборот макони ва иккинчиси коммуникацион восита.

Виртуал нутқий мулоқот оддий нутқий мулоқот каби уч таркибий қисмдан иборат: мулоқотни бошлаш, мулоқотни сақлаш ва мулоқотни яқунлаш. Фойдаланувчи ўзбек тили чатининг виртуал мулоқот маконида ўз борлигини ифодаловчи тил ва прагматик қоидаларига асосланиб мулоқотни амалга оширади. Виртуал суҳбатни қуйидагича тавсифланиши мумкин: 1) мулоқотнинг оммавий характери; 2) алоқа йўналиши: кўпдан кўпгача; 3) синхрон алоқа; 4) хабар олувчига хабар беришнинг ўртача тезлиги; 5) хабар шакли ва мазмунига қатъий талабларнинг йўқлиги [4,7,15].

Виртуал мулоқот жараёни маълум бир шароитларда ва маълум бир омиллар таъсирида амалга ошади. Аввало мулоқот жараёни доим аниқ бир вазиятда амалда бўлади. Меъёрдаги мулоқот акти камида иккита иштирокчи бўлишини тақозо этади: гапирувчи (ёзувчи) ва тингловчи (ёзувчи). Бунда гапирувчи ва тингловчи роллари ўзгармайди. Виртуал майдондаги мулоқот актида онлайн бўлиши шарт. Виртуал майдондаги мулоқот соҳаси маълум бир умумий вазифа ва вазиятли шарт-шароитлар билан бирлашган мулоқот актлар мажмуаси бўлиб, коммуникатив ҳодиса сифатида активдир. Бундай мулоқот мутлақо турли хил соҳаларда амалга ошиши мумкин: кундалик мулоқот соҳаси (асосан шахслараро); саноат мулоқот соҳаси; бизнес мулоқот соҳаси (ёки бизнес мулоқот); илмий, маърифий ва сиёсий нутқ соҳаси; туризм, спорт ва шоу-бизнес соҳаси; тиббий нутқ соҳаси; халқаро алоқа ва ҳ.к [8].

Кишилар ўртасидаги мулоқотнинг турли жанрлари ва турларига қизиқиш ХХ асрнинг 80-90 йилларига тўғри келади. Айнан шу йилларда нутқ жанрларини ўрганиш нутқни ўрганишнинг асосий ёндашувларидан бирига айланди. Бу бир қатор сабабларга боғлиқ бўлиши мумкин: оғзаки диалогик нутқнинг асосий бирлигини фаол излаш, инсоният ҳақидаги янги интегратив фанни шакллантириш ва нотиклик мактабини тиклаш. 90-йилларнинг иккинчи ярмида жанршунослик соҳасида улкан ютуқлар қайд этилди. Ушбу йўналишнинг турдош фанлар – прагматингвистика, стилистика, риторика, ижтимоий-тилшунослик, психолингвистика, маданийтилшунослик ва матн тилшунослиги билан ўзаро алоқаси жуда самарали бўлди. Марказида оғзаки ва ёзма профессионал аҳамиятга эга нутқ жанрларини ўқитиш бўлган замонавий хусусий услублари яратила бошланди.

Сўнгги ўн йилликларда жанр муаммолари бўйича ишлар сони сезиларли даражада ошди, бу эса унинг тобора долзарблигини ошириб бормоқда [2]. Дарҳақиқат, нутқ жанри (НЖ) нутқ ҳаракати, нутқ ҳодисаси, нутқ стратегияси, нутқ тактикаси ва ҳ.к. тушунчалар билан таққосланади. Тилшуносликда жанр нутқ актининг типик вакили бирлиги сифатида, баъзида нутқ актига қараганда анча йирикроқ бирлик сифатида тушунилади, бироқ бу атамани жамиятда тез суръатлар билан ривожланаётган компьютерлаштириш жараёни билан ўзаро боғлаш зарур бўлади.

Бутун бошли хилма-хилликда, жумлаларни нутқнинг айрим жанрларида аралаш ҳолда ифодалаш мумкин. Масалан, ҳатто жуда эркин ва чекланмаган суҳбатда ҳам биз нутқимизни маълум жанр шаклларида алмаштириб берамиз. Аммо айнан лисоний шахснинг ижодкорлиги жанр таркибий қисмларига ўзгартиришлар киритишда, атайлаб жанр белгиларини бузишда, янги маъноларни яратишда, яъни жанр имкониятларидан ижодий фойдаланишда намоён бўлади.

НЖ (нутқий жанр) – иккиламчи тушунча сифатида тахмин қилинади, нутқ жанри

матнларнинг типик хилма-хиллиги (ҳикоя, хат, роман) ва нутқ жанри – лисоний маънода типик-вазиятли сўзлашув (кундалик диалог ифодаси, ҳарбий буйруқ, савол) эканлигини англатади [16]. Бир томондан, бу хат Интернетда алоқани сақлаш воситаси, иккинчи томондан, мулоқот шакли сифатида савол-жавоб кўринишига эга кундалик мулоқот ифодасидир. Масалан, “чат” режимида. Демак, тилдан фойдаланишнинг ҳар бир соҳаси ўзига хос сўзлашув турларини ҳосил қилади, биз уларни “нутқ жанрлари” деб атаيمиз. Фаолиятнинг ҳар бир соҳасида нутқ жанрларининг хилма-хил бўлган бутун бир тўплами мавжуд – булар кундалик суҳбатлар, ҳикоялар, хат, буйруқ ва турли хил иш ҳужжатлари. Бундан ташқари, биз О.Б.Сиротинининг “нутқ жанри тилшунослик назарияларида эмас, балки кундалик мулоқотда, аввало нутқни қабул қилувчи нуқтаи назаридан реал идрок этишда ривожланди” деган фикрига қўшилаемиз. Нутқ жанрлари муаммоси ҳеч қачон алоҳида ажратилмаган, эҳтимол функционал хилма-хиллик аниқ нутқ жанрларининг хусусиятларини умумлаштиради керак. Нутқ жанрлари мураккаб (иккиламчи) ва содда (асосий) га бўлинади. Мураккаб жанрларга ёзма (асосан) бадий асарлар, илмий мақолалар ва шу кабилар, соддасига эса – бевосита оғзаки мулоқот қиради.

Шундай қилиб, инсон нутқ жанрларини қанчалик яхши ўзлаштиради, эркин нутқ шунчалик мукамал бўлиши шубҳасиздир. Коммуникант маълум бир жумла турини танлаганда, у биринчи навбатда нутқ жанрига, сўнгра ўйлаб топилган гапнинг синтактик хусусиятларига йўналтирилган ҳолда, уни бутун сўзлашув учун танлайди.

Интернет алоқанинг жанр турлари аллақачон бир неча тадқиқотчининг ишларида кўриб чиқилган. Шундай қилиб, интернет алоқанинг қуйидаги жанрларини ажратиш мумкин: 1) электрон почта (E-mail) ; 2) чат (IRC) – ҳақиқатда аниқ вақтда компьютер орқали норасмий мулоқот; 3) компьютер конференциялари (форумлар); 4) Интернетдаги электрон эълонлар тахтаси (Bulletin Board); 5) тезкор хабарлар тизими (ICQ); 6) компьютер ўйинлари; 7) ZOOM (видео конференция) . [2,4,16,17] .

Компьютер алоқаси назарияси ривожланишининг ҳозирги босқичида ушбу тасниф ўта шартли ҳисобланади, чунки кўплаб тузилиш белгиларига кўра бу жанрлар (кесишиши) бир-бирига мос келиши мумкин. Масалан, инглиз тилшуноси М.Стаббс 2001 йил учун бешта жанрни аниқлайди ва уларни “Интернетдан фойдаланишнинг вазиятлари” (broad Internet-using situations) деб атаиди. Булар: электрон почта, синхрон ва асинхрон чатлар (суҳбатлар), шу жумладан BBS, виртуал олам (MOOs, MUDs, MUCKs, MUSEs ва бошқалар); ВЕБ-матнлари. Бевосита IRC алоқани кўриб чиқадиган бўлсак, матнни тақдим этиш ва ташкиллаштириш услубига кўра у гиперматнни эса солишини англаш қийин эмас. Электрон гиперматн электрон жанрларнинг йиғиндисиди мавжуд. Компьютер моделлаштиришнинг уч соҳаси мавжуд бўлиб, уларда тил тизимининг фаолияти тўғрисидаги билимлардан фойдаланилади.

Электрон гиперматн жанрларининг таснифи турли хил асосларда тузилиши мумкин. Бизнингча, бундай таснифнинг асосларидан бири оғзаки ёки ёзма нутқ билан боғлиқ бўлиши мумкин. Бу ҳолатда, электрон гиперматннинг жанрлари жойлашган даражасининг ўтиш нуқтаси сифатида оғзаки нутққа йўналтирилган чат (суҳбат) ва ёзма нутққа йўналтирилган электрон почта хабарлари майдонга чиқади.

Электрон почта орали алоқа ўн, ўн беш йил олдин вужудга келган ва шу вақт мобайнида кенг тарқалган ҳамда оғзаки ва ёзма нутқий мулоқот орасидаги бир нарса каби намоён бўлган ҳодиса сифатида алоҳида қизиқиш уйғотади. Ёзма нутқий мулоқот маълумотни ёзиб олишнинг график усулидан фойдаланади, аммо оғзаки каби – бу фарқ тезкор ва норасмийликда кузатилади. Ёзма ва оғзаки нутқнинг хусусиятларини бирлаштиришнинг янада ёрқин намунаси – бу «chat» (суҳбат) режимидаги мулоқот бўлиб, бунда икки суҳбатдош компьютер тармоғи орқали мулоқотда бўлади: экраннинг ярмида диалог иштирокчиси ўз матнини ёзади ва бошқа ярмида у ўз суҳбатдошининг матни ҳарфлар билан пайдо бўлганлигини кўриши мумкин. Компьютер алоқасининг ўзига хос жиҳатларини ўрганиш замонавий нутқий мулоқотни таҳлил қилишнинг фаол ривожланаётган йўналишларидан бир бўлиб, бу чат (суҳбат) алоқаси моделини тавсифлашда комплекс ёндашувдан фойдаланишга имкон беради.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, виртуал мулоқотни коммуникатив-прагматик ва жанрларга бўлиб ўрганиш орқали тармоқ фойдаланувчиларининг нутқини таҳлил қилиш имконини беради. Бу эса виртуал майдондаги нутқий мулоқот муаммосини ёритиб бериш юзасидан илмий тадқиқотларни янада чуқурлаштириш зарурати мавжудлигини тақозо этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жичкина, А.Е. Социально-психологические аспекты общения в Ин-тернете <http://floqiston.ru/projects/articles/strategy.shtml/>.
2. Карцевский С. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // Звегинцев В.А. История языкознания в очерках и извлечениях. Ч. II. – Москва: Просвещение, 1965. – 85 с.
3. Кашкин В.Б. Введение в теорию коммуникации. Воронеж, 2000. – С. 221-234.
4. Кремлева, С. «ЧАТ» как разновидность виртуального общения // <http://sociology.extrim.ru/dip/start.htm>
5. Лошманова Л.Т. Жаргонизированная лексика в бытовой речи молодёжи 50-60-х годов. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1975. – С. 57-59.
6. Овчарова, К. В. Электронный дискурс: общая характеристика // Лингвистическая организация дискурса: функциональные и содержательные аспекты : Межвуз. сб. тр. молодых ученых. — Крас-нодар, 2004. - Вып. 1. - С. 108-113.
7. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 110 б.
8. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 198-204.
9. Почепцов Г.Г. О месте прагматического элемента в лингвистическом описании // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса. – Калинин: КГУ, 1985. – С. 12-18.
10. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1971. – С. 95.
11. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – С. 52.
12. Стратен В.В. Арго и арготизм. – В сб.: «Труды комиссии по русскому языку». – Ленинград, 1931. – С. 91-98
13. Тоирова Г. Этносоциопрагматика ёки прагматик социолингвистика ҳақида. БухДУ илмий ахбороти. 2008, № 1. – Б. 53-55.
14. Тоирова Г. Нутқий мулоқотнинг лисоний вербал ва лисоний новербал воситалари хусусида (саломлашиш мисолида). БухДУ илмий ахбороти. 2018, № 1. – Б. 67-74.
15. Формановская, Н. И. Речевой этикет и культура общения. - М.: Высшая школа, 1989. - 415 с.
16. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 43-53.
17. Бахтин М. М. Проблема речевых жанров [Текст] / Бахтин М. М // Собрание сочинений в 7 тт. - М. : Русские словари, 1996. - Т. 5. - С. 159-206. - ISBN 5-89216-011-4.
18. Галичкина, Е. Н. Компьютерная конференция в системе жанров компьютерного общения. Межвузовский сборник научных трудов - Саратов: Изд-во «Научная книга», 2003. - Выпуск 9. - С. 276-280.
19. <https://sites.google.com/site/comnetschool/mir-obedinennyj-v-set/cto-takoe-internet>
20. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/internet-uz/>

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

*Akramova Gulbahor Renatovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti, pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari
doktori (DSc)*

Annotatsiya. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bugungi murakkab va tez o'zgaruvchan dunyoda juda muhimdir. Har qanday sohada va har qanday rolda mavhum fikrlash va muammo yoki vaziyatni ko'rib chiqish qobiliyati o'sish va muvaffaqiyat uchun zarurdir. Yaxshi xabar shundaki, tanqidiy fikrlash - bu sayqallanishi mumkin bo'lgan mahorat va bu maqolada bu haqda bilishingiz kerak bo'lgan hamma narsa tasvirlangan. Maqolada tanqidiy fikrlashning ta'rifi, tanqidiy fikrlashga moyillik va turli xil ta'lim strategiyalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, qobiliyat, mavhum fikrlash, mahorat, turli xil o'rganish strategiyalari.

СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

*Акратова Гулбахор Ренатовна,
Бухарский государственный педагогический институт, доцент кафедры
педагогических наук, доктор педагогических наук (DSc)*

Аннотация. Навыки критического мышления необходимы в современном сложном и быстро меняющемся мире. В любой отрасли и на любой должности способность абстрактно мыслить и рассматривать проблему или ситуацию является необходимым условием для роста и успеха. Хорошей новостью является то, что критическое мышление — это навык, который можно отточить, и в этой статье изложено все, что вам нужно знать о нем. В статье представлено определение критического мышления, склонность к критическому мышлению и различные стратегии обучения.

Ключевые слова: критического мышления, способность, абстрактно мыслить, навык, различные стратегии обучения.

STRATEGIES FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING SKILLS IN STUDENTS

*Akramova Gulbahor Renatovna,
Bukhara State Pedagogical Institute, Associate Professor of the Department of
Pedagogical Sciences, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc)*

Annotation. Critical thinking skills are essential in today's complex and rapidly changing world. In any industry and in any role, the ability to think abstractly and consider a problem or situation is essential to growth and success. The good news is that critical thinking is a skill that can be honed, and this article outlines everything you need to know about it. The article presents the definition of critical thinking, the disposition to think critically, and various learning strategies.

Key words: critical thinking, ability, abstract thinking, skill, various learning strategies.

Kirish. Tanqidiy fikrlash maktabda va uyda o'rganilishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Tanqidiy fikrlash test uchun materialni tushunishdan ko'proq narsani anglatadi; bu axborotni samarali qayta ishlash, o'z va boshqalarning g'oyalarini baholay olish, bilganlaringizga asoslanib to'g'ri qaror qabul qilishdir. O'qituvchilar sifatida biz talabalarimiz bu ko'nikmalarni rivojlantirishlarini xohlaymiz, chunki ular katta va kichik muammolarni hal qilishda ularga butun umri davomida yordam beradi. Ammo u erga qanday etib boramiz? O'qituvchilar

talabalarga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ba'zi usullar:

1. Talabaga mantiqiy xatolarni aniqlashga yordam berish.

Mantiqiy xatolar - bu fikrlashdagi xatolar. Talabalar bahs-munozaralarda keng tarqalgan va odamlarni manipulyatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin, lekin ular argumentning o'zi to'g'riligi yoki kuchiga hech qanday ta'sir ko'rsatishi shart emas. Buning bir misoli - kimningdir g'oyalariga emas, balki uning xarakteriga qarshi bahslashishdir. Yana bir misol - xasis odam: birovning argumentini osongina inkor etish uchun noto'g'ri talqin qilish (va shuning uchun o'zingizni aqlliyoq ko'rsatish).

2. Talabalarni masalaning barcha tomonlarini o'rganishga o'rgating.

Talabalarigizni muammoning barcha tomonlarini o'rganishga o'rgating. Buni ulardan ijobiy va salbiy tomonlari yoki biror narsaning afzalliklari va kamchiliklari ro'yxati bilan chiqishlarini so'rash orqali amalga oshirish mumkin. Har qanday masala bo'yicha har doim bir nechta nuqtai nazar mavjudligini va nima to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi haqida qaror qabul qilishdan oldin ikkala tomonni ham tushunish muhimligini tushuntirish.

3. Talabalarga o'zlari iste'mol qiladigan ommaviy axborot vositalari haqida tanqidiy fikr yuritishga yordam bering.

Media savodxonligi yoki ommaviy axborot vositalarini tanqidiy tahlil qilish va baholash qobiliyati talabalar uchun muhim mahoratdir. Ularga buni amalga oshirishda yordam berish uchun siz ularni ommaviy axborot vositalarining qanday tarfkashligi va u qanday xabarlar yuborayotgani haqida savollar berishga undashingiz kerak. Shuningdek, ular yangiliklarda yoki Facebook yoki Twitter kabi ijtimoiy media saytlarida ko'rgan narsalariga ergashish o'rniga o'zlarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlari asosida ongli qarorlar qabul qilishlari uchun ushbu xabarlarni qanday tahlil qilishni o'rganishlari kerak. ular ommaviy axborot vositalaridan o'z hayotlarida samarali foydalanishlari mumkin: masalan, agar siz film treyleringizni onlayn tomosha qilayotgan odamlar (yoki undan ham yaxshiroq uyda) ochilish kuniga chipta sotib olishlarini istasangiz!

4. Talabalarning g'oyalariga e'tiroz bildiring, so'ng ularga yaxshiroq g'oyalar bilan javob berishga imkon berish.

Talabalarigizga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish uchun avvalo ularni tanqidga ochiq bo'lishga o'rgatish kerak. Buni ularni o'z g'oyalari va ularni qanday yaxshilash mumkinligi haqida o'ylashga undash orqali qilishingiz mumkin (masalan, Sokratik usuldan foydalanish). Talabalarning ochiqligini rag'batlantirishning yana bir usuli - ular bir-birlarining xatolaridan va muvaffaqiyatlaridan saboq olishlari uchun bir-birlari bilan baholash yoki rubrikalardan foydalanishdir.

5. Talabalardan o'z muammolarini aniqlashlarini va o'zlari uchun echimlar yaratishlarini so'rash.

Ko'rib turganimizdek, tanqidiy fikrlash talabalarda shakllantiriladigan muhim mahoratdir. Buning eng yaxshi yo'li ularni o'z hayotlari va muammolari haqida tanqidiy fikrlashga undashdir. Talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularga amalda qo'llash mumkin bo'lgan imkoniyatlar kerak. Buni qilishning ajoyib usullaridan biri talabalarga: «Muammo nima?» yoki «Buni qanday hal qilishimiz mumkin?» Bundan tashqari, agar ular keyingi safar boshqacha ish qilsalar, nima bo'lishini o'ylashlarini so'rash mumkin.

6. Topshiriqlar, qog'ozlar va testlar bo'yicha tez-tez fikr-mulohazalarni berib turing, ular sinfda va uyda o'zlashtirishni istagan ko'nikmalarigizni mustahkamlash uchun.

Sinfda va uyda o'zlashtirishni xohlagan ko'nikmalarigizni mustahkamlash uchun topshiriqlar, qog'ozlar va testlar haqida tez-tez fikr bildirish.

Muntazam ravishda fikr bildirishga ishonch hosil qilish (kamida chorakda bir marta).

O'z fikr-mulohazalaringizni ularga nima to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aytishdan ko'ra, ishining kuchli va zaif tomonlariga qaratish. Bu talabalarga kelgusida o'z ishlarini qanday yaxshilash mumkinligini tushunishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish talabalarni turli yo'llar bilan tanqidiy fikrlashga o'rgatishning muhim qismidir

Tanqidiy fikrlash talabalarni turli yo'llar bilan tanqidiy fikrlashga o'rgatishning muhim

qismidir. Talabalar maktabda, kolleжда va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga muhtoj. Tanqidiy fikrlash ularga aniqroq fikr yuritishga va yaxshi qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bu, shuningdek, ularga yanada ijodiy va innovatsion bo'lishga yordam beradi. Dastlabki yillarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali siz bolangizga butun ta'lim faoliyati davomida (va undan keyin) foyda keltiradigan umrbod o'rganishga bo'lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam berishingiz mumkin.

Tanqidiy fikrlash uchun asosiy ko'nikmalar

O'quv dasturlari va o'quv dasturlari direktori sifatidagi hozirgi vazifamda men 21-asr vositalaridan foydalanishni va eng muhimi, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilaman. Tanqidiy fikrlash uchun asos bo'lgan ba'zi muhim ko'nikmalar:

Aloqa va axborot ko'nikmalari

Fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari

Shaxslararo va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari

Hamkorlik qobiliyatlari

Ushbu to'rtta o'q talabalarga har qanday sohada va ta'limning barcha darajalarida kerak bo'ladigan ko'nikmalardir. Demak, savolga javobim. Biz talabalarimizni tanqidiy va o'zlari uchun fikrlashga o'rgatishimiz kerak.

Ta'limning maqsadlaridan biri talabalarni kashfiyot orqali o'rganishga tayyorlashdir. Tanqidiy fikrlashni mashq qilish imkoniyatini berish talabalarga boshqalarning fikrlashini tahlil qilish va boshqalarning mantig'ini tekshirishga yordam beradi.

Boshqalarni tushunish hamkorlikda va kundalik hayotda muhim mahoratdir. Tanqidiy fikrlash talabalarga bilimlarni yodlashdan ko'ra ko'proq narsani qilish imkonini beradi.

Savollar berish. Xo'sh, buni qanday qilamiz? Tavsiyalardan biri o'qituvchilarga darsni boshlashda chuqur savol berish strategiyalarini ishlab chiqishdir.

Sog'lom fikrlash bilan javob olish uchun o'ylangan savollarni bering. Keyin, so'z suhbatlari va muloqot talabalarining fikrlashini shakllantirish. Tez javoblar ko'pincha juda kam so'z va ko'z bilan aloqa qilmaslikka olib keladi, bu biz targ'ib qilishni istamaydigan ko'nikmalardir.

Talabalarga savollar berayotganda va ular yechimni taklif qilganda, keyingi fikrlashni rivojlantirish uchun ulardan ba'zilarini sinab ko'ring:

Bu haqda batafsilroq gapirib bera olasizmi?

Bu fikrni boshqa yo'l bilan ifodalaysizmi?

Menga misol keltira olasizmi?

Menga misol keltira olasizmi?

Batafsil ma'lumot berasizmi?

Aniqroq gapira olasizmi?

Boshqa nuqtai nazarni hisobga olishimiz kerakmi?

Bu savolga qarashning boshqa yo'li bormi?

Tanqidiy fikrlash qobiliyatlaridan foydalanishni o'qitish va o'rganish paradigmasidagi o'zgarish sifatida ko'rish mumkin. Ta'limga jalb qilish o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Bu, shuningdek, maktab tizimi qaytadan boshlanishi kerak bo'lsa ham, talabalarga muvaffaqiyatga erishish yo'lini beradi.

Ta'limning barcha jabhalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Ishtirok etish, qo'llash va hamkorlik qilish - bu vaqt sinoviga bardosh beradigan ko'nikmalar. Men, shuningdek, tanqidiy fikrlashni o'qitishning har bir jabhasiga integratsiyalashuviga yordam beraman.

O'z tajribamda men buni amalga oshirishning bir necha yo'lini topdim.

Darslarni/birliklarni tekshirish savoli bilan boshlang: bu savolga «ha» yoki «yo'q» deb javob beradigan savol bo'lmasligi kerak. Bu savollar kashfiyotni o'rganishga va muammolarni hal qilishga ilhomlantirishi kerak.

Ijodkorlikni rag'batlantirish: Men o'qituvchilarning loyihalarni o'z talabalariga berishdan oldin tayyorlaganlarini ko'p marta ko'rganman. Masalan, kardan odamni yoki boshqa «ijodiy» loyihalarni loyihalash. Dizayn ishlarini bajarish yoki barcha doiralarni oldindan kesib tashlash orqali ijodkorlik imkoniyatlarini olib tashlaydi.

Agar har bir bolaning materiali allaqachon kesilgan bo'lsa, u sinfning yanada silliq ishlashiga yordam berishi mumkin, lekin keyin har bir talabaning loyihasi bir xil ko'rinadi. Talabalar o'zlari o'ylashlari yoki muammoni hal qilishlari shart emas.

Har bir narsani «yopishqoq» oldindan tayyorlamaslik - bu yaxshi narsa. Buning o'rniga, talabalarga qordan odamni yaratish uchun zarur bo'lgan barcha jihozlarni bering va ular buni o'zlari qilishlariga ruxsat bering.

Mustaqillik berish talabalarga tanqidiy fikrlovchi bo'lish imkonini beradi, chunki ular siz bergan materiallar bilan o'z mahsulotlarini yaratishlari kerak bo'ladi. Bu oddiy misol bo'lishi mumkin, ammo bu biz har qanday sinf darajasi yoki loyihaga tegishli bo'lishi mumkin.

Tez yordam berish uchun sakrab o'tirmaslikka harakat qiling - talabalar samarali kurash orqali ishlashlariga imkon bering.

Talabalar o'rganishda aloqalarni topishlari uchun imkoniyatlar yarating. Talabalarni real hayotiy vaziyat bilan bog'lanishga va namunalarni aniqlashga undash ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mashq qilishning ajoyib usuli hisoblanadi. Haqiqiy stsenariylardan foydalanish qat'iylik, dolzarblik va tanqidiy fikrlashni oshiradi.

Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishning yana bir qancha usullari:

Analoglardan foydalaning

Talabalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni rivojlantirish

Ochiq savollarni bering

Fikrlash vaqtiga ruxsat bering

Haqiqiy hayot muammolaridan foydalaning

Fikrlash amaliyotiga ruxsat bering

Tanqidiy fikrlash talabalarni butun umri davomida o'zlaricha fikrlashga tayyorlaydi. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlovchilar olomon bilan birga borish ehtimoli kamroq, chunki ular o'zlari uchun o'ylashadi.

Xulosa. Talabalarigizda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning eng yaxshi usuli bu ularga mantiqiy xatolarni tan olish, muammoning barcha tomonlarini o'rganish, ular iste'mol qiladigan ommaviy axborot vositalari haqida tanqidiy fikr yuritish va o'z g'oyalariga qarshi chiqishga yordam berishdir. Shuningdek, siz sinfda va uyda rivojlantirishni xohlagan ko'nikmalarigizni mustahkamlash uchun topshiriqlar, qog'ozlar va testlar haqida tez-tez fikr bildirish mumkin.

Adabiyotlar

1. Akramova Gulbahor Renatovna, Akramova Surayyo Renatovna. Developing critical thinking on elementary class pupils is the most important factor for preparing social relationship. JCR. 2020; 7(17): 438-448. doi:10.31838/jcr.07.17.61. <http://www.jcreview.com/?sec=cissue>.

2. Гулбахор Ренатовна Акрамова. Формирование критического и творческого мышления учащихся как условия продуктивной познавательной деятельности. 2016. Евразийский Союз Ученых. 6-3 (27). <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-kriticheskogo-i-tvorcheskogo-myshleniya-uchaschihsya-kak-usloviya-produktivnoy-poznavatelnoy-deyatelnosti>

3. Akramova G.R. Effective methods for developing critical thinking in students [Эффективные методы развития критического мышления у учащихся]. International scientific review of the problems of pedagogy and psychology (Boston, USA - 19 April, 2018). [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://scientificconference.com/h/sborniki/pedagogicheskie-nauki2/1078-effec/> (дата обращения: 20.01.2020).

4. Akramova G.R. Effective methods for developing critical thinking in students [Эффективные методы развития критического мышления у учащихся]. International scientific review of the problems of pedagogy and psychology (Boston, USA - 19 April, 2018). <https://scientificconference.com/h/sborniki/pedagogicheskie-nauki2/1078-effec/>

BOSHLANG'ICH SINFLARDA BADIY ASARLARNI O'RGATISHDA FANGA OID KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

*Abdullayeva Feruza Nurilloevna,
Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti.*

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy asar o'rgatishda o'quvchilarda shakllanadigan fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirish xususida so'z boradi. Butun dunyoda ta'lim sohasida turli xil islohotlar olib borilmoqda. O'z navbatida o'qish savodxonligi darslarida hukumatimiz tomonidan ta'lim sifatini oshirishda fanga oid kompetensiyalarni joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada shu haqda so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, ta'lim tizimi, badiiy asar, kompetensiya, pedagogik texnologiya, STEAM.

РАЗВИТИЕ НАУЧНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Абдуллаева Феруза Нурилловна,
доцент кафедры начального образования Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В статье речь идет о развитии предметных компетенций, формируемых у учащихся в ходе преподавания художественных произведений на занятиях родного языка и читательской грамотности. Во всем мире в сфере образования проводятся различные реформы. С другой стороны, введение нашим правительством научно-технических компетенций на уроках читательской грамотности также важно для повышения качества образования. Об этом мы поговорим в этой статье.

Ключевые слова: читательская грамотность, система образования, художественная деятельность, компетентность, педагогическая технология, STEAM.

DEVELOPMENT OF SCIENCE-RELATED COMPETENCES IN TEACHING WORKS OF ART IN PRIMARY GRADES

*Abdullaeva Feruza Nurilloevna,
Associate Professor of the Department of Primary Education of the Bukhara State Pedagogical Institute*

Abstract: The article deals with the development of subject-related competencies formed in students during the teaching of artistic works in the classes of mother tongue and reading literacy. Various reforms are being carried out in the field of education all over the world. On the other hand, the introduction of science-related competencies in reading literacy classes by our government is also important in improving the quality of education. We will talk about this in this article.

Key words: reading literacy, educational system, artistic work, competence, pedagogical technology, STEAM.

Yurtimizda turli islohotlar bo'lib o'tdi. Shular qatorida ta'lim tizimimizda ham turli o'zgarishlar bo'ldi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim darsliklarining yangilanishi va ularga yangicha yondashuv yangi ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ongi va dunyoqarashiga keng ta'sir qilishi aniq. Ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining o'zgarishi nafaqat o'quvchilar balki o'qituvchilar uchun ham katta izlanishlarga sabab bo'ldi. Hozirda biz o'qish savodxonligi darslarida berilgan badiiy asarlar ustida ishlash jarayonidamiz. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklarida badiiy asarlarga keng o'rin ajratilgan.

O'qish darslarining maqsadi o'qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlay oladigan, muntazam kitob o'qiydigan, o'qilgan kitobni to'g'ri baholay oladigan ongli kitobxonni

tarbiyalashdir.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba sinovdan o'tkazilib, 2026-2027-o'quv yiliga qadar to'liq amaliyotga joriy etilishi rejalashtirilgan Milliy o'quv dasturi asosida boshlang'ich sinflarning ham darsliklari to'liq yangilanmoqda. Avvalgi yillarda o'qitilgan "Ona tili" va "O'qish" fanlari, Ona tili, o'qish savodxonligi deya o'zgartirildi. Bu o'zgarishlar bejizga emas, albatta. Chunki rivojlangan davlatlarning taraqqiyoti faqat ta'limga kuchli e'tibor qaratilganligi uchun yuqorilab bormoqda.

Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshga tenglanadi. Naqsh mahorat bilan ishlanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Shu bois oilada farzand dunyoga kelishi hamonoq uning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Mamlakat kelajagining bunyodkori sanalmish yoshlarning ta'lim olishida darsliklarning xizmati beqiyos.

Badiiy asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi. Atoqli rus yozuvchisi V.A.Suxomlinskiy shunday deb yozgan edi: "Mening pedagogik e'tiqodimning haqiqatlaridan biri bu kitobning tarbiyaviy kuchiga cheksiz ishonchdir. Maktab – bu avvalo kitob. Kitob – kuchli qurol. Ilhomlantiruvchi kitob ko'pincha inson taqdirini hal qiladi. O'qish ta'limning ajoyib vositasi bo'lib xizmat qiladi: u ko'p narsani o'rganish, bilish va bajara olish istagini rivojlantiradi."

O'qish sinf bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. O'qish tanish bo'lmagan mualliflarning kitoblari muqovasi, titul varag'i, kirish so'zi, mundariyasi va suratlariga qarab asarning taxminiy mazmunini aniqlashga o'rgatish vazifasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Milliy o'quv dasturida asarni o'qish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan kompetensiyalar ko'rsatib o'tilgan. O'quvchilar o'qish savodxonligi darsida asarni quyidagilarga rioya qilib o'qisa anglash ko'nikmasini o'zida jamlaydi:

- matnlarni og'zaki talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda to'g'ri, ravon va ifodali o'qish;
- o'quv dasturida tavsiya qilingan matnlardagi so'z, so'z birikmasi, ibora va sodda gaplarning mohiyatini anglash;
- matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettirish, matn mazmuniga mos keladigan sarlavha topish;
- matnning asosiy mohiyatini aniqlay olish, matn yuzasidan savol, taklif va tavsiyalar bera olish;
- ertak, hikoya, rivoyatlarning asosiy g'oyasini, axloqiy jihatini aniqlash, ertak qahramonlari nutqini obrazga kirib o'qiy olish;
- tinglangan audiomaterialni og'zaki aytib bera olish va matn ko'rinishida yozib bera olish;
- tinglangan materialga mos rasm, chizma, belgi va shakllarni tanlash va izohlay olish.

O'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, nutq o'stirish, o'qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adabiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish hisoblanadi.

Bolalarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, ularning bog'lanishli nutqini o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltirish o'qish darslarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Ona tili va o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, eng yaxshi insholarni, taqrizlarni, yozuvchi haqida to'plangan ma'lumotlarni o'qitish, „Tez aytish“, „Topishmoqlar topish“, „Ifodali o'qish“, „Maqollar aytish musobaqasi“, „Ertak to'qish“, „Bilimdonlar anjumani“ kabi ko'rik-tanlovlar tashkil qilish, muayyan mavzular bo'yicha savol-javoblar uyushtirish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar o'tkazish, „Kitob haftaligi“ tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

O'qish darslari uzviy bog'liq ravishda uyushtiriladi. Sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarni o'qigan asarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. O'qish qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish - hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Sinfda o'qishni tashkil qilish o'qituvchining zimasiidagi vazifa hisoblanadi. Bunda o'quvchi uni bosqichlarga ajratib tashkil qiladi. Sinfda o'qish darslari o'quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o'qish malakalarini ham shakllantiradi.

“Kompetensiya” so'zi tarjimada “layoqatli”, “munosib bo'lmoq” kabi ma'nolarni anglatuvchi lotincha “competere” so'zi asosida hosil bo'lgan. “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Ushbu uslubiy qo'llanmani yozishdan maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish dan iborat. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida fanga oid kompetensiyalar quyidagilar:

FK1 – adabiy - nutqiy kompetensiya

Adabiy-nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, fikrni og'zaki bayon qilish, o'qish, fikrni yozma bayon qilish) hikmatli gap, hikoya, sher, va ixcha audio matnlarni tinglab tushuna oladi; ularni ongli, ifodali tog'ri o'qiy oladi, o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay oladi, talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila oladi, bo'g'in ko'chirish qoidalariga rioya qila oladi, o'zlashtirgan leksik birliklarni matnda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.

Nodavlat umumta'lim muassasalari, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarni nashr etish hamda boshqa xalq ta'limi sohalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ huquqiy baza rivojlantiriladi. Bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish reglamenti tasdiqlanishi lozim.

Yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarini, shu jumladan STEAM usulini bosqichma-bosqich joriy etish va takomillashtirish ko'zlangan. Xalq ta'limi muassasalari ilg'or jahon tajribasiga tayanib, ta'lim sifatini takomillashtiradilar.

Ta'lim sifatini oshirish uchun uning holati va rivojlanish tendentsiyalarini uzluksiz monitoringini olib borish va o'quvchilarning o'quv yutuqlarini ob'ektiv va adekvat baholashni amalga oshirish zarur. Bu ayniqsa, o'quvchilarning keyingi shaxsiy va fuqarolik rivojlanishi uchun zamin yaratadigan umumiy o'rta ta'lim darajasida muhim ahamiyatga ega.

Bolaning tafakkuri, ijodiylik, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi milliy o'quv dasturga ko'ra nashr qilingan o'qish savodxonligi darsliklarining joriy qilinishi o'quvchi va o'qituvchining faolligini oshirishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, o'quv topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajartirish va bajarishni nazarda tutadi.

Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni o'qitilishi o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan, diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi. O'quvchilarga badiiy asarlarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutq o'stirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva F. Ta'lim tizimi sifatini oshirishda pisa va timss kabi xalqaro tadqiqotlarning roli //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

2. Nurillayevna A. F. Teaching Scientific Popular Articles in Mother Nili and Reading Literacy Courses //European journal of innovation in nonformal education. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-50.

LOYIHALASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINI KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Almamatova Zebo Xudayberdiyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada loyihalashtirish texnologiyalari asosida bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini o‘ziga xos xususiyatlari jarayonining pedagogik asoslari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Loyihalashtirish, metodik, kasbiy, pedagogik texnologiyalar, loyihalashtirish texnologiyalari.

ТЕОРИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ДИЗАЙНЕРСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Алмаматова Зебо Худайбердиевна

Джизакский государственный педагогический университет, преподаватель, доктор философских наук (PhD) педагогических наук

Абстракт. В данной статье описаны педагогические основы процесса совершенствования профессионально-методической подготовки будущих учителей биологии на основе проектных технологий.

Ключевые слова. Проектирование, методические, профессиональные, педагогические технологии, технологии дизайна.

THEORY OF IMPROVING PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE BIOLOGY TEACHERS BASED ON DESIGN TECHNOLOGIES

Almamatova Zebo Khudaiberdiyevna

Jizzakh State Pedagogical University, teacher, doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences

Abstract. This article describes the pedagogical foundations of the process of improving the professional methodological training of future biology teachers based on design technologies.

Keywords. Designing, methodical, professional, pedagogical technologies, design technologies.

Kirish. Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish, biologiyaning nazariy asoslarini axborot texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida shakllantirish bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining nazariy bilimlaridan amaliyotda muvaffaqiyatli foydalana olish malakalarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Intellektual salohiyatli, kasbiy ko‘nikmalarga ega kompetentli poleantologik, zoogeografik, filogenetik yo‘nalishlarda mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish, o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.


Adabiyotlar. Respublikamizda biologiya va uni o‘qitish metodikasini pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish J.Azimov, J.O.Tolipova, O.Mavlonov, S.Dadayev, K.Saparov, U.Xurramov, F.Azimovlar tomonidan; oliy ta’lim muassasalarida pedagogik va axborot texnologiyalarini ta’lim amaliyotiga joriy etish A.Abduqodirov, N.N.Azixzodjayeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djurayev, Sh.S.Sharipov, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini orttirish va talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish R.G.Isyanov, N.A.Muslimov, O‘.Q.Tolipov, M.B. Urazova, M. Umarov, A.T.G‘ofurov, S.X.Sulliyeva, Q.G‘. Zokirov, S.Salimova, U.E Raxmatov, G.S.Ergasheva, M.A.Kuychiyevalar tadqiq etishgan.

MDH davlatlari olimlaridan G.S.Altshuller, A.V.Andriyenko, A.A.Verbiskiy, Ye.Yu. Girfanova, L.A.Kazanseva, A.A.Kirsanov, A.Leontyev, M.I.Maxmutov, P.I.Pidkasistiy, G.P.Polutina, L.M.Popovlar; talabalarning mustaqil izlanish ishlari jarayonida ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari V.I.Andreyev, Ye.A.Korchagin, Ye.A.Klimov, ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning tashkiliy tuzilishini aniqlashda asosiy yondashuvlar D.Sh. Galiullina, A.G.Musinlar tomonidan tatqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni bilan 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturida Respublikaning 367 ta umumta'lim maktabining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni "o'quv-laboratoriya jihozlari va boshqa inventarlar bilan ta'minlash" orqali "talabalarning ta'lim olishlari va o'qituvchilarning faoliyat yuritishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish"ga erishish zarur vazifa sifatida belgilandi.[4].

Dasturning bosh maqsadi ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida oliy ta'lim professor - o'qituvchilari zimmasiga tegishli o'quv fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini hozirgi davr talabi va ilm-fanning so'nggi yutuqlarini hisobga olgan holda yangilab borish, ta'lim jarayoniga innovatsiya va ta'lim texnologiyalarini joriy etishni taqozo etmoqda.

Biologiya o'qitish metodikasi ta'limi yo'nalishi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni tashkil etish va amalga oshirishning mazmuni malaka talablari, o'quv reja, namunaviy o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar hamda tavsiyanomalarda o'z ifodasini topgan. Malaka talablari ta'limning zarur va yetarli darajasi hamda o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilab beradi. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni malaka talablari belgilab beradi. Shuningdek, Malaka talablari – nazorat vositasi sifatida ta'lim muassasasining tayyorlov yo'nalishlari sharoitlarini belgilab beruvchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Malaka talablarining joriy etilishi natijasida Davlat buyurtmachi sifatida ta'lim muassasalari oldiga vazifa qo'yadi. Ta'lim muassasasi esa ana shu vazifalardan kelib chiqqan holda, qanday bilim, ko'nikma va malakalarni berishi lozimligini va uni qanday amalga oshirish chora-tadbirlarini bosqichma-bosqich belgilab oladi. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, oliy ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim mazmunini ifodalovchi Malaka talablari quyidagilarni belgilab bergan(1.1.1-rasm):




1-rasm. Malaka talablarining asosiy qoidalari.

Tahlil va natijalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundayki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish

milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lim samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiiq etishni yanada jadallashtirish, professor-o'qituvchilarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lim tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi.

Shu o'rinda, o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning zaruriy shartlarini keltirib o'tamiz(2-rasm):




2-rasm. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning zaruriy shartlari

Bunday ta'sirlar bugungi kun darslarini zamon talabi darajasida o'tishni talab qiladi.


“Biologiya o'qitish metodikasi” jumladan, umurtqali hayvonlar zoologiyasi adabiyotlarida ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab talabaning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iborat. fani o'qitish metodikasini takomillashtirishning psixologik-pedagogik asoslari o'qitishning ilmiyligini ta'minlash, talabalarning bilishga oid faoliyatini sezilarli ravishda kuchaytirish, ularning bilim sifatini oshirishga yordam beruvchi va fikrlashning zamonaviy usulini samarali rivojlantirishga hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga imkon beruvchi didaktik tamoyil sifatida namoyon bo'lishi haqidagi nazariyani takomillashtirishni qabul qilamiz.

Fanni o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyadan foydalanib, mavzular bo'yicha talabalarga topshiriqlardan misollar keltirib o'tamiz(2-rasm, 3-rasm).

Berilga sxemada xatolikni toping.



2-rasm. Berilgan sxemadagi xatoliklarni toping topshiriqni amalga oshirish.



3-rasm. Hayvonlarni nafas olish jarayonini takrorlash bo'yicha topshiriq.

PISA – это международная программа оценки уровня образования учащихся, проводимая Организацией экономического сотрудничества и развития (ОЭСР) раз в три года. Она оценивает знания и навыки учащихся в области чтения, математики и естественных наук. Участие в PISA позволяет странам сравниться с мировым уровнем и выявить области, в которых необходимо сделать улучшения. В целях определения приоритетных направлений системного реформирования общего среднего и внешкольного образования в Республике Узбекистан, поднятия на качественно новый уровень духовно-нравственного и интеллектуального развития подрастающего молодого поколения, внедрения в учебно-воспитательный процесс инновационных форм и методов обучения, а также в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 5 сентября 2018 года № УП-5538 «О дополнительных мерах по совершенствованию системы управления народным образованием» была утверждена концепция о вхождении Республики Узбекистан к 2030 году в ряд первых 30 ведущих стран мира по рейтингу программы оценки учащихся Международного уровня PISA [6].

PISA – это международное исследование, которое оценивает способности учащихся в применении знаний и навыков, а также их умение анализировать, рассуждать и коммуницировать. Оно не пропагандирует какую-либо конкретную учебную программу и не стремится найти общие знаменатели. В 2018 году PISA сосредоточилась на оценке навыков чтения, которые считаются важными для участия в обществах, основанных на знаниях и цифровых технологиях.

Главное преимущество PISA заключается в его всемирном охвате и регулярном проведении. Более 90 стран и экономик принимают участие в этом исследовании, а его проведение каждые три года позволяет странам и экономикам отслеживать свой прогресс в достижении образовательных целей. PISA является единственным международным исследованием, которое оценивает знания и навыки 15-летних учащихся.

PISA также уникальна, потому что она помогает отвечать на вопросы государственной политики в области образования. Она предоставляет информацию о том, готовят ли школы молодежь к жизни взрослых, эффективны ли различные методы обучения и как школы могут помочь учащимся из малообеспеченных семей или иммигрантов.

PISA также оценивает грамотность, не сосредотачиваясь на конкретных учебных программах. Она измеряет способность учащихся применять знания и навыки в различных предметных областях, а также их способность анализировать, рассуждать и решать проблемы.

Наконец, PISA также изучает обучение на протяжении всей жизни. Учащиеся не могут выучить все, что им нужно знать в школе, поэтому важно, чтобы они развивали понимание того, как и почему они учатся. PISA оценивает не только успеваемость учащихся, но и их мотивацию, убеждения о себе и стратегии обучения [10].

Цель. Выявить положительные качества программы PISA для системы образования в Республики Узбекистан.

Методы исследования – является анализ и статистический обзор литературных данных.

Результаты и обсуждение. В нашей стране развитие системы образования признано важной государственной политикой. Реформирование этой ключевой сферы, которая определяет будущее нашего государства, осуществляется поэтапно. Одно из семи приоритетных направлений Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы связано с развитием человеческого капитала. Цели 43 и 44 стратегии включают в себя улучшение качества образования в школах и подготовку педагогических кадров, соответствующих международным стандартам знаний и квалификации [7]. Республика Узбекистан не является участником исследования PISA. Однако, в последние годы наша страна активно работает над совершенствованием своей образовательной системы. В рамках реформ образования в стране вводятся новые методы обучения, улучшается качество преподавания и оценки знаний учащихся. Существенной составляющей реформы является повышение уровня компетенций учащихся и подготовка их к успешной интеграции в современное общество [8].

Учащиеся из разных социально-экономических слоев часто переживают разный переход от учебы к работе. Студенты из более обеспеченных слоев населения, как правило, начинают работать на менее интенсивной работе, либо во время среднего, либо после среднего образования, что дает им больше возможностей уделять приоритетное внимание успеваемости и успеваемости. Напротив, учащиеся из неблагополучных семей чаще начинают работать в более раннем возрасте и с большей интенсивностью, что может в меньшей степени способствовать достижению целей высшего образования и карьеры в долгосрочной перспективе [9]. Молодежь, находящаяся в неблагоприятном положении, с большей вероятностью согласится на работу более низкого качества – с точки зрения оплаты труда, гарантий занятости и развития карьеры – что подвергает их более высокому риску периодов безработицы и бездействия. Данные о результатах ранней карьеры показывают заметные различия в зависимости от уровня образования родителей.

PISA фокусируется на оценке успеваемости учащихся по чтению, математике и естественным наукам, поскольку они имеют основополагающее значение для непрерывного образования учащегося. PISA также собирает ценную информацию об отношении и мотивации учащихся и официально оценивает такие навыки, как совместное решение проблем и глобальная компетентность. Он также изучает возможности оценки других важных навыков, связанных, например, с творческим мышлением.

Присоединение Узбекистана к программе PISA, по нашему мнению, может принести следующие преимущества:

1. Объективная оценка системы образования: мы сможем получить объективную оценку своей системы образования с помощью международно признанного инструмента. Результаты PISA позволят определить сильные и слабые стороны системы образования и выявить области, которые требуют дальнейшего совершенствования.

2. Сравнение с мировыми стандартами: Республика Узбекистан сможет сравнить свои результаты с результатами других стран, участвующих в программе. Это позволит оценить уровень образования учащихся в стране по сравнению с мировыми стандартами и принять соответствующие решения.

3. Улучшение качества образования: участие в программе может стать стимулом для Узбекистана улучшения качества своей системы образования. Это способствует улучшению качества образования и подготовки учащихся к глобальным вызовам.

4. Международное признание: участие в программе PISA позволит Узбекистану получить международное признание в области образования. Это может привлечь внимание международных организаций и партнеров, а также способствовать привлечению финансирования и экспертной помощи для развития системы образования.

5. Улучшение международного рейтинга: участие в программе PISA и достижение хороших результатов могут помочь Узбекистану улучшить свой международный рейтинг в области образования. Это может привлечь больше студентов и исследователей из других стран, способствуя развитию образовательного сектора страны

6. Кроме того, PISA способствует повышению осведомленности об образовании как внутри страны, так и за ее пределами. Участие в программе дает возможность обмениваться опытом с другими участниками и вносить свой вклад в международное образовательное сообщество.

Заключение. Таким образом мы предполагаем, что программа PISA представляет

собой ценный инструмент для оценки и улучшения системы образования как в Республике Узбекистане, так и во всем мире. Его международная природа, широкий спектр измерений, аналитические отчеты и стимулирование исследований и инноваций делают его незаменимым механизмом для стран, стремящихся улучшить свои образовательные системы. PISA помогает выявить свои сильные и слабые стороны, а также разработать стратегии для повышения качества образования и подготовки учащихся к современным вызовам и требованиям. Участие в PISA позволяет стране получить объективную оценку, сравнить свои результаты с мировыми стандартами и выявить области, требующие улучшений. Это может способствовать повышению качества образования, привлечению международного признания и улучшению международного рейтинга Узбекистана в области образования.

Использованная литература

1. Barro, R. and J. Lee (2013), "A new data set of educational attainment in the world, 1950–2010", *Journal of Development Economics*, Vol. 104, pp. 184-198, <http://dx.doi.org/10.1016/J.JDEVECO.2012.10.001>.
2. Ganzeboom, H. and D. Treiman (2010), *Occupational Status Measures for the New International Standard Classification of Occupations ISCO-08; With a Discussion of the New Classifications*, <http://www.harryganzeboom.nl/isol/isol2010c2-ganzeboom.pdf> (accessed on 02 August 2018). [9]
3. Ganzeboom, H. and D. Treiman (2003), "Three Internationally Standardised Measures for Comparative Research on Occupational Status", in *Advances in Cross-National Comparison*, Springer US, Boston, MA, http://dx.doi.org/10.1007/978-1-4419-9186-7_9.
4. Schleicher Andreas. PISA 2018: Insights and Interpretations (англ.). OECD (6 декабря 2019). Дата обращения: 6 декабря 2019. Архивировано 23 декабря 2021 года.
5. Owens, J. and D. Massey (2011), "Stereotype threat and college academic performance: A latent variables approach", *Social Science Research*, Vol. 40/1, pp. 150-166,
6. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. T. 2019 yil 29 aprel. (<https://lex.uz/docs/4312783>).
7. Реформы в образовании - шаг в будущее страны. 7 апреля 2022. "Янги Ўзбекистон". (<https://yuz.uz/ru/news/reform-v-obrazovanii---shag-v-buduee-stran>).
8. PISA 2025 SCIENCE FRAMEWORK (<https://pisa-framework.oecd.org/science-2025/>).
9. Mortimer, J. et al. (2008), "Tracing the Timing of "Career" Acquisition in a Contemporary Youth Cohort", *Work and Occupations*, Vol. 35/1, pp. 44-84, <http://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed/18542713> (accessed on 14 February 2018)
10. ОЭСР (2018), *Справедливость в образовании: разрушая барьеры для социальной мобильности*, PISA, Издательство ОЭСР, Париж, <https://doi.org/10.1787/9789264073234-en>.
11. Stirling, S. and H. Emery (2016), *A Whole School Framework for Emotional Well-being and Mental Health*, National Children's Bureau, London, <https://www.ncb.org.uk/sites/default/files/field/attachment/NCB%20School%20Well%20Being%20Framework%20Leaders%20Resources%20FINAL.pdf> (accessed on 22 May 2018). [67]
12. Torche, F. (2015), "Analyses of Intergenerational Mobility", *The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science*, Vol. 657/1, pp. 37-62, <https://doi.org/10.1177/0002716214547476>. [11]
13. O'Reilly, F. et al. (2017), *Behavioural Insights for Education: A practical guide for parents, teachers and school leaders*, Pearson, London, <http://38r8om2xjhhl25mw24492dir.wpengine.netdna-cdn.com/wp-content/uploads/2017/06/BI-for-Education-A-Practical-Guide-for-Parents-Teachers-and-School-Leaders.pdf> (accessed on 22 May 2018).

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA AYOL OBRAZINING SEMANTIK JIHATDAN IFODALANISHI

Djumaniyazova Zilola,
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Ilmiy rahbar: O'zDJTU f.f.d., prof. R.U. Madjidova

Annotatsiya: Maqollarni qiyoslashda ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalib o'tish joiz. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi antropotsentrik maqollarning o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lgan xalqning o'z madaniyati va mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz, shuningdek, maqolaning mavzusidan uzoqlashmagan holda maqollardagi gender masalasini ham muhokama qilamiz. Shu bilan bir qatorda ingliz va o'zbek tillaridagi antropotsentrik maqollarda ayol tasviri semantik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maqol, ayol, xotin, xarakter, folklor, milliy paremiologiya, donolar gapi, hikmatli so'zlar, semantik tahlil.

СЕМАНТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В ПОСЛОВИЦАХ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Джуманиязова Зилола,
соискатель Ургенчского государственного университета
Научный руководитель: д.ф.н., профессор Р.У. Маджидова (УзГУМЯ)

Аннотация: При сравнении пословиц разноструктурных языков необходимо обратить внимание на лингвокультурологический аспект, посредством чего можно показать сходства и различия антропоцентрических пословиц в изучаемых языках, культуру и менталитет людей, владеющих этими языками, а также обратить внимание на выражение пола в антропоцентрических пословицах, не отходя от темы статьи. Кроме того, в статье образ женщины в английских и узбекских антропоцентрических пословицах анализируется в семантическом аспекте.

Ключевые слова: пословица, женщина, персонаж, фольклор, народная паремология, семантика, семантический анализ.

SEMANTIC EXPRESSION OF WOMEN'S IMAGE IN PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Djumaniyazova Zilola,
researcher of Urgench State University
Scientific supervisor: UzSWLU DcS, prof. R.U. Madjidova

Abstract: When comparing proverbs, it is permissible to dwell on their linguistic and cultural aspects. Through this, we will try to show the similarities and differences of anthropocentric proverbs in the languages we are studying, the culture and mentality of the people who own this language, and we will also discuss the issue of gender in proverbs without moving away from the topic of the article. In addition, the image of a woman in English and Uzbek anthropocentric proverbs were analyzed semantically.

Key words: proverb, woman, wife, character, folklore, national paremiology, words of wisdom, semantic analysis.

Zamonaviy tilshunoslikda maqollar ustida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, shu tufayli maqollarning har taraflama yangidan yangi jihatlarini o'rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maqollarni qiyoslashda ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalib o'tish joiz. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi antropotsentrik maqollarning o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lgan xalqning o'z madaniyati va mentalitetini ko'rsata olish mumkin.

Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunosligida lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida ishlanilyapti.

Demak, xalqning tilida mavjud bo'lgan har bir so'z tilda ifodalanar ekan, ma'lum xalqning

maqollari o'sha xalq tilida keltirilgan so'zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o'ziga xos xususiyatlari bilan, yasash usuli bilangina ifodalanadi.

Mazkur maqolada ayollar haqidagi maqollarning semantik xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Shuningdek, ingliz va o'zbek tilidagi ayollarga oid maqollarda gender munosabati tadqiq qilinadi.

Quyidagi jadvalda, tahlil qilmoqchi bo'lgan toifalarimiz ko'rsatilgan:

1-jadval

Tematik toifalar	Ijobiy	Salbiy
Go'zallik	+	
Yosh		-
Oilaviy munosabatlar	+	
Boshqalar		-

Birinchi toifamiz bo'lgan, o'zbek tilidagi maqollarda go'zallik masalasi ko'pincha ayollar ishtirokidagi antropotsentrik maqollarda uchraydi. Bunday maqollarda "noz", "suluv", "husn" va "sunbul" kabi so'zlar keng qo'llaniladi. "Ayolning nozidan qo'rq, ahmoqning so'zidan", "Ayolning sunbuli-yigitning dili".

Shuningdek, yosh masalasi ham asosan ayollar ishtirokidagi antroposentrik maqollardagi gender munosabatini salbiy jihatdan ko'rsatadi: "Er qarisa erki ketar, xotin qarisa ko'rki", "It qarisa tozi bo'lar, qiz qarisa qozi".

Bundan tashqari, turmush masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, yuqoridagi o'zbek tilidagi antroposentrik maqollar kabi ayollarga nisbatan gender munosabatini negativ yo'nalishda ifodalaydi. Buni quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz: "Bitta ammam bor, qirqta pochcham bor".

Yuqoridagi maqol biror bir hali kelmagan, lekin kelish ehtimoli bo'lgan mablag'ning avvaldan turli maqsadlar uchun ishlatishga mo'ljallanish holatida ishlatiladi. Lekin ushbu maqol bir ko'rishdan xiyonatkorlik ma'nosini ham berishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, ayollar ishtirokidagi maqollar ko'pincha salbiy holatlar uchun ishlatiladi.

Insoniyatning eng katta boyligi bo'lmish farzand masalasi ham, barcha xalqlar madaniyatida bo'lgani kabi o'zbek xalq maqollarida ham o'z aksini topgan. Bunda farzandsizlik keskin qoralanadi va ayb asosan ayol genderiga yuklanadi. Bularning barchasi salbiy ma'nodadir. Quyidagi maqollar misolida fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz: "Bolali xotin-gul xotin, bolasiz xotin-tul xotin", "Bolasiz xotin sumakka to'yimas".

Boshqa xalqlardan farqli o'laroq, o'zbek xalq maqollarida antroposentrik yo'nalishdagi maqollarda kelin masalasi alohida o'rin tutadi. Ularning ko'pchiligida ayol genderiga nisbatan, ayniqsa kelin genderiga munosabat salbiy jihatlar bilan bog'liq. Masalan: "Kelin qiz bo'lmas, kuyov o'g'il", "Kelin qildim deb kerilma, ish buyursa erinma", "Kelin yomon, nevara shirin", "Kelining yaxshi bo'lsa o'g'lingdan ko'r, O'g'ling yomon bo'lsa kelinigdan", "Kelinning so'zi ketmondan botar, Bolaning so'zi botmondan botar".

Dunyodagi barcha xalqlar paremiologiyasida ona haqidagi maqollar alohida o'rin egallaydi. Onaning ulug'vorligi, zahmatkashligi va mehribonligi haqidagi maqollarni deyarli har bir xalq maqollarida uchratishimiz mumkin. O'zbek tilidagi antroposentrik maqollarda ham bu jihatlar go'zal sifatlar bilan qayd etilgan. Buni quyidagi maqollar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin: "Onangni quyosh bilsang, otangni oy bil", "Onali yetim-gul yetim, Onasiz yetim-shum yetim", "Ona-daraxt, bola-meva", "Ona-mehribon, ota-g'amguzor", "Jannat-onalar oyog'i ostida".

Shuningdek, onasizlik yoki o'gay ona masalalari keskin tanqid qilinadi. Masalan: "Onang o'gay bo'lsa, otang o'zingniki bo'lmas", "Onasiz kelin yuvvosh, onali kelin-bebosh", "Onasi yalamaganga, otasi qaramas", "Onali kelin-qarqara kelin, Onasiz kelin-tasqara kelin".

Ayol genderiga nisbatan "ona" munosabatida bo'lishda davom etar ekanmiz, o'zbek xalq antroposentrik yo'nalishdagi maqollarda onaning farzandni ko'proq o'ylashi, farzandda esa bunday munosabat yo'qligini bir nechta maqollar misolida ham ko'rishimiz mumkin: "Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada", "Men kuyarman bolamga, bolam kuyar bolasiga".

O'zbek xalq maqollaridagi antropotsentrik yo'nalishdagi maqollarda gender talqinini davom ettirar ekanmiz, ayol genderiga nisbatan "qiz bola" sifatida murojaat etar ekanmiz,

uning tarbiyasi, uzatilishi va to'yi masalalariga o'zbek xalq maqollarida jiddiy yondashiladi. Misol uchun quyidagi maqollarga qaraydigan bo'lsak, buni ko'rishimiz mumkin: "Qiz meniki, baxti-o'zganiki", "Qiz puli-sut puli", "Qiz puli-tuz puli", "Qiz saqlaguncha, bir siqim tuz saqla", "Qiz saqlading-o't saqlading", "Qiz uyning cho'risi, ham o'g'risi", "Qizim, qizim-qiz kishi, Qizimga kelar yuz kishi", "Qizli kishi qir oshar", "Qizing o'ssa, uyga yut kelar, O'g'ling o'ssa, uyga qut kelar", "Qizli uy-karvonsaroy", "Qizi borning-nozi bor", "Qizli uy-qiliqli uy", "Qizli uyning-tili biyron, Sovchilarning tili-tiyron", "Qizning bo'yi yetti, boshingga yov yetti".

Yuqoridagi barcha maqollardan ko'rishimiz mumkinki ayol gender sifatida barcha xalqlarda bo'lgani kabi ona o'zbek xalq antroposentrik maqollarida ham ona, qiz, xotin va kelin misolida ko'riladi. Shuningdek, uning o'ylashi, aql va uy-ro'zg'ordagi roli ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Olib borgan tahlillarimiz davomida ingliz tilida genderlik aspekti frazeologizmlarning asosan mazmun planida yorqin ifodalanishi aniqlandi.

Masalan, A.V. Kuninning "Англо-русский фразеологический словарь" lug'atida 25000 ga yaqin frazeologizmlardan 331 tasi ayollik tushunchasi bilan bog'liqligi aniqlandi.

Ushbu lug'atda erkaklik olami tasvirini ifodalovchi frazeologizmlar 292 tani tashkil etdi. Ularda gender komponentiga ega bo'lgan so'zlarning takrorlanish chastotasi quyidagicha:

Oxford Soncise Dictionary of Proverbs (2003) lug'atida 2100 ga yaqin maqollardan 135 tasi ayollik va erkaklik olami bilan bog'liq maqollar bo'lib, ularda gender ko'rsatkichga ega bo'lgan so'zlarning ifoda planida takrorlanish chastotasi quyidagi jadvalda keltiriladi:

2-jadval

Woman	8	Aunt	0	Father	8	Sun	5
Girl	0	Grandmother	1	Husband	2	Guy	0
Lady	4	Sister	0	Boy	8	Man	9
Daughter	4	Wife	6	Uncle	0		

Shuningdek, jins nominatsiyasi metafora orqali ifodalangan frazeologizmlar ham tanlab olindi: "There's many a good tune played on an old fiddle – eski skripkada ko'plab yaxshi kuylarni chalish mumkin" (ishq-muhabbati qaynab turgan yosh bo'lmagan ayol haqida).

Tadqiqotimizda ingliz va o'zbek tillari frazeologizmlari va paremiyalari quyidagi semantik jihatdan ajratilgan konseptual qatlamlarda tahlil etildi: erkak va ayollarning ijtimoiy xususiyatlarini (ijtimoiy maqomi, ijtimoiy faoliyati) ifodalovchi konseptual qatlam, ayol va erkaklarning psixologik xususiyatlarini (fe'l-atvori, xulqi) ifodalovchi konseptual qatlam, ayol va erkaklarning fiziologik xususiyatlarini (tashqi ko'rinish) ifodalovchi konseptual qatlam.

Insonning ijtimoiy maqomi uning demografik belgilari bilan birgalikda jamiyatda tutgan o'rni bilan ham belgilanadi, ya'ni iyerarxik dunyoda shaxsning ijtimoiy faoliyati, oilaviy va ijtimoiy maqomi kabi belgilarning o'zaro munosabatlari ko'rib chiqildi.

Keltirilgan misollar turmushning afzalligini tasvirlasa, har ikki tilda buning aksini ham kuzatish mumkin: "Umringdan uch kun qolsa eshak ol, bir kun qolsa xotin ol", "If you would be happy for a week take a wife", "If you would be happy for a month kill a pig", "If you would be happy all your life plant a garden"; "Bir haftalik baxt uchun xotin ol, bir oylik baxt uchun cho'chqa so'y, bir umrlik baxt uchun bog' yarat", "First thrive and then wife" – "Avval mablag' to'pla, so'ng uylan".

Yuqoridagi maqollarni quyidagi birgina misol bilan izohlash mumkin: Umr savdosi – qiyin savdo. Maqollarda ayolning eriga bog'liqligi, uning oldida ojizligini tasvirlovchi frazeologik birliklar ham yo'q emas: "a clinging vine" – "zaif, yordamga muhtoj ayol"; "the cobblers wife is the worst shod" – "etikdo'z xotinining oyoq kiyimi hammanikidan eng yomon".

Oilaviy munosabatlarga qaytar ekanmiz, quyidagi leksemalarni tahlil etish maqsadga muvofiq: ota – ona; o'g'il – qiz; aka – singil; tog'a – xola; qaynona – qaynota; kuyov – kelin; quda; o'ynash va h.k.

"O'g'il" va "qiz" leksemalari frazeologik birliklarda quyidagicha tasvirlanadi. O'g'il: "the prodigal son" – "noqobil o'g'il", "oqpadar"; "son of a bitch" – "ablah, yaramas". Qiz: "a daughter of the horse leech" – "(qonmas) to'ymas tovlamachi". Biroq qiz o'g'il bilan qiyoslanganda qizning ijobiy baholanishi kuzatildi: "My son is my son till he gets him a wife, but my daughter's my daughter all the days of her life" – "O'g'il xotin olguncha o'g'il, qiz esa

bir umrga qiz”.

O’zbek tilida esa bu leksemalar qiyoslanganda ularning har ikkisi ijobiy tasvirlanadi: “O’g’il uyning bulbuli, qiz – uyning guli”; “O’g’illi uy – farishta, qizli uy – sarishta”.

O’zbek tilida qiz – ota-onaning joni, davlati, o’g’il esa – faxri, avlodini davom ettiruvchisi va aynan shuning uchun ham u qizga nisbatan zoriqib kutiladi: “Qiyshiq bo’lsa ham yo’l yaxshi, Yomon bo’lsa ham o’g’il”.

Leksikografik manbalarni kuzatuv davomida farzand; bola; chaqaloq; child; baby; infant komponentlari qatnashgan frazeologik birliklarga ham duch keldik. Tahlil qilinayotgan tillarda bu otlar aynan bir aniq jinsga bog’lanmagan, ya’ni o’g’ilga nisbatan ham qizga nisbatan ham qo’llanilishi mumkin.

Odatda, xalqimizda singilni e’zozlashni o’g’ilga yoshligidan uqtirib kelinadi:

“Onangni kaftingda tutsang,

Onangni sirtida saqlasang,

Singlingni boshingda tut.

Singlingni kaftda saqla”.

Ayolning oilada tutgan ijtimoiy maqomlaridan biri “kelin”ga o’zbek tilida ijobiy va ba’zan juda salbiy baho beriladi.

Ingliz tilida ayolning ijtimoiy maqomi erkaklarnikiga nisbatan yorqin ifodalanmagan. Balki erkaklar ayol kishini mas’uliyatli ishlar, ilm-fan bilan shug’ullanishga qobiliyatli bo’lmagan inson sifatida tasavvur qilib, uni jiddiy ishlar bilan shug’ullanishiga to’sqinlik qilganlar. Shuning uchun, ularga nisbatan muhim kasblarni ifodalovchi til birliklari qo’llanilmagan. O’zbek tilida esa ayolning ijtimoiy maqomi asosan “uy bekasi”, “ona”, “xotin”, “qiz”, “kelin” timsollarida namoyon bo’ladi. Ammo “rahbar ayol”, “fan arbobi” kabi maqomlarining mavjud emasligi, ayollarning qadr – qimmatini tushirmaydi, chunki o’zbek erkaklari ayollarni zaif jins sifatida asrab-avaylab, e’zozlab yurishni xohlaydilar. Ularga, avvalo, saranjom – sarishtali uy bekasi, maslahatchi turmush o’rtog’i, mehribon ona kerak: “Xotining yaxshi bo’lsa, bu dunyoning charog’i”.

Mazkur maqola yuzasidan xulosa qiladigan bo’lsak, ayollarga bo’lgan ijobiy munosabatning aks etishi ingliz xalq antroposentrik maqollarida yaqqolroq ko’zga tashlanadi. Ya’ni ingliz xalq madaniyatida ayol genderiga bo’lgan munosabat o’zbek xalqinikidan birmuncha yuqoriroqdir. Ingliz xalq maqollarida ayolning donoligi-yu makkorligi, uning nutqidagi bahs munozaralarga sabab bo’lib kelgan.

Ingliz va o’zbek maqollarining gender tahlili natijalariga ko’ra shu narsa ma’lum bo’ldiki, har ikki tilda ham ayolning salbiy ifodasi uning ijobiy ifodasidan ustun turadi. Bu jamiyat a’zolarining salbiy xususiyatga nisbatan munosabatini belgilaydigan alomatdir.

O’zbek tilida maqollarning ko’p qismini xalq ijodiyoti bilan bog’liq bo’lgan maqollar tashkil etsa, ingliz tilida quyi martaba vakillariga nisbatan qaratilgan yo’nalish hukmronidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

Panos Karagiorgos. Greek and English Proverb // Cambridge Scholars Publishing Lady Stephenson Library. - Newcastle upon Tyne, UK, 2015.

Meider W, Dundes A. The Wisdom of Many: Essays on the Proverb. – New York, Garland. 1995.

Schipper M. Never marry a woman with big feet: Women in proverbs from around the world. – Amsterdam: Amsterdam University Press. 2010.

Shaimardanova, M.R. Akhmetova L.A. The Representation of Women in English and Russian Paroemiological Picture of the World // International Journal of Environmental and Science education. – Russia.

Dushatova, S. (2022). “Evfemizm tushunchasi tahlili: youth, science, education: topical issues, achievements and innovations” 1(3), 159-163.

Soxibovna, M.G. (2022, August). “The role of linvo-cultureme in the study of national and cultural features of speech units. in international conference: problems and scientific solutions”. (Vol. 1, No. 3, pp. 48-52).

Ganieva, M.S. (2021). “Socio-philosophical aspects of the study of the issue of gender and entrepreneurial woman in a new society”. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 441-445.

Ганиев, Б.С., & Ганиева, М.С. (2020). “Семья как важный социальный фактор формирования предпринимательских навыков у молодежи” (Опыт Узбекистана). In Проблемы социальной психологии и социальной работы (pp. 25-27).

O'ZBEK OILALARIDA MILLIY AN'ANALARNING FARZAND TARBIYASIGA TA'SIRI

Davronova Dildora Saidovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida dotsenti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)

Annotatsiya. Maqolada milliy an'analarning farzand tarbiyasiga ta'siri, oiladagi ma'naviy muhitning barqarorligi, tarixiy sinovlarga bardosh bergan oilaviy qadriyatlarni kelajak avlodga bekatu ko'st etkazish jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biri ekanligi va uning o'ziga xos xususiyatlari, mazmunan uning ustuvor yo'nalishlari, o'zbek oilasi a'zolari kompetensiyasi komponentlari, tamoyillari, manbalari, samarali shakl va metodlari, salbiy ta'sir etadigan holatlar va ularning oqibatlarini haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar o'z aksini topgan.

Tayanch so'zlar: oila, omillar, farzand tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy asoslar, milliy qadriyatlari, an'analari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ma'naviy muhit, tamoyillar, ustuvor yo'nalishlar, manbalar, ma'naviy-axloqiy mezonlar, innovatsion tarbiya texnologiyalari.

ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Давронова Дилдора Саидовна

Доцент кафедры «Педагогика и психологии» Узбекского государственного университета мировых языков

Доктор философии по педагогическим наукам (Doctor of Philosophy)

Аннотация. В статье отражены национальных традиций на воспитание детей, стабильность духовной среды в семье, плавная передача следующим поколениям семейных ценностей, выдержавших исторические испытания, является одной из важнейших задач общества. и ее особенности с точки зрения ее приоритетности. Отражены научно-теоретические взгляды о компонентах, принципах, источниках, эффективных формах и методах компетентности членов узбекской семьи, ситуациях негативного воздействия и их последствиях.

Ключевые слова: семья, факторы, воспитание детей, духовно-нравственные основы, национальные ценности, традиции, духовно-нравственные ценности, духовная среда, принципы, приоритеты, источники, духовно-этические критерии, инновационные образовательные технологии.

THE INFLUENCE OF NATIONAL TRADITIONS ON THE EDUCATION OF CHILDREN IN UZBEK FAMILIES

Davronova Dildora Saidovna

Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of World Languages Doctor of Philosophy in Educational Sciences (Doctor of Philosophy)

Annotation. The article reflects national traditions for raising children, the stability of the spiritual environment in the family, the smooth transfer to the next generations of family values that have withstood historical trials, which is one of the most important tasks of society. and its features in terms of its priority. Scientific and theoretical views on the components, principles, sources, effective forms and methods of competence of Uzbek family members, situations of negative impact and their consequences are reflected.

Key words: family, factors, raising children, spiritual and moral foundations, national values, traditions, spiritual and moral values, spiritual environment, principles, priorities, sources, spiritual and ethical criteria, innovative educational technologies.

Yosh avlodni milliy va umuminsoniy yuksak madaniy va ma'naviy an'ana va qadriyatlar asosida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Oila azal-azaldan muqaddas

qo'rg'on sanalgan. Inson oilada dunyoga keladi, ulg'ayib kamol topadi. Eng avvalo oila mustahkam, tinch bo'lsa jamiyat barqaror bo'ladi. Unib o'sayotgan farzandlar har tomonlama barkamol bo'lishiga imkon yaratiladi. Oila ma'naviy muhiti milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un va hamohang olib boriladi.

O'zbek xalqi azal azaldan milliy qadriyatlari, an'alarini, o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaga tayangan. Oiladagi ma'naviy muhitning barqarorligi, tarixiy sinovlarga bardosh bergan oilaviy qadriyatlarni kelajak avlodga bekamu ko'st etkazish jamiyatning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev, "Oila –kichik vatan, oila tinch, baxtli bo'lsa – vatan tinch bo'ladi" - deb bejiz aytmagan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan. Bosh Qomusimizning 76-78-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir", "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" deb ta'kidlangan. Shundan anglashimiz mumkinki, oilaning mustahkamligi, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning qaror topishini ta'minlash davlatimizning asosiy hujjatida ham o'z aksini topgan.[7]

Shuningdek, tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, o'zbek oilalarining o'ziga xos andozasi mavjud bo'lib, u shaklan va mazmunan ko'pqirrali va keng qamrovli bo'lishi tabiiydir. O'zbekistonda "Uchinchi Renessans davri"ning shiddat bilan boshlanishi yosh avlodni milliy an'analarning mazmun mohiyatini teran anglagan holda quyidagi ustuvor yo'nalishlarga ham ahamiyat qaratib tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda zamonaviylir va milliylik nuqtai nazaridan yondashmoq lozimligini ko'rsatdi:

- oilaning jamiyat va davlat himoyasida ekanligi, uning milliy asoslari;
- oilaning milliy an'analarga sodiqligi;
- oilaning ijtimoiy jihatdan barqarorligi;
- oilaning axloqiy-ma'naviy jihatdan shakllanganligi;
- oilaning to'liq bo'lishi;
- oilaning ta'limiy jihatdan qoniqarli darajasi;
- oilaning demografik jihatdan mustahkamligi;
- oilaning ma'naviy va jismoniy salomatligi. [6]

Oila har bir insonning eng muhim boyliklaridan biri sifatida e'zozlanib kelinadi, chunki mustahkam oila negizida sog'lom jamiyat va mustahkam davlat shakllanadi. Bilamizki, oilada insonning axloqiy tarbiyasi va madaniy rivojlanishining tamal toshlari qo'yiladi, bu esa keyinchalik uning xulq-atvor normalarini va ichki dunyosini boyitishga asos bo'ladi.

Ijtimoiy nuqtai nazardan qaraganda oila deganda nikoh, qarindoshlik, onalik va otalik instituti, mulqchilik, bolalikni himoya qilish va homiylikni o'z ichiga olgan ijtimoiy institut tushuniladi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda o'zaro ma'naviy va moddik javobgarlik, farzand tarbiyasi va kamoloti, qarindoshlik munosabatlariga asoslangan kichik ijtimoiy guruh tushuniladi.

Har ikkalar nuqtai nazar va yondashuvda asosiy e'tibor farzand tarbiyasi va bolaning ijtimoiylashuv davri boshlanadigan, ijtimoiylashuvning asosiy omillaridan biri bo'lgan birlamchi ijtimoiy guruh oila sifatida e'tirof etiladi. Alohida aytib o'tish lozimki, jamiyatda qabul qilinadigan me'yorlar, qoidalar va ko'rsatmalar, geografik va ijtimoiy kelib chiqishiga qarab oilada o'tkaziladigan milliy an'ana va marosimlar jamiyatda qabul qilingan tamoyillar, me'yorlar, qoidalar va ko'rsatmalar asosida bolaning ma'naviy qarashlari rivojlana boradi.

B. X. Jalilov internet maqolasida oilaning ma'naviy tarbiya tizimida tutgan o'rnini alohida ko'rsatib o'tib, ma'naviy tarbiyaning o'ziga xosligini quyidagicha izohlaydi. Ma'naviy tarbiyaning o'ziga xosligi haqida so'z borar ekan, uning tarbiyaning boshqa shakllari – ahloqiy, badiiy-estetik, diniy, huquqiy va siësiy tarbiya bilan aloqadorligi va bog'liqligini nazarda tutib, quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

- 1) ma'naviy tarbiya mazmunan va mohiyatan boshqa tarbiya shakllariga nisbatan keng

ko'lamli va chuqur mazmunga ega.

2) ma'naviy tarbiyani ahloqiy tarbiya doirasida cheklash (shunday xollar uchraydi) to'g'ri emas, chunki ahloqiy fazilatlar ma'naviyatlik mazmuni va mohiyatining bir tomonidir xolos.

3) ma'naviy tarbiya ma'lum ma'noda boshqa tarbiya shakllariga nisbatan integrativ funktsiyani bajaradi, ya'ni xar-bir tarbiya sohasida erishilgan natijalar oxir oqibatda shaxs ma'naviyati mazmuniga kiradi, uni boyitadi.[5]

Biz esa har bir millat va millatning oilaviy an'analari va qadriyatlarining farzand tarbiyasiga ta'siri to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz. Bilamizki, o'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyatlari bor. Nomus, qadr-qimmat yo'lida o'zini ayamagan buyuk ajdodlarimizning hayoti va ko'rsatgan jasoratlarini tarix asrab avaylab, bizgacha etkazgan. Mana shu ajdodlarimiz buyuk merosi To'marisning oilasi sha'ni va erkinligini himoya qilish uchun bosqinchilarga qarshi fidokorona kurashi, Alpomish suyukli Barchinini ozod qilish uchun Qalmoq dashtlariga borishi, afsonaviy sarkarda Amir Temurning oila sha'ni va qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'yib "davlat ahamiyatiga molik masala" sifatida ahamiyat qaratishi yoshlar ma'naviyatini oiladan shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek oilada ma'naviy muhitni shakllanishida o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy tajriba va o'zbek xalq pedagogikasidagi ijod materiallari: doston, ertak, qo'shiq, matal, topishmoqlar kognitiv va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib o'z ahamiyatini yo'qotmagan va muhim tarbiyaviy vosita bo'lib kelmoqda.

Xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida bola va uning tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berilgan. Xalq og'zaki ijodi janrlarida ham o'z aksini topgan, oilaviy udumlardan biri bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqqa "ism qo'yish", "chilla saqlash", "besh kecha", "beshik tuyi", "aqiqa" marosimlari, chaqaloqqa bo'lgan iliq quvonchli munosabatda, unga bo'lgan muhabbatda ota va onalarning alohida o'rinlari bor. Birgina "alla"qo'shig'ini ijro etish an'anasi hanuzgacha saqlanib qolgan. Beshikda yotgan bolaga hali ham tushunarsiz bo'lsa da, mayin so'z, mayin so'z, mayin ohang unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bola yoshi ulg'aygan sari qo'shiqning ma'nosini tushuna boshlaydi, onaning buyruq va istaklarini bajaradi.

Ayniqsa, farzandlarni oilaga tayyorlash borasida "Qush inida ko'rganini qiladi", deganlaridek, avvalo, ota-onalarning o'zlari ahil va totuv bo'lib yashashlari, farzandlarga ibrat ko'rsatmoqlari zarur. Zero, kattalarga hurmat-izzat ko'rsatish, ularning oldida odob saqlash, duosini olish ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelmoqda. Mana shu an'analari, qadriyatlarga amal qilib yashashimiz, yosh avlodni sharqona odob-axloqqa o'rgatmog'imiz bugungi texnogen tsivilizatsiya va "ommaviy madaniyat" keskin tus olayotgan zamonda ayniqsa dolzarb ijtimoiy ahamiyatga ega.

Pedagog olim M.Quronovning "Milliy tarbiya" kitobida "milliy tarbiya milliylashuv rivojlanayotgan bola shaxsiga ilk yoshlardan oq bevosita ta'sir qilish orqali samaradorlik, tabiiylik, ustuvorlik kasb etadi. Dastlab birinchi, keyinchalik ikkinchi signallar sistemasi mazmunini belgilovchi milliy muhit, milliy ruh, oila, mahalla, qishloq muhiti shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi"-degan fikr bildirilgan.

M.Quronovning fikrlaridan kelib chiqib milliy tarbiya ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy rivoji natijasida yig'ilgan madaniy qadriyatlardan tarkib topgan jamiyat bo'lagi bo'lmish oilaviy qadriyatlarining ko'lamli va qamrovi asnosida takomillashtirib yoshlar ongiga singdirib boriladi.

O'zbek oilasidagi milliylikka xos bo'lgan muhim tamoyillardan biri-nikohning muqaddasligi, ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati va farzandning ota-ona oldidagi burchi, o'zaro hurmat va totuvlik, oila shan'i va qadr-qimmatini himoya qilishdan iborat.

Alohida qayd etish lozimki, an'analari o'zbek xalqining turmush tarzi va milliy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, qadriyatlar va munosabatlar tizimida yuksak o'rin tutadi. Eng mustahkam oilalar mahalliy urf-odat va an'analari asosida tashkil etilgan. O'zbek oilalarida ota-onaga hurmat, turmush qurishda ota-onaning duosini olish, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlar holidan xabar olish, ularni hurmat qilish urf-odat tusiga aylangan. Bolaning aynan shaxs sifatida kamol topishida oilaviy muhitning ta'siri kattadir.

Bola ota-onasining unga, oiladagi boshqa farzandlarga, yaqin qarindoshlariga qanday

munosabatda bo'lishini ko'radi va shu asosda bolaning o'ziga xos dunyoga bo'lgan munosabat tizimi rivojlana boradi. Alohida e'tirof etish lozimki, oilaning ma'naviy muhiti, farovonligi ham turmush o'rtoqlar o'rtasidagi uyg'un munosabatlar, ularning o'zaro hamjihatligi, xulq-atvori, tevarak-atrofidagi insonlarga, mehnatga munosabati farzandlar tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Va mazkur jarayonda xonadon posboni, oilaning iliqlik, mehr-oqibat, qulaylik va farovonlik timsoli bo'lgan oila farovonligini ta'minlashdagi asosiy o'rni va xizmatlarini ham unutmasligi kerak.

O'zbekona tarbiyaning turli qirralari ulkan adiblarimiz A.Qodiriy, G'.G'ulom, Oybek, P. Qodirov, O'.Hoshimov, E.Vohidovlarning asarlarida muvaffaqiyatli aks ettirilgan. O'zbek adabiyotining asoschilaridan biri G'afur G'ulom farzandining qanday ulg'ayishi jamiyatda munosib o'rin egallashi ota-onaga bevosita bog'liq deb hisoblagan. Bolaning o'qishini nazorat qilish, ularning mehnatga jalb etish, oila tarbiyasida xalq pedagogikasining asrlar davomida sinovdan o'tgan an'analarga tayanib zarurligini ta'kidlab o'tgan.

A.Qodiriyning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlarida keltirilgan Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no obrazlarida aks ettirilgan o'zbekona qarash, yigitlar xos bo'lgan mardlik, jasurlik, ayollarga xos bo'lgan milliy nigoh o'z davrining tarbiyaviy ruhiyatini ochib beradi.

O'zbek oilalarida milliy an'analarning farzand tarbiyasiga ta'siri haqida fikr yuritilganda, Markaziy Osiyo xalqlari hayoti, madaniyati, urf-odatlar orasida tarixiy umumiylik mavjudligini alohida e'tirof etib o'tish joiz. Mazkur umumiylik xalqlar orasida tarbiyada ham umumiylik mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir millat o'z qadriyatlarining nafaqat yaratuvchisi, balki asrab-avaylovchisi va kelajak avlodlarga yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarining saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'uldir. Ushbu mas'ullik milliy rivojlanish jarayonida shakllangan ma'naviy burchning alohida shaxslarga emas, butun millatga xos namoyon bo'lishini anglatadi. Oila institutining barqarorligi va oilada tashkil etiladigan milliy an'anal, qadriyatlar farzand tarbiyasiga, uning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоиймаънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли фармони.

2. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 28 февралда қабул қилинган “Фуқароларнинг репродуктив саломатлигини сақлаш тўғрисида”ги Қонуни.

3. Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография /О.Мусурманова. –Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б. 252.

4. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 3-қисм. [Матн]: 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. /Тузувчи муаллифлар: А.Қодиров, М.Қуронов, О.Мусурманова ва бошқалар. – Тошкент: “Muharrir” nashriyoti. 2019. – Б. 256. (2020 йил, январь)

5. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti (nuu.uz) “Oilaning ma'naviy tarbiya tizimida tutgan urni” B. X. Jaliyov UZMU doçenti.

6. <https://api.moiti.uz/media/book> Oynisa Musurmanova, “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari, p.f.d., professor

7. <https://lex.uz/docs/6445145>

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MATEMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Hakimova Mehriniso Homitovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası.

Annotatsiya. Matematika - bu bolaning akademik va kognitiv rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydigan asosiy ko'nikma. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchida matematik kompetensiyalarni mustahkam rivojlantirishda poydevor yaratish hamda hayo-tiy munosabatlarda ilg'or matematik tushunchalardan muvaffaqiyatli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim davr hisoblanadi. Ushbu maqolada biz o'qituvchilar va ota-onalar boshlang'ich maktab o'quvchilarida matematik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qo'llashi mumkin bo'lgan strategiyalarni o'rganamiz.

Kalit so'zlar: matematika, o'quvchi, akademik va kognitiv rivojlanish, ko'nikma, boshlang'ich sinf, matematik kompetensiya.

Barcha fan sohalari singari, matematika fani ham o'quvchilarning hayotga moslash-ishi uchun muhim bo'lgan sohalardan biridir.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'qituvchi o'quvchiga fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda turli matematika resurslaridan foydalanib o'qitish samara-dorligini oshiradi.

Boshlang'ich sinf matematika fanini o'qitish boshqa fanlar (tarix yoki geografiya kabi boshqa fanlardan farqli o'laroq)dan farqli o'laroq har bir yangi bilim oldingi bilim-larga asoslanadi.

Bolalar boshlang'ich maktabni o'zgaruvchan matematik ko'nikmalar bilan boshlaydilar. Ba'zi bolalar raqamlar va matematikaning asoslarini tushunishadi, boshqalari esa asosiy hisoblash, raqamlarni tan olish, belgilarni tushunish, miqdorni farqlash, qo'shish va ayirish tushunchalari bilan kurashadilar. Ko'pincha, bu dastlabki raqamli kompetensiyalar to'plami raqamlarni his qilish yoki dastlabki hisoblash qobili-yatlari deb ataladi. O'qituvchilar murakkabroq matematik vazifalarga o'tishdan oldin bu kompetensiyalarni shakllantirishlari va tushunishlari kerak.

Algebra, geometriya, kasrlar va hisoblash masalalarini hal qilishdan oldin o'quvchilar raqamlar haqida tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

Dastlabki raqamli kompetensiyalar nima. Dastlabki raqamli kompetensiyalarning yagona ta'rifi bo'lmasa-da, bir nechta tadqiqotchilar yosh o'quvchilar uchun muhim bo'lgan dastlabki raqamli kompetensiyalarni aniqlash mumkin. Bolalar maktabda (ya'ni, bolalar bog'chasida) ilk raqamli kompetensiyalarning keng doirasiga duch keladi. Ba'zi bolalar son nomlarini biladi va oddiy qo'shish va ayirish masalalarini hal qila oladilar; boshqalar raqamlarni aniqlash va 1 dan 10 gacha hisoblashni o'rganishni boshlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ilk raqamli faoliyatga ta'sir qilish muhim.

Ushbu dastlabki raqamli kompetensiyalarning muhimligidan biri shundan iboratki, ular keyinchalik matematika yutuqlarini bashorat qilishadi.

Dastlabki raqamli kompetensiyalarning to'rtta asosiy toifasini ajratib ko'rsatamiz: hisoblash, raqamlarni taqqoslash, belgilarni tushunish, qo'shish va ayirish tushunchalari. Ushbu bo'limda biz ushbu toifalarning har birini va o'quvchilar ushbu toifadagi ko'nikmalar bilan qanday kurashishi mumkinligini tasvirlaymiz.

Hisoblash. "1, 2, 3, 4, 5..." o'qishdan ko'ra ko'proq sanash kerak. O'quvchilar ko'pincha 10 gacha sanashlari mumkin, lekin ular raqamlar nimani anglatishini tushun-masligi mumkin. Misol uchun, o'quvchilar o'zlarining hisoblashlariga ma'no bermasliklari yoki raqam so'zlari sanab o'tilgan narsalarga mos kelishini tushunishlari mumkin. Hisoblash beshta tamoyilni o'z ichiga oladi: barqaror tartib, birma-bir yozishmalar, kardinallik, mavhumlik va tartibning ahamiyatsizligi. O'quvchilar ushbu tamoyillardan biri yoki bir nechtasi bilan yuzlashishlari mumkin. Bu tamoyillar ko'pincha birlashtiriladi (ya'ni, o'quvchilar son nomlarini aytadilar va har bir hisoblangan ob'ektga ishora qiladilar) va shuning uchun bu tamoyillar birgalikda qo'llanilishi kerak. Sanoqni o'rgatish bo'yicha tavsiyalar qo'g'irchoqning hisoblash

ko'nikmalarini bilish (yoki yo'qligi) bilan aniqlanishi mumkin. Misol uchun, agar o'quvchi qo'g'irchoq o'quvchining o'ngdan chapga sanashini noto'g'ri deb aytsa, o'quvchi tartibning ahamiyatsizligini hisoblash printsipi bo'yicha ko'rsatma olishi kerak.

Hisoblashda o'quvchilar har bir elementni faqat bir marta hisoblashlari kerak. Bu birma-bir yozishmalar deb ataladi. Yakkama-yakka yozishmalarni mashq qilganda, o'quvchilarga tasodifiy sanalgan narsalardan ko'ra ketma-ket yoki yorliqlangan va bo'lingan narsalarni kuzatish osonroq bo'ladi.

Miqdorni qadrlash. Subitizatsiya bolalarning miqdorni qadrlashi bilan bog'liq, bu bilan bog'liq bo'lgan dastlabki raqamli kompetentsiya. Bu ba'zan miqdorni kamsitish, kattalik yoki raqamlarni taqqoslash deb ataladi. Eng oddiy darajada o'quvchilar ikkita raqamga (masalan, 4 va 9) qarashadi va "Qaysi biri ko'proq?" degan savolga javob berishadi. (9) yoki "Qaysi biri kamroq?" (4). O'quvchilar ikkita miqdorni farqlashda yordam berish uchun manipulyatorlar yoki rasmlardan foydalanishlari mumkin. O'quvchilar kattaliklari yaqinroq bo'lganlarga (masalan, 9 va 8) qaraganda bir-biridan ancha uzoqroq bo'lgan miqdorlarni (masalan, 9 va 2) farqlashi osonroq. Kattaroq, ikki xonali raqamlarni solishtirganda, o'quvchilar o'nliklar o'rinlari o'n yil bir xil bo'lgandan ko'ra farq qiladigan raqamlarni farqlashda osonroq vaqtga ega bo'lishadi, lekin birlar o'rinlari farq qiladi.

Matematikada qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilar ko'pincha raqamlarni taqqoslashda qiynaladilar va matematikada qiyinchiliklari bo'lmagan tengdoshlariga qaraganda kamroq topshiriqlarni bajaradilar. Qizig'i shundaki, o'quvchilar raqam bel-gilarini o'z ichiga olmaydigan raqamlar kattaligi bo'yicha vazifalarni yaxshiroq bajarish-lari mumkin.

Maktabgacha yoshdagi o'quvchilarga taqqoslash uchun ikkita to'plam taqdim etil-ganda, ko'pincha hisoblamaydilar va ikkita to'plamni solishtirish uchun kardinallik printsipidan foydalanadilar. Odatda, o'quvchilar vizual (ya'ni, ramziy bo'lmagan) tek-shirishga tayanadilar. Vizual skanerlashga tayanish, odatda, raqamlar 1 dan 3 gacha bo'lganda, o'quvchilarga bir muncha vaqt yordam berishi mumkin. Shuning uchun to'plamlar orasidagi farqlarni aniqlash uchun hisoblash bo'yicha ko'rsatmalar berish foydali bo'lishi mumkin.

Matematik belgilar. Sanoqning dastlabki raqamli ko'nikmalari bilan, oxir-oqibat o'quvchilar sonlarni (masalan, bir, ikki, uch) raqamlar belgilari bilan (masalan, 1, 2, 3) bog'laydilar. O'quvchilar ko'pincha raqamlar so'zlarini barqaror tartibda takrorlashlari, birma-bir yozishmalardan foydalanishlari va raqam belgilaridan foydalanmasdan kardi-nallikni tushunishlari mumkin. O'quvchilar miqdorlarni raqamlar belgilaridan foyda-lanmasdan ham solishtirishlari mumkin (ya'ni, ikkita to'plamning vizual tasviri taqdim etilganda). O'quvchilar bog'chaga borishni boshlaganlarida esa, raqamlarni sanash va taqqoslash bilan bog'liq ko'pchilik mashg'ulotlar o'quvchilardan matematik top-shiriqlarni bajarish uchun raqamlar belgilari va bu belgilarning ma'nosini bilishlarini talab qiladi. Matematik belgilar muhim ahamiyatga ega, chunki matematikaning aksari-yati belgilar yordamida ifodalanadi.

O'nta raqam belgisi (ya'ni, 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 va 9) har qanday raqamni (masa-lan, 14,597) ifodalash uchun alohida yoki birlashtirilgan holda ishlatilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'nta raqam belgisidan tashqari ikkita operatsiya belgila-rini o'rganadilar: qo'shish uchun ortiqcha belgisi (+) va ayirish uchun minus belgisi (-). O'quvchilar sonli gaplarda tenglik belgisini (=) ham ishlatadilar. O'quvchilar miqdor-larni solishtirganda katta (>) va kichik (<) uchun tengsizlik belgilaridan ham foyda-lanishlari mumkin. O'quvchilar odatda raqamli belgilarni boshqa belgilardan oldin o'r-ganadilar.

According to our study, private universities have more classes taught in English as a medium of instruction and curricula fully modeled after Western standards. Only two public universities - Irrigation University and the University of World Economy and Diplomacy have English-only classes and MBA and MPA curricula, that correspond to MBA and MPA taught in Britain and the US. Three private universities were found to exclusively offer classes in English in a wide spectrum of subjects from Education to Medicine. Perhaps, it is worth highlighting that private universities are not only seen as conventional places of knowledge transfer but also, the agents of pedagogical innovations and new learning experiences in post-socialist countries. This is especially true for foreign universities which offer education modeled after Western higher education in Uzbekistan. Notable examples are Westminster International University, and Webster University in Tashkent, whose degree programs and curricula are closely in line with British and American higher education formats. According to our study, three top private

universities – Central Asian University, Millat Umidi University, and Tashkent International University of Education are found to be following the same path. The story of other private universities in post-soviet countries offers the same pattern. For instance, Central European University is one of the few private universities with better teaching staff and English-only programs in Hungary. It has become one of the top universities in Hungary by the global rankings. Perhaps, the same trend is underway in Uzbekistan with innovations confined to a few private establishments.

Conclusion. Our studies suggest that the quality of education is higher in public universities than in private universities in Uzbekistan. This can be explained by poorer infrastructure, the limited capacity of private universities to comply with the criteria of global ranking systems, and the relatively recent debut of private universities in the country. The only advantage private universities hold over public ones is educational innovations, such as English-only programs and Western curricula that a few of them are offering. Thus, based on the findings and the discussion, we recommend the following:

Regulations on student accommodation, and employment requirements must be formulated and closely checked by state inspections to ensure the quality of education and student welfare in higher education institutions.

Private and public universities should be encouraged to achieve better results in global ranking systems.

Private and public universities should be encouraged to create new modules and curricula which use English or other global languages as a medium of instruction.

Limitations of this study

Our study has several limitations.

We used secondary data, such as web-site and social media pages for data collection. Some of the universities may not have displayed relevant information we needed, such as information on career or housing services.

This is a sample study. A population study may be needed to accurately reflect the quality of education in the private and public sectors.

We lack the specific details of how local ranking, which we used in our study, was implemented. Further studies may be needed to clarify such intricate matters to ensure better accuracy of the results.

References

1. Abbasi et al. (2011). A Study on Student Satisfaction in Pakistani Universities: case of Bahauddin Zakariya University, Pakistan. *Asian Social Science*. Vol. 7, No. 7, pp. 209-220.
2. Altbach, Philip & Hazelkorn, Ellen. (2018). Measuring Education Quality in Global Rankings: What's the Likelihood?. *International Higher Education*. 12. 0.6017/ihe.2018.95.10721.
3. Best Universities in South Korea. Retrieved from: <https://www.timeshighereducation.com/student/best-universities/best-universities-south-korea>
4. Clark, B. (1998) 'Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation', *Issues in Higher Education*. 12/3: 373–4.
5. Finnegan, Dorothy. (2005). The Decline of the Guru: The Academic Profession in Developing and Middle-Income Countries (review). *The Review of Higher Education*. 28, pp. 429-430. 10.1353/rhe.2005.0008.
6. Fralick, Drew & Zheng, Julia & Wang, Bokai & Tu, Xin. (2017). The Differences and Similarities Between Two-Sample T-Test and Paired T-Test. *Shanghai Archives of Psychiatry*. 29. 184-188. 10.11919/j.issn.1002-0829.217070.
7. Harvey, L. & Green, D. (1993), 'Defining quality', *Assessment & Evaluation in Higher Education*. 18(1), pp. 9-34.
8. Karimov Komiljon (2023). Transforming HE sector. Retrieved from: <https://www.wiut.uz/news/transforming-he-sector-the-case-of-uzbekistan>
9. Kwiek, Marek. (2020). Private Higher Education in Developed Countries.

BOKSCHILARNI BO'LAJAK MUSOBAQALARGA UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Ibragimov Mironshox Muxammadovich
Buxoro davlat universiteti
Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya Maqolada bokschi larni bo'lajak musobaqalarga umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Bokschi larni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, seleksiya.

ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ОБЩЕЙ И СПЕЦИАЛЬНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БОКСЕРОВ К БУДУЩИМ СОРЕВНОВАНИЯМ

*Ибрагимов Мироншоҳ Мухаммадович
Бухарский государственный университет
Преподаватель кафедры теории и методики спорта*

Аннотация. В статье рассматриваются особенности совершенствования общей и специальной физической подготовленности боксеров к предстоящим соревнованиям. Освещены пути совершенствования общей и специальной физической подготовленности боксеров.

Ключевые слова: физическая подготовка, специальная подготовка, скорость, сила, выносливость, отбор.

FEATURES OF INCREASING GENERAL AND SPECIAL PHYSICAL PREPARATION OF BOXERS FOR FUTURE COMPETITIONS

*Ibragimov Mironshokh Muhammadovich
Bukhara State University
Lecturer at the Department of Theory and Methodology of Sports*

Abstract. The article discusses the features of improving the general and special physical preparedness of boxers for upcoming competitions. Ways to improve the general and special physical fitness of boxers are highlighted.

Key words: physical training, special training, speed, strength, endurance, selection.

KIRISH. Mamlakatimizda yoshlarning boksga bo'lgan ommaviy qiziqishini inobatga olib, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) tizimini yanada takomillashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning moddiy rag'batlantirilishini yaxshilash, shuningdek, o'zbek boksining dunyodagi yetakchiligini saqlab qolish va davom ettirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda [1].

Jumladan keyingi yillarda boks sport turi nafaqat o'z mavqeini mustahkamladi, balki butun dunyoga o'zbek boks maktabi mavjudligini isbotladi hamda namoyon etdi. O'zbek bokschi larning yirik xalqaro musobaqalar va Olimpiya o'yinlarida erishib kelayotgan yutuqlari fikrimiz dalilidir.

MATERIALLAR VA METODLAR. Boks tezkor-kuch sport turi hisoblanadi. Shuning uchun murabbiy bokschi bilan ishlashda malakalarni takomillashtirishda ataylab eng samarali tezkor-kuch sharoitlarini yaratgandagina, musobaqa vaziyatlarida maxsus harakat malakalarining yuqori mustahkamligi mumkin bo'ladi. Bokschi zarba kuchining "portlovchan" samarasini takomillashtirish maqsadida, sportchining qo'l tirsagi yoki boshqa tana a'zolariga mahkamlanadigan qo'rg'oshinli og'irliklardan foydalaniladi. Ular zarba berish malakalarini bajarishni qiyinlashtiradi.

O'quv-mashg'ulot ishlari amaliyotida "soya bilan jang" kabi maxsus mashqlar yordamida zarbalarga ishlov berishda turli xil yengillashtirilgan gantellardan foydalaniladi. Har xil

to'ldirma to'plarni, yadro, toshlarni irg'itish singari maxsus tayyorgarlik mashqlari keng qo'llaniladi, bu mashqlar bokschi tomonidan jangovar tik turish holatidan bajariladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bokschi, agar uning maxsus va umumiy jismoniy tayyorgarligi yetarli darajada yuqori bo'lmasa, yuksak sport natijalariga erisha olmaydi. Boks – murakkab koordinatsiyali sport turlaridan biri. U sportchidan turli-tuman harakat ko'nikmalari, malakalari va jismoniy sifatlarni namoyon qilishni taqozo etadi. Ma'lumki, inson o'zi tomonidan avval egallangan harakat "boylamlari"ga asoslanib, har qanday harakatni bajaradi. Shunday qilib, unda shartli refleksli boylamlari zahirasi qancha ko'p va u katta hajmdagi malakalarga qancha ega bo'lsa, uning maxsus harakat faoliyati shuncha turli-tuman bo'ladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik, ayniqsa bokschi shakllanishining boshlang'ich bosqichlarida, sportchi uchun uning kelgusidagi o'sishida zarur bo'lgan harakat ko'nikmalari va malakalarining namoyon bo'lishida turli-tumanlikni yaratishga imkon beradi. Agar murabbiy yosh bokschini o'rgatish jarayonida umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalaridan voz kechsa, u juda katta va tuzatib bo'lmaz xatoga yo'l qo'yadi, chunki faqat maxsus mashqlar yordamida sportchining har tomonlama samarali rivojlanishiga erishib bo'lmaydi. U murakkab koordinatsiyali harakatlarni bajarishga qiynaladi, chunki avval egallangan harakat shakllarining hosil bo'lgan o'zaro bog'liqligi umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalaridan voz kechish oqibatida katta bo'lmaydi va bokschi yangi ixtisoslashgan ko'nikma hamda malakalarning hosil bo'lishiga yetarlicha yordam bermaydi [2].

Bokschi har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlashda hamda uni takomillashtirish jarayonida me'yorlar kompleksi katta o'rin tutadi. Bokschi talablarini bajarishni talab qilgan holda murabbiy ularda har tomonlama jismoniy rivojlanish bazasini yaratadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi amaliyotchi trenerlar hamda nazoratchi olimlarni fikricha, tayyorgarlik jarayonida asosiy e'tiborni sportchilarni tayyorlashni rejalashtirish va tashkil qilish masalalariga qaratish zarur. Aniqlashtirish darajasi reja tuziladigan vaqt davriga bog'liq bo'ladi. Muddat qanchalik kam bo'lsa, unda reja shunchalik katta darajada aniq bo'ladi. Eng aniq (detallashtirilgan) reja bir mashg'ulotning rejasi hisoblanadi. Har qanday rejani ishlab chiqishda asosiy operatsiyalarning ketma – ketligiga rioya qilish tavsiya qilinadi.

1. Shug'ullanuvchilar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni (salomatlik, jismoniy va sport – texnik tayyorgarlik holatlari to'g'risida) to'planadi, umumlashtirib reja tuzish kerak bo'ladi.

2. Murabbiyning shug'ullanuvchilar bilan suhbatlashishi, uning individual xususiyatlarini aniqlash, anketa so'rovi, nazorat sinovlari (testlash) olib borish, tibbiy – pedagogik nazorat ma'lumotlaridan foydalanib, zaruriy dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladi.

3. Shug'ullanuvchilar imkoniyatini hisobga olib shartli mashg'ulot olib borishning aniq sharoitiga mos holda o'quv – tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari belgilanadi va aniqlashtiriladi.

4. Yuklama me'yorlari va talablari belgilanadi, ularni bajarish shug'ullanuvchilarga mos keluvchi bosqichlarda tavsiya qilinadi.

Shuni unutmaslik kerakki, bokschi tayyorgarligida ham jismoniy tayyorgarlik muhim jarayondir. Jismoniy tayyorgarlik – boks trenirovkasining eng asosiy qismlaridan biridir. U harakat sifatlardan – kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik, koordinatsion qobiliyat singarilarni rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tayyorgarlik bokschi texnik va taktik takomillashtirish jarayoni bilan birgalikda bo'lib, umuman mashg'ulotning asoslaridan biridir. Qator mutaxassislar fikricha, bokschini jismoniy tayyorgarligi uni malakasi va boksga tegishli jismoniy sifatlari yuqori darajaga chiqqan sari ko'proq ixtisoslasha borishi lozim. Zamonaviy boksga musobaqa va trenirovka mashg'ulotlarini hajmi hamda intensivligi (jadallik, shiddat) juda ham oshgan. Musobaqa mashqlari o'zi bilan shunda ish harakatlarini ifodalaydiki, ular sport ixtisosligining predmeti hisoblanadi va ushbu sport turining musobaqa qoidalariga mos ravishda bajariladi. Maxsus – tayyorlov mashqlari – bu musobaqa mashqlarining u yoki bu variantini ifodalaydi. Bu mashqlarning majburiy belgisi shakli bo'yicha ham, kuchlanishni namoyon bo'lishini tavsifi bo'yicha ham musobaqa harakatlariga ahamiyatli o'xshashligi

hisoblanadi. Umumiy tayyorgarlik mashqlari – bu sport mashg‘ulotiga kiritiladigan va sportchining umumiy tayyorgarligi vositasi bo‘lib xizmat qiladigan barcha qolgan mashqlar.

Boks bo‘yicha ilmiy uslubiy va maxsus adabiyotlarda musobaqa oldi, musobaqa va musobaqadan keyingi bosqichlarga bag‘ishlangan fikrlar va tavsiyalar ko‘p. Biroq bu tadqiqotlarda, oxirgi paytda musobaqa qoidalaridagi bokschilarni musobaqaga tayyorlanish bosqichiga taalluqli o‘zgarishlar inobatga olinmagan. Yuqori malakali bokschilarni tayyorgarligida musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichi muhim o‘rin tutadi. Bokschilarni musobaqa oldi tayyorgarligining samaradorligini oshirish eng muhim va dolzarb muammolardan biridir. Musobaqa hamda mashg‘ulot jarayonining qanday tuzilganligini bilmay turib bokschilarni tayyorlashni sifatli boshqarib bo‘lmaydi. Biroq bu muammo hanuzgacha kerakli ilmiy tomondan o‘rganilgani yo‘q. Musobaqa va mashg‘ulot jarayonining bevosita bir-biri bilan aloqadorligi hamda bokschilarni tayyorgarligi darajasi hamda sistemali tadqiqotlar yo‘qligi sportchilarni musobaqa oldi tayyorgarligini samarali boshqarish tizimi imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.

Hozirda yuqori mahoratli bokschilarni musobaqa oldi tayyorgarligi bosqichida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish masalalari bo‘yicha ko‘pgina salomoqli ishlar qilingan bo‘lib ularning asosiy maqsadi sportchilarni musobaqa oldi tayyorgarligi ularni musobaqa faoliyati, tayyorgarlik darajasi va mashg‘ulot ta‘sirini o‘zaro aloqadorligiga qaratilganidir. Yilning eng muhim musobaqalariga bokschini tayyorlashda musobaqa oldi bosqichidagi mashg‘ulot yuklamalarini ratsional nisbati katta ahamiyat kasb etadi. Maxsus va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqori mahoratli bokschilarni musobaqa oldi, musobaqa va musobaqadan keyingi tayyorgarlik bosqichlarida oxirgi yillarda musobaqa qoidalaridagi hamda hozirgi zamon boksini rivojlanish tendensiyasidagi o‘zgarishlar inobatga olinishi lozim [3].

Musobaqa oldi tayyorgarlik jarayonida oylik hamda yillik sport mashg‘ulotlarini maqsadga muvofiq tashkil etish murabbiy hamda shug‘ullanuvchidan katta kuch talab etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, musobaqa oldi shug‘ullanuvchining texnik-taktik hamda jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha rejalashtirish, hisobga olish ishlarini to‘g‘ri tashkil etish shuningdek shug‘ullanuvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg‘ulotlar mazmunida tezkorlik, kuch va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan unumli foydalanish shug‘ullanuvchi uchun musobaqalarda qatnashish va g‘oliblikni qo‘lga kiritish uchun qulay imkoniyatni yaratib berishga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-son Qarori

2. R.D.Xalmuxamedov, V.N.SHin, S.S.Tajibayev, G‘.Q.Rajabov, V.D.Anashov
“Bokschilarning sport pedagogik mahoratini oshirish Toshkent 2017

3. Xasanov A.T., Nishanbayev S.O. Yillik siklida yosh bokschilarni musobaqlarga tayyorlashni rejalashtirish FarDU O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va 18-son ilmiy tadqiqotlar jurnali 20.04.2023

TALABALARNING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Ibraimov I.E

Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvga oid ayrim muammolar va ularning yechimlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: talaba, kreativlik, kompetensiya, ijodkorlik, kompetensiyaviy yondashuv, komponent, kasbiy faoliyat, kreativ faoliyat.

Talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning evristik texnologiyalarini kvalimetrik jihatlarga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni muammoli-ijtimoiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion modellarini loyihalashning didaktik tamoyillarini aniqlashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda fanlarni kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish orqali talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish, muammoli o'qitish texnologiyalarini loyihalash asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, talabalarning fikrlash layoqatini tarkib toptirishning metodik usullarini ishlab chiqish alohida dolzarflik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning nazariy asoslari U.Inoyatov, N.Muslimov, O.Musurmanova, B.Xodjaev va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida talabalarning kreativ va ijodiy qobiliyatini shakllantirishning asosiy mazmuni O.Buturin, Ye.Zeer, I.Suxix, N.Xryuzhevalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan K.Rodgers, R.Sternberg, P.Torrens, A.Masloularning ilmiy izlanishlarida kreativ tafakkur, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning amaliy-texnologik jihatlari o'z aksini topgan.

«Kreativlik» va «kreativ» tushunchalari ingliz tilidan kelib chiqqan bo'lib, yaratish qobiliyati, ijodkorlik kabi ma'nolarni bildiradi. Mazkur tushunchalarning dastlabki izohlari bo'yicha D.Simpson, S.Kaplan, Dj.Renzulli va boshqa olimlar tadqiq qilgan bo'lsalar-da, bizning fikrimizcha, ular olib borgan izlanishlarda ko'rsatilgan qarashlar yetarli darajada asoslanmagan.

Psixologik lug'atda «ijodkorlik» va P.Torrens bo'yicha «kreativlik» ta'riflarini taqqoslaganda, bu ikki atamaning bir-biridan farq qilishga guvoh bo'lindi: fikrlashning moslashuvchanligi, yangi bilimlarni izlashga intilish, avvaldan mavjud «qolip»lardan tashqariga chiqish olish qobiliyati. Kreativ faoliyat xususida so'z yuritilganda, mazkur ikki atamani birlashgan tabiati haqida fikrlash maqsadga muvofiqdir [4].

Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish jarayoni mutaxassisda kasbiy va kreativ kompetentlikni shakllantiradi. Tahlil natijalari asosida tadqiqot doirasida kreativ kompetentlikning quyidagi komponentlari aniqlashtirildi [2. B. 7-8]:

- motivatsion-shaxsiy komponent – kreativ faoliyatga ehtiyoj kreativ faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati anglanganligi, kreativ jarayon natijalariga qiziqishning faol namoyon bo'lishi, doimiy o'zini o'zi takomillashtirishga ehtiyojning anglanishi;

- kognitiv komponent – kreativ fikrlash operatsiyalari va kognitiv usullar (tahlil va sintez, taqqoslash, umumlashtirish va tasniflash, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya, abstraktlash, modellashtirish); kreativ faoliyat algoritmlari va strategiyalari;

- faoliyatga doir komponent – kreativ faoliyatni amalga oshirishda muammoli-izlanishli usullarga tayanish; kreativ faoliyat algoritmlari va strategiyalarini qo'llashga shaxs tayyorligi;

- reflektiv – baholovchi komponent – kreativ faoliyatning produktiv usullarini belgilab olish maqsadida o'zining imkoniyatlarini baholashga shaxsning tayyorligi va keyingi amalga oshiriladigan harakatlarga tuzatishlar kiritish.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda aks ettirilgan «kasbiy faoliyatga tayyorgarlik» tushunchasini o'rganish natijalarini umumlashtirib, I.Suxix tomonidan kasbiy faoliyatga tayyorgarlikning turli darajalari belgilangan. Mazkur darajalar asosida talabalarni kreativ faoliyatga tayyorgarlik darajalari quyidagi jadval bo'yicha loyihalashtiriladi (1-jadval) [3. B.49].

Talabalarni kreativ faoliyatga tayyorgarlik darajalari

Darajalar	Ko'rsatkichlar
Shaxsiy-kreativ	Kreativ faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shaxsiy qobiliyatlarni shakllantirish.
Funksional-kreativ	Kreativ faoliyat zarur bo'lgan jismoniy va aqliy resurslardan foydalana olish qobiliyati.
Shaxsiy-faoliyatli-kreativ	O'ziga yuklatilgan muammoli topshiriqlarni samarali bajarishga imkon beradigan kreativ, shaxsiy fazilatlar va malakalarning yaxlit namoyon bo'lishi.

Shunday qilib, kreativlik, kreativ faoliyat, kreativ fikrlash jarayonlari, kreativ faoliyat komponentlari, shuningdek, mezonlari, ko'rsatkichlari, darajalarini tahlil etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:


1) kreativ faoliyatning metodik tuzilmasiga binoan uni shakllantirishning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- talabalarda egallanayotgan kasbga motivatsion-shaxsiy yo'nalganlikni rivojlantirish;
- kreativ faoliyatni tashkil etish texnologiyalari bilan qurollantirish;
- refleksiya va o'zini o'zi obektiv baholash usullari, kreativ faoliyatini hissiy-irodaviy boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

2) Ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan bosh vazifa talabalarda kreativ faoliyatni ularga samarali o'quv-kasbiy faoliyatni taqdim etadigan va butun hayot davomida mustaqil bilim olishga qobiliyatlikni rivojlantiradigan darajada shakllantirishdan iborat.

3) Ma'lum bir muddatni taqozo etuvchi, kreativ faoliyatning turli-tuman namoyon bo'lishini ifoda etuvchi shaxs rivojining sifat ko'rsatkichi sifatida «kreativ faoliyatni rivojlanish darajalarini baholash mezonlari» tushunchasiga aniqlik kiritish [5. -142 6].

Talabalarining kreativ va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni yanada kengaytirish, ta'lim jarayoniga ilmiy-tadqiqot muassasalari tadqiqotlarini, shuningdek, rivojlangan xorijiy davlatlardan mutaxassislarni jalb etish, tajriba almashish ko'zlangan natijani beradi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi-talaba munosabatlarini tashkil etishda talabaning b'ylajak kasbiy tayyorgarligini shakllantirish mexanizmlariga amal qilinishi lozim (1-rasm).



1-rasm. Talabaning kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlari

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, talabalarning kreativligini rivojlantirishda: talabaning ta’lim jarayoni, o‘quv fani va o‘quv materialiga munosabati; ta’lim maqsadining aniq belgilanishi; ta’lim mazmunining puxta asoslanishi; o‘quv jarayonining samarali, qiziqarli tashkil etilishi; o‘qituvchining ta’lim jarayonini tashkil etishga ijodiy yondashuvi; o‘quv materialining talabalar nazariy bilimi, tayyorgarlik darajasiga muvofiq to‘g‘ri shakllantirilganligi; ta’lim jarayonida didaktik, zamonaviy texnik va axborot-kommunikatsion vositalardan o‘rinli, maqsadli va samarali foydalanish; o‘qituvchi tomonidan o‘quv materiali mohiyatini to‘la ochib berilishi uchun maqbul metodlarning to‘g‘ri tanlanganligi; o‘quv mashg‘ulotining talabalarning ehtiyoj, xohish-istak, qiziqishlariga tayanilgan holda samarali shaklda tashkil etilishi; o‘qituvchining talabalarga samimiy, ishonch bilan yondashishi, ularni hurmat qilishi, ularda ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantira olishi; mashg‘ulotlar jarayonida har bir talabaning individual, shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, ruhiy faolligining inobatga olinishi; ta’lim maqsadiga muvofiq kutilayotgan natijaning aniq belgilanganligi nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu bois ta’lim jarayonini tashkil etishda masalaning bu jihatiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.fan.bo‘y.fal.doktori (PhD) diss. –Toshkent, 2017. – 154 b.
2. Morxova I.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish. Ped. fan. bo‘y. fals. dokt (Phd) diss. avtoreferati. –Toshkent, 2020. –B. 7-8.
3. Raximov Z.T. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kreativligini oshirishda ta’limning faol va rivojlantiruvchi usullaridan foydalanish zaruriyati // Vestnik KGU im. Berdaxa, -№3(44), 2019. –B. 49.
4. Renzulli, J.S. (1994). Schools for talent development: A practical plan for total school improvement. Mansfield Center, CT: Creative Learning Press.
5. O‘tapov T.U. Matematika ta’limi jarayonida o‘quvchilarning matematik iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.nomz...diss. –Toshkent, 2008. – 142 b.

MAXSUS MASHQLARDAN FOYDALANGAN HOLDA SPORTCHI-QIZLARNING TEXNIK VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Ismatullaeva Sangina Ravshan qizi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maxsus mashqlardan foydalangan holda sportchi-qizlarning texnik va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning samaradorligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: maxsus mashqlar, sportchi-qizlar, texnika, jismoniy tayyorgarlik, samaradorlik.

РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКОЙ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СПОРТСМЕНОК-ДЕВУШЕК С ПОМОЩЬЮ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

Исматуллаева Сангина Равшан қизи

Преподаватель Узбекского государственного университета физической культуры и спорта, Узбекистан, г. Чирчик

Аннотация. В данной статье рассмотрена эффективность развития технической и физической подготовленности спортсменок-девушек с помощью специальных упражнений.

Ключевые слова: специальные упражнения, спортсменки-девушки, техника, физическая подготовка, работоспособность.

DEVELOPMENT OF TECHNICAL AND PHYSICAL TRAINING OF ATHLETES-GIRLS USING SPECIAL EXERCISES

Ismatullaeva Sangina Ravshan kizi

Teacher of Uzbekistan State University of Physical Education and Sports Chirchik, Uzbekistan

Annotation. This article cites the effectiveness of the development of technical and physical training of athletes-girls using special exercises.

Keywords: special exercises, athlete-girls, technique, physical fitness, efficiency.

Dolzarliligi. Dunyo miqyosida yildan-yilga sport turi bilan shug'ullanayotgan sportchi qizlarning soni ortib bormoqda. Yakkakurashchilarda raqobatning ortib borishi natijasida organizmning eng muhim tizimlari holatidan kelib chiqib sportchilarni tayyorlash tizimini optimallashtirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda yakkakurash sport turlarida zamonaviy yutuqlar shunchalik yuqoriki, sportchi yuqori natijalar ko'rsatishi uchun o'smirlik vaqtidanoq tizimli tayyorgarlik ko'rish zarur. Xalqaro tajribalar orqali jismoniy tarbiya va sport, inson salomatligini mustahkamlashda hamda ommalashib borayotgan kassaliklarni yengishda eng samarali yo'l ekanligi bugungi kunda o'z isbotini topmoqda.

Jahonda kurashchi qizlarni tayyorlash sohasida, xususan, ularning tezkor-kuch tayyorgarligi, texnik-taktik mahorati, funksional tayyorgarligi, kuch va kuch sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'p sonli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ayollar kurashi nazariyasi va uslubiyatida ilmiy izlanishlar tayyorgarlikning turli mezonlariga, yoshi va malakasi har xil bo'lgan sportchi-qizlarda amalga oshirilgan. Xususan, parterda musobaqa hujum usullarining ustuvor bajarilishi asosida sportchilarni tayyorlash uslubiyatini takomillashtirish, trenirovka yuklamalarini individual xususiyatlari asosida me'yorlashtirish, texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligini oshirish bilan bog'liq ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud. Oxirgi yillarda ayollar kurashi eng ommaviy sport turiga aylandi, lekin sport takomillashuv bosqichida musobaqa bellashuvlarining soni va ularning davomiyligini hisobga olgan holda o'quv-trenirovka jarayoniga musobaqa yuklamalarini joriy qilish bilan trenirovka vositalarini optimallashtirish masalalarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Sport kurashi amaliyotiga zamonaviy uslublarni joriy etish amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga va sportchilarning xalqaro musobaqalarda sport natijalarini oshirishga yordam beradi, bu esa kurashchilarning tezlik, kuch qobiliyatlari va texnik-taktik mahoratini oshirishda innovatsion uslub va texnologiyalardan foydalanish muhimligini ko'rsatadi. Sport sohasidagi eng yangi texnologiyalar, jumladan, sport kurashi musobaqalarida muvaffaqiyatli chiqishning asosiy omili bo'lgan kuch chidamliligi, koordinatsiya aniqligi va texnik-taktik harakatlarni bajarish tezligini oshirishning samarali usullarini topish imkonini beradi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida sport kurashi bo'yicha nufuzli musobaqalar o'tkazilib, unda mutaxassis va murabbiylar kurashchilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash bo'yicha tajriba almashadi. Biroq, bu tadbirlar asosan musobaqalar o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, kurashchilarning koordinatsiya qobiliyati va texnik-taktik harakatlarini oshirish tajribasini o'rganish masalalari hali ham mutaxassislar va murabbiylar tomonidan yaxshi o'rganilmagan masala bo'lib qolmoqda. Biroq, malakali kurashchilarda maxsus uskuna orqali, koordinatsion qobiliyatlari va texnik-taktik harakatlar samaradorligini aniqlash yuzasidan ilmiy ishlar olib borish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolganini uchratishimiz mumkin.

Xorijiy ilmiy va ilmiy-uslubiy, tadqiqotlar manbalarning tahliliga ko'ra, kurashchilarga koordinatsion mashqlarni o'rgatish bo'yicha samarali mashg'ulotlar o'tkazish natijasida kurashchining imkoniyatlarini oshirish metodlari ishlab chiqilgan va harakat faolligiga o'rgatish natijasida, ularni sport turlariga saralashning tabaqalashtirilgan dasturlari ishlab chiqilgan.

Hozirgi davrda, sport kurashida sportchilarning jismoniy, funksional, texnik-taktik, psixologik tayyorgarliklarini takomillashtirish, chidamlilikni shakllantirish, adaptiv jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish muammolari bo'yicha xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlarida, oliy o'quv yurtlarida yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida mashg'ulot jarayonini kompleks nazorat qilishni, sport turlari bo'yicha mashg'ulot yuklamalarini tezkor boshqarish va tayyorlashning zaruriy masalalar yuzasidan ko'plab zamonaviy instrumental metodikalarga asoslangan istiqbolli tadqiqot va izlanishlar olib borilayotgan bo'lsada, ular bugungi kun talablari uchun yetarli emas.

Tadqiqotning maqsadi. Maxsus mashqlardan foydalangan holda sportchi-qizlarning texnik va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning samaradorligini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari va tashkil etilishi: Ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pulsometriya, instrumental uslub, pedagogik tajriba va matematik statistika usullari.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish:

Bugungi kunga qadar yuqori malakali sportchilarni o'qitish bo'yicha bilim va tajriba shuni ko'rsatadiki, sport turidan qat'iy nazar, maxsus tayyorgarlikka kirishishdan oldin, bu ish bilan shug'ullanuvchilar avvalo dastlabki yoki umumiy boshlang'ich tayyorgarlikdan o'tishlari kerak. Sportchining maxsus jismoniy tayyorgarligi harakatlanish sifatlarini kurashchilarning musobaqa faoliyati xususiyatlari tomonidan quyiladigan talablarga qat'iy muvofiq holda rivojlantirishga qaratilgan.

Sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi asosan kurash gilamida o'tkaziladi va harakat malakalari tarkibidagi eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida mumkin bo'lgan turli murakkabliklarni jalb qilgan holda musobaqa mashqlari qo'llaniladi.

Kurashchilarning o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilgan kuchni rivojlantiruvchi mashqlar tahlilida ko'rsatilishicha, ular ko'p hollarda harakat vazifalarining murakkabligi, tez va aniq bajarilishi bilan zamonaviy o'yin talablariga to'liq javob bera olmaydi. Yuqori malakali kurashchilarning bir yillik tayyorgarlik mashg'ulotlari rejasida tezkorlikni o'stirish va takomillashtirishga qaratilgan mashqlardan foydalanishning bosqichma-bosqich aniq ishlab chiqilgan tartibiga amal qilish lozim.

Kuchni rivojlantirish uchun yillik tayyorgarlik umumtayyorgarlik davrida sportning boshqa turlarida qo'llaniladigan elementlaridan moslarini sportchining jismoniy sifatlarini va imkoniyatlarini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kurash texnikasi usullardan (usullarni qo'llash) asosida amalga oshiriladigan usullar

– bu maqsadga yoʻnaltirilgan hujum harakatlari boʻlib, ular yordamida kurashchi raqibidan ustunlikka erishadi. Har bir usul ikki qismdan iborat. Birinchi qism – usul qoʻllash uchun ushlab olish. Ushlab olishlar yuqoridan, pastdan, orqadan, oldindan, yon tomondan va boshqalarga ushlab olishlarga boʻlinadi. Ushlash usulni muvaffaqiyatli bajarishda katta ahamiyatga ega. Butun usullarni bajarish sifati ushlab olishning qay darajada oqilona amalga oshirilganligiga bogʻliq.

Kurashchi qizlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ishlarini tahlil qilish shuni koʻrsatadiki, soʻnggi vaqtlarda sport sohasidagi mutaxassislarining diqqat-eʼtibori jismoniy tayyorgarlikning eng samarali vosita va uslublarini tanlash hamda oʻrganishga qaratilgan. Bunday vosita va uslublar talaba sportchi organizmining funksional tizimlariga yuqori talablar qoʻyadi, bu tizimlarning imkoniyati aynan musobaqa faoliyatining muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Sportchilarning mashgʻulot yuklamalari jarayoni tizimida texnik-taktik tayyorgarlik, nazariy, maʼnaviy-irodaviy va ruhiy tayyorgarlikning turli masalalarini hal qilish bilan bir qatorda jismoniy tayyorgarlikni oshirish muhim oʻrin tutadi.

Jismoniy tayyorgarlik kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chidamlilik, chaqqonlikning rivojlanishini taʼminlash bilan birga, sportchidagi harakatlanish meʼyori, tezkorlik tuzilmasining shakllanishiga, oqilona sport texnikasining mustahkamlanishiga ham imkoniyat yaratadi. Koʻpchilik mualliflar jismoniy sifatlarni bir-biri bilan shu darajada bogʻlanganlar, ulardan birini rivojlantirmasdan turib yuksak sport darajasiga yetishish mumkin emasligini qayd qilishgan.

Murabbiy tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun qoʻyilgan vazifalarni hal qilish vositalari va usullarini aniq rejalashtirishi lozim.

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi kurashchilarining koʻrsatgan texnik natijalari

№	Koʻrsatkichlar mazmuni	Tajriba guruhi boshida			Nazorat guruhi boshida			t	P
		X1	σ	V%	X2	σ	V%		
1	Raqibning chap qoʻli yengidan ushlab oʻng oyogini raqibning oʻng oyogiga ilib chap oyoqqa tayanib oldinga orqaga sakrash 10 marta (soniya)	8,31	1,15	13,84	7,92	1,21	15,28	1,120	p>0,05
2	Raqibning qoʻl tirsagidan ushlab oʻng oyogʻi bilan oldin chap oyogʻiga keyin oʻng oyogʻiga tirash 10 marta (soniya)	9,98	1,31	13,13	9,87	1,12	11,35	0,306	p>0,05
3	Raqibning chap yelkasidan ushlab chap qoʻli bilan qoʻl tirsagidan ushlab oyogʻi bilan ilib olish 10 marta (soniya)	27,02	2,95	10,92	26,78	3,39	12,66	0,256	p>0,05
4	Raqibning qoʻl tirsagida oʻng oyogʻi bilan raqibning chap oyoq toʻpigʻiga chap oyogʻi bilan esa oʻng oyoq toʻpigining orqa qismiga tirash 10 marta (soniya)	16,69	1,99	11,92	17,05	2,02	11,85	0,609	p>0,05
5	Raqibning qoʻl tirsagidan ushlab oʻng va chap oyogʻi bilan raqibning chap oyogʻi toʻpigʻining ichkari va tashqari tomoniga tirash 10 marta (soniya)	12,01	1,73	14,40	11,88	1,92	16,16	0,241	p>0,05

Sportchi-qizlarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhi kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhi kurashchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari taxlil qilindi va quyidagicha bo'ldi.

10 marta (soniya) Raqibning chap qo'li yengidan ushlab o'ng oyog'iga ilib chap oyoqqa tayanib oldinga orqaga sakrash tajriba guruhida $8,31 \pm 1,15$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich $7,92 \pm 1,21$ soniyani tashkil qildi.

10 marta (soniya) Raqibning qo'l tirsagidan ushlab o'ng oyog'I bilan oldin chap oyog'iga keyin o'ng oyog'iga tirash tajriba guruhida $9,98 \pm 1,31$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida $9,87 \pm 1,12$ soniyani tashkil qildi.

10 marta (soniya) Raqibning chap yelkasidan ushlab chap qo'li bilan qo'l tirsagidan ushlab oyog'I bilan ilib olish tajriba guruhida $27,02 \pm 2,95$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida $26,78 \pm 3,39$ soniyani tashkil qildi.

10 marta (soniya) Raqibning qo'li tirsagida o'ng oyog'i bilan raqibning chap oyoq to'pig'iga chap oyog'I bilan esa o'ng oyoq to'pig'ining orqa qismiga tirash tajriba guruhida $16,69 \pm 1,99$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, $17,05 \pm 2,02$ soniyani tashkil qildi.

10 marta (soniya) Raqibning qo'l tirsagidan ushlab o'ng va chap oyog'i bilan raqibning chap oyog'I to'pig'ining ichkari va tashqari tomoniga tirash tajriba guruhida $12,01 \pm 1,73$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida $11,88 \pm 1,92$ soniyani tashkil qildi.

Tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhi kurashchilarining ko'rsatgan texnik natijalari

№	Ko'rsatkichlar mazmuni	Tajriba guruhi ohirida			Nazorat guruhi ohirida			t	P
		X1	σ	V%	X2	σ	V%		
1	Raqibning chap qo'li yengidan ushlab o'ng oyogini raqibning o'ng oyogiga ilib chap oyoqqa tayanib oldinga orqaga sakrash 10 marta (soniya)	7,06	1,01	14,31	7,88	1,11	14,09	2,620	P<0,05
2	Raqibning qo'l tirsagidan ushlab o'ng oyog'i bilan oldin chap oyog'iga keyin o'ng oyog'iga tirash 10 marta (soniya)	8,61	1,11	12,89	9,51	1,22	12,83	2,617	P<0,05
3	Raqibning chap yelkasidan ushlab chap qo'li bilan qo'l tirsagidan ushlab oyog'I bilan ilib olish 10 marta (soniya)	23,63	2,91	12,31	25,95	2,97	11,45	2,676	P<0,05
4	Raqibning qo'li tirsagida o'ng oyog'I bilan raqibning chap oyoq to'pig'iga chap oyog'I bilan esa o'ng oyoq to'pigining orqa qismiga tirash 10 marta (soniya)	15,13	1,83	12,10	16,65	1,92	11,53	2,748	P<0,05
5	Raqibning qo'l tirsagidan ushlab o'ng va chap oyog'i bilan raqibning chap oyog'I to'pig'ining ichkari va tashqari tomoniga tirash 10 marta (soniya)	10,81	1,21	11,19	11,14	1,42	12,75	0,848	P>0,05

Tadqiqot davomida ko'zlangan maqsadga erishish uchun sportchi qizlarning tajriba oxirida ko'rsatgan natijalarining qiyosiy taxlili mazkur jadvalda berib o'tilgan.

10 marta (soniya) Raqibning chap qo'li yengidan ushlab o'ng oyogini raqibning o'ng oyogiga ilib chap oyoqqa tayanib oldinga orqaga sakrash tajriba guruhida $7,06 \pm 1,01$ soniyani

tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich $7,88 \pm 1,11$ soniyani tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

10 marta (soniya) Raqibning qo'l tirsagidan ushlab o'ng oyog'i bilan oldin chap oyog'iga keyin o'ng oyog'iga tirash tajriba guruhida $8,61 \pm 1,11$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida $9,51 \pm 1,22$ soniyani tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

10 marta (soniya) Raqibning chap yelkasidan ushlab chap qo'li bilan qo'l tirsagidan ushlab oyog'i bilan ilib olish tajriba guruhida $23,63 \pm 2,91$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida $25,95 \pm 2,97$ soniyani tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

10 marta (soniya) Raqibning qo'li tirsagida o'ng oyog'i bilan raqibning chap oyoq to'pig'iga chap oyog'i bilan esa o'ng oyoq to'pigining orqa qismiga tirash tajriba guruhida $15,13 \pm 1,1,83$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida $16,65 \pm 1,92$ soniyani tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

10 marta (soniya) Raqibning qo'l tirsagidan ushlab o'ng va chap oyog'i bilan raqibning chap oyog'i to'pig'ining ichkari va tashqari tomoniga tirash tajriba guruhida $10,81 \pm 1,21$ soniyani tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida $11,14 \pm 1,42$ soniyani tashkil qildi. Farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Tadqiqot yakunida tajriba guruhlarini kurashchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlar dinamikasining tahlili shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhi kurashchilarining ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi kurashchilarga nisbatan ancha ustun ekanligi ma'lum bo'ldi va ishonchlik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi.

Sport kurashlari bo'yicha sportchi-qizlarni tayyorlash jarayonida kurashchilarning UJT va MJT darajasini oshirishning mavjud bo'lgan omillaridan biri sifatida malakali kurashchilarning tayyorgarlik bosqichlarida qo'llaniladigan har xil yuklamalar tizimlashtirildi. Shu jumladan, kurash bo'yicha malakali sportchilarni tayyorlashda yuklamalarning kattaligi va tajriba davomida yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlarni rasional navbatda almashtirib tashkil qilish natijasida olingan ko'rsatkichlar asosida amaliyotda, tanlangan yo'nalish dasturiga asosan tuzilgan mikrosikllarda sportchilarning jismoniy qobiliyatlari va sport natijalarini jiddiy o'sishini ta'minlab beruvchi imkoniyatlarning ahamiyati ko'rsatib berildi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zamonaviy kurash amaliyoti kurash uslubini kombinatsion tushunishdan vaziyat uslubiga o'tdi, bu ishonchni, raqibning kuchidan foydalanish qobiliyatini, o'ziga ishonishni va moslashuvchanlik asosida, hozirgi paytda zarur bo'lgan xar qanday texnik xarakatni bajarish uchun jismoniy qobiliyatni (tayyorlikni) rivojlantirish murakkab tayyorgarlikni talab qiladi. Zamonaviy va informatsion tadqiqot usullari to'plamidan foydalangan holda o'tqazilgan ko'p yillik eksperimental ma'lumotlar natijalari sport kurash turlarining o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan holda sportchilarni sport turlari bo'yicha tayyorlashning turli jixatlari to'g'risida bir qator fundamental uslubiy qoidalarni ilgari surishga imkon berdi. Kurashchining sport maxoratining ko'p qirraligi va uning motor-koordinatsion tuzilishining murakkabligiga kiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi, vaziyatlarni tezda baxolash, yetarli qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish qobiliyatiga aloxida talablar qo'yadi. Sport mashg'ulotlari mutaxassislarining fikriga ko'ra, nazariy, psixologik, intellektual, umumiy va maxsus jismoniy, shuningdek texnik va taktik tayyorgarlikdan iborat ixtisoslashtirilgan kompleks ishdur. Ular kurashchini tayyorlashning turli jixatlari bilan chambarchas bog'liq va qoida tariqasida, agar ular xar tomonlama amalga oshirilsa, sport natijalariga muvaffaqiyatli ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Azizov N.N. Malakali dzyudochilarning maxsus va musobaqa oldi tayyorligini shakllantirish: dis.ped.fan.nomzodi. –Toshkent, 2007. 32-33 bet
2. Alixanov, I.I. Texnika i taktika volnoy borby. – M.: Fizicheskaya kultura i sport, 1986. – 304
3. Bagayev S.V. Sovremennyye tendentsii v strukture sredstv tekhniko-takticheskix deystviy v volnoy borbe i metodika ix sovershenstvovaniya: Avtoref. dis. . kand. ped. nauk. - Moskva, 1998.-24-28s
4. Bakiyev Z.A. Individualizatsiya tekhniko-takticheskoy podgotovki borsov na osnove avtomatizirovannogo analiza sorevnovatelnoy deyatelnosti/ dis. kand. ped. nauk./ 2009.- st 117-119.
5. Bakiyev Z.A. Sportni boshqarish asoslari/ Darslik. –Toshkent: "Ita-press" nashriyoti 2021.- b.230-239.

FITRATNING “OILA” ASARI ASOSIDA TALABALARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismoilova Marhabo Hamitovna,
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya maqolada muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgan zamonaviy pedagogik ta'limdotalabalarnimustaqilhayotgatayyorlashningilmiy-nazariyasoslarinitakomillashtirish, Abdurauf Fitratning “Oila” asari asosida ijtimoiy oila ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar ham talabalar hayotiy ko'nikmalarining rivojlanganlik darajalarini turli aspektlarda tekshirib ko'rilmogda. Jumladan, talabalarni oilaga tayorlashda ijtimoiy pedagogik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda amaldagi Pedagogika nazariyasi va tarixi, Ijtimoiy pedagogika, Tarbiya darsliklari o'zi bilan chegaralanib qolinmoqda. Xulosa qismida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini Oila asari asosida metodik takomillashtirish bo'yicha takliflar bayon qilingan.

Kalitso'zlar: Pedagogikta'lim, talaba, mustaqil hayot, ilmiy-nazariy, asos, takomillashtirish, Abdurauf Fitrat, oila, ehtiyoj, baxtli bo'lish, davlat, jamiyat, kuch, imkoniyat, yoshlar; o'z fikri, yuksak ma'naviyat.

СОВЕРШЕСТВОВАНИЕ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ЖИЗНИ НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ФИТРАТА “СЕМЬЯ”

Исмоиловой Мархабо Хамитовна
Преподаватель Ташкентского университета прикладных наук

Аннотация В статье основное внимание уделяется совершенствованию научно-теоретических основ подготовки студентов к самостоятельной жизни, что становится важным в современном педагогическом образовании, социальным семейным навыкам на основе работы Абдурауфа Фитрата “Семья”. Международные исследования также изучают уровень развития жизненных навыков студентов в различных аспектах. В частности, учебники по теории и истории педагогики, социальной педагогике, педагогике ограничиваются развитием социально-педагогических навыков и компетенций по подготовке учащихся к жизни в семье. В заключении представлены предложения по методическому совершенствованию научно-теоретических основ подготовки студентов к самостоятельной жизни на основе работы Семьи.

Ключевые слова: Педагогическое образование, студент, самостоятельная жизнь, научно-теоретическая, фундамент, совершенствование, Абдурауф Фитрат, семья, потребность, счастье, государство, общество, власть, возможность, молодость, собственное мнение, высокая духовность

IMPROVING THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF PREPARING STUDENTS FOR INDEPENDENT LIFE BASED ON FITRAT'S WORK “FAMILY”

Ismoilova Marhabo Hamitovna,
lecturer at Tashkent University of Applied Sciences

Abstract: The article focuses on improving the scientific-theoretical foundations of preparing students for independent life, which is becoming important in modern pedagogical education, on the social family skills based on Abdurauf Fitrat's work “Family”. International studies are also examining the development levels of students' life skills in various aspects. In particular, the theory and history of practical pedagogy, social pedagogy, educational textbooks are limited to the development of social pedagogical skills and competencies in preparing students for family life. In the conclusion, proposals for methodical improvement of

the scientific and theoretical foundations of preparing students for independent life based on the work of the family are presented.

Keywords: Pedagogical education, student, independent life, scientific- theoretical, basis, improvement, Abdurauf Fitrat, family, need, being happy, state, society, power, opportunity, youth, own opinion, high spirituality.

Dunyo ta'lim tizimi insonni kamolotga yetkazishda, unga berilayotgan ta'lim mazmunini talabalar hayotida foydalana olish darajalari nuqtai nazaridan takomillashtirmoqda. Davlatning taraqqiyoti uning yoshlariga berilayotgan ta'lim sifati, talabalarning egallagan ko'nikma va malakalariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Zamonaviy pedagogik ta'limda talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida ustida ishlash, Ijtimoiy oila ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar ham talabalar hayotiy ko'nikmalarining rivojlanganlik darajalarini turli aspektlarda tekshirib ko'rilmog'ida. Jumladan, talabalarni oilaga tayyorlashda Abdurauf Fitratning "Oila" asari orqali ijtimoiy hayotga tayyorlash, ijtimoiy pedagogik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda amaldagi Pedagogika nazariyasi va tarixi, Ijtimoiy pedagogika hamda tarbiya darsliklari o'zi bilan chegaralanib qolinmoqda. Ma'lumki, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda Abdurauf Fitratning Oila asari ustida ishlashni taqozo qiladi. Jahon tajribasida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga mo'ljallangan trening-topshiriqlari ko'pincha ijtimoiy fanlarga bog'lanadi. Pedagogik ta'limda talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda Abdurauf Fitratning "Oila" asariga bo'lgan ehtiyoj kundan-kun ortib bormoqda. Talabalarga Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish Oila asaridan foydalanish yo'llarini o'rgatish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish zarurati mavjud.

Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deb ta'kidlanishi pedagogika ta'limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini mustaqil hayotga tayyorlashdek yuksak ma'naviyatli fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. OTMlarining Pedagogika darslarida ham, oliy ta'limda ham negadir Abdurauf Fitratning Oila asaridan samarali foydalanilmaydi bu talabalarga, mustaqil hayotga tayyorlay olmaslikka sabab bo'lmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik sharofati bilan oilaning ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun ham o'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Oila - jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", - deb belgilab qo'yilgan. Oila - har bir xalq, millatning davomiyligini saqlaydigan, qadriyatlar barqarorligini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy, jismoniy barkamol qilib yetishtiradigan, ijtimoiy institutdir. Shunga ko'ra, o'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi"da: "Ota -ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy - axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart", deb ta'kidlanadi. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy omillarning ahamiyati nihoyatda ortib borayotgan hozirgi davrda oilani mustahkamlash, qadriyatlar va an'analarni o'zlashtirish, uyg'unlashtirish har bir millatning birinchi darajali vazifasi bo'lib qolmoqda.

Taraqqiyotning barcha davrlarida ham "Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini qanday takomillashtirish kerak, Abdurauf Fitratning Oila asarini qanday o'rganish kerak?" degan eng muhim savolga hamisha javob izlab kelgan va bu jarayon uzluksiz davom etmoqda. Olimlar talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish mazmuni deganda o'rganish uchun tanlangan va talabalarning o'zlashtirishlari uchun metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy, tarixiy qadriyatlar va tajribaning bir qismi sifatida tushunsa, boshqa bir guruh olimlar talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda Abdurauf Fitratning "Oila" asari

bilan birga uni o'rganish usullarini ham anglaydi.

Respublikamizda ham Abdurauf Fitratning "Oila" asari ijtimoiy kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi, ijtimoiy kompetensiyalar negizida har bir talabani mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga doir alohida kompetensiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinadi. Tajribada talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning "Oila" asarini pedagogik, metodik talablar asosida o'qitish yo'lga qo'yilmoqda. Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. OTM ta'lim tizimida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga samarali foydalanish, bilan bog'liq topshiriqlar mazmunini takomillashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqolada muayyan darajada xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida tarixiy tajribalardan foydalanishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda Abdurauf Fitratning "Oila" asarini pedagogik tadqiq etish, oila tarbiyasiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirish - har bir xalqda doimiy muammo bo'lib, u muayyan millat va jamiyatda o'zining ijtimoiy pedagogik xususiyatlariga ega. Shunga ekan, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini anglay olish lozim[5].

Jamiyatning yetuk mahsuli, yaxshi fazilatlar va hayotiy kasb - hunarga ega bo'lgan barkamol shaxsni yetkazib berishdir. Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning "Oila" asarini tahlil etar ekanmiz asosan pedagogik turkum fanlar sirasiga mansub bo'lib, oila tarbiyasining vazifalari keng yoritilgan. D.Axatova., Abdujalilova Sh.A., M.E.Axmedova kabilarning pedagogik tadqiqotlari salmoqli o'rin tutadi. Adabiy ta'lim sohasida B.Ergashev, B.Qosimov., N.Karimov., I.G'aniyev., H.Boltaboyev, Sh.Vohidov, D.Toshqulov, Jumladan, professor B.Hosimov Abdurauf Fitratning ijtimoiy - siyosiy va adabiy faoliyati masalasiga, professor N.Karimov Abdurauf Fitratning ijtimoiy faoliyatiga yuksak baho beradi. I.G'aniyev Abdurauf Fitratning filologik faoliyatini uning she'riyati, adabiy asarlari va "Abulfayzxon" drammasi misolida tadqiq etib, nomzoddik dissertatsiyasi va "Abdurauf Fitrat drammalari poetikasi" (1998) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. H.Boltaboyev "XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shuningdek, Abdurauf Fitratning ilmiy, adabiy merosini to'plab, uch jilddik kitob sifatida chop ettirgan. Abdurauf Fitrat merosi falsafa va huquqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilgan. Bu sohada B.Ergashev va D.Toshqulovlarning tadqiqotlari katta ahamiyatga egadir. Tarix fanlari doktori Sh.Vohidov Abdurauf Fitratning pedagogik xarakterdagi "Oila" asarini forschadan o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan (1998, 2001). Bu mutaxasislarni Abdurauf Fitratning ilmiy pedagogik merosiga murojaat qilishga undaydi. G'oyibova Sh.O. Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tadqiq etgan[4].

2022 yilda Sh.Olimov tomonidan Abdurauf Fitratni ilmiy merosini o'rganish bo'yicha turk tilida Turkiya davlatida olib borilgan tadqiqot ishi juda yuksak baholandi, bu ham bolsa Abdurauf Fitratni organishga bo'lgan ehtiyoj Turkiya davlatida ham yuqori ekan[3].

Xoshimov K, R.Hasanovning pedagogika tarixi darsligida Abdurauf Fitratning pedagogik merosiga tayanib yashash mumkin bo'lgan arboblardan biri, deya ta'kidlagan. Jadid ma'rifatparvari. Abdurauf Fitratdir (1884-1938). U oila tarbiyasiga oid maxsus risola yaratgan, bu risola o'z davrining Oila konsepti hisoblangan. Umuman, Abdurauf Fitrat ijodini har tomonlama, ayniqsa, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda "Oila" asarini pedagogik muammolari nuqtai nazaridan tadqiq qilish dolzarb masalalardan biridir.

Abdurauf Abdurauf Fitratning ma'naviy -ma'rifiy, pedagogik merosi mustaqillik yillarida keng o'rganilmoqda pedagogika tarixi sohasida K.Hoshimov, S.Nishoinovalarning darsligi muhim ahamiyatga ega. "Pedagogika tarixi" fanidan darslik hamda M.E.Axmedova tomonidan "Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari uchun" o'quv qo'llanmasida ilk bor Abdurauf Fitratning pedagogik merosiga metodik ilmiy baho berildi. Mazkur darslik va o'quv qo'llanmalar mustaqillik yillaridan keyin yaratilgan ilk metodik manbalardir[1].

"Pedagogika tarixi"ga oid Sharq mutafakkirlari va jadid ma'rifatparvarlari, jumladan, Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan yondashilgan holda yoritilgan. Bundan tashqari, M.E.Axmedova tomonidan Pedagogika nazariyasi va tarixi nomli o'quv qo'llanmasida asosan Abdurauf Fitrat merosi ilmiy-metodik tarzda yoritilgan[2].

Muzaffar Xayrullayev tomonidan nashrga tayyorlangan "Ma'naviyat yulduzlari" nomli ilmiy kitobda ham Abdurauf Fitratning pedagogik merosi haqida keng fikr bildirilgan.

Durdona Axatova tomonidan "Abdurauf Abdurauf Fitratning ma'rifiy - pedagogik qarashlari" mavzusida tadqiqot ishida uning pedagogik merosini tizimlashtirishga intildi va quyidagi muhim masalalarni tadqiq etdi:

Abdurauf Fitrat pedagogik merosini o'rganish, umumlashtirish va tizimlashtirish uning pedagogik qarashlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi jihatlarni ochib bergan, atoqli ma'rifatparvarning pedagogik faoliyati misolida uning O'zbekiston xalq maorifi tizimi va pedagogik fikrlar rivojlanishidagi o'rnini aniqlagan, Abdurauf Fitrat pedagogik qarashlarini mustaqil O'zbekiston Respublikasi siyosati va o'quv -tarbiya jarayoni vazifalariga uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qilingan, pedagogik ta'limning zamonaviy tizimida Abdurauf Fitrat darsliklari, g'oyalari va nazariyalarining ahamiyatli jihatlardan foydalanish yo'llarini belgilash muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslangan.

Abdualilova Shoira Abdumajitovna tomonidan Abdurauf Fitratning Oila tarbiyasiga oid qarashlari nomli tadqiqot ishida, oila pedagogikasiga oid muammolar bilan ham jiddiy shug'ullangan. Lekin uning oila tarbiyasiga oid qarashlari tadqiq etilgan bo'lsa-da, unda oilaning ichki omillari, xususiyatlari hamda talaba yoshlarni mustaqil hayotga tayorlashning ilmiy-nazariy asoslari yoritilmagan.

Shunga ko'ra, biz tadqiqot mavzusi sifatida "Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish" (Abdurauf Fitratning "Oila" asari misolida) mavzusini tadqiq etishga harakat qildik. Zero, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida talabalarni oilaviy hayotga tayorlash muammolarini tadqiq etish asosiy vazifalardan biriga aylandi va bu ishlarni muvofiqlashtirib borishda soha mutaxassislari va tadqiqotchilarning o'zni kattadir.

Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish mazmunini tasniflashda, metodik xususiyatlarini aniqlashda dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash hamda talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda Abdurauf Fitratning "Oila" asarini ilmiy-metodik hamda ijtimoiy-nazariy o'rganish, oilada ixtisoslashuv sabablarini aniqlash, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid munosabatlarni yuzaga chiqarishdagi ishtirokini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Abdurauf Fitratning ilmiy – pedagogik merosi hamda "Oila" asarida bayon etilgan oila tarbiyasiga doir g'oyalari, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va inonparvarlik tamoyili asosida talabalarni oilaga tayorlashning ilmiy-nazariy asoslari mantiqiy tuzilmasi komponentlarining mazmuni takomillashtirilgan ta'limida tutgan o'zni va vazifalar hamda Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid ilmiy pedagogik g'oyalari o'rganilgan, bir tizimga keltirilgan hamda talabalarni ijtimoiy jihatdan oilaga moslashish kompetensiyaning tizimli hosil bo'lishi va rivojlanishiga erishish mumkin. Interfaol (Interactive education), muammoli (Problematic education), loyiha (Project education) hamkorlik ta'limi (Gooperativ education) texnologiyalarining samarali (muammolilik, mantiqiylik, ijodiy va amaliy yo'nalganlik imkoniyatlaridan foydalanish asosida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari metodik takomillashtirilgan va pragmatik usulda yondashishning ilmiy-metodik afzalliklari, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda Abdurauf Fitratning Oila asarini o'rganish darajalarini belgilovchi adekvat mezonlarning miqdoriy, vazniy, sifatii,

natijaviy parametr va oila indikatorlarini aniqlashtirish orqali talabalarning oila tarbiyasiga oid qarashlari qisman izlanuvchi, ijodiy-kreativ harakterdagi ob'ektiv baholash mazmuni takomillashtirilgan o'rgatish yo'llari, turlari va qo'llanadigan innovatsion metodlar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati pedagogik turkum fanlarni takomillashtirishda talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda Abdurauf Fitratning "Oila" asarida oilaga tayyorlash ta'limi mazmunini isloh qilish nuqtai nazaridan monografik tarzda tadqiq etilgani bilan belgilanadi. OTM pedagogik turkum fanlar darsliklari, o'quv qo'llanmalar, talabalarni oilaviy mustaqil hayotga tayyorlash mexanizmlarini yaratishda, fan dasturlarini tuzishda, ma'ruza matnlarini tayyorlashda material, Tarbiya fanini o'qitish bo'yicha magistratura yo'nalishlari uchun pedagogik turkum fanlardan qo'llanmalar yaratish va o'qitishni yanada takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev B. Iz istorii stanovleniya i razvitiya obshestvenno - politicheskix idey djadidizma, ideologiya mladobuxarsev: Tarix fanl.dokt. diss.avtoreferati. - Toshkent, 1993;
2. Qosimov B. Milliy uyg'onish. - Toshkent, Ma'naviyat, 2002. 349 -373 -b;
- Karimov N. So'nggi so'z. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2 jild. - Toshkent, Ma'naviyat, 2000. 203 -206 -b.
3. G'aniev I. Abdurauf Fitrat: E'tiqod va ijod.- Toshkent, Kamalak, 1994. Abdurauf Fitrat dramalari poetikasi Fil.fanl.dokt...diss. - Toshkent, 1998;
4. H.Boltaboyev XX asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi:fil.fanl.dokt...diss.avtoreferati. -Toshkent, 1996.
5. Tashkulov D. Osnovniy napravleniya politiko - pravovoy misli narodov Uzbekistana vo vtoroy polovine XX - pervoe chetverti XX vv: Fals.fanl.dokt. diss.Avtoreferati, -Toshkent, 1995
6. G'oyibova Sh.O.Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini pedagogika fanlari nozodlik dissertatsiyasi. T.1998 y.143 b
7. Sh.Olimov Fitrat merosini o'rganish. Ilmiy tadqiqot ishi. Turkiya 2022 yil. 314 bet
8. K. Xoshimov, Hasanov R. Abdurauf Fitrat. Pedagogika tarixi. - Toshkent, O'qituvchi, 1996 - 307 -320.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI KICHIK GURUH TARBIYALANUVCHILARINI OILADA MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA AXLOQIY TARBIYALASH MAZMUNI

Jabborova Saodat Zoirovna

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini oilada milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalash mazmuni, davlat o'quv dasturlari mazmunida oilaviy qadriyatlarga e'tibor, uning maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, shuningdek, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim-tarbiya metodlari, usullari, farzand tarbiyasida ota-ona ibratí, oilada bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiyasida xalq hikmatlari, maqol va iboralar, hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlarda xalq foydalangan metod va usullarni hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo'llash muhimligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oilaviy qadriyatlar, davlat o'quv dasturlari, o'quv-tarbiyaviy faoliyat, oilaviy hayot, ta'lim-tarbiya metodlari, usullari, ota-ona ibratí, aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiya, xalq hikmatlari, maqol, ibora, hikoyat, rivoyat, ertak, doston.

Аннотация. В статье рассматривается содержание нравственного воспитания воспитанников младших групп в семье средствами национальных ценностей, внимание к семейным ценностям в содержании государственных образовательных программ, его цели и задачи, основные идеи учебно-воспитательной деятельности, а также методы, приемы воспитания в национальных ценностях узбекского народа при подготовке подрастающего поколения к семейной жизни, родительский пример в воспитании детей, в умственном, нравственном, трудовом и ремесленном, эстетическом и физическом воспитании детей в семье используются народные мудрости, пословицы и поговорки, пословицы, поговорки, сказки, в былинах говорится о важности применения народных методов и приемов в настоящее время для подготовки молодежи к семейной жизни.

Ключевые слова: семейные ценности, государственные образовательные программы, учебно-воспитательная деятельность, семейная жизнь, методы, приемы воспитания, родительский пример, умственный, нравственный, трудовой и ремесленный, эстетический и физкультурный, народная мудрость, пословица, поговорка, сказка, сказка.

Annotation. The article discusses the content of moral education of preschoolers in the family by means of national values of a small group of schoolchildren, the emphasis on family values in the content of state educational programs, its goals and objectives, the main ideas of educational activity, as well as educational methods, methods in preparing the younger generation for family life in the national values of the Uzbek people, , the epics discuss the importance of using the techniques and techniques used by the people to prepare young people for family life in the present era.

Keywords: family values, state educational programs, educational activities, family life, educational methods, methods, parent lesson, mental, moral, labor and trade, aesthetic and physical education, folk wisdom, proverb, phrase, proverb, narrative, fairy tale, epic.

O'zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq jamiyat hayotida milliy qadriyatlarni tiklash va ular asosida barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida turish huquqiga ega" deb ta'kidlanishi bilan birga ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetganlariga qadar boqish va tarbiyalashga, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majbur ekanliklari 64, 66 – moddalarda ko'rsatilgan.

Darhaqiqat, oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash kelajagimiz garovidir. Shuning uchun ham bolalarda yoshligidanoq milliy urf-odatlar, udumlar, an'analar va axloqiy madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirish, oilaga bog'liq. Bolaning pok va sof sadoqat, ma'naviy jihatdan yuksak bo'lib o'sishi, oilaga, oiladagi mustahkam, tinch va totuvligiga bog'liq. Chunki, unda tarbiyalanayotgan yosh avlod ham ma'naviy jihatdan yetuk, sog'lom, mustaqil fikrli

komil inson bo'lib voyaga yetadi. Albatta bolaning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi oila totuvligi, uning davomiyligi oila a'zolarining ruhiyatiga o'zligini qanchalik darajada anglaganligida, o'z mustaqil fikriga, dunyoqarashiga, chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgandagina to'raligicha ta'minlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil etilganda bolalarning tarbiyasi muammo sifatida tarixiy xarakter kasb etib, bu borada Kaykovus, Beruniy, Qoshg'ariy, ibn Sino, Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ilmiy va didaktik manbalar tarbiyashunoslikda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada bola tarbiyasi, odob, axloq masalalari ulug' pedagoglar Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat asarlarining negizini tashkil etadi.

D.Abdurahimova, M.Inomova, V.Karimova, M.Mahmudova, O.Musurmonova, A.Muxsieveva, N.Ortiqov, M.Salaeva, M.Umarova, O'.Shamsiev, Sh.Shodmonova, M.Yakubbekova, M.Quronov ilmiy ishlarida bolalar, o'spirinlarda ma'naviyat, axloq, milliy g'urur, madaniyatni shakllantirish, ota-ona munosabatining bola shaxsini tarbiyalashdagi o'rni, milliy qadriyatlarining o'ziga xosliklari tadqiq qilingan. Respublikamizda oila tarbiyasiga oid ishlar A.Zunnunov, M.Inomova, A.Munavvarov, V.Karimova, O.Musurmonova kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan, qadriyatlar, ularning turlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro aloqadorligi va mushtarakligini ta'minlash muammolarini yoritishda A.Valiev, E.Yusupov, J.To'lenov, A.Jalolov, Q.Nazarov kabilarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga molikdir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy merosni hamda milliy istiqloq g'oyasini pedagogik nuqtai-nazardan o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etish borasida N.Ortiqov, B.Qoraeva, N.Mahmudova kabi ko'plab olimlarning ishlari diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, insonning qadr-qimmatini, sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq. Milliy qadriyatlar har bir kishining tili, dini, tarixi, adabiyoti, san'ati, rasm-rusmlari, urf-odatlarini, bayramu-sayillari, boshqacha aytganda madaniy-ma'naviy merosi, insoniy fazilatlari, xislatlarining yig'indisidir. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan insoniylik, odamiylikka xos fazilatlari, xislatlar, xosiyatlarni, milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Milliy qadriyatlar millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Boshqacha aytganimizda, milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq. Shuning uchun ham, «Milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham, millat o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi-yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishdan kelajakka tomon yetkazib boradigan eng asosiy ob'ektdir».

Milliy qadriyatlar millat yaratgan madaniy-ma'naviy merosni, xususan, millat kishilariga xos barcha insoniy fazilatlari, xislatlarni o'tmishdan bugunga yetkazadi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga har bir millatning o'zi mas'uldir. Har qanday sharoitda ham, chunonchi, biror millat ozod, farovon bo'lganda ham, qullik, tobelik iskanjasiga tushib qolganda ham, unda milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun ichki imkoniyat mavjud bo'ladi.

Milliy qadriyatlar kishilar tarixiy birligini ta'minlaydigan etnik makonda shakllanadi va turli-tuman shakllarda namoyon bo'ladi. Kishilarning ongi va faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Odamlarning kundalik turmush tarzida, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarida, manfaatlarida, qiziqishlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar bir joyda qotib qolmaydi, tarixiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib, takomillashib boradi. Yangicha mazmun va shaklga kiradi.

Shu xususiyati bilan milliy qadriyatlar millatning o'ziga xos qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lovchi xalqa hisoblanadi. Eng asosiysi milliy qadriyatlar, umummilliy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorlikda, dialektik birlikda rivojlanadi. Bir millat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar keyinchalik umummilliy qadriyatlarga ham aylanishi mumkin. Masalan, milliy qadriyatimiz hisoblangan Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi kashfiyotlari, Beruniy yoki Al-Xorazmiyning matematika sohasidagi kashfiyoti, imom Buxoriyning islom olamining rivojiga qo'shgan hissasi, Ulug'bekning astronomiya faniga, Amir Temurning bunyod qilgan tarixiy obidalari, Boburning Hind diyorida mamlakatni idora qilish, obodonchilik ishlari, Alisher Navoiyning she'riyat mulkiga qo'shgan hissasi kabilari bugungi kunda umuminsoniy

qadriyat hisoblanadi. Chunki ushbu qadriyatlardan butun dunyo mamlakatlari foydalanadilar hamda barcha fanlar taraqqiyoti uchun qadrlı, ahamiyatli hisoblanadi.

Demak, milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa sanalib, u o'z doirasiga shu millatning tili, dini, tarixi, madaniyati, urf-odatları, an'analari hamda moddiy va ma'naviy boyliklarini, shu xalqning ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar ham turlariga ko'ra moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'linadi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar moddiy qadriyatlarga nisbatan yashovchan xarakterga egadir. Milliy qadriyatlar jamiyat madaniyatining rivojlanishida juda katta rol o'ynaydi. Har bir xalq o'zligini o'tmish ma'naviy madaniyati orqali anglaydi. O'zining kelajakdagi yo'lini belgilab oladi va jahon tarixida o'z o'rniga ega bo'ladi. Shuning uchun inson ma'naviy madaniyati, dunyoqarashini ijobiy tomonga yo'naltirish har bir jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Milliy-ma'naviy meros kelajak avlod uchun vorislik vazifasini o'taydi. U orqali o'tmish madaniyatimizni bilib olamiz.

Milliy-ma'naviy qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega. Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi har bir millatning o'ziga xos tarixi, tili, madaniyati, axloqiy va psixologik xususiyatlari, yashash sharoiti, turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'langandir. Milliy qadriyatlarning har-bir ko'rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin.

Millat mavjud ekan, milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi. Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanishi va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi. Umuman olib qaraganimizda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy etnik birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir.

Milliy qadriyatlarni tiklash, ularga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham, mustaqillikni qo'lga kiritishimiz bilan oq, o'zbekona qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor berilayotir.

Milliy qadriyatlar ma'lum bir millatga xos bo'lgan, o'zida shu millatning o'tmishini va kelajagini aks ettirgan, ajdodlari tomonidan yaratilgan va bugungi kunda shu millat uchun ahamiyatli va qadrlanadigan moddiy va ma'naviy boyliklari majmuasidir. Milliy qadriyatlar ham o'z navbatida moddiy va ma'naviy, ma'rifiy-siyosiy qadriyatlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Xalqimizning moddiy qadriyatlaridan biri, bu xalq amaliy san'atidir. Keyingi davrda qadriyatimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, ularni tiklash va rivojlantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Mana shu meros orqali yurtimiz madaniyati jahon kezib kelmoqda va dunyo xalqlari ushbu merosimiz orqali bizni tanimoqda. Xalqimiz o'zining boshqa halqlardan, biri-ikkinchisini takrorlamaydigan hunarmandchilik san'ati bilan farq qiladi. Qishloq va shaharlarda bu kasbga ixtisoslashgan sulolalar ko'p bo'lgan. Hunarmandchilik sirlarini kishilar bolaligidan o'rganishgan. Ota-onalar bolalarini yoshlikdan ustoz qo'lga topshirgan. Bu mashaqqatli kasb sirlarini shogirdlar ustadan o'rganishgan. Halqimiz orasida "Ustoz, otangdan ulug'" degan ibora shu boisdan ishlatilsa, ajab emas. Bu kasb egalari mehnat mahsulotlari orqali ro'zg'or tebratish bilan birga, o'z kasblarini juda qadrlaganlar. Hunarmandlar yaratgan hunarmandchilik mahsulotlarida milliylik aks etib turishi bilan birga, hunarmandning mohirona ustaligi-yu, ranglarning o'zaro uyg'unligini kuzatish mumkin bo'lgan. Bugungi kunda xalq hunarmandchiligi: kosibchiligi, chevarlik, naqqoshlik, o'ymakorlik, ganjkorlik, zargarlik, sandiqchilik, beshikchilik, temirchilik, gilamchilik, maxsido'zlik, kashtachilik kabi yo'nalishlari va ular mahsulotlari xalqimizning yuksak moddiy qadriyatlari hisoblanadi. Ularning yoshlarimiz tarbiyasiga ko'rsatadigan ta'siri nihoyatda kuchlidir, chunki yosh avlod bu meros orqali mehnatni qadrlashni, mehnatsevarlikni, nafis san'atni, yaratuvchanlikni, didlilikni, qolaversa milliy g'ururni anglay oladi va kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirishda o'z hissasini qo'shadi. Xalq amaliy san'ati bilan boshlang'ich sinf bolalari mehnat va tasviriy san'at darslarida, o'lkashunoslik sayohatlarida tanishadilar.

O'zbek milliy-ma'naviy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Shuningdek, o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, bir-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Bunday insoniy fazilatlar, xislatlarning qaror topishida Islom dinining alohida o'rni borligini unutmasligimiz kerak. Chunki millatimiz bir necha asrlardan buyon e'tiqod qilib kelayotgan Islom dinining asosi hisoblangan «Qur'onu-Karim» va «Hadisu-Sharif» qoidalarida insoniy fazilatlar, xislatlar eng oliy qadriyat sifatida har tomonlama

ulug‘langan.

Milliy-ma‘naviy qadriyatlar negizini esa an‘analar ya‘ni urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar tashkil etadi. Ana shu negizlardan biri an‘analardir. Har bir xalqning an‘ana va urf-odatlar shu xalq madaniyatining ko‘rinishidir. An‘analar jamiyatda asrlar bo‘yi joriy etilib, mustahkamlanib kelganligi uchun yashovchan xarakterga egadir.

An‘ana bu o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ongida, xayotida o‘z o‘rnini topgan, ajdodlardan-avlodlarga o‘tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalardir. Demak, an‘analar xalq ma‘naviy hayotining turli sohalarini o‘z ichiga oladi. Har bir millatning o‘ziga xos muayyan an‘analari borki, ular xalqning turmushini bezab turadi va milliy qadr qimmatini yuksaltiradi, hayotini mazmunli o‘tishiga sababchi bo‘ladi. Har bir yangi avlod o‘tmish avlodlarning tajribasini an‘analar orqali qabul qiladi.

An‘analar urf-odatlardan ko‘ra kengroq tushunchadir. An‘analar millat ijtimoiy hayotining hamma tomonlariga xos bo‘lib, ular ijtimoiy ongning hamma shakllarida bor, ularni faqat axloq, huquq, dinda emas, balki siyosat, fan, san‘atda, ba‘zan kishilarning ish faoliyatlarida ham uchratish mumkin.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlaridan oilada bolalarni axloqiy tarbiyalash imkoniyatlari deganda, uning oilada bolalarning axloqiy xislatlari, milliy qadriyatlarga hurmatlarini tarbiyalash tushuniladi. Shunday ekan, oilaviy tarbiyaga doir tushuncha va tamoyillar uning manbalari asosida yoshlarga etkaziladi. Bunda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarining manbalari keng va boy material beradi. Aytish lozimki, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida ta‘lim-tarbiyaga doir empirik bilimlar ko‘proq xalq og‘zaki ijodida namoyon bo‘lgan. Xalq og‘zaki ijodi-folklor-xalq donishmandligi bo‘lib, xalqning didi va zavqi, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy, badiiy-estetik qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ana shu qarashlari tarkibida turli sohalariga oid bilimlar ifodalanadi. Chunki xalqning butun hayotiy, ijtimoiy-maishiy turmush tajribasi maqollar va iboralarda aks etadi.

Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodining ijtimoiy qimmati ma‘rifiy, g‘oyaviy-tarbiyaviy va estetik ahamiyati bilan belgilanadi. Uning ma‘rifiy ahamiyati shundaki, u xalqning tarixi, urf-odati, maishiy turmushi, dunyoqarashi, hayotga munosabati, orzu-umidlari haqida bilim beradi. Shuning uchun ham bolalar ongiga milliy istiqloq mafkurasini singdirish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bularning barchasi xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyati katta ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni
2. 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorlari
3. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son «Maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi qarori
4. 2019-yil 11-iyundagi 487-sonli «Maktabgacha ta‘lim tizimiga ilg‘or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida» gi qarori
5. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152b
6. Мухсиева А.Ш. Оила педагогикаси. - Т.: Адабиёт учкунлари нашриёти, 2018 й.
7. Primova F.A. Oilaviy munosabatlarni shakllan- tirishda milliy va diniy qadriyatlarining o‘rni. Avto- ref.fals.fan.nomzodi. – T: 1999.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Meros, 1993, – 223 b.
9. Boboev H., Hasanov S. Avesto – ma‘naviyatimiz sarchashmasi. – T.: Adolat, 2001, – 158 b.
10. Nazarov Q. Aksiologik qadriyatlar falsafasi. Toshkent, 1998, 56-bet

AJDODLARIMIZ MA'NAVY MEROSINI DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA O'RGANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Jamoldinova Odinaxon Rasulovna
Pedagogika fanlari doktori, professor
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*Ziyoyeva Maxfuza Soataliyevna
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

Annotatsiya: ushbu maqolada ajdodlarimizning ma'naviy merosini dasturiy vositalardan foydalanib o'rganish masalasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, pedagogik dasturiy vositalarning mazmuni va mohiyati hamda ta'lim jarayonidagi didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy meros, elektron ta'lim, pedagogik dasturiy vositalar, virtual borliq, test dasturlari, mashq dasturlari, o'rgatuvchi dasturlar, iSpring, Hot Potatoes.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ НАШИХ ПРЕДКОВ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ

*Джамолдинова Одинахан Расуловна
доктор педагогических наук, профессор
Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои*

*Зияева Махфуза Соаталиевна
Государственный институт искусства и культуры Узбекистана*

Аннотация: данная статья посвящена вопросу изучения духовного наследия наших предков с помощью программных средств. Также раскрываются содержание и сущность педагогических программных средств и дидактических возможностей в образовательном процессе.

Ключевые слова: духовное наследие, электронное обучение, педагогические программные средства, виртуальное присутствие, тестовые программы, программы упражнений, обучающие программы, iSpring, Hot Potatoes.

DIDACTIC POSSIBILITIES OF STUDYING THE SPIRITUAL HERITAGE OF OUR ANCESTORS USING SOFTWARE TOOLS

*Jamoldinova Odinakhan Rasulovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature*

*Ziyoyeva Makhfuza Soataliyevna
State institute of Art and Culture of Uzbekistan*

Annotation: this article focuses on the issue of studying the spiritual heritage of our ancestors using software tools. Also, the content and essence of pedagogical software tools and didactic possibilities in the educational process are revealed.

Keywords: spiritual heritage, e-learning, pedagogical software tools, virtual presence, test programs, training programs, iSpring, Hot-Potatoes

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmonida keltirilganidek, oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash

borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud [1]. Zero bugungi globallashuv davrida yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash asosiy vazifalardan biriga aylandi.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalashda ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'rni beqiyos. Bugungi kunda ta'lim oluvchilarning zamonaviy talablarga mos bilim olishini ta'minlash maqsadida barcha o'quv muassasalari ta'lim muhitida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosini o'rganish jarayonida pedagogik dasturiy vositalardan samarali foydalanish talabalarning raqamli kompetentsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa ta'limiy resurslarning elektron nashrlarini yaratishda interfaol pedagogik dasturiy vositalarning o'rni va ahamiyati kattadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'kidlash joizki, so'nggi paytdagi islohotlarning natijasida yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. "Harakatlar strategiyasidan-taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyili asosida yettita ustuvor yo'nalishdan iborat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo'nalishida "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" orqali yoshlarimizni yot g'oyalardan himoya qilish dolzarb vazifa etib belgilandi. [2]. Bu esa yoshlarimizni yot g'oyalardan ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash hamda takomillashtirishda ijtimoiy pedagogikaning imkoniyatlarini o'rganish va tahlil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan maqsadning qo'yilishi yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash g'oyasi mujassamligi bilan ahamiyatli.

Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish ustuvor maqsadiga quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali erishis belgilandi:

IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans" shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish;

buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qalamiga mansub 100 ta asarning xalqchil tarjimasini amalga oshirish, ular asosida ilmiy va ommabop risolalar yaratish.

buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash" [2] kabi vazifalar ilgari surilgan .

Yangi O'zbekiston ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talablariga mos keluvchi malakali kadrlarni tayyorlash, hamda Uchinchi Renessans g'oyasini amalga oshiradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan axborot kommunikatsiya tarmoqlari bilan uzviy bog'lash va bosqichma-bosqich raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 5-oktyabdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli ta'limni rivojlantirish shuningdek, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda [3].

Jahon xalqlarining ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda Sharq xalqlari ma'naviy merosi alohida ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari, xususan Muso al-Xorazmiy, Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Jaloliddin Davoniy, Kaykovus, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Sa'di Sheroziy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimizning ilmiy-ma'rifiy merosi fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishda muhim tarbiyaviy o'ringa egadir. Bugungi kunda jahonda yoshlarni "ma'naviy qashshoqlik" va "axloqiy tubanlik" kabi illatlardan himoya etishda ham bu umumbashariy ma'naviy merosning o'rni beqiyosdir.

Sharq allomalarining inson sha'ni va oriyatini himoya qiluvchi insonparvarlik, hurfikrlilik va bag'rikenglik g'oyalari yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifatga yetaklashda asosiy nazariy manbadir. Mazkur nazariy manbalarni innovatsion texnologiyalar vositasida o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunda kredit-modul tizimi sharoitida o'quv jarayonini raqamli ta'lim texnologiyalarga asoslangan pedagogik dasturiy vositalar yordamida tashkil etish eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi. Oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan o'quv materiallarini zamonaviy dasturiy vositalar yordamida tayyorlash, undan foydalanib o'qitishni tashkil etish talabalarning imkoniyatlarini kengaytiradi. Albatta zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari asosida o'qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, elektron ta'lim texnologiyalari bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o'rganish ta'lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz.

Bugungi kunda ijtimoiy jamiyat raqamlashtirish tizimiga o'tayotgan bir vaqtda, ta'lim sohasi ham unga moslashishi, uning afzalliklaridan foydalanishi lozim. Buning uchun esa jamiyatga raqamli ko'nikmalarga ega va ilg'or texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan kreativ fikrlovchi kadrlarni yetishtirishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda qo'llanilayotgan va qo'llanilishi zarur bo'lgan elektron resurslar manbalariga o'quv materiallari: elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, audio va videodarslar, nazorat topshiriqlari, nostandart elektron testlar, kataloglar, turli xil interaktiv mashqlarni yaratuvchi dasturiy vositalarni misol keltirishimiz mumkin.

Oliy ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda o'quv adabiyotlarning elektron nashrlarini yaratish bugungi kun uchun dolzarb masaladir. Ayniqsa ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'rganish jarayonida pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Avvalo pedagogik dasturiy vositalar va ularning imkoniyatlari haqida qisqacha to'xtalib o'taylik.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomotlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik vosita hisoblanadi [5,14]. Pedagogik dasturiy vositalar zamonaviy o'qitish vositasi bo'lib, ularning tarkibiga o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy ma'lumot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha va yordamchi vositalar kiradi [7, 14].

I.V.Robert pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlarini quyidagicha ko'rsatib o'tadi: foydalanuvchining individual ish suratini ta'minlash imkoniyati; foydalanuvchi va shaxsiy kompyuter orasida darhol teskari aloqani ta'minlash imkoniyati; imitatsiyali-modellovchi faoliyatni bajarish imkoniyati; ham real, ham ekranda o'z aksini topgan obyektlar va jarayonlarni boshqarish imkoniyati; interaktiv rejimda ishlash imkoniyati; o'rganilayotgan obyektlar, hodisalar va jarayonlarni turli vizuallashtirish vositalaridan foydalanish imkoniyati [6, 35].

Hozirgi kunda pedagogik dasturiy vositalarning quyidagi turlari keng tarqalgan.

O'rgatuvchi dasturlar

Test dasturlari

Mashq dasturlari

Virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

O'rgatuvchi dasturlar – o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida

o'quvchilarning faoliyatini boshqaruvchi amaliy dasturlardir. Masalan ta'limni boshqarish tizimlari Moodle (LMS) - dunyoning istalgan nuqtasida istalgan qurilmadan foydalanish mumkin bo'lgan o'quv materiallari – video darslar, ma'ruzalar, taqdimotlar, kitoblar va ommaviy onlayn ochiq kurslardan iborat tizim. Moodle LMS tizimida yaratilgan kurslar o'zida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha interfaol o'quv materiallarni, ya'ni, sahifa, taqdimot, so'rovnoma, chat, forum, topshiriqlar, wiki, virtual maslahatlar ma'lumotlar bazasi, audio va video dars hamda testlarni qamrab olgan. Talabalar bu vizual o'quv muhitida axborotlar ustida jamoaviy va individual holda ishlashi, Moodle tizimi orqali loyihalashtirilgan interfaol o'quv sahifalari va virtual maslahatlardan samarali foydalanadilar. Talabalar tomonidan

topshiriqlarning bajarilishi o'qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi. Bu esa tizimda o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida interfaol mulohazani ta'minlaydi [4, 473].


Mazkur tizim orqali oliy ta'lim muassasalarida Pedagogika tarixi fanini o'qitishda ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini o'rgatish mumkin bo'lgan o'quv kurslari va o'quv materiallarining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish mumkin.

Elektron interaktiv doskalar bu – ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lib, kompyuter va proyektdan iborat majmua. Hozirgi kunda elektron interaktiv doskalardan uzluksiz ta'limning barcha turlarida keng foydalanib kelinmoqda. Elektron interaktiv doskalarining didaktik imkoniyatlari keng bo'lib, darslarni yanada qiziqarli va ko'rgazmali tarzda o'tishiga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma'naviy merosiga doir manbalarni diss.natlib.uz, arboblar.uz, ziyouz.uz, jadidlar.uz kabi internet saytlarida berilgan dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar, arxiv hujjatlari, rasmlar va video ma'lumotlar orqali dars jarayonida tanishishlari mumkin.

Test dasturlari - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi. Hozirgi ta'lim jarayonida easyQuizzy, iSpring QuizMaker, My Test, Ayren kabi universal test dasturlaridan keng foydalaniladi. Ayniqsa iSpring QuizMaker dasturi orqali 11 xil turdagi nostandart testlarni yaratish mumkin. Ushbu test dasturlari bir tanlovli, ko'p tanlovli, qiyosiy, tartibli, sonli, muvofiqlikni aniqlash kabi imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda o'quv jarayonida ko'p hollarda o'qituvchi tomonidan talabalarga berilayotgan joriy, oraliq va yakuniy nazorat topshiriqlari yuqoridagi test dasturlari asosida tashkil etilmoqda. Ajdodlarimizning pedagogik qarashlarini o'rganishda mazkur testlarning imkoniyatlaridan keng foydalanish o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mashq dasturlari – interfaol didaktik elektron o'yinlar va mavzuga doir topqirlik mashqlari. Hozirgi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarning o'quv jarayonida turli xil ta'limiy dasturiy vositalarning imkoniyatidan keng foydalaniladi. Jumladan iSpring Suite, Hot Potatoes dasturi orqali topshiriqlar beriladi. iSpring Suite dasturining interfaol didaktik mashqlar yaratish imkoniyati keng bo'lib, dastur orqali 3D o'lchamli kitoblarlar, lug'at va kataloglar yaratish mumkin. Masalan oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogika tarixi" yoki "Xalq pedagogikasi" fanlaridan mutafakkirlarimizning ma'naviy va ilmiy qarashlariga doir mustaqil ta'lim topshiriqlarini 3D o'lchamli kitoblarni yaratish orqali bajarsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Har qanday fanni o'rganish uchun esa Hot Potatoes dasturi orqali interfaol didaktik topshiriqlar yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hot Potatoes dasturi JCloze, JQuiz, JCross, JMix, JMatch, The Masher kabi qismlardan iborat bo'lib, ushbu dastur asosida yaratilgan didaktik elektron topshiriqlar talabaning motivatsion faoliyatini va darsga qiziqishini oshiradi. Masalan nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun "Pedagogika, Psixologiya" fanidan "Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyli" mavzusiga doir Hot Potatoes dasturining JCross qismida yaratilgan electron krossvordni ko'rishimiz mumkin.



Eniga:

1. Xalq pedagogikasi fanda qanday nomlanadi?
3. "Buyuk didaktika" asarining muallifi kim?
5. Ulug'bek davridagi madrasalarda uch yillik o'qishning o'rta bosqichi qanday nomlanadi?
6. Kaykovusning axloqiy-tarbiyaviy asari
8. Hozirgi geometriya fani o'rta asrlarda qanday nomlangan?
9. Qaysi allomaning didaktik qarashlarida bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak degan tushuncha bor?
11. Madrasa muallimlari
12. Beruniy ta'limotiga ko'ra inson kamolotida uch narsa muhim rol o'ynaydi: irsiyat, muhit.....
13. Miflar yana qanday nomlanadi?
15. Topqirlikni rivojlantiruvchi o'zbek xalq o'yini

Bo'yiga:

2. Abu Ali ibn Sino asarlaridan biri
4. Hadislarni to'plash, saralash va sharhlash bilan shug'ullangan allomalar
7. "Qat'iy qonunlar" ma'nosini beruvchi tarixiy manba
10. Birinchilardan bo'lib ta'lim va tarbiyaga ta'rif bergan sharq mutafakkiri
14. Ishonarli hadislar qanday nomlanadi?

1-rasm. "Ma'rifiy fikrlar taraqqiyoti va ularning tarixiyligi" mavzusi yuzasidan tuzilgan elektron krossvord

Mashq dasturlari avval o'zlashtirgan materiallarni takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar. Pedagogika ta'limida mavjud bosma ta'lim vositalari (darslik, o'quv va metodik qo'llanmalar, jadvallar, daftarlar)ning virtual imitatsion modellarini yaratish (elektron darslik, elektron qo'llanma, elektron jadvallar, elektron daftarlar), video va audio materiallarni tinglash, ko'rish orqali fikrlashga, tahlil qilishga yo'naltirish, real bo'lmagan modellashtirilgan elektron daftarlarda interaktiv mashqlarni bajarish jarayoni virtual mavjudlik deb qaralishi mumkin. Mazkur dasturlar orqali virtual lababratoriyalar, virtual sayohatlar tashkil etish mumkin.

Hozirda ta'lim muassasalarida elektron shaklda turli pedagogik axborot-ta'lim resurslari yaratilgan, ammo ulardan foydalanishning tashkiliy asoslarini yaratish borasidagi ishlarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Bor manbalarni ham ommalashtirish va metodik ta'minlashda sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda. Shuning uchun ham pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishning nazariy, amaliy, tashkiliy, metodik jihatlariga asoslangan talabalarning axborot faoliyati va axborot ta'sir ko'rsatishning tizimli modeli, tahsil oluvchilar va o'qituvchilarning ma'lumotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladigan pedagogik dasturiy vositalar majmuini yaratish zarur. Kamchiliklarni inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- mavjud elektron vositalarning yangi avlodini va noto'liq apparat qismlarini ta'mirlash;
- OTMLlarda ta'lim sifati rivojlangan davlatlar tajribasi asosida elektron o'qitishga mo'ljallangan o'quv materiallarini yaratish;
- yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va pedagogik texnologiya tipidagi har qanday sohaga oid o'quv matnlarini tarjima qilish qobiliyatiga ega bo'lgan mahoratli pedagog texnologlarni tayyorlash;
- soha mutaxassislari (kompyuter dasturchilari) bilan hamkorlikda professor-o'qituvchilar ishtirokida ta'limiy dasturiy vositalar yaratish borasidagi ma'ruzalar, seminarlar va konferensiyalar o'tkazish;
- professor-o'qituvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalari va vositalari hamda ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalana olishlarini ta'minlash;
- bu boradagi tadqiqot ishlarini ko'paytirish;
- oliy ta'lim muassasalarida internet tezligini oshirish bo'yicha amaliy choralar ko'rish lozim.

Xulosa. Qomusiy allomalarimizning ma'naviy merosini chuqur va har tomonlama o'rganish ham ilmiy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, sohaga oid elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratish, ularning davr talablariga mos bo'lishini ta'minlash pedagog-olimlarimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Kredit-modul tizimi sharoitida

o'quv jarayonini raqamli ta'lim texnologiyalarga asoslangan pedagogik dasturiy vositalar yordamida tashkil etish eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi. Shunday ekan kompyuter dasturchilari hamda pedagoglar va tadqiqotchi olimlarimiz hamkorlikda xalqaro ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan innovatsion pedagogik dasturiy mahsulotlarni yaratishlari, raqamli ta'lim texnologiyalari asosidagi ishlarni takomillashtirib, ommalashtirish orqali zamonaviy ta'lim milliy modelini yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. T.: 2019, 8 oktabr. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'jallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

Kushwaha R. C., Singhal, A., & Swain, S. K. (2019). Learning Pattern Analysis: A Case Study of Moodle Learning Management System. In *Recent Trends in Communication, Computing, and Electronics* (pp. 471-479). Springer, Singapore

Pozilova Sh., Pedagogik dasturiy vositalar fanidan ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. –Toshkent, 2019. –172-b.

Роберт И.В., Панюкова С.В., Кузнецов А.А., Кравцова А.Ю. Информационные и коммуникационные технологии в образовании. Учебно-методическое пособие. М.: «Дрофа», 2007, 35 с.

Эргашева Г.С. Биология таълимида интерактив дастурий воситалардан самарали фойдаланишни такомиллаштириш. Монография. – Тошкент, "Фан ва технология", 2017.- 218 б.

TALABALARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jumayev Axrom Asror o'g'li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti
“Elektr energetikasi va elektrotexnika” kafedrasida katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada kreativlik, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish, talabalarning innovatsion faoliyati, interfaol ta'lim, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: talabalar, kreativlik, qobiliyat, interfaol metodlar innovatsiya, ta'lim.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES

Jumayev Akhrom Asror ugli

«TIQXMMI» MTU Bukhara Institute of Nature Management
Senior Lecturer of the Department «Power Engineering and Electrical Engineering».

ABSTRACT. This article describes the factors that contribute to the development of creativity, creative competence of teaching staff, innovative activities of students, interactive learning, innovative educational and information and communication technologies, and the development of students' creative abilities.

Key words: students, creativity, competence, interactive methods of innovation, education.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Джумаев Ахром Асрорович

«TIQXMMI» МТУ Бухарский институт природопользования
Старший преподаватель кафедры «Электроэнергетика и электротехника».

АННОТАЦИЯ. В данной статье описаны факторы, способствующие развитию креативности, креативной компетентности педагогических кадров, инновационной деятельности студентов, интерактивному обучению, инновационным образовательным и информационно-коммуникационным технологиям, развитию креативных способностей студентов.

Ключевые слова: студенты, креативность, компетентность, интерактивные методы инновации, образование.

Kirish. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol usullardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda

kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir.

Kreativlik ta‘lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta‘lim jarayonini qurish, ta‘lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta‘sirida kechadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta‘lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, A.Umronxo‘jayev, A.Valiyev, Ruziev E.I, A.O. Ashirboyevlarning ilmiy izlanishlarida ta‘lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo‘lajak mutaxassislarini kasbiy-innovatsion tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta‘lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta‘minoti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

Innovatsion ta‘lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini vositasida ta‘lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faollashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta‘lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azizxodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo‘ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O‘.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjayev, Ya.G‘afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Kreativlik termini angliya–amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).

2
Talabalarning innovatsion faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiya. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma‘noni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

A.X.Maslou kreativlikni 2 turga bo‘ladi: iste‘dodning kreativligi va shaxsning o‘z – o‘zini

aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o'z – o'zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan uzviy bog'langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko'p sohalarida duch kelishimiz mumkin.

A.X.Maslou kreativlikda o'z – o'zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: birinchisi - « ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi», «ikkinchisi - ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim, kamolotga intiluvchanlik» .

A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi deb hisoblaydi. Interfaol o'qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari quyidagilardan iborat.

T.A.Barsheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogikada kreativlikni tizimli (ko'p bosqichli, ko'p o'lchamli) psixik (ruhiy) ta'lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potentsialni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrlari, kompetentligi va xokazolarni ham kiritadi.

Shuningdek kreativlikni mezonlari Dj.P.Gilforda, E.P.Torrans tomonidan belgilangan :

ravonlik: ma'lum bir vaqt oralig'ida ko'plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

o'ziga xosligi: aniq, taniqli, umum e'tirof etilgan, oddiy yoki qat'iy

belgilanganidan farq qiluvchi g'ayrioddiy, nostandart g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

sezuvchanlik: g'ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o'tishga tayyorlik;

mo'tadillik: g'ayritabiiy kontekstda ishlashga tayyor bo'lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko'rish qobiliyati;

rivojlanish: paydo bo'lgan g'oyalarni batafsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;

to'xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko'rsatish, ya'ni muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko'rsatish.

noaniqlik: stimuldin mustaqil mantiqiy reaksiyagacha bo'lgan qobiliyat; "nomlash"ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati,

aslida ahamiyatga ega bo'lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qobiliyati ("nomlash" jarayoni mufassal shaklni muammoning mohiyatini ko'rish qobiliyatini og'zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi);

ko'p vazifalilik: Bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalarda ishlash qobiliyati;

samaradorligi: mahsulotning yaroqliligi, ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo'lishi haqidagi idrok;

mamnuniyat: kreativlikning natijasi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati

muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta'lim berish usullarini yangi holatga o'tkazish imkoniyati; ilgari o'rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko'nikmalarda namoyon bo'lishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy texnologiyalar talaba egallayotgan bilimlarni o'zi qidirib topish,


mustaqil o'rganib, tahlil qilish, xulosalarni ham o'zi keltirib chiqarishga o'rgatadi.

O'rganuvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z mavqelarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy

faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni taqdim etishni anglatadi.

Interfaol ta'limda o'qituvchi o'quv faoliyatining faol tashkilotchisi bo'lib, talaba bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunda o'qitishning maqsad va vazifalari, uning mazmuni va kutilayotgan natijalar bevosita ta'lim oluvchining individual imkoniyatlari doirasida belgilanadi va shunga moslashtiriladi. Interfaol ta'limni amalga oshirishning muhim vositasi - interfaol o'qitish metodlaridir. Interfaol metodlar – talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini hamda o'qituvchi


bilan hamkorliklarini tashkil etishga xizmat qiladigan metodlar.



Interfaol metodlarning mohiyati. Interfaol metodlarning mohiyati o'qitish jarayonida talaba faolligini oshirish, talabani pedagogik faoliyatning markaziy figurasiga aylantirishdan iboratdir. Talabalarni faollashtirish uchun dars jarayonida qo'llaniladigan usullarni to'g'ri tanlash va savollarni aniq tuzish katta samara beradi. Buning uchun darsda mavzuga qo'yilgan maqsad aniq belgilanib, shu maqsadga erishish yo'li, usuli puxta ko'rib chiqilishi lozim. O'qituvchi har bir foydalanadigan interfaol usuli talabaga nima berishini oldindan ko'ra olishi va darsni to'g'ri tashkil qilishi kerak.

Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi



Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillarni aniqlash

Interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. SHu sababli ularlarda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati mavjud.

Interfaol o'qitish metodlari asosida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topdik:

- talabalarda ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish; keyslar bilan ishlash;
- guruhiy ish shakllari va debatlarini tashkil etish; o'quv loyihalarini tayyorlash; portfoliolarni shakllantirish; to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish.
- ijodiy topshiriqlarni bajarish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- treninglar;
- videotreninglar;
- taqdimotlar;
- viktorinalar;

- ijodiy loyihalash mashg‘ulotlari;
- interfaol ekskursiyalar;
- interfaol ma‘ruzalar;
- vebinar;

Buning uchun talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o‘qituvchilar, o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Demak, kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Shuningdek, shaxsning kreativligi pedagogik kompetentlikka ham bog‘liq. Bu haqda tadqiqotchi olim L.M.Mitina pedagogik kompetentlikni quyidagicha tasvirlaydi:

- faoliyatli (bilim, malaka, kasbiy mahorat hamda pedagogik faoliyatni mas‘uliyatli va mustaqil amalga oshirishning individual usullari);

- kommunikativ (pedagogik muloqotni amalga oshirishning ijodiy yo‘llari);

- shaxsiy (o‘z ustida ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish ko‘nikmasi). Mamlakatimizda pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o‘ziga xos jihatlari

borasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar turadi:

- maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);

- ijtimoiy kompetentlik (kasbiy kompetentlikni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas‘ullik);

- autokompetentlik (o‘zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish);

- ekstremal kasbiy kompetentlik, ya‘ni kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tuta olish..

Bir tomondan kasbiy kompetentlik bu – kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faoliyat sifatining ajralmas mezonidir, ikkinchi tomondan, yuqori malakali ishchi funktsiyalari, ish madaniyati va shaxslararo aloqa bilan tavsiflangan shaxsning mulki kasbiy muammolarni tashabbuskorlik ko‘nikmasi va ijodiy ravishda xal etish muhim hisoblanadi.

Shaxsning kreativligi uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi,

kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi. Talabalarni hozirgi zamon talablari darajasida tayyorlash sifatiga ta‘sir etuvchi omillardan biri kasbiy kompetentlik va kreativligidir. Bunda kasbga nisbatan yaxlit kontseptual yondashuvni (qanday va nimani o‘qitishni aniq tasavvur qilish), mehnatni qadrlay olish (o‘qitish motivatsiyasi), ta‘lim jarayonini optimallashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘z ustida ishlash kabi xususiyatlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Ko‘rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta‘sirida kechadi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darajasi, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;
- talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish;
- o'quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;
- talabalarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash;
- kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo'lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

- 1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;
- 2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Demak, kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi hamda ularda kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol o'qitish jarayoni o'zining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullariga ega bo'lishi shart.

Talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan psixologik to'siqlarni bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash lozim bo'ladi.

Talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, kontseptsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalari talabalarning kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish, shuningdek ta'lim oluvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy axborot-metodik ta'minotni yaratish jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy

yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ta'lim oluvchilarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947- son Farmoni. 2017 yil 7 fevral. –B.39.
2. O'qituvchilarning pedagogik mahorati tajribasida ta'lim metodlarini samaradorligini oshirish yo'llari. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, D.P.Mirzoyev, I.N.Karimov.
3. Креативное обучение в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров высших образовательных учреждений. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, B.B. Amrullayev .
4. Kreativlik pedagogik faoliyatni rivojlantirishning asosi omili sifatida. Qarshi 2022 A.A.Jumayev, N.Karimov.
5. Elektrotexnikaning nazariy asoslari fani darslarida kreativ texnologiyalaridan foydalanish. A.A.Jumayev. Science and Innovation 2022 International scientific journal. ISSN: 2181-33-37413
6. Methodology of teaching specialty subjects using elements of distance learning. Mirzoyev Dilshod Po'otovich, Shaxboz Xusanov Shuxrat o'g'li, Shodiyeva Farida Anvarovna. "Development issues of innovative economy in the agricultural sector" International scientific-practical conference on March 25-26, 2021. Web: <http://conference.sbtsue.uz/uz>
7. Жумаев, А. А., Иноятов, М. Б., Одинаев, С., Садриев, Ж. Ж., & Рузибоев, М. М. (2014). ИЗУЧЕНИЕ ТЕХНИКИ РЕМОНТА ПОВРЕЖДЕНИЙ В АСИНХРОННОМ ДВИГАТЕЛЕ. The Way of Science, 22.
8. Махмудова, М. М., & Жумаев, А. А. (2019). FILM ALS WERKZEUG FÜR DEN UNTERRICHT VON DEUTSCH ALS FREMDSPRACHE. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 43-45).
9. Jumayev, E. E. (2019). The Openness of Certain Subfunctors of the Probability Measure Functor and the Topological Properties of Spaces of the Form $F(X) \cap F(X)$. J Phys Math, 9(294), 2090-0902.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA KATTA SINIF O'QUVCHILARIGA GIMNASTIKA MASHQLAR TEXNIKASINI O'RGATISH USULLARI

Karimov Duysenbay Djiyenbaevitch

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqola jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o'quvchilariga gimnastika texnikasini o'rgatishning turli usullarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, maqolada gimnastika to'garaklarida bolalarni mashqlarga o'rgatish usullari va ularni mustahkamlash bo'yicha ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: gimnastika, o'rgatish usullari, mashq, umbaloq oshish, jismoniy yuklama, gimnastika jihozlari.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКЕ ГИМНАСТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ СТАРШИХ СТУДЕНТОВ НА КЛАССАХ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ

Каримов Дуйсенбай Джиенбаевич,

доцент кафедры теории и методики физического воспитания Нукусского государственного педагогического института им. Ажинияза

Аннотация: Речь идет о изучении различных методов обучения приемам гимнастики старшеклассников на уроках физкультуры, а также в статье рассматриваются методы обучения детей упражнениям в гимнастических кружках и их использование.

Ключевые слова: гимнастика, методика обучения, упражнения, увеличение бедер, физическая нагрузка, гимнастические снаряды.

METHODS OF TEACHING GYMNASTIC EXERCISE TECHNIQUES TO SENIOR STUDENTS IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES

Karimov Duysenbay Djiyenbaevitch,

associate professor of the Department of Theory and Methodology of Physical Education at Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz

Annotation: It is related to the study of various methods of teaching gymnastics techniques to high school students in physical education lessons, and the article also discusses the methods of teaching children to exercises in gymnastics clubs and their use.

Key words: gymnastics, teaching methods, exercise, increasing hips, physical load, gymnastic equipment.

Gimnastika - bu kuch, moslashuvchanlik va birlashtirgan dinamik intizom bo'lib, ko'plab jismoniy va ruhiy foyda keltiradi. Uning o'rta maktab jismoniy tarbiya dasturlariga kiritilishi nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarlikka yordam beradi, balki intizom, qat'iyat va ishonch kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Gimnastika bo'yicha o'qitishning ahamiyatini tushunib, ilg'or ko'nikmalarni rivojlantirish, samarali o'qitish strategiyalarini qo'llash, xavfsizlik masalalariga ustuvor ahamiyat berish, baholash va baholash usullarini qo'llash, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirish orqali o'qituvchilar gimnastika tajribasini boyitishadi.

Gimnastika: bir vaqtning o'zida hech narsani buzmaslikka harakat qilib, o'zingizni havoda saqlash san'ati. Bu biroz dramatikdir, lekin gimnastika jag'ni tushiradigan tartiblarni yaratish uchun kuch, moslashuvchanlik va chaqqonlikni birlashtirgan ajoyib sport turidir. Bu ko'p asrlar davomida mavjud bo'lib, hatto Olimpiya sahnasini ham bezab turibdi. O'rta maktablarda jismoniy tarbiya darslarida gimnastika texnikasini o'rgatish bir necha sabablarga ko'ra muhimdir. Bu kuch, moslashuvchanlik va muvofiqlashtirishni rivojlantirish orqali umumiy fitnessga yordam beradi. Shuningdek, u O'quvchilarga intizom, qat'iyat va ishonch kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, gimnastika kuch, muvozanat va badiiy ifoda elementlarini o'zida mujassam etgan jismoniy tarbiyaga har

tomonlarni yondashuvni taklif etadi [1].

Gimnastika bu shunchaki tanangizni tasavvur qilib bo'lmaydigan tarzda ag'darish va burish emas. Shuningdek, bu juda ko'p jismoniy va ruhiy foyda keltiradigan sport turi. Gimnastika kuch va moslashuvchanlikni shakllantirishdan tortib, muvozanat va muvofiqlashtirishni yaxshilashgacha bo'lgan gimnastika o'quvchilarga har tomonlarni barkamol fitnes asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, gimnastikada zarur bo'lgan aqliy intizom va diqqat hayotning boshqa sohalarida konsentratsiya va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi.

Gimnastika bu tartibsizlikni bartaraf etishga yordam beradi. O'rta maktab jismoniy tarbiyasiga gimnastika texnikasini kiritish orqali biz o'quvchilarga muvozanatni, nazoratni va umumiy tana muvofiqlashtirishni kuchaytirish imkoniyatini beradi. Gimnastika mashqlarini bajarish bilan birga keladigan kuch va chidamlilik haqida ham unutmaylik. Bu tanangizga turbo quvvat berganga o'xshaydi! Mashg'ulotlarning tayyorgarlik va asosiy qismlariga jihozlarsiz hamda turli jihozlar bilan bajariladigan (gimnastika tayoqchasi, arg'amchi, to'ldirma to'p, tennis va boshqa to'plar bilan) umumrivojlantiruvchi mashqlarni gimnastika devorida, o'rindig'ida, past-baland qo'shpoyada, xodada xotin-qizlarning har tomonlarni rivojlanishini, ularning mushaklarini mustahkamlanishini ta'minlaydigan mashqlarni kiritish lozim. Yuqorida keltirilgan vositalar mashg'ulotni qiziqarli va zavqli tashkil qilishga yordam beradi [2].

O'rta maktab o'quvchilariga gimnastika texnikasini o'rgatishni boshlashdan avval uning asoslarini chuqur anglab olish zarur. Turli gimnastika harakatlarining tegishli nomlarini bilishdan to'tanani tekislash va vaznni taqsimlash tamoyillarini tushunishgacha, bu asoslar muvaffaqiyatli o'qitish uchun asos yaratadi. Shunday qilib, gimnastika terminologiyasi olamiga shon'g'iyimiz! Qizib olish mashqlari va cho'zish, gimnastika texnikasini o'rgatishning muhim qismidir. Gimnastikada qo'llaniladigan muayyan mushak guruhlariga mo'ljallangan dinamik qizish mashqlarni o'z ichiga olgan holda, biz o'quvchilarni sportning jismoniy talablariga tayyorlamoqdamiz. Egiluvchanlikni yaxshilash va shikastlanishning oldini olish uchun cho'zishning ahamiyati haqida unutmazlik.

Esingizda bo'lsin, Rim bir kunda qurilgani yo'q, olimpiya gimnastikachilari ham. O'rta maktab o'quvchilariga gimnastikani o'rgatishda murakkab texnikalarni kichikroq, erishish mumkin bo'lgan bosqichlarga bo'lish juda muhimdir. Asoslardan boshlab va asta-sekin har bir ko'nikmaga asoslanib, O'quvchilar o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlari va yo'lda ishonchni qozonishlari mumkin. Shunday qilib, keling, uni bir vaqtning o'zida bir burish, burish va qo'lda ushlab turaylik! O'quvchilaringiz asoslarni o'zlashtirgandan so'ng, darajaga ko'tarilish vaqti keldi! Ular kuch-quvvat, moslashuvchanlik va muvofiqlashtirishga ega bo'lganda, ularni yanada ilg'or gimnastika ko'nikmalari bilan sinab ko'rish muhimdir. Texnikalarni tushuntirishda aniq va qisqa tildan foydalaning va savollarga javob berishga doimo ochiq bo'ling. Ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratish orqali siz o'quvchilarni tavakkal qilish va o'zlarini yangi cho'qqilarga surish uchun qulay his qilishga undaysiz. Bu ta'sirchan harakatlar o'quvchilarni nafaqat qulaylik zonasidan tashqariga chiqaribgina qolmay, balki muvaffaqiyat va g'urur tuyg'usini ham beradi. Shunday ekan, o'quvchilarimiz gimnastika bo'yicha yangi cho'qqilarni zabt etadi [3].

Ko'rgazmali qurollar va ko'rgazmali vositalar gimnastikani o'rgatishda bebaho usuldur. Murakkab texnikalarni kichikroq, boshqariladigan bosqichlarga bo'ling va o'quvchilarga harakatlarni tasavvur qilishga yordam berish uchun diagrammalar yoki videolar kabi ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalaning. Bundan tashqari, interfaol mashg'ulotlar va mashqlar orqali amaliy o'rganishni birlashtirish o'quvchilarga material bilan faol shug'ullanish va texnikani yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Esingizda bo'lsin, amaliyot mukammal qiladi!

Gimnastikani o'rgatishda xavfsizlik har doim birinchi o'rinda turishi kerak. Noto'g'ri yuzalar yoki noto'g'ri uskunalar kabi potentsial xavflar uchun atrof-muhitni to'liq baholashga vaqt ajrating. Jarohatlarning oldini olish uchun qizib olish mashqlari va cho'zish tartiblari kabi xavfsizlik protokollarini amalga oshiring. Baxtsiz hodisalar xavfini minimallashtirish uchun to'g'ri shakl va texnikaning muhimligini ta'kidlang. Faol va hushyor bo'lish orqali siz o'quvchilaringiz uchun xavfsiz va qiziqarli ta'lim tajribasini ta'minlay olasiz. O'quvchilarning

gimnastika mashg'ulotlariga qiziqishini va faolligini oshirish uchun o'qituvchilar qiziqarli va inklyuziv o'quv muhitini yaratishi mumkin. Ular o'z ichiga interaktiv va qiyin mashg'ulotlarni, masalan, jamoaviy mashqlar yoki ko'nikmalarni rivojlantirish o'yinlarini o'z ichiga olishi mumkin. O'quvchilarga shaxsiy maqsadlarni belgilash va yutuqlarni nishonlash imkoniyatlarini taklif qilish ham motivatsiyani oshirishi mumkin. Bundan tashqari, ko'rgazmali qurollar, ko'rgazmalar va amaliy o'rganishdan foydalanish o'quv jarayonini O'quvchilar uchun yanada qiziqarli qilishiga yordam beradi.

Gimnastika mashg'ulotlarini xavfsiz o'tkazishda jihozlardan to'g'ri foydalanish va nazorat qilish juda muhimdir. Barcha jihozlarning yaxshi ishlashiga ishonch hosil qilish uchun muntazam ravishda tekshiring va texnik xizmat ko'rsating. O'quvchilarni jihozlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish va ulardan foydalanish bo'yicha aniq qoidalar va ko'rsatmalarni o'rnatish. Bundan tashqari, baxtsiz hodisalar yoki noto'g'ri texnikani oldini olish uchun sinf mashg'ulotlari davomida har doim tegishli nazoratni ta'minlang. Esingizda bo'lsin, birinchi navbatda xavfsizlik!

Jismoniy tarbiyada gimnastika texnikasini baholash. O'quvchilarning gimnastika texnikasini baholash adolatli va xolis mezonlarni talab qiladi. Ko'nikma va texnikalarni muayyan tarkibiy qismlarga bo'ling va har bir malaka darajasi uchun aniq mezonlarni belgilang. O'quvchilarning ish faoliyatini xolisona baholash uchun rubrikalar yoki nazorat ro'yxatlaridan foydalanishni o'ylab ko'ring. Aniq ko'rsatmalar berish va baholashda izchil bo'lish orqali O'quvchilar o'zlarining taraqqiyoti va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni yaxshiroq tushunishadi.

Fikr-mulohazalar o'quvchilarning gimnastika texnikasini yaxshilashda qimmatli vositadir. Muayyan va konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim eting, kuchli tomonlarni va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalarni ta'kidlang. O'quvchilarni o'z faoliyati haqida fikr yuritishga va o'z oldiga maqsadlar qo'yishga undash. Ularning yutuqlarini nishonlang va qiyinchiliklarni engish bo'yicha ko'rsatmalar bering. O'sish tafakkurini tarbiyalash va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratish orqali o'quvchilar doimiy ravishda gimnastika mahoratini oshirishga undaydilar [4].

Gimnastika mashg'ulotlari o'quvchilarni rag'batlantirish va faollashtirish uchun qiziqarli va inklyuziv bo'lishi kerak. O'rganishni qiziqarli qilish uchun darslaringizga o'yinlar, qiyinchiliklar va ijodiy faoliyatni qo'shing. O'quvchilarga hamkorlik qilish va bir-birlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini yarating, ular bir-biriga tegishlilik va jamoada ishlash hissini rivojlantiring. Ijobiy va mehmondo'st muhit yaratib, o'quvchilar ishtirok etishdan xursand bo'lishadi va bor kuchlarini sarflaydilar.

Jamoa asosidagi mashg'ulotlar va qiyinchiliklar gimnastika mashg'ulotlariga motivatsiya va faollikni oshirishi mumkin. O'quvchilarni guruhlarga ajrating va ularga erishish uchun jamoa maqsadlari yoki vazifalarini belgilang. Bu nafaqat do'stona raqobat elementini qo'shadi, balki jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantiradi. O'quvchilarni jamoadoshlarini qo'llab-quvvatlash va qo'llab-quvvatlashga undash, do'stlik tuyg'usini tarbiyalash, ozgina sog'lom raqobat o'quvchilarni gimnastikaga bo'lgan ishtiyoqini va hayajonini saqlab qolishda uzoq yo'l bo'lishi mumkin. Jismoniy tarbiya darslarida o'rta maktab o'quvchilariga texnika bir qator imtiyozlarni taqdim etadigan qimmatli ishdir. Ushbu maqolada muhokama qilingan usullarni qo'llash orqali o'qituvchilar jismoniy tayyorgarlikka yordam beradigan, muhim ko'nikmalarni rivojlantiradigan va gimnastikani umrbod qadrlashni rag'batlantiradigan ijobiy va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Turli xil darslardan tashqari keksa yoshdagi kishilar uchun gigiyenik gimnastika (ertalab, kunduzi, kechqurun), ishlaydiganlar uchun esa ishlab chiqarish gimnastikasi tavsiya qilinadi. Mashg'ulotlar o'rta yoshdagi kishilar uchun 60-90 daqiqa; katta yoshdagilar uchun 45-60 daqiqa; keksa yoshdagilar uchun 30-45 daqiqa davom etadi. Navbatdagi mashg'ulotni shug'ullanuvchilardan o'zini qanday his qilayotganlarini so'rashdan va yurak-tomir urishini hisoblashdan boshlash lozim (bu har bir mashg'ulot oxirida tekshiriladi).

O'quvchilar o'z texnikasini takomillashtirib, kuch-quvvat va ishonchga ega bo'lgach, ular nafaqat jismoniy qobiliyatlarini oshiribgina qolmay, balki gimnaziyadan tashqari ham ularga xizmat qiladigan qimmatli hayotiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Tegishli ko'rsatmalar va xavfsizlik va O'quvchilar motivatsiyasiga sodiqlik bilan o'rta maktab jismoniy tarbiya

dasturlari gimnastikani samarali o'rgatishi va o'quvchilarga ushbu jozibali sport turida yangi marralarni zabt etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В. М Смолевский. Гимнастика и методика преподавания / Изд. 3-е, перераб., доп. – М.: Физкультура и спорт, 1987. – 336 с.
2. А. Ефременко. Гимнастика. Т., УзДЖТИ, 1980.
3. И.А Гуревич. Упражнения для моделирования круговой тренировки / Минск: Полымя, – 212 с. 1990.
4. I.G Azimov., SH. Sobitov Sport fiziologiyasi / Darslik. Toshkent 1993 y.
5. В.В Воропаев Краткий курс гимнастики: учебное пособие для вузов / В. В. Воропаев, С. А. Пушкин, П. А. Хомяк. – М.: Советский спорт, 2008. – 70 с.

ЗНАЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИЙ В ВОЗЗРЕНИЯХ УЧЕНЫХ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ ЭПОХИ ВОСТОЧНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

*Касимова Зебо Хамидовна,
к.п.н., профессор*

Международная исламская академия Узбекистана кафедра “Психология религии и педагогика”

Аннотация: В работе освещены вопросы развития педагогической мысли эпохи Возрождения, характеристика данного феномена, основные представители, вклад в развитие педагогической мысли. Влияние концепции гуманизма Возрождения на развитие современной педагогики.

Ключевые слова: воспитание, всеобщее обучение, взаимопонимание, ренессанс.

ЎРТА АСР ШАРҚ УЙҒОНИШ ДАВРИ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ ҚАРАШЛАРИДА БЕРИЛГАН АҲБОРОТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

*Касимова Зебо Хамидовна,
п.ф.н., профессор Ўзбекистон халқаро ислом академияси. “Дин психологияси ва педагогика” кафедраси*

Аннотация: Мазкур мақолада Шарқуйғониш даврида педагогик фикрларнинг тарихий тараққиёти масалалари ёритилган. Айниқса ўша алломаларининг концепциялари таълим-тарбия ривожига хисса қўйганлиги ва уларнинг қарашларида билдирилган фикр ва ахборотларнинг аҳамиятлилик даражаси асослаб берилган.

Калит сўзлар: тарбия, умумбашарий таълим, ўзаро бир-бирини тушуниш, ренессанс, уёғониш даври.

THE MEANING OF INFORMATION IN THE VIEWS OF SCIENTISTS MIDDLE AGES EASTERN RENAISSANCE

*KKasimova Zebo Hamidovna,
Candidate of Pedagogical Sciences, Professor International Islamic Academy of
Uzbekistan Psychology of religion and pedagogy” department*

Annotation: The paper will discuss the basics of pedagogical thought of the Renaissance, the characteristics of this phenomenon, the main representatives, the contribution to the development of pedagogical thought. The influence of the concept of Renaissance humanism on modern pedagogy.

Keywords: education, universal learning, mutual understanding, renaissance.

Центрально-Азиатский регион существовал в истории как древняя колыбель науки, культуры и искусства. Информация об этом также имеется в доисламских источниках. В частности, в «Авесте» выдвинуты передовые для того времени идеи о духовной среде, науке, образовании и воспитании, государственно-правовых институтах. Можно констатировать, что регион сыграл важную роль в мировом Ренессансе.

На торжественной церемонии, посвященной 29-й годовщине независимости Республики Узбекистан Президент страны Шавкат Мирзиёев отметил: «...Сегодня, когда в полную силу реализуется мощный потенциал нашего народа, в Узбекистане закладывается фундамент новой эпохи Возрождения - третьего Ренессанса. Ведь сегодняшний Узбекистан - это не вчерашний Узбекистан. И наш народ - уже не тот, каким был вчера». При этом упоминание словосочетания «Новый Узбекистан» в мировом масштабе свидетельствует о признании того, что мы за последние годы вступили в совершенно новый этап развития - этап огромных преобразований и достижений.

В настоящее время остро стоит вопрос о необходимости педагогической корректировки идеалов личности, в связи с чем хочется обратиться к истории эпохи Возрождения, времени, когда педагогическая мысль была тесно связана с развитием

науки, искусства и литературы.

С IX по XII веков в период, часто называемый в истории как эра Восточного Ренессанса, Центральная Азия подарила миру великих ученых-энциклопедистов и мыслителей, которые внесли неоценимый вклад в развитие таких наук и сфер, как физика, химия, математика, астрономия, география, медицина и сельское хозяйство.

Одним из ярких представителей этого времени является Абу Джафар Мухаммад ибн Муса аль-Хорезми (780-850), великий математик, родившийся на территории современного Узбекистана. Аль-Хорезми сыграл ключевую роль во внедрении широкого использования индо-арабской системы счисления, а также использования нуля в записи чисел.

Сведений о жизни учёного сохранилось крайне мало. Родился предположительно в Хиве в 783 году. В некоторых источниках аль-Хорезми называют «аль-Маджуси», то есть маг, из этого делается вывод, что он происходил из рода зороастрийских жрецов, позже принявших ислам.

Аль-Хорезми родился в эпоху великого культурного и научного подъёма. Начальное образование он получил у выдающихся учёных Мавераннахра и Хорезма. На родине он познакомился с индийской и греческой наукой, а в Багдад он попал уже вполне сложившимся учёным.

В 819 году аль-Хорезми переехал в пригород Багдада, Каттрабула. В Багдаде он провёл значительный период своей жизни, возглавляя при халифе аль-Мамуне (813—833) «Дома Мудрости» (араб. «Байт аль-хикма»). До того, как стать халифом, аль-Мамун был наместником восточных провинций Халифата, и не исключено, что с 809 года аль-Хорезми был одним из придворных учёных аль-Мамуна. В одном из своих сочинений аль-Хорезми с похвалой отозвался об аль-Мамуне, отмечая его «любовь к науке и стремление приближать к себе учёных, простирая над ними крыло своего покровительства и помогая им в разъяснении того, что для них неясно, и в облегчении того, что для них затруднительно».

«Дом мудрости» был своего рода Академией наук, где работали учёные из Сирии, Египта, Персии, Хорасана и Мавераннахра. В ней находилась библиотека с большим количеством старинных рукописей и астрономическая обсерватория. Здесь на арабский язык были переведены многие греческие философские и научные труды. В это же время там работали Ибн Турк, аль-Кинди и другие выдающиеся учёные.

Дидактические взгляды Аль-Хорезми заключаются в том, что он был ученым получил широкое признание в мировой науке, как отец-основатель алгебры, и это благодаря его произведениям алгебраические понятия получили распространение в изучении математики в Европе. Название одного из его произведений дало миру термин «алгебра», а слово «алгоритм» происходит от латинского звучания имени мыслителя.

Произведения: «Китаб аль-джебр ва-ль-мукабала», «Книга об индийском счёте», «Книга картины Земли», «Книга о солнечных часах», «Астрономические таблицы» «Трактат об определении евреев и их праздниках» и др.

Он внес важный вклад в развитие теории познания. Он одним из первых основал такие методы, как индукция, дедукция, наблюдение и эксперимент.

Благодаря Хорезми цифры индийцев широко распространились по всему миру как арабские цифры.

Хорезми проанализировав астрономические таблицы индийцев, сумел составить известные астрономические таблицы под названием «Зидж ал-Хуаразми».

Аль-Фараби Абу-Наср Ибн Мухаммед (873-950) - философ, ученый-энциклопедист, астроном, математик, медик средневекового Востока, один из главных представителей восточного аристотелизма, переплетающегося с неоплатонизмом. Прозвище - Второй учитель (после Аристотеля).

Педагогическая мысль в воззрениях Аль-Фараби ярко выражены в его сочинениях: «Геммы мудрости», «Трактат о взглядах жителей добродетельного города», трактат о классификации наук, «Большая книга о музыке».

Педагогические воззрения заключаются в следующем:

Фараби – один из первых ученых, давший определение понятиям воспитание и обучение. Обучение, по его словам, осуществляется только путем слова и изучения. Воспитание осуществляется путем работы, практики и опыта.

Учебно-воспитательный процесс осуществляется двумя способами: терпением, вдохновляющими словами и принуждением.

Кто выбирает учение, знание, пусть приступает к этому с самого детства, пусть сдерживает свое слово, пусть оберегает себя от невежества, измены, интриг и хитростей, пусть старается быть совестливым, благочестивым и благородным, не жалеющим свое благосостояние от мудрых, знающих и умных людей.

Если человек не получил хорошего воспитания и не получившим жизненного опыта, он многое может не воспринимать и игнорировать полезные знания. Он будет относиться ко всему с пренебрежением. В итоге то, что он игнорировал, окажется в жизни важным достоянием.

Абу Райхан Бируни (973-1048) - великий учёный из Хорезма, автор многочисленных капитальных трудов по истории, географии, филологии, астрономии, математике, геодезии, минералогии, фармакологии, геологии и др. Впервые на Среднем Востоке Бируни высказал мнение о возможности движения Земли вокруг Солнца, определил длину окружности Земли. Он рассмотрел гипотезу о движении Земли вокруг Солнца; он утверждал одинаковую огненную природу Солнца и звёзд, в отличие от тёмных тел — планет, подвижность звёзд и огромные их размеры по сравнению с Землёй, идею тяготения.

Научно-педагогические взгляды Абу Райхана Беруни приведены в таких произведениях, как «Минералогия», «Геодезия», «Индия», «Памятники древних народов», «Сайдана» и другие.

Беруни видит в человеке высшее совершенство природы. Он разделяет все моральные качества в духовном образе человека на два типа: добрые и злые.

По словам Беруни, в развитии человека важную роль играют три фактора:

1. Наследственность. 2. Среда. 3. Воспитание.

Взгляды Беруни на пути и средства получения научных знаний также актуально в настоящее время. Он говорит, что при обучении студента следует учитывать следующие принципы:

- привлечь внимание и заинтересовать ученика учебным материалом;
- не допускать проведения занятий подряд одним учителем;
- преемственность, последовательность;
- интересное, в основном наглядное, представление новых тем и другие.

Взгляды Абу Али ибн Сины на воспитание и образование

Абу Али Ибн Сина (известный в Европе под именем Авиценна) (980-1037)

Взгляды Абу Али ибн Сины на воспитание и образование

Сочинения: «Канона врачебной науки» (Ал-Канун фит-т-тибб) и «Книги исцеления» (Китаб аш-шифа), «Книга знания» («Даниш-намэ»), «Лекарственные средства» («Ал-Адвият ал калбия»), «Логика», «Удаление вреда от разных манипуляций посредством исправлений и предупреждений ошибок» («Дафъ ал-мазорр ал куллия ан ал-абдон ал инсония би-тадорик анвоъ хато ан-тадбир») и другие.

Научно-педагогические взгляды Авиценны проявляются в следующем:

По словам Ибн Сины, в человеческом поведении есть некоторые недостатки. Это: обман, ревность, месть, вражда, клевета, безволие.

Ибн Сина указывает на необходимость обучать детей в школе как группу в образовании и подчеркивает необходимость придерживаться следующего в образовании: 1) не заниматься вдруг книгой во время обучения ребенка; 2) передача знаний путём с легкого на сложную форму образования; 3) возраст упражнений; 4) сосредоточиться на школьном обучении в команде; 5) учет пристрастий, интересов и способностей детей в обучении; 6) совмещая обучение с упражнениями.

Юсуфа Хас Хаджиб - выдающийся тюркский поэт и мыслитель, проживавший в XI веке в государстве Караханидов, в городах Кашгар и Баласагун. «Кутадгу Билиг» — первое произведение, написанное на языке мусульманских тюрков эпохи Мусульманского ренессанса и полностью сохранившееся в трёх поздних копиях, о чем свидетельствуют слова поэта в начале поэмы:

“Да, книг у арабов, таджиков немало,
А нашею речью сия – лишь начало.
Кто мудр, эту книгу оценит с почтеньем,
Лишь тот ценит знанья, кто зрел разуменьем...”.

«Кутадгу Билиг» («Благодатное знание») - первое произведение, написанное на языке мусульманских тюрков эпохи Мусульманского ренессанса и полностью сохранившееся в трёх поздних копиях, о чем свидетельствуют слова поэта в начале поэмы. Кутадгу билиг означает знание, ведущее к счастью. Поэма «Благодатное знание» — одновременно и художественное произведение, и этико-дидактический и политико-философский трактат. Действующие лица — аллегорические образы, олицетворяющие справедливость (Кун-Тогды), счастье (Ай-Толды), разум (Огдулмиш), довольство (Огдурмиш). Поэма построена в форме диалогов между основными персонажами. «Кутадгу Билиг» («Благодатное знание») - первое произведение, написанное на языке мусульманских тюрков эпохи Мусульманского ренессанса и полностью сохранившееся в трёх поздних копиях, о чем свидетельствуют слова поэта в начале поэмы. Кутадгу билиг означает знание, ведущее к счастью. Поэма «Благодатное знание» — одновременно и художественное произведение, и этико-дидактический и политико-философский трактат. Действующие лица — аллегорические образы, олицетворяющие справедливость (Кун-Тогды), счастье (Ай-Толды), разум (Огдулмиш), довольство (Озгурмиш). Поэма построена в форме диалогов между основными персонажами.

Поэма “Кутадгу билиг” содержит 6520 бейтов, разделенных на 85 глав; кроме того, поэма имеет три приложения, содержащих 124 бейта, разбитых на три главы. Основная часть поэмы написана в форме двустихий месневи, арузом, размером “сокращенный мутакариб”; первое приложение написано полным мутакарибом.

Основная идея поэмы “Кутадгу билиг” держится на четырех постулатах, выраженных автором посредством героев:

1. Твердый правильный закон, олицетворением которого является Кюнтогды (в переводе оно звучит как “взошло солнце”).
2. Счастье. Его олицетворением является образ справедливого визиря Айтолды (в переводе “полная луна”).
3. Разум. Его олицетворяет сын визиря Огдюльмиш (в переводе “благоразумный”).
4. Будущее, загробная жизнь. Это понятие олицетворяет брат визиря Огдурмиш (в переводе “пробуждающий”).

Таким образом, автор поэмы выдвинул в своем произведении целый ряд справедливых требований к руководству общества: быть образованными, заботиться о людях, хорошо знать литературу и искусство и т.д. Поэма “Кутадгу билиг” является во многом совершенной. Это и достаточно высокий уровень общественных отношений в обществе, и огромное значение культуры отношений между людьми, и культуры вообще, и, особенно, наличие нравственных понятий и основ воспитания подрастающего поколения. И можно предположить, что в то время такое объемное и высокохудожественное произведение было далеко не единственным. Судя по всему, была хорошо развита поэтическая традиция, и Юсуф Хас Хаджиб Баласагуни был одним из лучших ее представителей.

Ахмада Югнаки – Караханидский тюркский поэт XII века. Ахмад Югнаки был крупным ученым своего времени, его имя было широко известно тюркам огромного государства Караханидов. Слепой от рождения, Ахмад Югнаки хорошо освоил тюркский и арабский языки. Как знаток шариата получил уважительное имя «Адиб Ахмед». Писал легенды-эпосы, основанные на исламских ценностях. Позже они были объединены в сборник дидактических стихов «Хибат аль-Хакаик» («Подарок истин»), дошедшей в

двух рукописях. «Подарок истины» — произведение, написанное в дидактическом мотиве. Оно не имеет сюжета как такового. В каждой главе поэмы ведется разговор о каком-то определенном вопросе, и целом эта книга о нормах морали, этике, образовании, воспитании. Автор дает мудрые наставления (назидания), которые в комплексе образуют нравственные устои общества. В поэме «Подарок истин» особое внимание уделено воспеванию моральных, этических норм поведения человека. Ахмад Югнаки считает, что главным отличием культурного человека от невежественного является его способность излагать свои мысли правильно, обдуманно. Большое значение автор придает умению вести вежливую, сдержанную беседу.

Кей-Кавус (Унсур аль-Маали) — персидский писатель. Автор Кабус-Наме[3] (книга на русский язык впервые переведена в XIX веке О. С. Лебедевой). Родился в 1021 году в годы правления сына Кабуса Манучихра.

Образовательная ценность Кей-Кавуса «Кабуснаме». Кабус-наме («Книга Кавуса» или «Записки Кавуса») — написанная Кей-Кавусом на 63 году жизни, 1082—1083 гг., для своего сына Гиляншаху. «Кабуснаме»

в средние века была настольной книгой правителей, религиозных деятелей, ученых и учителей. Сочинение, будучи источником нравственности, играло важную роль в воспитании молодого поколения на протяжении многих веков.

Таким образом, из педагогического наследия великих ученых и мыслителей Востока восприняты соответствующие идеи и принципы их использования в современной практике подготовки педагогических кадров, что определяет новый профессионально-качественный уровень будущих учителей. Общеизвестно, что одним из важных принципов, служащих ориентиром повышения качества образования, является обращение к истории, традициям предыдущих поколений, в частности, к педагогическому наследию мыслителей Востока.

Литература:

1. Щербакова Е. В. Особенности педагогической мысли в эпоху Возрождения / Е.В.Щербакова, С.А.Кармышова, Е.Г.Огольцова. // Молодой ученый. 2019. -№ 1 (239). -С. 187-190.
2. Мазеина Ю.В. Анализ проблемы правового просвещения в различные исторические эпохи / Ю.В.Мазеина. // Молодой ученый. 2012. № 10 (45). -С. 345-349.
3. Абу Райхон Беруний. Тарайхалар (Жавохирот китобидан). — Т.: Мерос, 1991.
4. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. —Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.

KURSANTLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA UNING QIYOSIY TAHLILI

Kochkarov Atabek Axmatvayevich

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsent,

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Chirchiq shahri, O'zbekiston

Annotasiya. Maqolada kursantlarning o'quv mashg'ulot jarayonida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlanganlik darajasini aniqlash masalasi yoritilgan bo'lib, unda sportchilarni jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarini o'sishi 13 ta mashq misolida qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Kursantlar, musobaqa mashqlari, jismoniy tayyorgarlik, yuklama, o'quv-trenirovka mashg'ulotlari, maxsus koordinatsiya mashqi, texnik-taktik harakatlar.

ФИЗИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВЛЕННОСТЬ КУРСАНТОВ И ЕГО СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Кочкаров атабек ахматваевич

Доктор педагогических наук, (DSc), доцент

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, город Чирчик, Узбекистан

Аннотация. В статье освещен вопрос о развитии координационных способностей курсантов в процессе учебно-тренировочного процесса и определении уровня развития технико-тактической подготовки, в котором проведен сравнительный анализ роста показателей физической подготовленности спортсменов на примере 13 упражнений.

Ключевые слова: Курсанты, соревновательные упражнения, физическая подготовка, нагрузка, учебно-тренировочные занятия, специальное координационное упражнение, технико-тактические действия.

PHYSICAL FITNESS OF CADETS AND ITS COMPARATIVE ANALYSIS

Kochkarov Atabek Axmatvayevich

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Uzbekistan State University of physical education and sports, Chirchik city, Uzbekistan

Annotation. The article describes the issue of development of coordination abilities of cadets during training and determining the level of development of technical and tactical training, in which the growth of physical fitness indicators of athletes is comparatively analyzed in the example of 13 exercises.

Keywords: Cadets, competition exercises, physical training, loading, training and training, special coordination training, technical and tactical actions.

Dolzarbligi. Hozirgi vaqtda ichki ishlar vazirligi (IIV) ta'lim muassasalari kursantlarini o'qitish shartlari ichki ishlar organlarining bo'lajak amaliyotchilaridan har kuni katta aqliy va jismoniy harakatlarni talab qiladi. Jangovar sport turlarida ham boshqa sport turlari kabi yildan-yilga musobaqa mashqlarini oqilona bajarish usullari takomillashib bormoqda. Shu bois jangovar sport turlarida jumladan, kurash sambo jangovar sambo sport musoboqa faoliyatidan kelib chiqib, kursantlarning jismoniy holati va uni samaradorligini oshirish juda muhim omil sanaladi.

Tajriba va nazorat guruhi kursantchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, jismoniy tayyorgarlik nisbatini optimallashtirish va oqilona yuklamalarni me'yorlash yuqori malakali harbiy kursantlarning tayyorgarligi uchun muhim bo'lgan katta o'zgarishlarga erishish imkonini beradi.

Ishning maqsadi harbiy kursantchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish va natijalarni qiyosiy tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari va uni muhokamasi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan pedagogik tajribada olingan natijalar asosida kursantlarning o'quv-trenirovka mashg'ulotlarining vositalari va maqsadli takomillashtirish dasturi ishlab chiqildi hamda ularni qo'llash samaradorligini ilmiy mohiyati ochib berildi. Tadqiqotlar davomida malakali kursantlarni jismoniy tayyorgarligi va uni samaradorligini oshirishning o'zaro bog'liqligi amaliyotda o'z isbotini topdi. Mazkur olingan ma'lumotlar sport kurashi nazariyasi va uslubiyati sohasidagi nazariy bilimlarni boyitish va kengaytirish imkonini beradi.

Jangovar sport kurash turida musobaqa qoidalarini o'zgarishini e'tiborga olgan holda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish va texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqildi hamda jismoniy sifatlarni yaxshilash orqali, ularni faoliyati natijadorligini oshirish imkoni yaratildi. Mazkur ishlab chiqilgan tamoyillar boshqa kurash turlarida ixtisoslashuvchi sport ta'lim muassasalari va O'zbekiston milliy terma jamoasi kurashchilarining mashg'ulotlari jarayonida mutaxassislar tomonidan foydalanishga zamin yaratadi.

Tadqiqot yakunida tadqiqot guruhlarini kursantlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlar dinamikasining tahliliga ko'ra tajriba guruhi kursantlarining ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi kurashchilarga nisbatan ancha ustun ekanligi ma'lum bo'ldi va ishonchlilik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi ($P>0,05$).

O'quv-trenirovka jarayonida mavjud dasturda belgilangan yuklamalarning o'rniga koordinatsion qobiliyat va texnik-taktik harakatlarni oshirishga yo'naltirilgan yuklamalar qo'llanildi. Ma'lum bir yo'nalishdagi yuklamalarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga ta'sirini maqsadga muvofiq bo'lgan davomiyligini aniqlash maqsadida biz har mezosiklardan keyin, tayyorgarlik ko'rsatkichlari dinamikasini olib bordik.

Kursantlarni tayyorlash jarayonida harbiylarning umumiy jismoniy tayyorgarligi va maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasini oshirishning mavjud bo'lgan omillaridan biri sifatida kursantlarni tayyorgarlik bosqichlarida qo'llaniladigan har xil yuklamalar tizimlashtirildi. Shu jumladan, harbiylar bo'yicha kursantlarni tayyorlashda yuklamalarni kattaligi va tajriba davomida yo'nalishi bo'yicha mashg'ulotlarni ratsional navbatda almashtirib tashkil qilish natijasida olingan nazorat guruhining ko'rsatkichlari asosida amaliyotda, tanlangan yo'nalish dasturiga asosan tuzilgan mikrosikllarda kursantlarning jismoniy qobiliyatlari va sport natijalarini jiddiy o'sishini ta'minlab beruvchi imkoniyatlarning ahamiyati ko'rsatib berildi.

Kursantlarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhi kursantlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlil qilindi va ular quyidagicha bo'ldi.

Tadqiqot boshidagi 13 ta mashqni bajarish bo'yicha olingan ko'rsatkichlarning barchasini ishonchlilik darajasida farq kuzatilmadi.

Biz tomondan amaliyotda tatbiq etilgan haftalik mashg'ulot dasturi asosida amalga oshirilgan tadqiqot guruhi sportchilarining jismoniy tayyorgarlik holati tahlil qilindi.

Mazkur 13 ta mashqni bajarish bo'yicha olingan nazorat guruxidan ko'rsatkichlarning 8 tasida ishonchlilik darajasi yuqori bo'ldi.

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqot boshidagi natijalar:

Kurashchi bilan maxsus mashqda tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruxida $9,98\pm 1,13$ va nazorat guruxida esa $9,91\pm 1,12$ tashkil etdi. Tadqiqot yakunida bu ko'rsatkichlar mos ravishda tajriba guruxida $11,79\pm 1,09$ va nazorat guruxida $10,29\pm 1,11$ tashkil qildi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P<0,01$).

10 marta yelkadan oshirib tashlash mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruxida $15,99\pm 1,68$ va nazorat guruxida $15,93\pm 1,66$ iborat bo'ldi. Tadqiqot yakunida bu ko'rsatkichlar mos ravishda tajriba guruxida $13,83\pm 1,29$ va nazorat guruxida $14,98\pm 1,27$ tashkil qildi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P<0,05$).

10 marta egilib oshirib tashlash mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruxida $28,03\pm 3,11$ va nazorat guruxida $27,93\pm 3,02$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $24,12\pm 2,56$ va $26,93\pm 2,61$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P<0,05$).

10 marta yelkalardan oshirib tashlash mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruxida $15,32\pm 1,55$ va nazorat guruxida $15,28\pm 1,48$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida

ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $13,34 \pm 1,34$ va $14,78 \pm 1,31$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

10 marta ko'prik holatida egilib o'tish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $18,34 \pm 1,87$ va nazorat guruhida $18,29 \pm 1,81$ tashkil qildi.

Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $16,01 \pm 1,56$ va $17,61 \pm 1,49$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

5x2 marta ko'prik holatida aylanishlar mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $27,05 \pm 2,98$ va nazorat guruhida $26,95 \pm 2,91$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $23,55 \pm 2,19$ va $25,83 \pm 2,13$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

Kursantni belini ushlab parterdan yuqoriga ko'tarish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $20,95 \pm 2,39$ va nazorat guruhida $21,01 \pm 2,33$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $24,05 \pm 2,23$ va $23,09 \pm 2,11$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Turnikda tortilish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $20,13 \pm 2,09$ va nazorat guruhida $21,03 \pm 2,01$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $23,16 \pm 2,35$ va $23,04 \pm 2,31$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Treller ustida muvozanatni saqlash mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $7,98 \pm 1,02$ va nazorat guruhida $8,07 \pm 1,01$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $9,69 \pm 1,01$ va $8,41 \pm 0,98$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,01$).

Kursantni yelkaga olib o'tirib-turish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $20,99 \pm 2,11$ va nazorat guruhida $21,08 \pm 2,08$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $23,82 \pm 2,17$ va $21,88 \pm 2,11$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchlidir ($P < 0,05$).

Kursant vazniga teng bo'lgan shtangani yotib ko'tarish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $8,52 \pm 1,02$ va nazorat guruhida $8,82 \pm 1,01$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda

$9,03 \pm 1,06$ va $8,97 \pm 1,04$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

4 metrli arqonga chirmashib chiqish mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $2,05 \pm 0,22$ va nazorat guruhida $2,13 \pm 0,21$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $2,19 \pm 0,21$ va $2,16 \pm 0,22$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Uzunlikka sakrash mashqida tadqiqot boshidagi natijalar mos ravishda tajriba guruhida $2,01 \pm 0,23$ va nazorat guruhida $2,05 \pm 0,22$ tashkil qildi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda $2,09 \pm 0,19$ va $2,07 \pm 0,21$ bo'ldi, farq statistik jihatdan ishonchsiz ($P > 0,05$).

Xulosa. Shuni aytish mumkinki, o'tkazilgan tadqiqot jarayonida harbiylarning jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarini o'sishi sub'yektiv ro'yxat olish asosida baholandi. Tadqiqot yakunida tajriba guruhi ko'rsatkichlarini nazorat guruhi o'rtacha arifmetik kattaliklaridagi aynan shunday kattaliklarni tajriba davomidagi o'zgarishiga nisbatan yuqori darajada statistik ishonchlilik kuzatildi (13 ko'rsatkichdan 8 tasida ishonchli). Bu, ishlab chiqilgan texnologiyaning samaradorligi va pedagogik tajribadan ko'zlangan maqsadga erishilganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

В.Лях Координационные способности: диагностика и развитие.- Москва: ТВТ Дивизион, 2006.

Ф.А.Керимов Sport kurashi nazariyasi va usuliyati/ -Toshkent: O'zDJTI. Nashriyot bo'limi, 2005.

З.А.Бакиев Индивидуализация технико-тактической подготовки борцов на основе автоматизированного анализа соревновательной деятельности/ дис. канд. пед. наук./ 2009.

А.Н.Абдиев Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств:

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI HAMKORLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kosimova M.A.

Buxoro davlat universiteti, maktabgacha ta'lim kafedrası

Аннотация. Mazkur maqola boshlang'ich sinif o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda hamkorlik texnologiyasidan foydalanish, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari, ta'limning zamonaviylashuvi jarayonida o'qituvchi va o'quvchining pedagogik hamkorlikdagi muomala va muloqot sifat va samaradorlik mohiyati, o'qituvchining moderator, fasilitator, tyutor, mentor kabi zamonaviy pedagogik faoliyatlariga zaruriyatning mavjudligi, ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologiyasida foydalanib, ijobiy muhitni shakllantirish, ushbu muhitni yanada takomillashtirishga oid nazariy va amaliy tavsiyalarga asoslangan ma'lumotlar bayon etilgan.

Таянч сўзлар: ta'lim sifati, fasilitator, kompetensiya, hamkorlik texnologiyasi, zamonaviy yondashuv, muomala, muloqot, muloqot usullari, moderator, fasilitator, tyutor, mentor, shaxsiy ko'nikmalar, rivojlantiruvchi ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как использование технологии сотрудничества в развитии базовых компетенций учащихся начальных классов, особенности взаимодействия учителя и ученика, сущность качества и эффективности общения и общения учителя и ученика в педагогическом сотрудничестве в процессе модернизации образования, наличие необходимости в современной педагогической деятельности учителя как модератора, фасилитатора, тьютора, наставника, необходимость совместной педагогической деятельности в образовании. формирование позитивной атмосферы с помощью технологии обучения, изложена информация, основанная на теоретических и практических рекомендациях по дальнейшему улучшению этой среды.

Ключевые слова: качество образования, фасилитатор, компетентность, технология сотрудничества, современный подход, обращение, общение, методы общения, модератор, фасилитатор, тьютор, наставник, личностные навыки, Развивающее образование.

Abstract. This article is devoted to the use of collaborative technology in the development of base competencies of Primary School students, the peculiarities of teacher and student cooperation, the essence of quality and efficiency of the teacher and student's treatment and communication in pedagogical cooperation in the process of modernization of education, the availability of necessity for modern pedagogical activities of the teacher, such as moderator, , information based on theoretical and practical recommendations regarding the further improvement of this environment is described.

Key words: quality of Education, fasilitator, competence, collaborative technology, modern approach, treatment, communication, communication methods, moderator, fasilitator, tyutor, mentor, personal skills, developmental education.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqe'ini ko'tarish, xalqaro nufuzli reytinglarda munosib o'rinlarni egallash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limning barcha bosqichlarini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalar, Milliy malakalar ramkasi qabul qilindi hamda amaliyotga tatbiq etib borilmoqda. "Bugungi kunda, ta'lim - nafaqat o'quvchilarga biror narsani o'rgatish, balki ularga tobora murakkablashib va o'zgarib borayotgan dunyoda, o'ziga bo'lgan ishonch bilan ildam harakatlanish uchun yordam beradigan zaruriy imkoniyatlar bilan ta'minlash jarayonidir". Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlarni joriy etish, mavjud tizimni qiyosiy tahlil qilish va zamon talablariga javob beradigan milliy baholash tizimini takomillashtirish dolzarb

ahamiyatga ega

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda zamonaviy ta'lim yondashuvlari asosida bilim, ko'nikma va malakalarning zaruriy hajmi beriladi va ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga, mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga asoslanadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z bilimini mustaqil oshirishi, faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining moderator, fasilitator, tyutor, mentor kabi zamonaviy pedagogik faoliyatlariga tayangan holda mustaqil ishlar jarayonini tashkil etish ijobiy natija beradi. Boshlang'ich sinflarning o'qituvchilari o'quvchilarning intilishlari, bilishi, qiziqishlari, o'zlashtirish darajasini chuqur o'rganish, tahlillash, monitoring qilish, ularning ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olish; o'quvchilar bilan emotsional munosabatlarni amalga oshirish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyatini qo'llab-quvvatlashi hamda o'z bilimlarini oshirishda doimiy ijodiy-ilmiiy izlanishlar olib borishi va ma'lum maqsadga yo'naltirishi zarur.

O'quvchilar darslik, fan matnlari, lug'at, jadval, elektron ma'lumotlar kabilar, kitob bilan ishlashi; reja bo'yicha ishlashi; standart ko'rinishidagi masalalarni yechishi; bo'sh vaqti rejasini tuzish; o'z natijalarini tahlil qilish; eski va yangi material o'rtasidagi aloqalarni o'rganish; o'zini-o'zi nazorat qilishni amalga oshirishi; shaxsiy tashabbusi bo'yicha ishlashi, o'rganilgan bilimlarni kundalik hayotida qanday amaliy ahamiyatga egaligini tahlil qila olishi kutilayotgan natijalar hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini tashkil etish orqali o'quvchilarida tayanch kopetensiyalarni rivojlantirishning o'ziga xos imkoniyatlari ko'zga tashlandi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarga bilim berishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish natijasida innovatsion ta'lim muhiti yuzaga keladi. Ushbu jarayonlarni shakllantirish masalalarini o'rganish maqsadida Buxoro, Andijon, Qashqadaryo viloyati maktablarida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirildi.

Boshlang'ich ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologiyasida foydalanib, ijobiy muhitni shakllantirish, ushbu muhitni yanada takomillashtirish maqsadida nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishldi va ular sinovdan o'rtkazildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, aynan boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiya jarayonini o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi asosida tashkil etish o'quvchilarda shaxsiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib, ularda kommunikativ kompetensiya, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, Umummadaniy kompetensiyalar, Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kabi kopetensiyalarni rivojlantirishda samarali natija berishi aniqlandi.

Boshlang'ich sinflarda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini tashkil etishda interfaol usullardan keng qamrovli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bilim berish va mavzuni o'rgatish jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro hamkorlikdagi faolliklarini yanada takomillashtirish, nazariy va amaliy jihatlarini nazariy asoslagan holda tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, hamkorlikka asoslangan ta'limda o'quvchilar alohida shaxs sifatida tan olinadilar. O'zlashtirishi past yoki imkoniyatlari cheklangan o'quvchilar ham do'stona munosabat o'rnatilgan sinfda o'z ovozlari ega bo'ladilar. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, o'quv jarayonining loyihasini ishlab chiqadi, unda har bir o'quvchining ishtiroki ko'zda tutiladigan vaziyatlar kiritadi. Guruhlar yoki juftlikda ishlash o'quv jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad asosida tanlanadi. Interfaol usullar yordamida tashkil etilgan guruhli ishda har bir o'quvchining ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladigan vazifalar va o'quv topshiriqlari beriladi. Natijada o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Buning natijasida o'quvchilarning imkoniyatlari kengayadi va o'zlariga beradigan baholari ko'tariladi. Shu tariqa, o'quvchi o'z qadr-qiyamatini anglay boshlaydi. Barcha o'quvchilar o'zlarining turli-tuman ekanliklarini anglash bilan bir qatorda, o'z kuchlariga ishonch hosil qiladilar. Shu bilan

birgalikda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga erishiladi.

Boshlang'ich sinflarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasidan foydalanish asosida tashkil etilgan darslarda bola yoshiga mos va mavzuni o'zlashtirish maqsadiga asoslab tanlangan interfaol metodlar va kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari misolida o'quvchilarda quyidagi o'zlashtirish mezonlari bo'yicha tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi (1-jadval). Mazkur jarayonning uzluksiz amalga oshirilishi natijasida o'zlashtirilayotgan bilimlar bilan rivojlantirilib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar

Kommunikativ kompetensiya	muloqatga kirishishda muomila madaniyatiga rioya qilish; muloqatda suhbatdosh fikrini hurmat qilish; olgan bilimlar asosida mustaqil fikr yuritish; voqeya-hodisalarga mustaqil ravishda munosabat bildirish; mavzudan kelib chiqib savollarni to'g'ri qo'ya olish va javob berish; jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
Axborot bilan ishlash kompetensiya	axborot manbalaridan (audio-video yozuv, kompyuter) foydalana olish; media vositalaridan, didaktik materiallardan foydalanish, fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish; kerakli axborotlarni kutubxonadagi adabiyotlardan qidirib topa olish.
Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi	o'qib-o'rganish oqaril bilimini oshirib borish; kun tartibini to'g'ri tashqil qilish; turli yo'nalishdagi (ertak, sarguzasht, xikoya va san'atga doir) kitoblarni muntazam o'qish va o'rganish; o'zining xato va kamchiliklarni to'g'ri tushunish, o'zini nazorat qilish, xatolarini tuzatishga xarakat qilish; hallolik, to'g'rilik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik kabi sifatlarga ega bo'lish; yaxshilik va yomonlikni bir-biridan farqlash, yaxshi fazilatlarga rioya qilish.
Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi	o'quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish; maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda (ko'rik tanlovlar, hashar va x.k) ishtirok etish va muomila madaniyatga amal qilish, kattaga hurmat, kichikka izzatda bo'lish kabi sifatlarga ega bo'lish; oiladagi o'z o'rnini hamda vazifalarini anglay olish; maktab binosi, sinfdagi jihozlar, mebellarni asrab-avaylash.
Umummadaniy kompetensiya	san'at asarlarini tahlil qilish; maktabning ichki tartib qoidalariga rioya qilish; yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish; ziyosat qilish odobigi amal qilish; milliy qadriyatlar (milliy-madaniy an'analar, bayramlar, sayillar) bilish;
Matematik savodxonlik, kompetensiyasi	bir kunlik xarajatlarini xisoblashni bilish; milliy o'yinlarimizning qanday paydo bo'lganligini bilish; texnika qachon paydo bo'lganligini bilish.

1-jadvalda keltirilgan boshlang'ich sinflarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida

o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini belgilovchi mezonlar o'qituvchining kasbiy va pedagogik bilimdonligi hamda ta'lim berishdagi zamonaviy yondashuvlardan maqsadli foydalanish natijasida o'quvchi shaxsiga singdirib boriladi.

Ta'limning xalqarolashuvi jamiyatimizga yuksak malakali kadrlar yetkazib berishni talab etish nuqtayinazaridan maktabda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarga bilim berish bilan birga ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish va kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish muhim vazifa hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini tashkil etish orqali mazkur tayanch kompetensiyalarni shakllantirish natijasida o'quvchilarda Jamoada ishlay olish, Boshqalarni tinglash, Qaror qabul qila olish, Hamkorlik, Muammolarni hal qila olish, Axborotlarni tanqidiy tahlil qila olish, O'zining ta'lim yo'nalishini belgilay olish, Bilimlarini namoyish eta olish kabi ko'nikmalar yanada rivojlanadi.

Darslarda o'zaro hamkorlik muhitini tashkil etish orqali o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilarning o'zaro faolligini ta'minlab beradigan jarayonini turli maqsadli, rivojlantiruvchi metodlardan foydalangan holda olib borish, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish an'anaviy ta'limga nisbatan samaraliroq kechishini tajribalar yana bir bor isbotladi.

Shu bilan birga, har bir mahoratli o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchiga faqat ma'lum bir mavzuga oid bilimni berishni emas, balki mavzuni o'zlashtirish jarayonida unda qanday kompetensiyalarni shakllantirish kerakligini aniq belgilab olishi, so'ng esa, maqsadga erishishni ta'minlovchi metod va vositalarni tanlashi talab etiladi. O'qituvchi o'z oldiga:

- Zamonaviy ta'lim, unga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?
- O'qitishda o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirishning ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
- Kompetensiya nima, uning maqsad va vazifasi nimalardan iborat?
- Ta'lim-tarbiya berishda kompetensiyaviy ta'limga asoslanishning mohiyati qanday?
 - Mening o'quvchim kelajakda qanday shaxs bo'lib kamol topishi kerak?
- O'quvchilarimning bilimli bo'lishi, ularda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish va kompetensiyalarni rivojlantirishda mening oldimda turgan vazifalar nimalardan iborat?
- Darslarni maqsadli va mazmunli tashkil etishda o'qituvchi mahorati nimalarda ifodalanadi? degan savollarni qo'yib, ularga javob topib borsa, u holda bu o'qituvchi kompetentli pedagogdir. Kompetentli pedagoglardan esa, albatta, xalqaro andozalarga javob bera oladigan iqtidorli o'quvchilar kamol topadi.

Ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yuksak madaniyatli yangi avlodni voyaga yetkazish mexanizmlarini yaratish maqsadida tarixiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning keyingi taraqqiyoti jarayonida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, umumta'lim maktablari faoliyatini yaxshilash, oliy ta'lim tizimini dunyo standartlariga moslashtirish, xalqaro reytinglarga kiritish kabi ko'plab ishlar olib borilmoqda.

Ushbu islohotlar orqali o'quvchi-yoshlarning hayotiy ko'nikmalari shakllantirilib, ularning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilmoqda. Milliy dasturlar asosida ta'lim sifatini oshirishni ta'minlovchi yuksak mas'uliyatli, o'quvchilarga sifatli bilim bera oladigan, zamonaviy innovatsion o'qitish usullarini o'zlashtirgan o'qituvchilar jamoasini ehtiyojlarga asoslangan ta'lim berish metodikalari bilan qurollantirish lozim.

Boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarning mantiqiy, ijodiy fikrlash kompetensiyalarini baholash va rivojlantirishda zamonaviy ta'lim yondashuvlaridan foydalangan holda xalqaro dasturlar tajribalari asosida yaratilgan milliy baholash tizimi ham muhim o'rin tutadi.

BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MODEL VA TAKSONOMIYASI

K.A. Kutlimuradov,

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, "Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o'qitish" kafedrasida katta o'qituvchisi, (PhD) Nukus, Karakalpakstan

Annotatsiya Maqolada tizim va muhit o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish shuni ko'rsatdiki, muhit tizimga resurslarni yetkazib beradi, tizimdan esa faoliyatning yakuniy natijasini qabul qilish, takomillashtirish, bu borada ta'lim oluvchilarning kompetensiyalari, ta'limda, jumladan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik modeli va taksonomiyasi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, kompetentli yondashuv, texnika va texnologiyalarning modernizatsiyalashuvi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И ТАКСОНОМИЯ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Кутлимуратов К.А.,

Нукусский ГПИ им. Ажинияза, Кафедра «Дистанционное обучение точных и естественных наук» старший преподаватель, (PhD) Нукус, Каракалпакстан

Аннотация: В статье исследование взаимосвязи системы и среды показало, что среда поставяет ресурсы системе, а система обеспечивает конечный результат деятельности, совершенствование компетенций обучающихся в этом отношении, в образовании, в том числе будущем. технологического развития Освещены вопросы методической модели и таксономии развития профессиональных компетенций учителей естественных наук.

Ключевые слова: Компетентность, компетентность, компетентный подход, модернизация техники и технологий, стремительное развитие науки и техники.

METHODOLOGICAL MODEL AND TAXONOMY OF PROFESSIONAL QUALITIES DEVELOPMENT IN FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS

K.A. Kutlimuradov,

Nukus DPI named after Ajiniyaz, «Distance teaching of exact and natural sciences» department senior teacher, (PhD) Nukus, Karakalpakstan

Abstract. In the article, the study of the relationship between the system and the environment showed that the environment supplies resources to the system, and the system provides the final result of the activity, improvement, competences of learners in this regard, in education, including future technological development. Issues of methodical model and taxonomy of development of professional competences in science teachers are highlighted

Key words. Competence, competence, competence approach, modernization of equipment and technologies, rapid development of science and technology.

Tizim – bu ma'lum bir tashqi shart-sharoitda muammoli vaziyatlarni yechish maqsadiga qaratilgan funksiya tuzilmasi. Tizimli-tuzilmaviy (amaliy, asosli) yondashuv obyektning tuzilish xususiyatlarini yaxlit, tarkibiy qismlarga berilgan vaqt oralig'i bo'yicha bo'laklangan holatda qarab chiqishni ko'zda tutadi [1].

Mazkur tadqiqot ishimizda yuqorida keltirilgan "tizim" tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qildik. Tizim – bu o'zaro hamkorlikdagi tartibli joylashgan qismlar birligini ifodalovchi yaxlitlik. Tizim haqida gapirilganda, "tizim" hamda "muhit" tushunchalarining o'zaro nisbatini qarab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tizim – yunoncha so'zdan olingan

bo‘lib, sistema-qismlardan tuzilgan, birlashtirilgan) ma‘lum bir yaxlitlikni hosil qiluvchi, biri bilan ma‘lum bir munosabat va bog‘lanishlarda bo‘lgan elementlar majmuasi tushuniladi. Muhit barcha tizimlar mujassamlashuvi bo‘lib, u tadqiq qilinayotgan, ajratib olingan va ayni vaqtda atrofimizni o‘rab turgan olamning bizni qiziqtirayotgan qismidan tashqarida yotadi. Bundan xulosa chiqarish mumkinki: tizim – bu qandaydir yo‘l bilan muhitdan ajratib olingan obyektlar to‘plami [1].

Tizim va tashqi muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni berilgan vaziyatdagi ahamiyatiga ko‘ra, bitta kiruvchi va bitta chiquvchi aloqa sifatida tasavvur qilish mumkin. Bunda tizim va muhit o‘rtasidagi kiruvchi va chiquvchi aloqa davomida ta‘lim oluvchi, o‘quvchi resurs sifatida muayyan pedagogik tizimning yakuniy mahsuli mutaxassis sifatida shakllanib, madaniy va ijtimoiy muhitda faoliyat ko‘rsatish uchun safarbar etiladi [2].


Tizim sifatida tizim sifatlariga ega bo‘lgan qaralayotgan tizimning nisbatan erkli, maqsad, yaxlitlik, bog‘lanishlarga ega qismi qaraladi. Tizim – bu muayyan bir tashqi shart-sharoitda muammoli vaziyatlarni yechish maqsadiga qaratilgan mehnat faoliyati, funksiyasi va tuzilmasi ekanligini aytish joiz [1].

Tadqiqot ishi doirasida tizim va muhit o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, muhit tizimga resurslarni yetkazib beradi, tizimdan esa faoliyatning yakuniy natijasini qabul qilishi bilan izohlandi.

Shunisi e‘tiborliki, tizimning faoliyat natijalari prinsipial jihatdan muhitni yarata olmaydi, ya‘ni tizim muhitga o‘z ehtiyojlarini qondirish manbai sifatida kerak bo‘ladi. Pedagogik tizimlarni tahlil qilish ikki kategoriyada amalga oshiriladi: subyektlar, ya‘ni ular o‘zaro ta‘sirlashib, tizimning mavjudligiga asos bo‘luvchi maqsadga erishish uchun xizmat qiladi va obyektlar, ya‘ni ular bilan ta‘sirlashuv natijasida subyektlar shaxsiy funksiyalarini amalga oshiradi. Ta‘lim mazmuni ta‘lim oluvchi ongi yordamida o‘zlashtiriladi va o‘zgartiriladi, shaxs tomonidan o‘quv faoliyati jarayonida dunyoqarash, qadriyatlar va mohiyatlar, e‘tiqodlar, tasavvurlar, bilim va ko‘nikmalar tizimiga aylantiriladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan tizimning shakllanish bosqichlarining muammoli vaziyatda qo‘llanilishi, tizimning maqsadi, mehnat faoliyati, mehnat funksiyalari va tuzilmasini aniqlash tashqi muhit tomonidan chegaralangan sharoitda faoliyat ko‘rsatuvchi real tizimlarning etaloni bo‘lib xizmat qila oladigan tashkiliy-metodik tizimni yaratish imkonini beradi. Bunda tizim – maqsadga muvofiq faoliyat ko‘rsatuvchi tuzilma bo‘lib, u muayyan tashqi muhitda muammoli vaziyatni hal etish imkoniga ega bo‘ladi. Aniq bir tizimlarni loyihalash va tahlil qilishda quyidagi omillarni hisobga olish zarur: tizim ishlashining maqsadi; tizim komponentlari va ularning munosabatlari; tizim bilan atrof-muhitning o‘zaro ta‘siri. Tizimlarni ichki va tashqi muhit bilan axborotlarni uzatish, qabul qilish, saqlash hamda qayta ishlash nuqtai nazaridan tadqiq qilish hamda loyihalashga tizim axborotli yondashuv deb ataladi.

Modelning maqsadi uch darajada: ta‘limiy – milliy qadriyatlar asosida «Xalq hunarmandchilik va badiiy loyihalash» fanini o‘qitish jarayonini tashkillashtirish, talabalarni xalq hunarmandchilik elementlari bilan tanishtirish; tarbiyaviy – bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarida xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish (xalq hunarmandchiligining turlari, buyumlarni yasash jarayoni, naqsh turlari, yog‘ochni turlarga ajratgan holda turlarga ajratilishi)ni o‘rgatish; rivojlantiruvchi – bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilari xalq hunarmandchiligiga oid ilmiy ma‘lumotlarni milliy qadriyatlar asosida o‘rganish, ularda elementar tahlil, sintez qilish hamda xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish kiritildi. Tadqiqot ishi jarayonida bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy maqsadida didaktik model ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Milliy qadriyatlar asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik modeli

Shuni ta'kidlash joizki, model tadqiqot ishida o'qituvchi faoliyati modeli tuzilmasi nafaqat matn tarzida, balki umumiy ko'rinishdagi sxema tarzida ham keltirildi. Bu ixtiyoriy pedagogik faoliyatni modellashtirish imkonini beradi.

Mazkur model uchta blokka (maqsadli blok, jarayonli blok, natijaviy blok) ajratilib, maqsadli blok (maqsad, ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, vazifalar), jarayonli blok (kompetensiya turlari (tayanch, maxsus, kasbiy), qadriyatlar (ta'limiy, milliy, ma'naviy, an'anaviy), pedagogik jarayon (mazmun, shakl, metod, vosita, qo'llanish sohasi), mashg'ulotlar (auditoriya va auditoriyadan tashqari)), natijaviy blok (baholash mezonlar (motivatsion-qadriyatli, kognetiv, emotsional va kasbiy-kompetentli) hamda natija) ni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi kompetensiyaning turlari tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalar hisoblanadi. Ushbu pedagogik jarayonni baholash motivatsion-qadriyatli, kognetiv, emotsion va kasbiy-kompetentli mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi. Bu mezonlarga asoslanib, o'zlashtirishning yuqori, yaxshi va o'rta darajalari ishlab chiqildi, Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarni milliy qadriyatlar asosida rivojlanganligi baholandi. Natijada, milliy qadriyatlar asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining xalq hunarmandchiligiga oid kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganligiga erishildi.

Model – pedagogik muammoning qismlarga bo'lingan holda kichik obyektlarda o'rganilishi, jarayonlarning tashkil etilish natijasida umumiy global maqsadga yo'naltirilgan holda, bosqichma-bosqich ta'lim natijalariga erishish hamda bir butun holatda jarayonni yuritish va nazorat qilish imkoniyatida yaxlit maqsadga erishish [3].

Model to'rta vazifani qamrab olgan bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish omillarni o'rganish, milliy qadriyatlarining ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishga qaratilgan metodik imkoniyatlarini takomillashtirish, milliy qadriyatlar asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kognetiv (bilim), affektiv (hissiy - qadriyatli) va psixomotorik (harakatli) maqsadlar asosida didaktik modelini ishlab chiqish, bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturiy va metodik ta'minotini yaratishni o'ziga vazifa sifatida qabul qiladi.

Modelda pedagogik jarayon quyidagi darajalar bilan metodik elementlar ko'rsatildi. Mazmun (Me'yoriy hujjatlar: o'quv reja, DTS, malaka talabi, dasturlar: texnologik ta'lim o'qituvchsini tayyorlashga oid hujjatlar. Ilmiy adabiyotlar: ilmiy va texnik adabiyotlar elektron qo'llanmalar O'UMLar, elektron manbalar. Qo'shimcha materiallar: didaktik manbalar, ko'rgazmali qurollar, maket va trenajyorlar); shakl (Jamoaviy: talabalarni umumlashtiruvchi shakllardan foydalanish. Guruhli: talabalarni kichik guruhlariga bo'lib o'qitish. Yakka: individual tarzda mashg'ulotlar tashkil etish.); metod (An'anaviy metodlar: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy. Noan'anaviy metodlar: interfaol metodlar. Innovatsion texnologiyalar: Loyihalash metodi, CLEVER portfolio, "eminbar" texnologiyasi); vosita (Real: buyum namunalari, trenajyor, asbob-uskuna va jihozlar, AKTLar. Tabiiy: uy-ro'zg'or buyumlarining qismlari, yog'och namunalari, naqshlar. Bosma: ko'rgazmali plakatlar, panolar, chizmalar va sxemalar), qo'llanish sohasi (Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fani mashg'ulotlarida; "crafts" to'garagi mashg'ulotlarida; Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida.) uzviy bog'langan.

Auditoriyada nazariy, amaliy, ko'rgazmali, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, "crafts" to'garagi, ekskursiya, ustoz-shogird tizimi va malakaviy amaliyotlarda tashkil etildi.

Tadqiqot ishini olib borishda, eng avvalo, uning maqsadini, ushbu maqsadga erishish uchun pedagogik jarayonni belgilab olindi va belgilab olingan pedagogik jarayon orqali natijaga erishildi. "Maqsad-maqsadga eltuvchi jarayon-natija" bu ta'limiy uchlik hisoblanadi. Pedagogik uchlikning o'rta bo'g'ini jarayonga hozirgi vaqtda e'tibor kuchaygan bo'lsada, bir qator pedagog olimlar ushbu pedagogik zanjirning boshidagi va oxiridagi halqalari ustida bir qancha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu soha bo'yicha Chikago universiteti professori Blum tomonidan bilim olish sohasidagi o'quv maqsadlari taksonomiyasining

yaratilishi e'tiborga molik.

“Taksonomiya” atamasi yunoncha soʻzdan olingan boʻlib taxis (tartib boʻyicha joylashuvi) va nomos (qonun) soʻzlari birikmasidan iborat boʻlib, oʻrganilayotgan obyektlarni oʻzaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlashtirish maʼnosini anglatadi [1].

Blum taksonomiyasi oʻquv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi. Jumladan, kognitiv (bilish), affektiv (hissiy – qadriyatli), psixomotor (harakatli). Texnologiya fanidan mashgʻulotlarni tashkil etishda talabalarning har bir soha boʻyicha mashgʻulotlarni mustaqil oʻzlashtira olish, tanqidiy fikrlash va hunarmandchilikka oid kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda taʼlim jarayonidagi holati haqida toʻxtalib oʻtamiz.

Kognitiv soha. Bu sohada hunarmandchilikka oid olingan texnik bilimlarni fanga oid yangi bilimlarni oʻzlashtirishda texnologik jihatdan qayta takrorlash, ularni egallangan kompetensiyalar bilan uygʻunlashtirish natijasida yangi texnik-texnologik mashq bajarish qonun-qoidalarini oʻrganish zaruratiga tegishli oʻquv maqsadlari kiritiladi.

Affektiv soha. Oʻquvchilarni hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida hunar egallashga boʻlgan qiziqish va moyilliklarni rivojlantirish, ichki hamda tashqi psixologik taʼsirlar natijasida texnologik munosabatni shakllantirish, uni mustaqil ravishda amaliy mashgʻulotlarni bajarishda tushunib yetish orqali katta hayotga tatbiq qilish maqsadlari kiritiladi.


Psixomotorli soha. Bunga hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonidagi psixologik faoliyat, texnik va texnologik jarayonlarda jismoniy faoliyat natijasida asab muskullarini markazlashtirish kompetensiyalarini shakllantirish bilan bogʻliq maqsadlar kiritiladi.

Blum taksonomiyasi asosida hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarning rivojlantirish maqsadi, mazmuni, shakllari ilmiy asoslandi.

Boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarning hunarmandchilikka oid kasbiy sifatlarini rivojlantirish metodikasi bevosita B.Blumning bilim olish sohasidagi oʻquv maqsadlari taksonomiyasi asosida quyidagi olti toifadagi asosiy oʻquv maqsadlaridan iboratligidan kelib chiqib ishlandi.

Tadqiqot ishida boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda B.Blum taksonomiyasi (bilish, tushunish, qoʻllash, analiz, sintez, xulosa) asosida ochib berilgan [1].


Oʻquv maqsadlarning ushbu olti asosiy kategoriyalarini dars va darsdan tashqari mashgʻulotlar jarayonida boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi koʻrinishlarini ochib berishga, ushbu kategoriyada boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish xususiyatlarini namoyon etish kabi oʻquv maqsadlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi (2-rasm).



2-rasm. Boʻlajak texnologik taʼlim oʻqituvchilarning oʻquv bilish darajasidagi kompetensiyalarni rivojlantirish kasbiy kompetentligi


Таълим хизматлари бозорида рақобатни аниқлашда юқорида муҳокама қилинган рақобатбардошлик элементлар асосида таълим хизматларининг рақобатбардошлигини шакллантиришнинг куйидаги асосий омилларини белгилаш мумкин:

таълим хизматлари бозорида ишлаш учун мотивация мавжудлиги;

ижобий натижаларни кутиш;

ушбу фаолиятни амалга ошириш учун ресурслар мажмуасининг мавжудлиги;

рақобатлашиш учун имконият ва қобилиятларининг мавжудлиги.

Таълим хизматлари ва муассаса даражасидаги рақобатбардошлик омиллари бир-биридан фарқ қилади. Биринчидан, хизматларнинг рақобатбардошлиги хизматнинг ҳаёт циклига мос келадиган вақт оралиғида баҳоланади ва ўрганилади. Иккинчидан, таълим хизматларининг рақобатбардошлиги хизматларнинг ҳар бирига нисбатан алоҳида кўриб чиқилади, муассасанинг рақобатбардошлиги эса хизматларнинг барча турларини қамраб олади. Учинчидан, илгари кўриб чиқилган таълим хизматлари истеъмолчисининг эҳтиёжлари иерархияси таълим мақсадларига қараб истеъмолчилар турлича ҳаракат қиладилар деган хулосага келишимизга имкон беради. Таълимни давом эттириш учун ушбу истеъмолчилар маълум бир таълим хизматига эътиборини қаратадилар. Лавозим

пиллапояларидан кўтарилиш орқали ҳаётда муваффақиятга эришишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган битирувчилар учун олий таълимни танлаш муҳим, чунки олий маълумотга эга бўлгандан сўнг нуфузли иш топиш осонроқ бўлади.

Таълим хизматларининг рақобат афзалликлари ва камчиликлари омилларини аниқламасдан унинг рақобатбардошлигини бошқариб бўлмайди. Рақобатбардошлик омиллари - муассаса томонидан таълим хизматларини кўрсатиш жараёнида рақобатбардош устунликларни шакллантириш учун зарур бўлган моддий ва моддий бўлмаган шароитлардир (1-расм).



Расм 1. Таълим хизматларининг рақобатбардошлик параметрлари.

Муайян омиллар ҳақида гапиришдан аввал, таълим муассаса раҳбарлари таъсир кўрсата олиши ва бошқариши мумкин бўлган омилларни ҳамда қайси омиллар фақат таълим муассаса рақобатбардошлигини оширишда ҳисобга олиниши кераклигини аниқлаб олишимиз лозим. Бунинг учун таълим муассаса фаолият кўрсатаётган муҳитни аниқлаш бирламчи вазибалардан бири ҳисобланади.

Таълим, иқтисодиётнинг бошқа соҳаларига нисбатан, ўзининг макро муҳити билан кенг, барқарор ва мустаҳкам қайта алоқаларга эга, чунки у келажакдаги фаолиятида ушбу муҳитдаги ўзгаришларни аниқлайдиган мутахассисларни тайёрлашга замин яратади.

Макро-муҳит таълим муассаса назорати остида бўлмаган умумий бозор ҳаракатининг кучларини ўз ичига олади: сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий, илмий-техник, маданий ва экологик. Макро-муҳит омиллари минтақадаги барча таълим муассасаларига бир хил таъсир кўрсатиб, уларнинг таҳлили асосан ҳақиқий ва потенциал хавфларни ёки қулай тенденцияларни кузатишга имкон беради. Бу ерда, таълим муассаса иқтисодий ходисалар оқибатини юмшатиши, ёки мавжуд имкониятларидан келиб чиқиб бошқарувни ташкил этиши мумкин.

Бевосита таълим муассасаси ва унинг имкониятлари билан боғлиқ кучларни ўз ичига оладиган мезо-муҳит таълим муассаса тақдим этаётган таълим хизматларининг мавжуд потенциал истеъмолчилари, унинг ҳамкорлари, рақобатчилари, оммавий ахборот воситалари, шунингдек, давлат назорати органлари билан ифодаланади. Таълим хизматлари бозорида ўзининг рақобат мавқеини мустақамлаш учун муассаса мезо-муҳит элементларига ўз таъсирини ўтказиши керак.

Таълим муассаса ташқи имкониятлардан самарали фойдаланиши ва ташқи хавларни олдини олиш мақсадида таълим муассаса ўзининг микро-муҳитига таъсир этувчи ички омилларни ва заиф томонларини ўрганиши ва таҳлил қилиши лозим.

Таълим хизматларининг рақобатбардошлигини ўрганишда унинг ташқи ва ички омиллари нисбатига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Таълим муассасаси ташқи омилларга таъсир ўтказа олмайди, бироқ ички омилларни назорат қилиш муассаса раҳбарларида барча зарур имконият ва шароитлар мавжуд. Ташкилотнинг ички рақобатбардош устунликларига эришиш ходимларга юкланган бўлсада, асосий масъулият раҳбар зиммасида бўлади.

Таълим хизматларининг рақобатбардошлигига таъсир этувчи ташқи омиллар қуйидагилар билан ифодаланади:

- институционал, яъни ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий ва демографик каби ташқи муҳит кучларига боғлиқ омил. Мактаб битирувчиларининг мустақил ҳаётда ўз ўрниларини топиш учун қулай ташқи муҳит мавжудлиги катта аҳамиятга эга.

- меҳнат бозоридаги талаб ва таклиф муносабатлари меҳнат бозоридаги конъюнктурани ўз ичига олиб, бу таълим муассасалар ўртасида рақобатнинг таъсири ва ушбу муассасалар томонидан битирувчиларнинг сифати билан боғлиқ.

- мактаб битирувчиларининг рақобатда устунлик томонларини шакллантириш давлат, жамият, тармоқ, соҳа ва бошқа таълим истеъмолчиларининг талаб ва буюртмалари асосида амалга оширилади.

Таълим хизматларининг рақобатбардошлигига таъсир этувчи ташқи омилларга ташкилот, муассаса раҳбари ва унинг ўринбосарларининг шахсий фазилатлари ва бошқарув қобилиятлари, бошқарув ва таълим шакллари, ходимлар таркиби, моддий-техник таъминот, бошқарувнинг ташкилий таркиби, ташкилот, муассасанинг корпоратив маданияти, муассасанинг мамлакатдаги ижтимоий-иқтисодий вазият ва меҳнат бозори ўзгаришларига мослашувчанлиги, рақобатбардош битирувчини шакллантиришда аниқ белгилаб олинган стратегияси мавжудлиги қиради.

Таълим муассасасининг рақобат курашидаги муваффақиятини таъминловчи омилларга қуйидагилар киритилади:

- муассаса мутахассис ва ходимларининг касбий тайёргарлик даражаси;
- тақдим этилаётган таълим хизматларининг хилма-хиллиги;
- ихтисослашув мавжудлиги;
- таълим жараёнида ахборот технологияларини қўллаш;
- таълим хизматларини кўрсатишда муассасанинг илмий, услубий, моддий-техник, кадрлар, молиявий таъминоти;
- таълим хизматларининг сифати юқорилиги;
- сифатли таълим шартлари ва кафолатларини яратиш (масалан, муассаса раҳбарларини сертификатлаш ва ўқитувчиларнинг малакаси ошириш, таълим дастурларини аккредитациядан ўтказиш орқали);
- муассасада доимий равишда ижодий муҳитни яратиш ва қўллаб-қувватлаш;
- таълимнинг амалиётга йўналтирилганлиги;
- таълимнинг иқтисодиёт, маданият, фанни ривожлантириш эҳтиёжлари ва мақсадларига мувофиқлиги.

Шундай қилиб, таълим хизматларининг рақобатбардошлигини таҳлил қилишимиздан мақсад таълим муассасаси қандай рақобатбардош устунликка эришиши мумкинлигини аниқлаш эди. Юқорида келдитилган ва шунга ўхшаш рақобатбардош устунликлар таълим муассаса рақобатбардошлигини таъминлайдиган таянч компетенциялар тушунчасини белгилайди.

Таълим муассаса рақобатбардошлигини баҳолаш механизми ва унга киритилган кўрсаткичлари тизимнинг субъекти, объекти (ва унинг даражаси) ва баҳолаш мақсадини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Таҳлил натижаларининг аниқ ва тўғри бўлиши учун баҳолашнинг асосий босқиларидан бири тадқиқот мақсадини белгилаб олиш муҳим ҳисобланади. Муассаса рақобатбардошлигини баҳолашдан мақсад хато белгиланганда,

тадқиқот натижалари нотўғри бўлиши мумкин.

Тадқиқотчи олимларнинг аксарияти муассаса рақобатбардошлигини унинг нуфузи, таълим хизматлари бозоридаги ўрни билан аниқлаш мумкин деган фикр билдирмоқдалар. Ушбу мезон асосида муассаса рақобатбардошлигини аниқлаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз, чунки унга баҳо берувчилар, таълим муассаса ўқувчилари ва битирувчилари, яъни бевосита таълим хизматлари истеъмолчиларидир.

Таълим муассаса рақобатбардошлигини баҳолаш бўйича С.Мамонтов [6] ва В.Рамзаев [9] таклиф қилган формулалар мавжуд бўлиб, унда муассаса рақобатбардошлигини баҳолашда муассаса нуфузи, нарх омили - молиявий аҳволи ва таълим сифати каби кўрсаткичлардан фойдаланилган.

А.Р.Панкрухин томонидан таклиф қилинган усул таълим муассаса рақобатбардошлигини икки томонлама баҳолашни назарда тутди. Биринчидан, истеъмолчига таклиф қилинадиган таълим хизматларининг ҳар бири баҳоланади. Иккинчидан, таълим муассасасининг кучли ва заиф томонлари аниқланади. Бунда таълим муассаса рақобатбардошлигини аниқловчи омиллар сифатида таълим хизматларига берилган баҳо, нархлаш, таълим хизматлари бозоридаги коммуникация ҳамда таълим хизматлари бозорида хизматнинг оммалашгани инобатга олинади. Таълим муассаса рақобатбардошлигини баҳолашда 10 баллик рейтинг шкаласи ва оғирлик коэффициентлари тизими қўлланилади. Агар бирон бир индикатор ҳақида маълумот мавжуд бўлмаса, у таҳлилдан чиқариб ташланади ёки тахминан баҳоланади [7]. Таълим муассаса рақобатбардошлигининг кучли ва заиф томонларини баҳолашда ҳам ушбу тартибда амалга оширилади. Бунда баҳолаш кўрсаткичлари ишлаб чиқариш ва хизматлар кўрсатиш; ташкил этиш ва бошқариш; ўқув жараёни усул, шаклл ватехнологияси; маркетинг; ходимлар каби йўналишлардан иборат бўлади.

Таълим муассасарақобатбардошлигитаҳлили асосида «Таълим муассасарақобатбардошлиги – бу маълум бир даврда муайян бир бозорда рақобатбардош таълим хизматларини кўрсатиш орқали муваффақиятли фаолият олиб бориш қобилиятидир» – деган муаллифлик таърифи бериш мақсадга мувофиқ деб билдик.

Шундай қилиб, таълим муассаса рақобатбардошлиги мазмунини тадқиқ этишда унинг таълим фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари ва якуний маҳсулотини, рақобатбардош афзалликлари ва камчиликларини баҳолаш жараёнида муайян қийинчиликлар мавжудлигини кўрсатади. Жумладан, таълим муассасанинг рақобатбардошлигининг ички ва ташқи омилларини, ишлаб чиқилган хизматларнинг ҳажм кўрсаткичларини рақамларда аниқлаш мураккабдир. Буларнинг барчаси ҳозирги вақтда таълим хизматларининг рақобатбардошлигини аниқ ва илмий асосланган баҳолаш мезони мавжуд эмаслигини таъкидлашга имкон беради, бу эса муассасанинг рақобатбардош стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш самарадорлигини туширади, чунки рақобатда муваффақият кўп жиҳатдан рақобатбардошлик омилларини самарали бошқаришга боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

Барыгина О. Н. Управление конкурентоспособностью предприятий сферы услуг: реализация поведенческого подхода // Евразийский международный научно-аналитический журнал. 2009. № 3 (31).

Гришков А.Ф. Сущность и особенности конкуренции организаций в сфере услуг. С-П.: Экономика и бизнес, 2015.

Дашинский, Д.Б. К вопросу о детерминации особенностей производства образовательных услуг. Известия Института управления и инноваций авиационной промышленности (Известия ИУИ АП). - Ростов н/Д: Известия ИУИ АП, 2008. № 3-4. - С. 54-66.

Kinnel, M., MacDougal, J. Marketing in the Not-for-Profit Sector. N.Y. Butterworth Heinemann, 2007, - P.53

Максимова Е.В. Развитие конкурентоспособности студента в образовательном процессе университета: автореф. дис. ...канд.пед.наук. Оренбург, 2005. 14-16 с.

Мамонтов, С.А. Изучение конкуренции на карагандинском региональном рынке образовательных услуг ВУЗов // Маркетинг. - 2000, № 1. - С. 61.

Панкрухин А.П. Маркетинг образовательных услуг: методология, теория и практика // – М.: ИКФ Омега - Л. 2008.

Радугин А.А., Радугин К.А. - Социология. – М. 2005. Радугин А.А., Радугин К.А. - Социология: курс лекций. - 3-е изд., перераб. и дополн. -. М.: Библионика, 2006 г., 114 страниц.

Рамзаев, В.М. Управление развитием негосударственных образовательных учреждений в сфере высшего и дополнительного профессионального образования в регионе: дисс. ... канд. эконом. наук: — М., 2000. — С. 75.

OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING PEDAGOGIK AMALIYOTINI TASHKIL QILISHDA MODIFIKATSION YONDASHUVNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

*Mirzakulova Nodira Ibragimovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'limda modifikatsiya va modifikatsion yondashuv tushunchasi, pedagogik amaliyotlarni o'tkazishda modifikatsion yondashuvning mazmuni va ahamiyati bayon qilingan hamda pedagogik amaliyotni tashkil qilish va o'tkazishda modifikatsion yondashuvni amalga oshirishning yaxlit tuzilmasi keltirilgan.

Tayanch so'zlar: oliy ta'lim, modifikatsiya, modifikatsion yondashuv, pedagogik amaliyot, yaxlit tuzilma, bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy kompetensiya, faoliyat, ijodkorlik, qobiliyat, o'zgartirishlar kiritish, sifatini yaxshilash.

СОДЕРЖАНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ МОДИФИКАЦИОННОГО ПОДХОДА В ОРГАНИЗАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ СТУДЕНТОВ ВУЗОВ

*Мирзакулова Нодира Ибрагимовна
Базовый докторант Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье описываются понятие модификации и модификационного подхода в высшей школе, содержание и значение модификационного подхода в проведении педагогической практики, а также общая структура реализации модификационного подхода в организации и проведении педагогической практики.

Ключевые слова: высшее образование, модификация, модификационный подход, педагогическая практика, интегрированная структура, знание, умение, компетентность, профессиональная компетентность, активность, творчество, способность, изменение, улучшение качества.

CONTENT AND IMPORTANCE OF THE MODIFICATION APPROACH IN THE ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL PRACTICE FOR UNIVERSITY STUDENTS

*Mirzakulova Nodira Ibragimovna
Basic doctoral student at Bukhara State Pedagogical Institute*

Abstract: This article describes the concept of modification and modification approach in higher education, the content and significance of the modification approach in conducting teaching practice, as well as the general structure of implementing the modification approach in organizing and conducting teaching practice.

Key words: higher education, modification, modification approach, teaching practice, integrated structure, knowledge, skill, competence, professional competence, activity, creativity, ability, change, quality improvement.

Kirish. Jamiyatda ijtimoiy ehtiyojlarining oshib bopishi hamda ta'limiy islohotlarning amalga oshirilishi natijasida tayyorlanayotgan mutaxaccining kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar ham o'zgarib bopadi. Bo'lajak mutaxaccidan yuqori darajadagi kasbiy tayyopgaplik, yuqari madaniyat, mupakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, mavjud vaziyatni tahlil qilish, kasbiy faoliyatida o'zining qobiliyatlarini rivojlantirib borish talab etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabalarining nazariy bilim va ko'nikmalarining kelgusi pedagogik faoliyatida qo'llay olish bo'yicha malakalarini shakllantirishda o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lgan malakaviy amaliyot muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Pedagogika ta'lim sohasi talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom bo'yicha malakaviy pedagogik amaliyot-ta'lim turlari uchun

yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash ishining ajralmas qismi bo'lib, talabalarning kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi pedagogik jarayon hisoblanadi.[1]

Pedagogik amaliyot - talabalarda dastlabki pedagogik faoliyat bo'yicha tasavvurlarni, izlanuvchanlikni, ijodkorlik qobiliyatlariga tayangan holda intellektual salohiyatini kengaytirib, rivojlantiradi, bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Amaliyot davomida talabalar tajribali o'qituvchilar rahbarligida umumta'lim maktablarida "Texnologiya" fani darslarini kuzatish va tajribalarini o'rganish orqali o'zlashtirish malakalarini, kasbiy faoliyatga oid rejalashtiruvchi hujjatlarini tuzish va ulardan foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan malakaviy amaliyot davri bu talabalar uchun egallayotgan kasbiga oid: kasbiy-texnologik bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bosqichi hisoblanadi.

Biz tadqiqotlarimiz davomida umumta'lim maktablarida amaliyotni tashkil etilishi va o'tkazilishi jarayonidagi mavjud muammolar borligi aniqlandi:

- oliy ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha dasturlar zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirilmaganligi, axborot metodik-ta'minotining yetarli darajada emasligi;

- umumiy o'rta maktablariga borib, pedagogik amaliyotini o'tkazish jarayonida talabalar uchun shart-sharoitlar hamda maktablarning moddiy-texnik bazalarining yetarli emasligi;

- texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarning pedagogik amaliyotni o'tashlariga qiziqishi pastligi;

- pedagogik amaliyotning bir xil yondashuvda o'tkazilishi;

- talabani pedagogik amaliyot davrida mustaqil o'rganish va ishlashiga undovchi metodlar va o'quv topshiriqlaridan foydalanilmaslik;

- umumiy o'rta maktablariga borib, pedagogik amaliyotini o'tkazish jarayonida talabalar barcha sinflarda bir xil metodikalardan foydalanishi;

- umumta'lim maktablarida birlashtirilgan o'qituvchilar va rahbarlar tomonidan amaliyotchi talabalarga etapli e'tibop bepaganligi;

- faqatgina oliy ta'lim muassasasidan bikipiptilgan amaliyot pahlavini nazorat qilishi va baholashi;

- pedagogik amaliyotga yubopilgan talabalarga maktab tomonidan rahbarga, uctaga qo'shimcha uctama maosh bepilmaligi;

- pedagogik amaliyotni o'tkazish bo'yicha turli yondashuvlar, ilg'or va zamonaviy metodikalar va innovatsion texnologiyalar qo'llanilmasligi;

- pedagogik amaliyot dasturini tuzishda ish beruvchilar tomonidan mutaxassislar ishtirok etmasligi;

Ushbu muammo va kamchiliklardan ko'rinib turibdiki, ularni hal qilmasdan turib sifatli pedagogik amaliyotni o'tkazish maqsadiga erishib bo'lmaydi.

Biz talabalar amaliyoti tashkil etishda mamlakatimizda, xorijiy va xamdo'stlik davlatlarda qo'llanilayotgan tizimli, kompetensiyaviy va turli innovatsion yondashuvlarni o'rgandik. Izlanishlarimiz asosida biz "Texnologik ta'lim" yo'nalishi bo'yicha umumta'lim maktablarida pedagogik amaliyotlarni o'tkazish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida modifikatsion yondashuvni qo'llashni tavsiya qildik.

Dastlab "Modifikatsiya", modifikatsion yondashuv kabi tushunchalarga to'xtalamiz.

Modifikatsiya-bu lotincha modificatio so'z bo'lib me'yor, ko'rinish, obraz, facio-o'zgartirish, yangi xususiyatlarni kiritish, kabi ma'nolarni anglatadi. Modifikatsiya – biron ob'ekt va jarayonga o'zgartirish yoki mazmuniga yangilik kiritish demakdir [5].

Ta'limda modifikatsiya esa-bu ta'lim dasturlariga va mazmuniga kiritilgan o'zgartirishdir[6].


Modifikatsiya o'rganilayotgan fanning o'quv dasturi mazmuniga o'zgartirishlar kiritish orqali talabani o'quv materialini o'zlashtirishga osonlashtirish yoki murakkab o'quv materialini engillashtirish hamda mustaqil ishlashiga ko'proq imkoniyat yaratishdir. Shuningdek, fanga oid alternativ o'quv adabiyotlaridan foydalanish, baholashning turli variantlaridan foydalanish, talaba bilan o'quv jarayonida teskari aloqani o'rnatish kabilar ham ta'lim modifikatsiyasiga kiradi.

Ta'limda modifikatsiyaning maqsadi- agar talabada fanni o'zlashtirishda yoki amaliyot davrida talab etilgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirilmasa unda o'quv materialini qulay taqdim etilishini ta'minlash, ta'limning turli metodlari va shakllarini qo'llash orqali o'quv mazmuniga o'zgartirish kiritiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz ta'limda modifikatsion yondashuvga quyidagicha ta'rif berdik.

Ta'limda modifikatsion yondashuv – bu ta'lim dasturiga, mazmuniga, o'qitish jarayoniga va baholash tizimiga o'zgartirish kiritish orqali talabalar individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim sifatini yaxshilash demakdir.

Bizning fikrimizcha pedagogik amaliyotni o'tkazishda modifikatsion yondashuv- bu amaliyot dasturiga, mazmuniga, o'tkazilish shakliga, metodlariga, talabaning o'quv harakatlariga va egallaydigan ko'nikma va malakalarini baholash mezonlariga o'zgartirish kiritish orqali amaliyot sifatini ta'minlashdan iboratdir.

Biz quyidagi 1-sxemada oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishlarida talabalar pedagogik amaliyotini tashkil qilish va o'tkazishda modifikatsion yondashuvni amalga oshirish yaxlit tuzilmasini tasvirladik.



1-rasm. Pedagogik amaliyotni tashkil qilish va o'tkazishda modifikatsion yondashuvni amalga oshirishni yaxlit tuzilmasi

1. Amaliyot dasturiga o'zgartirish kiritish. Ushbu bosqichda pedagogik amaliyot vazifalariga hamda egallashi kerak bo'lgan malakalariga qo'yiladigan zamonaviy ta'lim talablari bo'yicha o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritiladi. Amaliyot dasturidagi mavzulariga o'zgartirishlar kiritiladi.

2. Amaliyot o'quv-metodik ta'minotiga o'zgartirish kiritish. Yangilangan amaliyot dasturi bo'yicha axborot metodik ta'minotiga ya'ni o'quv materiallari mazmuniga, savollar va topshiriqlar tizimiga, elektron ta'lim resurslariga o'zgartirishlar kiritiladi.

3. Amaliyotni o'tkazish shakllariga o'zgartirish kiritish. Umumta'lim maktablarida pedagogik amaliyotni o'tkazishdagi dasturda keltirilgan tashkiliy ishlar, o'quv-metodik ishlar,

tadbirlar va to'garak ishlari, o'quv-tadqiqot ishlari mazmuniga va shakllariga o'zgartirish kiritiladi.

4. Amaliyotni o'tkazish metodikasiga o'zgartirish kiritish. Pedagogik amaliyotni o'tkazishda o'qituvchilar ko'pchilik hollarda bir xil an'anaviy metodikani qo'llaydilar. Amaliyot dasturida belgilangan faoliyatlar bo'yicha talabalarga vazifalar beriladi. Talabalar maktab o'qituvchilari darslarini kuzatadilar, taxlil qiladilar, ma'lumot yig'adilar, maslaxat olishadi va hisobot tayyorlashadi. Hisobotni amaliyot rahbari baholaydi. Endiki ta'lim sharoitida amaliyotlarni o'tkazishning bunday metodikasi talabga javob bermay qoldi. Talabani faolligi va qiziqishi past darajada, uning amaliyot davrida egallagan ko'nikma va malakasi bir xil mezonlar orqali o'qituvchi tomonidan bahollanadi. Talabani mustaqil pedagogik faoliyat yuritishga undaydigan metodlardan kam foydalanishadi. Shuning uchun ham amaliyotni o'tkazish metodikasiga o'zgartirish kiritganda talabani mustaqil o'rganishga, harakat qilishga, pedagogik muammolarni mustaqil hal qilishga yo'naltirilgan metodikani ishlab chiqishga e'tibor qaratish lozim.

5. Amaliyotni baholash mezonlariga o'zgartirish kiritish.

Va nihoyat amaliyot yakunida talabani o'z-o'zini baholashga, uning egallagan ko'nikma va malakasini ob'ektiv baholashga yo'naltirilgan o'zgartirishlar kiritiladi. Baholash bu murakkab jarayon bo'lib, unga o'zgartirish kiritish pedagogdan yuksak mahoratni talab qiladi.

Yuqoridagi o'zaro bir biri bilan bog'liq bosqichlardan ko'rinib turibdiki, modifikatsion yondashuvda talabalar pedagogik amaliyotining barcha tashkil etuvchilariga o'zgartirish kiritish orqali yaxlit o'zgartirish kiritilgan tuzilmaga erishiladi.

Shunday qilib pedagogik amaliyot davrida talabalarning kasbiy kompetensiyani egalashlari uchun modifikatsion yondashuv asosida pedagogik amaliyot mazmuni va tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga erishiladi va ba'zi ta'limiy muammolarga amaliy echim topiladi. Eng muhimi umum ta'lim maktablari talablariga javob beradigan malakali pedagoglarni tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Олий ва ўрта махсус таълим, Халқ таълим ва Мактабгача таълим вазирликларининг 2019 йил “5” мартдаги 10-к/қ-13-4-сон қарорига илова//

Педагогика таълим соҳаси талабаларининг малакавий педагогик амалиётини ташкил этиш тартиби тўғрисида “МУВАҚҚАТ НИЗОМ”.–Тошкент: 2019. www.lex.uz.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июлдаги ПҚ-3151-сонли Қарори // “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иқтисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида” .–Тошкент: 2017. www.lex.uz

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сонли қарори // “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” .–Тошкент: 2018. www.lex.uz.

Словарь русского языка: В 4-х т. / РАН, Ин-т лингвистич. исследований; Под ред. А. П. Евгеньевой. — 4-е изд., стер. — М.: Рус. яз.; Полиграфресурсы, 1999; (электронная версия): Фундаментальная электронная библиотека.

Ellen Moore. Что такое модификация в образовании. 2023г.<https://ru1.wvpt4learning.org/what-is-modification-in-education-12458>

TALABALARNING IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HARAKATLANTIRUVCHI OMILLARI

Narimbaeva Lola Kuzibaevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrsi, mudiri v.b, Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD, dotsent.

Annotatsiya: Maqolada talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi omillari yoritilgan.. Shuningdek kelajakdagi pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shartlari hamda ijodkorlikning psixologik jihatlari kektirilgan. Maqolada maktabgacha, umumiy o’rta, professional va oliy ta’lim bosqichlari kesimida talabaning sifatli ta’lim olishida ijodiy salohiyatini rivojlantirishning xususiyati, qiziqishiga ko’ra ta’minlanishga e’tibor qaratilgan.

Kalit so’zlari: Ijodkorlik, psixologik, qobiliyat, pedagog, tasavvur, fikrlash, progressiv, innovatsion, kommunikatsiya, diagnostika, faoliyat, didaktik vositalar.

МОТИВИРУЮЩИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Наримбаева Лола Кузибаевна

Чирчикский государственный педагогический университет «Методология дошкольного образования», и.о. заведующего, доктор философских наук по педагогическим наукам, доцент.

Аннотация: В статье раскрыты факторы, развивающие творческий потенциал студентов, а также рассмотрены педагогические условия подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности и психологические аспекты творчества. В статье акцентируется внимание на природе развития творческого потенциала школьника на этапах дошкольного, общего среднего, профессионального и высшего образования по интересам.

Ключевые слова: Креативность, психологические способности, педагог, воображение, мышление, прогрессивное, инновационное, общение, диагностика, деятельность, дидактические средства.

MOTIVATING FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE COMPETENCE

Narimbaeva Lola Kuzibaevna

Chirchik State Pedagogical University «Methodology of Pre-School Education», acting head, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences PhD, associate professor.

Annotation: The factors that develop the creative potential of students are covered in the article. Pedagogical conditions for preparing future pedagogues for professional activity and psychological aspects of creativity are also discussed. The article focuses on the nature of the development of the creative potential of the student at the stages of pre-school, general secondary, professional and higher education, according to his interest.

Keywords: Creativity, psychological, ability, pedagogue, imagination, thinking, progressive, innovative, communication, diagnosis, activity, didactic tools.

KIRISH. Bugungi kunda ijodkorlik muammosi eng dolzarb masalaga aylandi. Iqtidor - bu insonning genetik va tajriba bilan belgilanadigan hayotga moslashish qobiliyatining o’ziga xos o’lchovidir. Iqtidorning asosiy funktsiyalari dunyoga va atrof-muhitga maksimal darajada moslashish, ijodiy yondashuvni talab qiladigan yangi, kutilmagan muammolar paydo bo’lganda, barcha holatlarda echimlarni topishdir. Iqtidorli insonlar o’rtasidagi farq nafaqat tug’ma, balki ular inson hayoti davomida olgan narsalariga ham bog’liqdir. Ijodiy qobiliyatlar: motivatsiya bilan bog’liq (moyillik qiziqishlari); temperament bilan bog’liq (hissiyot); aqliy qobiliyat bilan bog’liqligi ila ajralib turadi. Bularning barchasi insonning ijodiy qobiliyatlari

bilan bevosita bog'liqdir, agar insonga imkon berilsa, inson asl mahsulotni yaratishga qodir. Insonning ijodiy qobiliyatlari faqat uning ijodiy faoliyatida rivojlanishi mumkin.

Ijodiy faoliyatning asosiy turlarini ajratib ko'rsatamiz:

ilmiy va mantiqiy;
texnik-konstruktiv;
majoziy-badiiy;
og'zaki - she'riy;
musiqiy-motorli;
amaliy va pedagogik;
vaziyatli (o'z-o'zidan, oqilona).

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini jarayonning o'zini, ijodkorlik mexanizmini hisobga olmasdan hal qilib bo'lmaydi. Shu bilan birga, ijodiy jarayon, xususan, har qanday ijodiy muammoni hal qilish jarayoni tegishli sxema bo'yicha amalga oshiriladi va ma'lum bosqich yoki bosqichlarga ega, deb taxmin qilish oqilona bo'ladi. Bu muammo ikki jihatdan - psixologik va kibernetik jihatdan ko'rib chiqiladi. Ijodkorlikning psixologik jihati ko'p jihatdan inson tasavvuri va sezgi bilan bog'liq. Tasavvur insonning ongida yangi obrazlar yaratish qobiliyatini bildiradi. Shuni yodda tutish kerakki, insonning tasavvurida paydo bo'ladigan har qanday yangi narsa ilgari olingan tajribada mavjud bo'lgan atrofda voqelikning elementlaridan qurilgan. Ixtiyoriy va majburiy, reproduktiv va ijodiy tasavvur o'rtasida farq bor. Sezgi (lotin tilidan intueri, degan ma'noni anglatadi diqqat bilan qarash), oldindan mantiqiy fikr yuritmasdan haqiqatga to'g'ridan-to'g'ri erishish qobiliyati sifatida tushuniladi. Sezgi psixologik mexanizmi hali to'liq o'rganilmagan bo'lsa-da, u insonning ijodiy faoliyati jarayonida juda muhim rol o'ynaydi, deb ta'kidlash mumkin. Kibernetika aspekti kibernetika (yunoncha kybernetike - boshqarish san'ati) tushunchasidan kelib chiqadi - texnik qurilmalar, tirik organizmlar va odamlar jamoalaridagi jarayonlar va boshqaruv tizimlarining umumiy xususiyatlari haqidagi fan. U belgi modellari bilan mantiqiy harakatlarga asoslangan. Bu jihatlardan birinchisi (psixologik) inson psixologiyasi nuqtai nazaridan ijodkorlik mexanizmiga oid ma'lum xulosalar chiqarishga imkon beradi, ikkinchisi (kibernetik) esa ijodiy jarayonning mantiqiy tarkibiy qismiga taalluqlidir.

Ijodiy jarayonni amalga oshirishning sxemasi quyidagicha:

* birinchi bosqich (ongli ish) - tayyorgarlik (yangi g'oyaning intuitiv ko'rinishi uchun zarur shart sifatida faoliyatning maxsus holati);

* ikkinchi bosqich (ongsiz ish) - pishib etish (muammo bo'yicha ongsiz ish, qo'llanma g'oyasini inkubatsiya qilish);

* uchinchi bosqich (ongsiz onga o'tish) - Ilhom (ongsiz ish natijasida qaror g'oyasi ong sohasiga birinchi navbatda faraziy shaklda, printsip, dizayn shaklida kiradi);

* to'rtinchi bosqich (ongli ish) - g'oyani rivojlantirish, uni yakuniy loyihalash va tekshirish.

Xulosa qilish mumkinki, yuqoridagi sxemalar ijodkorlikning o'ta murakkab psixologik mexanizmining tarkibiy va darajadagi tabiatini uning ongli (mantiqiy) va ongsiz (mantiqni chetlab o'tadigan) aloqalari kombinatsiyasi bilan ochib beradi.

Yuqoridagi diagrammalar ijodkorlikning o'ta murakkab psixologik mexanizmining tarkibiy darajadagi tabiatini uning ongli (mantiqiy) va ongsiz (mantiqni chetlab o'tadigan) bog'lanishlari bilan ochib beradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ijodiy jarayonning tarkibiy va mantiqiy tahlili ijodiy jarayonning ikkala komponenti: mantiqiy va psixologik mavjudligi zarurligi to'g'risida aniq xulosa chiqarishga imkon beradi. Ijodkorlikning bu komponentlari bir-birini almashtirib, bir-birini to'ldiradi.

Ijodiy salohiyatni rivojlantirishning pedagogik shartlari kelajakdagi pedagoglar

Kelajakdagi pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shartlarini asoslashda ular «raqobatbardosh shaxs» tushunchasini ta'kidlab, «faoliyat - shaxs» munosabatidan kelib chiqadi. Kelajakdagi pedagogning rivojlanishini individual diagnostika qilish jarayonida potentsial ijodiy rivojlanish zonalari ajratiladi: eng yaqin potentsial rivojlanish (talaba ertaga o'qituvchi yordamida bilishi va bilishi mumkin); eng yaqin o'zini rivojlantirish (talaba ertaga shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish jarayonida qila oladigan narsa). Har bir diagnostika darajasi

uchun talabalarning intellektual rivojlanish darajasi va ularning kasbiy faoliyatga motivatsiyasi haqida bilim olinadi. Proksimal o'z-o'zini rivojlantirish zonasi - o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini o'rganish - o'qituvchi talabada rivojlanishi kerak bo'lgan asosiy narsa. Bu talabaning o'qishning birinchi yilidan boshlab kuzatilishi va rag'batlantirilishi kerak. Darhaqiqat, o'z-o'zini rivojlantirish - kasbiy ta'limning eng oliy maqsadi. O'z-o'zini rivojlantirish - talabaning o'zi uchun javobgarligi - uning shaxsiy o'sishidagi yangi pozitsiya. Qadim zamonlardan beri o'z-o'zini bilish muammosi eng muhimlaridan biri bo'lib kelgan. Har bir diagnostika darajasi uchun talabalarning intellektual rivojlanish darajasi va ularning kasbiy faoliyatga motivatsiyasi haqida bilim olinadi. Proksimal o'z-o'zini rivojlantirish zonasi - o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini o'rganish - o'qituvchi talabada rivojlanishi kerak bo'lgan asosiy narsa. Bu talabaning o'qishning birinchi yilidan boshlab kuzatilishi va rag'batlantirilishi kerak. Darhaqiqat, o'z-o'zini rivojlantirish - kasbiy ta'limning eng oliy maqsadi. O'z-o'zini rivojlantirish - talabaning o'zi uchun javobgarligi - uning shaxsiy o'sishidagi yangi pozitsiya. Qadim zamonlardan beri o'z-o'zini bilish muammosi eng muhimlaridan biri bo'lib kelgan. O'zingizni bilish - shaxsiy hayotingizda nima muhimligini, qiyin vaziyatlarda qanday shaxsiy fazilatlar yordam berishini tushunish; odamlarga yaqinlashishga nima yordam beradi va nima to'sqinlik qiladi; qanday ajoyib yutuqlar, qiyinchiliklar va umidsizliklar; bu «o'zini nazorat qilish» degan ma'noni anglatadi. Inson bilimi davom etadi va o'z-o'zini bilish davom etadi. O'z-o'zini bilishning mohiyati kelajakdagi mutaxassisning o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlashdan iborat. Inson bu ko'paytirishni amalga oshiradi va u qanday harakat qilishini, nima uchun bunday qilayotganini tushunadi. Kasbiy faoliyatga maxsus maqsadli tayyorgarlik natijasida yuzaga keladigan yangi shakllanishni o'rganishda biz raqobatbardosh mutaxassisning individualligi modelini, shu jumladan uning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ko'rib chiqamiz. Bo'lajak pedagogning ijodiy kasbiy faoliyati turli darajalarda va turli vositalar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ammo har qanday holatda, u mavjud standartlarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish sharoitida uning ma'lum bir malakasi va tayyorligi asosida quriladi.

Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning harakatlantiruvchi omillari

- Fikrlash va empatiya qobiliyati;
- kasbiy muammolarni hal qilish uchun ta'lim ko'nikmalari tizimi;
- ta'lim muhitiga yo'naltirilgan tadqiqot yondashuvi;
- Tanqidiy, ijodiy, faol fikrlash;
- Darslarni olib borishda estetik va intellektual omillar;
- kasbiy faoliyatni qayta yaratish uchun vaziyatlar yaratish;
- progressiv innovatsion kommunikatsiya pedagogiyalaridan foydalanish;

Bo'lajak pedagog loyiha va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga, ishlab chiqarish, texnik va tashkiliy-boshqaruv ishlariga tayyor bo'lishi va quyidagi vazifalarni bajara olishi kerak: pedagogiya rivojlanishini prognozlash va ishlab chiqarishni tashkil etish; ishlab chiqarish usullarining qiyosiy iqtisodiy tahlili: texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tahlil qilish. Ularning ijodiy salohiyatini yuksaltirish ana shu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Ijodkorlik - bu sifat jihatidan yangi narsalarni yaratadigan va o'ziga xosligi, o'ziga xosligi va ma'lum bir o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan faoliyat. Shunday qilib, ijodkorlik - bu dizayndagi yangi qadriyatlarni yaratish. Bo'lajak mutaxassis o'z kasbini ijodiy qayta ko'rib chiqish olishi, uni ijodkorlik bilan bog'lay olishi kerak, unga erishish yo'llaridan biri ijodiy salohiyatni rivojlantirishdir. Ijodiy potentsialni aniqlashda kelajakdagi pedagoglarda ushbu sifatni shakllantirish va rivojlantirishda muhim funktsiyalarni bajaradigan shaxs tarkibidagi asosiy psixologik yangi shakllanishlarni aniqlash kerak. Avvalo, bular: tanqidiy, ijodiy, faol va mantiqiy fikrlash; ehtiyojlar, motivlar, his-tuyg'ular va xotira; sa'y-harakatlarni, e'tiqodlarni va qiymat yo'nalishlarini jamlash qobiliyati. Pedagog kasbiy muammolarni hal qilishning ma'nosi, maqsadi, vazifalari va usullarini tushunmasdan turib, yuqori kasbiy mahoratga erishish mumkin emas. O'qituvchi shuni ham hisobga olishi kerakki, yosh mutaxassisning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning harakatlantiruvchi omili har qanday kasbiy muammoni hal qilishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladigan ta'lim ko'nikmalari tizimini rivojlantirish

bo'lishi kerak. Bunday ko'nikmalarni shakllantirish ma'lum didaktik vositalar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish jarayonida, shuningdek, bu didaktik vositalar umumiy ilmiy tushunchalar, masalan, aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasi va boshqalar bilan birlashtirilganda amalga oshiriladi. Bo'lajak pedagogning ijodiy faoliyatini shakllantirish yo'llarini belgilashda, bizningcha, birinchi navbatda, ijodiy salohiyatni rivojlantirishning mohiyati, namoyon bo'lish qonuniyatlari va harakatlantiruvchi omillarini hisobga olish kerak. Avvalo, bu fikrlash va empatiya qobiliyatidir. Ularning past darajasi kelajakdagi mutaxassisning samarasiz, standartlashtirilgan xatti-harakatlarining asosiy sabablaridan biridir. Ularning rivojlanishi juda murakkab jarayon. Ijodiy salohiyatni rivojlantirishning pedagogik shartlaridan biri o'quvchilarning ta'lim faoliyatiga tadqiqotchi yondashuvini ta'minlashdir. Ijodiy salohiyatni shakllantirishda tanqidiy, ijodiy, tashabbuskor va mantiqiy fikrlash muhim o'rin tutadi. Ijodiy fikrlash - bu, birinchi navbatda, ta'lim, keyin esa ishlab chiqarish muhitini yaxshiroq natijaga erishish uchun o'zgartirish qobiliyati. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda estetik va intellektual omillarning birligini ta'minlash yana bir pedagogik shartdir. ularning ta'siri turli xil fikrlash turlarini, shu jumladan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni belgilaydi. Bu ong funktsiyalarini yaxshilashga yordam beradi, ijodiy faollikni, evristik faollikni, yangi narsaga intilishni va allaqachon ma'lum bo'lganlardan tashqariga chiqish yo'llarini izlashni rag'batlantiradi. Pedagogik shartlarga o'qituvchining ijodiy tasavvur, pedagogik fantaziya, bashorat yordamida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonini tahlil qilish qobiliyati, analoglarni izlash, o'quv bilimlarini birlashtirish, o'zlashtirish va qayta qurish qobiliyati, xotiraning ishlab chiqarishga tayyorligi kiradi. zarur ma'lumotlar; g'oyalarni yaratish qulayligi va boshqalar. O'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni ta'minlash uchun ularning improvizatsiya texnikasini rivojlantirish kerak, uning asosiy xususiyatlari - hissiy erkinlik, zukkolik, vaziyatlarning har qanday o'zgarishiga tez va adekvat javob berish qobiliyati. Ijodiy salohiyatni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi pedagogik shart sifatida o'qitish sifati va o'quvchilarning o'quv faoliyatining muvaffaqiyatini aniqlash, ya'ni o'quvchilarning saviyasi o'rtasida sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish uchun tahliliy-baholash usuli qo'llaniladi. o'qituvchilarning bilimlari va kasbiy mahorat darajasi. Ijodiy potentsialni rivojlantirishga psixologik-pedagogika fanining yutuqlarini maqsadli ravishda o'zlashtirish yordam beradi: insonparvarlik va ishbilarmonlik munosabatlarining ustuvorligi. Shunday qilib, ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik shart-sharoitlarga quyidagilar kiradi: transformatsion faoliyatga intilishni rag'batlantiradigan yo'naltirilgan o'quv muhiti; talabalarning psixologik-pedagogik moslashuvi yosh mutaxassisning ijodiy salohiyatini rivojlantirishning ijobiy shartlaridan biri sifatida; ta'lim yoki ishlab chiqarish muammosini shaxsiy muammo sifatida ta'kidlash; talabalarning ijodiy faoliyatini ma'naviy va psixologik qo'llab-quvvatlash. Shuning uchun sezilarli darajada yangilarini - original usullar, dasturlar, qo'llanmalar, original ta'lim tizimlarini yaratish kerak. Shunday qilib, biz individual muammolarni emas, balki o'quvchilarning ta'lim yutuqlarining yuqori sifatini ta'minlaydigan muayyan sharoitlarda muayyan jarayonning optimal ishlashiga qaratilgan innovatsion yondashuvlar orqali tizimni takomillashtirishni doimiy ravishda izlashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining 3 may 2019 yildagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi RQ 4306-sonli qarori

2. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского ун-та, 1993.- 176с.

3. Векслер Д. Мозг на 100%. интеллект. Память. креатия. Интуиция: Итенсив-тренинг по развитию супер способностей. М.: Эксмо, 2015- 848 с

4. Павлова.С. Интеллектуальное развитие и детская одаренность. Учебное пособие для вузов. М: 2021. Изд Юрайт. 116 с.

5. Turdiqulov U. Intellekt va kreativlikning o'zaro aloqasi. // Asademis research in edusatisational ssienses volume. 2020. № 2.В

6. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Тошкент. 2002- 499 б.

O'QUVCHILARNI VOLEYBOL SPORT MUSOBAQALARIGA TAYYORLASHGA KOMPLEKS YONDASHUV

Nigmanov Bori Botirovich,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

Annotatsiya. Voleybol shunchaki sport turi emas; bu jamoaviy ish, mahorat va qat'iyatni talab qiladigan dinamik, strategik o'yin. O'qituvchilar va murabbiylar sifatida bizning rolimiz o'yinning texnik jihatlarini o'rgatishdan tashqariga chiqadi. Bu voleybolga bo'lgan ishtiyoqni tarbiyalash va o'quvchilarni raqobatbardosh o'yinlarning qiyinchiliklari va hayajoniga tayyorlashdir. Ushbu maqolada biz voleybolni o'rgatishning keng qamrovli yondashuvini ko'rib chiqamiz, bu o'quvchilarni nafaqat zarur ko'nikmalar bilan ta'minlabgina qolmay, balki musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan fikrlash va jamoaviy ishlashni ham o'rgatadi.

Kalit so'zlar: Voleybol, sport, jamoaviy ish, mahurat, qat'iyat, o'qituvchi, murabbiy.

Raqobatbardosh sport turlarining ijtimoiylashuvi va tijoratlashuvi tufayli tobora ko'proq mamlakatlar o'zlarining raqobatbardosh sport turlarini rivojlantirish uchun ko'plab ishchi kuchi va moddiy resurslarni sarmoya qila boshladilar, bu esa jahon sport maydonlarida tobora keskin raqobatga olib keldi. Hozirgi vaqtda harakat texnologiyasi nisbatan etuk darajaga yetdi. Turli musobaqalarda bir nechta harakat texnikasidan tashkil topgan taktik tizim ham rivojlandi. Turli o'quv-uslubiy materiallar va monografiyalar nashr etilishi, turli ommaviy axborot vositalarining o'z vaqtida xabarlarini, Internetda ma'lumotlarning tarqalishi va ularning malakasi va taktikasi sir emas. Shu bois, jismoniy tayyorgarlik sport musobaqalarida g'olib chiqish va a'lo darajadagi sport ko'rsatkichlariga erishishda ayniqsa muhim omil bo'ldi. O'yinda g'alaba qozonish uchun faqat texnik-taktik ustunlikka tayanish holatini o'tmishdagi bilan solishtirib bo'lmaydigan darajada ekanligini turli sport musobaqalaridan ko'rish mumkin. Yuqori mahorat va taktikaga ega bo'lgan sportchilar yoki jamoalar, ko'pincha jismoniy tayyorgarlik, kamchiliklar tufayli, ayniqsa, saviya juda yuqori bo'lsa, final musobaqasida g'alaba qozona olmaydi.

Ko'proq mamlakatlarda voleybolga e'tibor qaratilayotgani sababli, joriy voleybol o'yini asl monopoliyani buzdi va qattiq raqobatning yanada qizg'in holatini ko'rsatdi. Jahon voleybol texnik darajasining jadal rivojlanishi va musobaqa qoidalarini doimiy ravishda o'zgartirish va takomillashtirish bilan zamonaviy voleybol texnologiyasi yuqori xizmat ko'rsatish nuqtalari, diversifikatsiyalangan tamponlama, o'tish tezligi, spiking kuchi va kavitatsiyani blokirovka qilish tomon rivojlanmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda uning rivojlanish sur'ati yanada qattiqlashdi. Zamonaviy voleybol texnologiyasining rivojlanish tendentsiyasi jismoniy tayyorgarlikni g'alaba qozonishning muhim omiliga aylantirdi.

Raqobatbardoshlik qobiliyatining beshta elementi orasida jismoniy tayyorgarlik asos hisoblanadi, chunki yaxshi jismoniy tayyorgarlik ko'nikma va taktikalardan to'liq foydalanish uchun zamin va imkoniyat yaratadi. Jismoniy tayyorgarlik ko'nikmalar va taktikalarning amaliy ta'siri bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda texnik-taktik tizim tobora to'la bo'lib borayotganligi sababli, jismoniy tayyorgarlik bo'yicha musobaqalar voleybol musobaqalarining yangi yo'nalishiga aylanmoqda. Zamonaviy voleybol tez va shiddatli qarama-qarshilik yo'nalishida rivojlanmoqda va bu tez va kuchli qarama-qarshilik kafolat sifatida yaxshi jismoniy tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikni kuchaytirish va sportchilarning maxsus kuch saviyasini, sakrash qobiliyatini, tez harakat qilish qobiliyatini oshirish musobaqada mahorat va taktikalarni qo'llashga ijobiy ta'sir qiladi.

Aqlli sport mashg'ulotlari texnologiyasining uzluksiz rivojlanishi bilan sportchilarning jismoniy tayyorgarligi ta'sirini baholash uchun aqlli raqamli tahlil va miqdoriy tahlil usullari qo'llaniladi. Ushbu yondashuv sportchilarning jismoniy tarbiya ta'sirini baholash uchun katta ma'lumotlarni tahlil qilish modelini yaratish uchun parametrlarni optimallashtirish va katta ma'lumotlarni tahlil qilish usullari bilan birlashtiriladi. Bundan tashqari, taklif etilayotgan yondashuv, baholashning aniqligini oshirish va sportchilarning jismoniy tarbiya ta'sirining turli

modellarini o'rganish uchun axborot sintezi bilan birlashtiriladi, bu ularning mashg'ulotlarini optimallashtirishga yordam berishda katta ahamiyatga ega.

Mashg'ulotlarda murabbiylar va ilmiy tadqiqotchilar butun mashg'ulot jarayonini yaxshiroq nazorat qilish va mashg'ulotlarni tizimliroq qilish uchun sportchilarning mashg'ulotlari haqida turli xil fikr-mulohazalarni olishga e'tibor berishlari kerak. O'quv ma'lumotlarini olish monitoring tadbirlari orqali amalga oshiriladi, so'ngra olingan ma'lumotlar kelajakdagi o'quv amaliyotlarini boshqarish uchun qimmatli ma'lumotnomalarni olish uchun qayta ishlanadi. Ushbu qayta ishlash asosan diagnostika uchun standart protsedura hisoblanadi. Jismoniy tarbiya jarayonining uzoq muddatli xarakterga egaligi va ta'sir etuvchi omillarning murakkabligidan kelib chiqib, murabbiylar va ilmiy tadqiqotchilardan sportchining tayyorgarlik holatini doimiy ravishda kuzatib borish va baholash, mashg'ulotlar mazmuni va usullariga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish talab etiladi. Zamonaviy ilm-fan va texnikaning jadal rivojlanishi bilan o'qitish va nazorat qilish usullari tobora takomillashib, ta'siri tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Natijada, ko'plab mamlakatlar tizimli tartib-qoidalar asosida samarali nazoratga erishish uchun ba'zi muhim loyihalar uchun «ilg'or sportchilar uchun kompleks monitoring tizimlari» ni yaratdilar va yaxshi natijalarga erishdilar. Masalan, Italiya, Gollandiya, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida jismoniy tarbiya jarayonini miqdoriy nazorat qilish, ayniqsa, o'quv yuklamasini miqdoriy jihatdan baholash va nazorat qilish uchun ilg'or kompyuter texnologiyalaridan foydalaniladi, bu esa jismoniy tarbiya jarayonini tartibga solishni yanada ilmiyroq qiladi. Bugungi kunga qadar voleybol bo'yicha jismoniy tayyorgarlikning monitoringi va diagnostik bahosi bo'yicha ma'lumotlar hali ko'rilmagan, ammo Xitoyda boshqa sport turlari bo'yicha jismoniy tayyorgarlik bo'yicha foydali urinishlar mavjud. Jiang va Chen samarali sportchining jismoniy tayyorgarligi va ko'nikmalari uchun monitoring va tahlil tizimini ishlab chiqdi, bu to'rtta asosiy funktsiyaga ega: ma'lumotlarni kiritish va ishlashni o'zgartirish, vertikal va gorizontal tahlil, natijalarni chiqarish va qaror qabul qilish rejaları.

Raqobatbardosh o'yinlarning murakkabligiga sho'ng'ishdan oldin, o'quvchilar voleybol asoslari bo'yicha mustahkam poydevorga ega ekanligiga ishonch hosil qilish muhim. Xizmat ko'rsatish, uzatish, sozlash va urish kabi asosiy ko'nikmalarni o'rgatish va takomillashtirishga e'tibor qaratish lozim. Ushbu asoslarni puxta egallash ishonchni mustahkamlash va ilg'or texnikalar uchun zamin yaratish uchun juda muhimdir.

Voleybol o'yini to'rt bilan ajratilgan oltita o'yinchidan iborat ikkita jamoadan iborat. Oltita voleybol maydonchasi pozitsiyasi: to'rtinchi o'rt to'suvchi, tashqi zarba, qarama-qarshi zarba, libero va xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis.

Boshlash uchun, qaysi jamoa birinchi bo'lib to'rtga xizmat qilishini aniqlash uchun tangani aylantiring.

Keyin ikkala jamoa to'rtinchi to'rtga oldinga va orqaga urishadi - xato yuzaga kelguncha. Har bir tomonda maksimal uchta zarba bor.

Maqsad - to'rtinchi raqib maydoniga yo'naltirish orqali ochko to'plash.

Voleybol o'yinlari to'rtinchi plamlardan, odatda uch yoki beshta to'rtinchi plamdan iborat.

Uch setdan iborat o'yinlar ikkita setdan iborat bo'lib, 25 ochko, uchinchi set esa 15 ochkodan iborat. Har bir set ikki ochko bilan yutish kerak. Ikki setda birinchi bo'lib g'alaba qozongan jamoa o'yin g'olibi hisoblanadi.

Besh setdan iborat o'yinlar to'rt setdan iborat bo'lib, 25 ochko va beshinchi set 15 ochkodan iborat. Agar turnir qoidalari boshqacha ko'rsatmasa, jamoa ikki ochko farqi bilan g'alaba qozonishi kerak. Uch setda birinchi bo'lib g'alaba qozongan jamoa g'olib hisoblanadi.

Voleybol qoidalari

Bu erda voleybol o'yinining asosiy, bilishi kerak bo'lgan qoidalari:

- Har qanday vaqtda polda faqat 6 ta o'yinchi: 3 ta oldingi qatorda va 3 tasi orqa qatorda.
- Rallida g'olib bo'lgan jamoaga har bir xizmat uchun ochkolar qo'shiladi (ralli ochkosi).
- O'yinchilar to'rtinchi ketma-ket ikki marta urmasliklari mumkin (blok zarba deb hisoblanmaydi).
- To'rt to'rtdan tashqarida ham, to'rt uzatish paytida ham o'ynalishi mumkin.
- Chegara chizig'iga urilgan to'rt ichkarida.
- Agar to'rt antennalarga, poldan butunlay tashqariga, antennalar tashqarisidagi to'rt yoki

kabellarga, hakamlar stendiga yoki ustunga yoki o'ynash mumkin bo'lmagan maydon ustidagi shiftga tegsa, o'chiriladi.

- O'yinchi tanasining istalgan qismiga to'p tegishi qonuniydir.
 - To'pni ushlash, ushlab turish yoki otish noqonuniy hisoblanadi.
 - O'yinchi 10 futlik chiziqdan yoki uning ichidan xizmatni bloklay olmaydi yoki hujum qila olmaydi.
 - Xizmatdan so'ng, oldingi chiziq o'yinchilari to'rdagi pozitsiyalarini almashtirishlari mumkin.
 - Gugurtlar to'plamlardan iborat; soni o'yin darajasiga bog'liq.
- Voleybol qoidalarini buzish
Ushbu voleybol qoidalarining buzilishi raqibga ochko olib keladi.
- To'p bilan aloqa qilishda xizmat ko'rsatishda xizmat ko'rsatish chizig'iga yoki bo'ylab qadam tashlash.
 - To'pga muvaffaqiyatli xizmat ko'rsatmaslik.
 - To'p bilan muomala qilishdagi xatolar va to'p bilan noqonuniy aloqa qilish (ikki marta teginish, ko'tarish, tashish, otish va h.k.)
 - To'p o'ynab turgan vaqtda tananing istalgan qismi bilan to'rga tegish.
 - Raqib maydonchasidan kelayotgan to'pni to'sib qo'yish va to'rga uzatilganda to'pga tegish, agar raqib 3 ta kontaktdan foydalanmagan bo'lsa VA to'p ustida o'ynash uchun o'yinchi bo'lsa.

• Raqib maydonchasidan kelayotgan to'pga hujum qilish va to'p hali to'rning vertikal tekisligini buzilmaganda to'r ustidan yetib kelganda to'p bilan aloqa qilish.

• Qo'l yoki oyoqdan tashqari, tanangizning istalgan qismi bilan sud markazini kesib o'tish. Agar butun qo'l yoki butun oyoq sudning markaziy chizig'ini kesib o'tgan bo'lsa, bu qoidabuzarlik hisoblanadi.

- Aylanma yoki ishlamay xizmat qilish.
- Orqa qatordagi o'yinchining to'siq qo'yishi (raqibdan kelayotgan to'pni chetga surib qo'yish), aloqa paytida orqa qatordagi o'yinchi to'rga yaqin bo'lganida va tanasining bir qismi to'r tepasida turganda. Bu noqonuniy blok.

• Orqa qatordagi o'yinchi oldingi zona ichida to'pga hujum qiladi (3M/10-fut chizig'i ichidagi maydon), aloqa paytida to'p to'ridan to'liq yuqorida bo'lganda. Bu noqonuniy hujum.

Progressiv ko'nikmalarni rivojlantirish: Darslarni qobiliyatlarga moslashtirish

O'quvchilaringiz guruhidagi turli mahorat darajalarini tan olish. Darslaringizni turli qobiliyatlarga moslashtirib, har bir talabaga o'z sur'atida rivojlanishiga imkon berish. O'quvchilarni individual yutuqlarni tan olish va nishonlashda doimiy ravishda takomillashtirishga undaydigan ilg'or ko'nikmalarni rivojlantirish rejalarini amalga oshirish.

Strategik mashg'ulotlar: Aqlli o'yinchilarni yaratish. Voleybol nafaqat jismoniy jasorat; bu strategiya va tezkor fikrlash o'yini. Talabalarga strategiya, samarali muloqot va sudda qaror qabul qilishning ahamiyati haqida o'rgatish uchun darslaringizga vaqt ajratish. Ularni umumiy o'yinlar, pozitsion taktikalar va o'yin oqimiga asoslangan strategiyalarni moslashtirish san'ati bilan tanishtirish.

O'yin simulyatsiyasi: Bosimni qabul qilish

O'yin simulyatsiyalarini mashg'ulot rejimingizga qo'shing. Haqiqiy musobaqalarning intensivligi va bosimini aks ettiruvchi stsenariylarni yaratish. Ushbu simulyatsiyalar talabalarga stress ostida ishlash uchun zarur bo'lgan aqliy chidamlilikni rivojlantirishga yordam beradi. Ularni samarali muloqot qilishga, tezkor qarorlar qabul qilishga va jamoa sifatida muammosiz ishlashga undash.

Jamoa tuzish faoliyati: Otryadni birlashtirish

O'quvchilaringiz o'rtasida do'stlik va birdamlik tuyg'usini tarbiyalang. Kortdan tashqarida jamoa qurish faoliyati ularning maydondagi dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ishonch va tushunish yaxshilangan aloqa, muvofiqlashtirish va musobaqalarda muvaffaqiyat uchun muhim bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi jamoa muhitiga yordam beradi.

Aqliy mustahkamlik: raqobatga tayyorlanish

O'quvchilaringizni musobaqalarda duch keladigan qiyinchiliklarga ruhiy jihatdan tayyorlash. Ularni qiyinchiliklarni engishga, diqqatni jamlashga va ijobiy fikrlashni saqlashga o'rgatish. Raqobatbardosh o'yinning eng yuqori va past nuqtalarida harakat qilish uchun muhim atributlar bo'lgan aqliy mustahkamlik va chidamlilikni shakllantirishga yordam berish uchun ong va vizualizatsiya mashqlarini kiritish.

O'yindan keyingi fikrlash: har bir o'yindan saboq olish

Har bir musobaqadan so'ng, o'quvchilaringizni mulohaza yurituvchi muhokamalarga jalb qilish. Yaxshilash kerak bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash uchun g'alabalarni ham, mag'lubiyatlarni ham tahlil qiling. Ochiq muloqotni, konstruktiv fikr-mulohazalarni va o'sish tafakkurini rag'batlantirish. Ushbu mulohazalardan qimmatli o'rganish imkoniyatlari sifatida foydalaning va o'quvchilaringizga ko'proq malakali va strategik o'yinchilarga aylanishiga yordam berish.

Xulosa: O'quvchilarni voleybol musobaqalariga tayyorlash ularga o'yin o'ynashni o'rgatish bilan cheklanib qolmaydi. Bu voleybolni yaxlit tushunishni, texnik ko'nikmalarni aqliy mustahkamlik va jamoaviy ish bilan uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Sportning jismoniy va ruhiy jihatlarini qamrab oluvchi kompleks yondashuvni qo'llash orqali o'qituvchilar va murabbiylar o'z shogirdlariga nafaqat voleybol maydonida muvaffaqiyat qozonishlari, balki o'rganilgan bebaho saboqlarni hayotlarining barcha jabhalarida olib borishlari mumkin.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARINING PROGNOSTIK KOMPETENSIYALARINING RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

Nurmatov G‘ayrat Mustofoqulovich

*Samarqand davlat chet tillar instituti Gumanitar va axborot texnologiyalari kafedrasini
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik prognozlashning tarixiy jihatlarini ko‘rib chiqildi va uning shakllanish davriyligi ochib berildi, har bir bosqichning mazmuni tavsiflandi, hozirgi bosqichda prognozlashning rivojlanish jarayoni va uning roli ko‘rsatildi. O‘qituvchi faoliyatida prognozlash muammosi pedagogik prognozning umumiy muammosi doirasida ko‘rib chiqildi, pedagogik bashorat sifatida talqin qilinadigan muammo umumiy pedagogik va alohida didaktik darajada yetarli rivojlanmaganligi aytib o‘tildi. Ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ko‘p bosqichli oliy ta‘lim va Boloniya kelishuvi doirasida ta‘limni o‘zgartirish va bunday sharoitida qo‘yilgan muammo tobora muhim ahamiyat kasb etilishi hamda yangi rivojlanish imkoniyatlari haqida aytib o‘tildi. Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy faoliyati talabalarning asosiy va predmetli kompetensiyalarini takomillashtirish yo‘llari, o‘qituvchi faoliyatining samaradorligi, talabalarning yetarli bilimga erishish usullarini bashorat qilish zarurati to‘g‘risida aytib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, prognoz, faoliyat, talaba, kompetensiya, rivojlanish, bilim, uzluksiz ta‘lim.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОГНОСТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассмотрены исторические аспекты педагогического прогнозирования и раскрыта периодичность его формирования, описано содержание каждого этапа, показано развитие процесса прогнозирования на современном этапе и его роль. Проблема прогнозирования в деятельности учителя рассматривалась в рамках общей проблемы педагогического прогнозирования. Модернизация образовательной системы, многоуровневое высшее образование и изменение образования в рамках Болонского соглашения, и проблемы, поставленные в таких условиях, будут становиться все более актуальными, а также были упомянуты новые возможности развития. Было упомянуто о путях совершенствования основных и предметных компетенций современного учителя, эффективности работы учителя, необходимости прогнозирования путей достижения обучающимися достаточных знаний.

Ключевые слова: учитель, прогнозирование, деятельность, ученик, компетентность, развитие, знания, непрерывное образование.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF PROGNOSTIC COMPETENCES OF PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Abstract: This article reviewed the historical aspects of pedagogical forecasting and revealed the periodicity of its formation, described the content of each stage, showed the development process of forecasting at the current stage and its role. The problem of forecasting in the teacher's activity was considered within the framework of the general problem of pedagogical forecasting. Modernization of the educational system, multi-level higher education and change of education within the framework of the Bologna agreement, and the problem posed in such conditions will become more and more important, as well as new development opportunities were mentioned. It was mentioned about the ways of improving the basic and subject competencies of the modern teacher, the effectiveness of the teacher's work, the need to predict the ways of students to achieve sufficient knowledge.

Key words: teacher, prediction, activity, student, competence, development, knowledge,

continuous education.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy kasbiy ta'lim professional standartlarni hisobga olgan holda Davlat ta'lim standartlari asosida faoliyat yuritadi. Shu munosabat bilan o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bugungi kunda pedagoglarning kasbiy standartidan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Pedagogik ta'lim tizimi o'qituvchining doimiy o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishga mo'ljallangan. Pedagogik ta'lim tizimida o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirishga tayyor, tashkilotchilik qobiliyati, tashabbuskor va ijodiy salohiyatga ega bo'lgan faol, ishbilarmon o'qituvchining rivojlanishi o'qituvchilarning prognostik faoliyatini pedagogik ta'lim jarayoniga kiritish va kelajakda ularning talabalaridir. Zamonaviy pedagogik va progostik texnologiyalari ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtirilib, amalga oshiriladi. O'zbekiston ta'lim tizimida islohotlar yo'lidan borish bilan bir qatorda jamiyatda ijtimoiy ong sohalari ham o'zgarimoqda. Jumladan, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, psixologik, ijtimoiy, boshqaruv sohaslarida ham o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimida xususiy sherikchilikka asoslangan oliy o'quv yurtlari, ularning faoliyat turlari va shakllari, tendensiyalari, modellari paydo bo'lib, ularning barchasi bugungi jadal islohotlarning asosini tashkil etmoqda. Axborot aylanishining tez o'sib borayotganli, yangi texnologiyalarning hayratlanarli darajada jadal rivojlanishi, bu borada rivojlanishidagi tarkibiy o'zgarishlar, ijtimoiy-madaniy sohadagi taraqqiyot, yangi optimal boshqaruvning isloh qilinishi, shu jumladan, ta'lim sohasida ham zarur o'zgarishlarni talab etmoqda.

MUHOKAMA

Prognostik faoliyat o'qituvchilarni kasbiy va shaxsiy o'sishi va rivojlanishi uchun oqilona maqsadni belgilash qobiliyatini ta'minlaydi; doimiy kasbiy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish istagi; professional va shaxsiy o'sish uchun prognozlash metodikasi va texnologiyasi; o'z-o'zini rivojlantirish, talabalar o'quv faoliyatini bashorat qilish va ularning faoliyatini tekshirish yo'llari va nihoyat, prognozlash, yangi ijtimoiy hodisalarni optimistik istiqbolli prognostik yondashuv yordamida ishlash uchun eng yaxshi yo'l topish, tajriba orttirish demakdir. Ushbu maqolaning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

1) jahontaraqqiyotidagi hozirgi tendensiyalar va barcha sohalarda, xususan, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida mutaxassislarning prognostik faoliyatining rolini oshirish;

2) o'qituvchilarni uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish va pedagogik yetuklikka erishish texnologiyalari bilan qurollantirish bo'yicha o'qituvchi ta'limiga bo'lgan talablar. Shuning uchun maqolaning maqsadi o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash nazariyasini ularni pedagogik prognozlashni o'rgatish asosida ishlab chiqish bo'lib, u mehnat hayoti davomida prognozashtirish va professionallikni takomillashtirishning kasbiy funksiyasini amalga oshirishga samarali tayyorgarlik ko'rishni ta'minlaydi. Tadqiqot metodologiyasi ko'p jihatdan didaktika, akmeologiya, va o'quv-pedagogik prognozlash sohasidagi tarixan tashkil etilgan g'oyalar majmui bilan belgilanadi.

Prognozlash o'qituvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash, talabalarning ta'lim faoliyatini boshqarish usullari bilan qurollantiradi; yangi ijtimoiy hodisalar haqida optimistik nuqtai nazar va tushuncha beradi, faoliyatning eng yaxshi usulini topishga ilmiy bashoratli yondashuv yordamida o'rgatadi. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish natijasida shunday xulosa kelib chiqadiki, prognozlash deganda ilmiy asoslangan qoidalar va usullarga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar majmuasiga asoslangan obyekt haqida ilg'or ma'lumotlarni olish jarayoni tushuniladi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatimizning tuzilishi, uning vazifalari ta'lim va pedagogik sohadagi tarixiy va xalqaro tajribani tahlil qilishni talab qiladi. Rossiya, AQSh va Yevropa ta'lim tizimida prognozlash asosida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, mamlakatimiz ta'lim ta'limida prognozlashni tashkil etishning hozirgi holatini aniqlashga imkon beradi. Tarixiy-tahliliy usul asosida biz prognozlash genezisi, ya'ni rivojlanayotgan hodisaning shakllanishi va shakllanishi, kelib chiqishi va keyingi rivojlanish jarayonini ko'rib chiqamiz, ma'lum

bir holatda, hodisaga nisbatan uni ilmiy asoslab beramiz. Shu maqsadda “davriylashtirish” tushunchasi mazmunidan foydalanib, rivojlanish jarayonlarini tabiat va tabiatning obyektiv qonuniyatlariga muvofiq asosiy sifat jihatdan turli davrlarga bo‘lish asosida mamlakatimizda va xorijda olib borilgan tadqiqotlar asosida pedagogik prognozlashning rivojlanish davrlarini ajratamiz. 20-asrda mamlakatimizda va xorijda ta’limning rivojlanishi nazariyalariga asoslanib pedagogik prognozlashning rivojlanishining uch bosqichini ajratish mumkin:

Birinchi bosqichda - yashirin - (antik davrdan XX asrning 60-yillarigacha bo‘lgan davr) bashorat qilishga o‘z-o‘zidan murojaat qilishdan boshlanadi, bu sof ilmiy xususiyatga ega emas.

Ikkinchi bosqichda - aniq - (60-yillar davri - XX asrning 90-yillari o‘rtalari) prognozlash fan sifatida rasmiylashtiriladi, uning nazariy va uslubiy asoslari ishlab chiqiladi, o‘quv-pedagogik prognozlash alohida ajratiladi. Ta’lim va pedagogik prognozlash doirasida asosiy yo‘nalishlarga ajratiladi.

Uchinchi bosqichda – institutsional- (XX asrning 90-yillari o‘rtalaridan hozirgi kungacha bo‘lgan davr) prognozlashni to‘liq o‘rganish, uni psixo-pedagogik, ijtimoiy va pedagogik muammolarni hal qilish metodologiyasi sifatida qo‘llash, shu jumladan amalga oshirish bilan tavsiflanadi, shuningdek, o‘qituvchi faoliyatida prognozlash funksiyasi katta ahamiyat kasb etishi namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bu o‘z ichiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (Ye.V. Bondarevskaya, A.V. Kiryakova, M.V. Klarin, A.V. Korjuev, G.N. Yermoxina, V.A. Popkov, Ye.L. Ryazanova, V.V. Serikov, I.S. Yakimanskaya i dr.), pedagogik muammolarni o‘rganishga tizimli yondashuv (Yu.A. Konarjevskiy, N.V. Kuzmina, A.V. Pet-rov, Ye.B. Plotnikova, Ya. Ditrix va hokazo.), kasb ta’limining umumiy muammolari (L.N. Aksenova, A.P. Belyaeva, V.F. Bessarab, E.F. Zeer, Ye.A. Klimov, I.P. Kuzmin, K.M. Levitan, A.I. Subetto va boshqalar.), o‘qituvchi tarbiyasi masalalari (V.I. Andreev, V.P. Borisenkov, N.S. Gluxonyuk, N.N. Gordeeva, T. Dmitrenko, M.Ye. Duranov, U.B. Yeslyamova, N.A. Zaruba, A.F. Matushak, L.M. Shvachunova, L.V. Maslova, G.A. Larionova, N.N. Tulkibaeva, A.V. Usova, Ye.V. Yakovlev va hokazo.), akmeologiya muammolari (A.A. Derkach, A.A. Bodalev, N.V. Kuzmina, V.N. Maksimova, A.K. Markova, A.I. Subetto, Yu.K. Chernova, I.N. Grigoreva, V.G. Zazykin, A.P. Chernyshov va boshqalar), dars nazariyasi (V.S. Bezrukova, S.I. Veksler, I.Ya. Lerner, I.K. Juravlev, V.V. Kraevskiy va boshqalar).

NATIJALAR. Ushbu turdagi prognostik kompetentsiya asosiy va maxsus prognostik kompetentsiyalarga asoslanadi. Bu quyidagi asosiy prognostik turlar ya’ni, axborot prognostika, operatsion prognostika, baholash prognostik turlarni o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda asosiy prognostik kompetentsiyalar; maqsadli prognostik kompetentsiya, rejalashtirilgan prognostik kompetentsiya, dastur prognostik kompetentsiyasi, loyihalash prognostik kompetentsiya va tashkiliy prognostik kompetentsiyalarni o‘z ichiga oladi. Maxsus prognostik kompetentsiyalarga, masalan, materialni taqdim etishda prognostik kompetentsiya, usullar, uslublar, o‘qitish texnologiyalarini tanlashda prognostik kompetentsiya, joriy, davriy va oraliq nazorat usullarini, shakllarini tanlashda xizmat qiladi. Bunday tizimda konstruktiv-funksional modellar o‘zgaruvchanligi aniqlangan (1-rasm).

FUNKSIYA-1	TA’LIM-KOGNISTIK PROGNOSTIK BLOK	1. MAQSADLI KOMPONENT 2. SEZILARLI DARAJADA ISHLAYDIGAN KOMPONENT 3. BAHOLASH KOMPONENTI
FUNKSIYA-2	PROFESSIONAL PROGNOSTIK BLOK	1. MAQSADLI KOMPONENT 2. SEZILARLI DARAJADA ISHLAYDIGAN KOMPONENT 3. BAHOLASH KOMPONENTI
FUNKSIYA-3	TRENING PROGNOSTIK BLOK	1. MAQSADLI KOMPONENT 2. SEZILARLI DARAJADA ISHLAYDIGAN KOMPONENT 3. BAHOLASH KOMPONENTI

Jadval-1 Uzlaksiz pedagogik ta’lim tizimida pedagogik prognozlashning tarkibiy va funksional modellarning umumiy ko‘rinishi

Jadval-1 Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagogik prognozlashning tarkibiy va funksional modellarining umumiy ko'rinishi

Har bir model bir qator pozitsiyalar (funksiyalar, faoliyat predmeti, faoliyat xarakteri, faoliyat taqsimoti, tizimlilik darajasi, tayyorgarlik, mazmun) bo'yicha tahlil qilinadi va uchta blokga ega. Ta'lim-kognitiv yo'nalishning tarkibiy funksional modelida o'quv-kognitiv prognostik blok ustuvor rol o'ynaydi. Ushbu modelning asosiy vazifasi (1-funksiya) kognitiv faoliyatda pedagogik prognozlashdir. Kasbiy tayyorgarlik yo'nalishining tarkibiy-funksional modeli bir xil blokli tarkibga ega, lekin kasbiy prognostik blokning ustuvorligi bilan va ta'lim va ta'lim jarayonlarini rejalashtirishda pedagogik prognozlashning asosiy funksiyasini bajaradi (2-funksiya). Maslahat-ta'lim yo'nalishining tarkibiy-funksional modeli maktab o'quvchilarini gnostik faoliyatga o'rgatish ustuvor vazifaga ega (3-funksiya).

Pedagogik faoliyat doirasida tizimli tahlilni amalga oshirish uchun ta'lim-tarbiya, pedagogik faoliyat, pedagogik jarayon, pedagogik vazifa, pedagogik maqsad, pedagog imidji, ta'lim oluvchining faoliyati, ta'lim usuli va vositalari, ta'limda qo'llaniladigan texnologiyalar (shu jumladan axborot texnologiyalari) kabi xossalarni funktsionalligini inobatga olgan holda tahliliy usullar tanlanishi lozim. Buning uchun ongli harakatlarning ketma-ketligidan (modelidan) foydalanish mumkin. Masalan, kafedra professor-o'qituvchilarining faoliyatini o'rganishni olsak. Bunda, bajarilgan (bajarilishi lozim bo'lgan) o'quv ishlar, ilmiy - uslubiy ishlar, ilmiy - tadqiqot ishlari, tashkiliy - uslubiy ishlar, ma'naviy - ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni o'rganish lozim bo'ladi. Buning uchun, "1 + maqsad shakllantiriladi, 2 + vazifalar belgilanadi va ularni bajarish tartibi aniqlanadi, 3 + mulohaza va munozara yuritiladi, 4 + ishlar aniq belgilar (ko'rsatmalar) asosida umumiy va xususiyatlarga ajratiladi, 5 + rejalashtirilgan va bajarilgan ishlar orasida tafovut belgilab olinadi va tashxis amalga oshiriladi. Ya'ni, galdagi ishlar bajariladimi yoki bajarish imokniyati yo'qmi, 6 + faoliyatning har bir sohasi bo'yicha mushohada yuritiladi, natijalar qiyoslanadi. Amaliyotda, gohida farq kuzatiladi. Masalan, bajarilgan ilmiy - tadqiqot ishlarining ko'rsatkichi yuqori, tashkiliy - uslubiy ishlar past bo'lishi mumkin, 7 + jamlangan, qiyoslangan barcha axborot yaxlit holatga keltiriladi, 8 + ular ko'rsatilgan me'yor asosida tavsif va sharhlanadi, 9 + xulosa, taklif va tavsiyalar tayyorlanadi, 10 + faoliyatga oid prognoz variantlari tuziladi va biron bir tahliliy manba shakliga keltiriladi, 11 + tayyorlangan tahliliy manba rahbariyatga (buyurtmachiga) uzatiladi. Tahliliy manba, intellektual 100 faoliyatning oliy mahsuli bo'lib, pedagogik faoliyatning aniq bir sohasiga oid muayyan muammoni o'rganishga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. U aniqlangan muammolarni bartaraf etishda rasmiy jihatdan qudratli vosita hisoblanadi va o'z oldiga qator maqsadlarni qo'yadi. Tahliliy manbalar ilmiy ishlardan qator xususiyatlari bilan farqlanadi, ularni quyidagi tartib asosida ko'rsatib o'tish mumkin: soddaligi bilan; bayon tarzining osonligi bilan; ilmiy tushunchalarning kamroq qo'llanganligi bilan; tahlilni amalga oshirish vaqtining chegaralanganligi bilan; manba hajmining chegaralanganligi bilan; manbani aniq vazifani bajarishga yo'naltirilganligi bilan. Tahliliy jarayonga ajratilgan vaqtning o'sishi bilan kasbiy xarakterdagi axborotga qo'yiladigan talabni amaliyotga tadbiq etishga imkoniyat yaratiladi. Ulardan eng asosiylari quyidagilardir: o'z vaqtida; keng qamrovli; ishonchli; xususiy va b. Bular, o'z navbatida, pedagogik faoliyatdagi u yoki bu muammoni hal qilishda resurslar, huquqiy asos, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini inobatga olgan holda rahabariyat tomonidan qaror chiqarishga yordam beradi. Tahliliy manbaning to'liqligi va ishonchligi turli metrik uslublar yordamida olingan axborot hisobidan shakllantirilgan baza hisoblanadi. Tahliliy manbani tayyorlash jarayonini bir necha bosqichga ajratish mumkin: tadqiqot vazifasini buyurtmachi/iste'molchidan belgilab olish (vazifa olish); muammo bilan tanishish (muammoning tarixi, sababi, unga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash); manbani tayyorlash uchun bajariladigan vazifalarni belgilab qo'yish; manbada qo'llanadigan atama va tushunchalarning aniqlash (axborotni tasniflash va tizimlash); metrik uslublarni belgilab olish va ularning vositasida ma'lumotlarni to'plash (axborot bazasi); yig'ilgan axborot tahlili (faraz ilgari surish, sabab-oqibat aloqadorligini aniqlash, tendensiyalarni belgilash, prognozlash); asosiy holatlarni bayon etish (matn bilan ishlash); xulosa va tavsiyalarni aniqlab, ularni amaliyotda sinash; yakuniy xulosalarni taqdim etish (tadqiqot ishini tugatish); manba bo'yicha soha mutaxassislari bilan maslahatlashish; manbani rasmiylashtirish va adresatga jo'natish (vazifani bajarish) va b.

XULOSA. Pedagogik jarayonlarni samaradorligini ta'minlash uchun o'qituvchilar aniq belgilangan yo'nalishida pedagogik jarayonlarni maqsadli rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, talabalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, inovatsion texnologiyalarni bilishi va bular asosida pedagogik jarayon subyektlarining faoliyatiga murakkab pedagogik tizim sifatida yondoshuvlariga yo'naltirilgan inovatsion faoliyatni tashkil etishi zarur hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor ta'lim– tarbiya jarayonining tashkilotchisi pedagoglarga qaratilgandir. Pedagoglik kasbining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, o'qituvchilar o'z bilimlari, malaka va ko'nikmalarini muntazam to'ldirib borishni taqoza etadi. Zamonaviy pedagog tadbirkor tarbiyachi, ma'naviy-mafkuraviy ishlarni ijobiy faol qatnashchisi, o'qitayotgan fanning chuqur bilimdoni, fani bo'yicha ilmiylikni yosh avlodga san'atkorona o'rgatadigan shaxs bo'lishi lozim. Hozirgi ilm-fan shiddat bilan yuksalib borayotgan davrda pedagoglarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish-birinchi navbatda ularning zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirishini, bu borada ilmiy metodik ko'nikmalarini rivojlantirishni, ilmiy texnikaviy axborotlar va o'quv ilmiy adabiyotlarni o'rganib borishni taqoza qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati xalqning ma'naviy kamoloti va milliy ruhining darajasi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Акмеология управления / под ред. А.А. Деркача, В.Г. Зазыкина. – М.: Центр инновационных технологий, 2008. – 319 с.
2. Акмеология: учебник/[Абульханова К.А. и др.]; под общ. ред. А.А. Деркача; Рос. акад. гос. службы при Президенте Российской Федерации, Междунар. акме-ол. ин-т. М.: Изд-во РАГС, 2004. 681 с.
3. Аксенова, Л.Н. Развитие компетенции профессионального общения как часть профессиональной подготовки будущих специалистов высшей квалификации/ Л.Н. Аксенова, В.Н. Гаряев. – Челябинск: Изд-во ЧВВАКУШ, 2012. – 55 с.
4. Акулова, О.В. Информационная компетентность как цель преобразования процесса обучения в информационном обществе / О.В. Акулова // Известия Волго-градского государственного педагогического университета. – 2005. – № 1. – С. 76-80.
5. Александров, Ю.И. Системно-эволюционный подход в исследовании «запрета» на реализацию единицы индивидуального опыта / Ю.И. Александров, А.Г. Горкин, Ю.Р. Чистова // Творчество: наука, искусство, жизнь: мат-лы Всерос. науч. конф. – М., 2015. – С. 374–378.
6. Александровская, Л.Н. Управление качеством: роль образования / Л.Н. Александровская // Высшее образование сегодня. – 2004. – № 1. – С. 8-10.
7. Амонашвили, Ш.А. Основания педагогики сотрудничества / Ш.А. Амонашвили // Новое педагогическое мышление. – М., 1989. – С.144–177. 197
8. Андреев, А.Л. Компетентностная парадигма в образовании: опыт философско-методологического анализа / А.Л. Андреев // Педагогика. 2005. № 4. С. 1997.
9. Андреев, В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития / В.И. Андреев. 2-е изд. Казань: Центр инновационных технологий, 2000. 608 с.
10. Анохин, П.К. опережающее отражение действительности / П.К. Анохин // Вопросы философии. 1962. № 7. С. 97-111.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA KREATIVLIK XUSUSIYATLARI NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI

Odiljonova Aziza Abduxakimovna

Andijon davlat universiteti Umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
<https://orcid.org/0009-0002-6162-0732>

Annotatsiya: Maqolada kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish muammosi yoritib berilgan. Bolalarda kreativlik shakllanishining sensitiv davrini aniqlash yuzasidan olimlarning tadqiqotlari tahlil etilgan. Bolalarning standart tafakkuri va kreativ fikrlashini turli xil usullaridan foydalangan holda olib borilgan tadqiqotlar, bolalarda kreativlik paydo bo'ladigan davr haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ifodalangan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, standart tafakkur, qobiliyat, sensitiv davr, irsiyat, ijtimoiy muhit, tasavvur, motiv, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi.

ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ВЫРАЖЕНИЯ ТВОРЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Odiljonova Aziza Abdukhakimovna

Senior lecturer of the General Psychology Department of Andijan State University, PhD

Аннотация: В статье рассматривается проблема формирования и развития творческих способностей. Анализируются исследования ученых по определению чувствительного периода формирования творческих способностей у детей. Исследования, в которых использовались различные методы стандартного мышления и творческого мышления у детей, предоставили информацию о периоде возникновения у детей творческих способностей. Выражены социально-психологические факторы, влияющие на развитие творческих качеств.

Ключевые слова: творчество, стандартное мышление, способности, чувствительный период, наследственность, социальная среда, воображение, мотив, дошкольный возраст, младший школьный возраст.

SPECIFIC PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EXPRESSION OF CREATIVITY CHARACTERISTICS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Одилжоновна Азиза Абдухакимовна

Старший преподаватель кафедры общей психологии Андиганского государственного университета, кандидат психологических наук

Abstract: The article examines the problem of the formation and development of creative abilities. Analyzed are the studies of scientists to determine the sensitive period of the formation of creative abilities in children. Studies using various standard thinking and creative thinking methods in children have provided information on the timing of creativity in children. The social and psychological factors influencing the development of creative qualities are expressed.

Key words: creativity, standard thinking, abilities, sensitive period, heredity, social environment, imagination, motive, preschool age, primary school age.

Kirish. Psixologiyada muammolarni mustaqil rivojlanishiga hal eta oladigan, intellektual va shaxsiy xususiyatlar tizimi, o'ziga xos g'oyalar avlodi kreativlik tushunchasi bilan belgilanadi. Ijodiy qobiliyatlar o'kuv jarayonida alohida rivojlanish ob'ekti bo'lishiga karamasdan, psixologiya fanida o'kuv jarayonida kreativlikning rivojlanishi juda kam o'rganilgan, kreativlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yetarlicha o'rganilmagan. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsga bog'lik xolda intellektual funktsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar kreativlikni shakllantirishga o'z xissasini qo'shadi. SHu munosabat bilan kreativlikni shakllantirishga kompleks yondashuvlar zarur.

Amerikalik psixolog Pol Torrens kreativlikka kuyidagi ta'rifni berdi: «Kreativlik chuqurroq qazish, yaxshiroq qarash, xatolarni tuzatish, mushuk bilan suxbatlashish, chuqur sho'ng'ish, devor orqali yurish, quyoshni yoritish, qumdan kal'a kurish, umuman olib qaraganda kelajak degani» U kreativlik uchun bir qancha sinovlarni taklif kildi va kreativlikning barcha asosiy tarkibiy kismlarini ishlab chikdi [5,23].

P.Torrens kreativlik - bu noaniqlik va axborot tanqisligi sharoitida paydo bo'ladigan taranglikni bartaraf etish uchun odamning kuchli ehtiyojidan kelib chiqadigan jarayondir deb ta'riflaydi. U kreativlikning to'rtta xususiyatini (ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, chuqurlik) aniqlaydi, V.Louenfel'dda ulardan sakkiztasi bor (muammoni ko'rish qobiliyati, ravonlik, moslashuvchanlik, o'ziga xoslik, sintez qilish va tahlil qilish qobiliyati, g'oyalarni tashkil qilishda uyg'unlik hissi), tadqiqotchi D.Simpton esa ularning o'ndan ortig'i ajratib ko'rsatgan [5,24].

Bundan tashkari, P.Torrens ijodiy fikrlash - bu shaxsning kamchiliklar, nuqsonlar, yetishmayotgan elementlar, bilimlardagi bo'shliqlar va nomuvofiqliklarni idrok etish qobiliyatini kuchaytiradi deb ta'kidlaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'ta ijodiy yo'naltirilgan bolalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lganlar [5, 47]:

- qoidalarga e'tibor bermaslik;
- hukmda mustaqillik;
- nozik xazil tuyg'usi;
- tartibga e'tibor bermaslik;
- yorqin temperament.

Ijodkorlik fenomeni sifatida kreativlik tushunchasi fanga birinchi bo'lib ob'ektiv tadqiqotlar olib borgan amerikalik psixolog J.Gilford tomonidan kiritilgan. O'tgan asrning 50-yillari oxirida u kreativlik uchun psixologik testlarda baholanishi mumkin bo'lgan bir nechta mezonlarni shakllantirgan [3, 176].

Asosiy mezonlar:

1. Fikr ravonligi - muayyan vaqt birligida vujudga keladigan g'oyalar soni, g'oyalarni yuzaga keltiradigan qulaylik.

2. Fikrning moslashuvchanligi - bir fikrdan boshqasiga o'tish qobiliyati.

3. O'ziga xoslik - umumiy qabul qilingan stereotiplardan farq qiladigan g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, stimullarga nostandart tarzda javob berish qobiliyati;

4. Qiziquvchanlik - muammolarga, atrofda vaziylatlarga sezgirlik, retseptivlik - g'ayrioddiy tafsilotlarga, karama-karshiliklarga va noaniqliklarga sezgirlik, bir fikrdan boshqasiga tez o'tishga tayyorlik;

5. Gipotezani ishlab chiqish qobiliyati – mustaqil fikr, keyinchalik uni sinchkovlik bilan tekshirish kerak.

6. Qoniqish - kreativlik natijasi - reaksiyalarning stimullardan mantiqiy mustaqilligi, muammolarni xal qilish, tahlil qilish va sintez qilish qobiliyati.

Psixologiyada o'zining ehtiyojlar va motivlar pramidasi bilan mashhur A.Maslou ham kreativlikni - barchaga xos tug'ma ijodiy yo'nalish, atrof muhitning ta'sirida ko'pchilikda yo'qolib ketuvchi faoliyat deb hisoblagan [4, 425].

V.A.Buxvalovning ta'kidlashicha, ijodiy muammolarni hal qilish usullarini ishlab chiqish ijodiy shaxsni shakllantirishdagi birinchi qadamdir [2,96].

Ijodiy faoliyatning umumiy tuzilishida bir nechta asosiy boskichlarni ajratish mumkin.

1. Vazifalarni (muammolarni) shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni to'plash.

2. Kuchni jamlash va qo'shimcha ma'lumot qidirish, muammoni xal qilishga tayyorgarlik.

3. Tushunish yoki tushuncha (ajoyib g'oya).

4. Dizaynni tekshirish va takomillashtirish.

Kreativ tafakkurni o'rganish zarurati xayotning turli sohalarida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlarga bog'liq. Zamonaviy dunyoning muammolari noan'anaviy fikrlash turlaridan maksimal darajada foydalanishga asoslangan orginal yechimlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Kreativ fikrlash timsollar va g'oyalarda, inson o'z tushunchalarini ilgari surish va o'tmishdoshlar tajribasini umumlashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Faktlarni tahlil qilish, voqealar rivojini kuzatish, tadqiqot mavzusi bilan bog'lik bo'lgan bilimlarni o'zaro bog'lash va ijodiy farazni o'z ichiga oladi.

Kreativlik, ijodiy jarayonlar insonlarda juda erta bolalik davrlaridan boshlab namoyon bo'ladi. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning muhim sohalaridan biri bu bolalarda kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish va uni bolaning umumiy rivojlanishi uchun ahamiyatini tadqiq etish xisoblanadi. Biz bolalardagi ijodiy jarayonlarni ularning o'yinida kuzatishimiz mumkin. O'yin faoliyati jarayonida bola tayoq minib, o'zini ot minib yurgandek his qiladi. Kichkina qiz qo'g'irchoq bilan o'ynab, uning onasi ekanligini tasavvur qiladi. O'yin ichida bola qaroqchi, askar yoki dengizchi bo'ladi, bu jarayonlarning hammasi eng xaqiqiy, chinakam kreativlikning namunasi. Bolalar o'yin orqali kattalarga taqlid qiladi. Lekin bolalar o'yinlari - bu shunchaki takrorlash emas, ular kattalarning nima qilayotganini ko'radi va eshitadi, ammo bu harakatlarni o'z taassurotlaridan kelib chiqib ijodiy elementlar bilan boyitadilar.

Kreativlik - bu insonning g'oyalarni ishlab chikarish, yangi va odatiy bo'lmagan narsalarni yaratish qobiliyatidir. Kreativlik - bu ixtirochilik, ya'ni odamning muayyan tankidiy vaziyatlarda qobiliyati va umidsiz bo'lib ko'rinadigan oddiy bo'shliqni yordamida xatto vaziyatni to'g'irlash va kerakli natijaga erishishga imkon beradigan, muammolarni xal qilishda jasorat, ya'ni muvaffakiyatsiz bo'lish xavfini cheklaydigan yoki boshqalarning salbiy baxosini oladigan, muxrlanmagan yondashuv bilan muammoni xal qilish xususiyatidir.

Psixologiyada ijodiy fikrlash muayyan muammolar va muammolarni xal qilishga qaratilgan faoliyat nuqtai nazaridan ko'rib chikiladi. O'qish jarayonida aqliy faoliyat amaliy, ob'ektiv faoliyat asosida shakllanadi. Bunda ijodiy tafakkur manbalari, uni shakllantirish va qo'llash xususiyatlariga alohida e'tibor karatiladi.

Hozirgi vaqtda ijodiy jarayonning tabiatini o'rganishda olimlar tomonidan ishlab chikilgan tabiiy, fenomenologik, evolyutsion, shaxsiy-motivatsion va kognitiv kabi yondoshuvlar qo'llaniladi.

Kreativ qobiliyatlarni o'rganishda alohida o'rin insonning shaxsiy va motivatsion xususiyatlari bilan bog'liqlik va aql-idrokka bog'liqlidir. Ijodiy jarayonning psixik qonuniyatlarining xususiyatlari psixologiyada keng qo'llaniladigan psixofiziologik, psixogenetik, psixometrik, ekologik va multifaktoriy yondashuvlar orkali batafsil ochib beriladi.

L.S.Vigotskiyning fikricha, kreativlik deganda, shaxslarning o'ziga xos qadriyatlarni yaratish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini chukur anglash qobiliyati tushuniladi. Kreativlik bugungi kunda ta'limga qo'yiladigan asosiy talab, ma'lum chegaralardan chiqib ketadigan, nostandart qarorlar qabul qila oladigan, yangilik bilan ajralib turadigan maxsulotlarni yaratadigan ijodiy shaxsni rivojlantirishdir. Kreativlikni tavsiflashda psixologlar qobiliyat muammosiga ishora qiladilar va ko'pincha kreativlikni umumiy ijodiy qobiliyat, bilimlarni o'zgartirish jarayoni deb bilishadi. Bundan tashqari, ular kreativlik xayolot, xayolot rivojlanishi, farazlarni shakllantirish bilan bog'lik deb ta'kidlashadi [2, 148].

Metodlar.

Tadqiqotimiz davomida Varteganing ijodiy tasavvurlarni o'rganish metodikasidan foydalandik. Varteganing ijodiy tasavvurlarni o'rganish metodikasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ijodiy tasavvurlarining noverbal komponentlarining individual tarzda o'rganishga qaratilgan.

Biz makur metodika orqali kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kreativlik xususiyatlari ularning ijodiy tasavvurlari bilan ham bog'liq deb hisobladik va ularni o'rtasidagi ijobiy va salbiy korrelyatsion aloqalar borligini aniqlashni ham maqsad qildik.

Ushbu metod orqali, ya'ni o'quvchilarni chizmalarini sifatli talqin qilish asosida biz ularni kreativ, ijodiy tasavvurining rivojlanish darajasi va tabiati haqida xulosa chiqarishimiz mumkin bo'ladi. Mazkur metodni namunalari dissertatsiyaning 2-ilova qismida keltiriladi.

Metodikani qo'llashda 20 ta aylanali blanka (diametri 3 sm lik), sekundomer kabi jihozlar kerak bo'ladi. Jumladan kichik maktab o'quvchilariga aylanali blankalar taqdim etiladi va

ushbu aylanalar asosida imkon boricha ko'proq rasm va hodisalarni tasvirlash aytiladi.

Blankada 20 ta aylana chizilgan. O'quvchilarni vazifasi doiralardan tayanch sifatida foydalanib, iloji boricha ko'proq predmet yoki hodisalarni chizishdir. O'quvchilarga siz doira tashqarisida ham, ichida ham chizishingiz mumkin, bitta rasm uchun bitta, ikkita yoki undan ortiq doiradan foydalaning kabi ko'rsatma beriladi.

Keyingi ko'rsatmada, har bir o'quvchi har bir doira ostida chizilgan narsani nomini yozishi kerakligi aytiladi. Bunda chapdan o'nga qarab chizilishi ham ta'kidlab o'tilishi lozim. O'quvchilarga topshiriqni bajarish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. Ohirgi ko'rsatma sifatida o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan shuni unutmangki, chizgan rasmlaringiz natijalari chizmalarining originallik darajasiga qarab baholanadi deb aytishi lozim bo'ladi.

Test natijalarini qayta ishlash uchun uchta ko'rsatkichdan foydalaniladi: tezlik, moslashuvchanlik va ijodiy tasavvurning o'ziga xosligi. Tezlikni aniqlash uchun chizmalarining umumiy soni hisoblanadi.

Moslashuvchanlikni aniqlash uchun chizmalar quyidagicha belgilanadi:

- tabiat (inson aralashuvisiz tabiat hodisalari tasvirlangan rasmlar);
- uy-ro'zg'or buyumlari (inson uy sharoitida yasaydigan va kundalik hayotda ishlatiladigan ishlatadigan narsalar);
- fan va texnika (ilmiy - texnik faoliyatda foydalaniladigan buyumlar);
- sport (sport faoliyatida foydalaniladigan buyumlar);
- bezak buyum amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan buyumlar bezatish uchun ishlatiladi (bunga aniqlab bo'lmaydigan chizmalar ham kiradi);
- inson;
- iqtisod;
- koinot.

Respondentlarning chizgan barcha rasmlari guruhlariga ajratiladi va belgilangan yo'nalishlar asosida natijalar hisoblanadi. Bu obrazli fikrlash va tasavvurning moslashuvchanligining ko'rsatkichidir.

Rasmlarning mavzu bo'yicha tahlili xotiraning turli sohalardagi tasvir va tushunchalar bilan to'yinganligi hamda turli tasvirlarni yangilashning qulaylik darajasi haqida tasavvur beradi.

Ijodiy tasavvur sohasiga oid rasmlarni 3 guruhga bo'lish mumkin:

a) noyob va kamdan-kam eslab qolgan predmet va hodisalarning obrazlarini mujassamlashtirish bunda har bir rasm uchun 2 ball beriladi (dengiz marjoni, vulqon otilishi, Rim jangchisining qalqoni);

b) mavjud bo'lmagan ob'ektlar va hodisalar (boshqa sayyoradagi turar-joy binosi);

v) kognitiv faoliyatdan tashqarida kamdan-kam hollarda amalga oshiriladigan tushunchalar, tasvirlar (atom yadrolari, mikroskop ostidagi mikroblar).

Sifatli tahlil bizga barcha asl rasmlarni bir necha guruhlariga ajratishga imkon beradi:

1) Mustaqillik darajasi bo'yicha:

reproduktiv, mavjud va ma'lum tasvirlarni tasvirlash:

konstruktiv (ijodiy), g'ayritabiyy yoki mavjud bo'lmagan tasvirlarni chizish.

2) Umumlashtirish darajasiga ko'ra:

ob'ektlarni tasvirlovchi maxsus chizmalar;

bir qator tasviriy tasvirlarni umumlashtirish;

ba'zi mavhum tushunchaning ramzi sifatida xizmat qilish (ilm-fan graniti, tarix g'ildiragi, g'azab, qayg'u).

3) Emotsionallik darajasiga ko'ra:

neytral (fontan, Eyfel minorasi);

hissiy jozibador, kulgili («Men sizga quyoshni olib beraman», «Tirbanddagi avtobus).

Natijalar.

Maxsus chizmalar, asosan, xotira tasvirlarining boyligi, kamdan-kam uchraydigan narsalar yoki hodisalarning qisqa muddatli xotirasida tez suratga olish qobiliyatini shakllantirish haqida gapiradi.


Umumlashtiruvchi chizmalar voqelikni sezgir va mavhum aks ettirish ma'lumotlarini

sintez qiladigan yanada murakkab tasvirlar bilan ishlash natijasidir.

Konstruktiv (ijodiy) rasmlar fantaziya, tasavvur ishi natijasidir. Aynan shu rasmlarni o'ziga xosligini aqliy faoliyat sifati, topshiriqni bajarish jarayonida ijodiy faoliyatning namoyon bo'lishi deb hisoblash mumkin.

Nazorat guruhida Varteganing ijodiy tasavvurlarni o'rganish metodikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili (n=90)


Metodika nomi	Yuqori daraja	Respondentlar soni	O'rta daraja	Respondentlar soni	Quyi daraja	Respondentlar soni
№1. Vartega mezonlari	12,6%	11	61,2%	55	26,2%	24
№2. KM mezonlari	17,1%	15	61,5 %	56	21,4%	19
Jami:	29,7	26	122,7	111	47,6	43



Nazorat guruhida olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, bunda Varteganing ijodiy tasavvurlarni o'rganish uslubi bo'yicha kichik maktab yoshi o'quvchilarida yuqori daraja 12,6 foizni, o'rta daraja 61,2 foizni va quyi daraja esa 26,2 foizni ko'rsatdi. "Kichik maktab o'quvchilarida kreativlik xususiyatlarini aniqlash metodikasi"si orqali olingan natijalar esa yuqori daraja 17,1 foizni, o'rta daraja 61,5 foizni va quyi daraja esa 21,2 foizni ko'rsatdi. Bu shundan dalolat beradiki, respondentlar orasida eng ko'p kreativlik darajasi o'rta darajani tashkil qilgan ekan.

Tajriba guruhida Varteganing ijodiy tasavvurlarni o'rganish metodikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili (n=90)

Metodika nomi	Yuqori daraja	Respondentlar soni	O'rta daraja	Respondentlar soni	Quyi daraja	Respondentlar soni
№1. Vartega mezonlari	11,6%	11	59,2%	55	29,2%	24
№2. KM mezonlari	14,3%	15	62,3%	56	23,4%	19
Jami:	25,9	26	121,5	111	52,6	43



Tajriba guruhida ham yuqorida keltirilib o'tilgan 2 ta metodika asosida dastlabki statistik tahlillar olindi. Vartega (59,2%) metodikasi va "Kichik maktab o'quvchilarida kreativlik

xususiyatlarini aniqlash metodikasi” (62,3%) bo'yicha eng yuqori natija o'rta darajadagi kreativlikni tashkil etgan bo'lsa, eng kam miqdorda, ya'ni 11,6 foiz va 14,3 foiz yuqori kreativlik hamda quyi daraja 29,2 foiz va 23,4 foizni ko'rsatdi.

Xulosa va tavsiyalar. Shunday qilib, asosiy empirik natijalarni tahlil qilish orqali kichik maktab yoshi o'quvchilaridagi ijodkorlik darajasi past bo'lgan bolalar guruhini aniqlash imkonini berdi. Dastlabki tashxis natijalariga ko'ra ushbu metodikalar orqali 43 nafar o'quvchida kreativlik darajasi quyi darajada shakllanganligi aniqlandi va ushbu bolalar bilan rivojlantiruvchi trening dasturlari o'tkazildi.

O'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, kreativlikning namoyon bo'lishiga xalaqit beradigan omillarni bartaraf qilish, masalan, ayrim bir odatlar va an'analarga asossiz rioya qilish, shuningdek, kreativlikni targ'ib qilish deyarli har qanday o'quvchini kreativ shaxsga aylantirishi mumkin.

Kichik maktab yoshidagi intellektual faoliyatning kuchayishi tufayli kreativlikning yo'q bo'lib ketishi ehtimoli kuchayar ekan, bu xulq-atvorni tartibga solishda ongsizlik rolining pasayishi va o'quvchining ongida tanqidiylik va ratsionallikning oshishi natijasidir.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni maxsus kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strategiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlari va psixotreninglar ishlab chiqish va o'quvchilarning kreativ ko'nikma va malkalarini rivojlanishining o'zgarishini baholab borish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Бухвалов В.А. Алгоритмы педагогического творчества / В.А. Бухвалов. - 2-е изд. - М.: Просвещение. - 2004 – С.96.

Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. – Москва, 2010. – С. 148.

Гилфорда Дж. и М. Салливена Михайлова (Алешина) Е.С. Методика исследования социального интеллекта: Адаптация теста: Руководство по использованию. – СПб: ГП «Иматон», 2006.

Маслоу А. Новые рубежи человеческой природы /Пер. с англ. -М.: Смысл, 2009. – С. 425.

Торренс П. Тест творческого мышления - ТТСТ: Методические рекомендации по работе с тестом (для школьных психологов)/ Перевод Н.Б.Шумаковой, КИ.Щеблановой, Н.П.Щербо. - М., 2014. – С.44.

AXBOROT MUHITIDA BOLALARNI TEVARAK-ATROFGA EKOLOGIK MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Odilova Hidoyat

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha bolalarni tevarak atrofga munosabatini axborot muhiti orqali shakllantirish va bunda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanish to'g'risida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion, ekologiya, texnologiya, atrof muhit, axborot muhiti

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FORMING THE ENVIRONMENTAL ATTITUDE OF CHILDREN IN THE INFORMATION ENVIRONMENT

Odilova Hidayat

Tashkent University of Applied Sciences is a teacher of the Department of Pedagogy

Annotation: The article describes the formation of preschool children's attitude to the environment through the information environment and the use of innovative technologies and methods.

Key words: Innovation, ecology, technology, environment, information quality

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОТНОШЕНИЯ ДЕТЕЙ В ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЕ

Одилова Хидаят

Ташкентский университет прикладных наук, преподаватель кафедры педагогики.

Аннотация: В статье описывается формирование отношения дошкольников к окружающему через информационную среду и использование инновационных технологий и методов.

Ключевые слова: Инновации, экология, технологии, окружающая среда, качество информации.

Ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tu'g'ilish, yashash, o'sish, faoliyat maydoni hisoblanadi. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi. Insoniyat tabiatga ta'sir etibgina qolmasdan, unga bevosita bog'liq hamdir. Tabiatga bog'liq omillar texnika, iqtisodiy ekologik munosabatlarini ham belgilaydi. Ana shu holat kishilarning tabiat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarni muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etadi. Bolalarni ilk yoshidan hayvonot olami bilan tanishtirish orqali ularga mehr uyg'otish, jonsiz va jonli tabiatni muhofaza qilish o'rgatib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog'lom va baquvvat qilib o'stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta'lim va tarbiyani to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lomlashtirish vazifalari - bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo'lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog'lig'ini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirishdan iborat[1].

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish juda zarur, bolaning ongli harakat faoliyatida asqotadigan ayrim bilimlar; bolani harakatlarga o'rgatuvchi faoliyat metodlari, faoliyat va ularni amalga oshirishning malaka va ko'nikmalari haqidagi bilimlar birligi ish jarayonlaridan kelib chiqqan holda tarkibiy qismlarni tashkil etadi. Qismlardan biri ijodiy faoliyat tajribasi hisoblanadi[2]. Bolalikdan mustaqil fikrlashga o'rgatilmagan va hamma narsani tayyor berilgandan so'ng o'zlashtiradigan kishi unga tabiat tomonidan berilgan sifatlarni namoyon qila olmaydi. Shuning uchun jamiyat yosh avlodning ijodiy faoliyatga o'rganishiga tamoman befarq qarab turolmaydi. Harakat faoliyatini tarbiyalash jarayonida kattalar (ota-onalar, tarbiyachilar) bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular oldiga yangi harakat vazifalarini qo'yadilar. Bolaning mashqlar jarayonida yangi harakat vazifalarini tobora hal eta borishi va shu bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan katta imkoniyatlar harakatlar xarakteri va sifatini

o'zgartiradi. Bu yosh davri uchun juda xarakterli bo'lgan narsa yangi mashqlarga o'rgatish jarayonida go'yo bir aylanib yangicha sifat kasb etadi. Chunonchi, bolaning yurishi dastlabki paytda va ikkinchi yilning oxirida butunlay farq qiladi. Bu hodisani yangilikning eski narsani diakktik inkori, barcha rivojlanishning va ziddiyatlarni hal etishning obyektiv sharti, harakatlanuvchi omil sifatida ko'rsatish mumkin. Har bir sohada rivojlantirish o'zidan oldingi yashash shakllarini inkor etmasdan kechishi mumkin emas. Maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxs sifatida shakllanishida atrof muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiatda jismoniy mashqlarni o'rgatish orqali ham singdirish mumkin[3].

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirishga oid mamlakatimiz va xorijiy olimlarning metodik va pedagogik g'oyalaridan atrof olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarida foydalanish bo'yicha bir qator tavsiyalarni ishlab chiqish va joriy eish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda atrof olam bilan tanishtirish mashg'ulotlarini kuzatish, suhbat, mashg'ulot loyihasi kabi usullar qo'llanilishi maqsadga muvofiq. Natija va mulohazalar. O'rganilgan adabiyotlar va kuzatuvlarimizning ko'rsatishicha bolaning maktab ta'limiga mukammal tayyorligiga to'sqinlik qiladigan tashqi va ichki omillarning ta'siri nafaqat jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ta'sir qiladi, balki u har qanday salbiy ta'sir xoh u jismoniy, xoh ruhiy bo'lsin, avvalo uning umumiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jarayonni tashkil etishda tarbiyachi turli faoliyat yo'nalishlarida o'zini namoyon qiladi. Tarbiyachi qaysi yo'nalishda faoliyat olib bormasin, uning markazida bola shaxsi, uning qiziqishlari va manfaatlari turishi lozim. Bolalarning psixologik beqarorligini bartaraf qilish uchun tarbiyachi tomonidan samarali innovatsion yondashuvlarni moslashtirgan holda qo'llash zarur. Xususan, interfaol usullar pedagogik jarayonda ishchi, ijodiy muhit yaratish imkonini beradi[5]. Bolalarning jismoniy, ma'naviy, psixik-emotsional (ruhiy-hissiy) sog'ligi ta'minlanadi, shaxslararo munosabatlari, o'zaro hamkorligi amalga oshadi. O'quv jarayonida bolalar diqqati beqarorligi sababli qo'yilgan maqsadga erishishda to'siqlar paydo bo'lishi mumkin. Mana shu jarayonda tarbiyachidan pedagogik improvizatsiya va metodlar transformatsiyasini amalga oshirish talab etiladi. Ba'zida og'zaki metodlardan foydalanish samara beradi, tarbiyachi atrof olam haqida Ona Vatan, buyuk siymolar, milliy bayramlar, kattalar mehnati, transport vositalari, buyumlar, kiyimlar haqida hikoya qiladi, tushuntirish beradi, suhbatlar o'tkazadi, badiiy adabiyotlar o'qib beradi. Ayrim vaziyatlarda bolalarda tomosha qilish istagi paydo bo'ladi, bunda esa ko'rgazmali metodga o'tiladi: Vatan, milliy bayramlar, buyuk siymolar, tana a'zolari, gigiena va sog'lom bo'lish haqida videoroliklar namoyish etiladi. Bolalarda atrof olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratiladi ya'ni atrof olam borliq, voqea-hodisalar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar maktabgacha ta'lim jarayonidan tashqari vaqtda ya'ni ijtimoiy jarayon va oilada ota-onalar tomonidan kutilmagan holatlarda ham beriladi[4].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabati shakllantirish orqali atrof-olamni anglash malakalarini rivojlantirish tizimli pedagogik ta'sir hamda metodik yondashuvlarga asoslanadi. Bolalarni axborot muhitida tevarak-atrofga ekologik munosabatini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, maktab hamda ijtimoiy institutlar integrativ faoliyati taqozo etiladi. Bu jarayonning pedagogik modelini modernizatsiyalashda bolalarda rivojlanishi talab etiluvchi soha kompetensiyalarini integrativ rivojlanishini ta'minlovchi samarali texnologiyalarni tanlash, joriy etish talab etiladi[4]. Tabiat bolalarni har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishida juda kata ahamiyatga ega. Bolalarni o'sishi, rivojlanishi, talim-tarbiya olishi tashqi muhit omillariga bevosita bog'liqdur. Tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlar, voqea hodisalar, o'zgarishlar bollarni ongiga ta'sir qilib, ularni dunyoqarashini kengayishiga, fikrlash doirasini ortib borishiga tasir ko'rsatadi. Bolalarda dastlabki ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrlil bo'lish, ekologik ta'lim, tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash zarur

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida

qamrab oladi. Sayyoramizda jumladan, respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular: Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponent-larini yaxlitlikda va o'zaro aloqadalogini his etish; tabiatning bolalar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi; atrof muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash; tabiat talabani ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish; atrof muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida atrof muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab etishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish; bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish; ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.; Respublika hududidagi biologik xilma – xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va g'oyalarni o'rganishni tashkil etish; ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish; atrof muhitni muhofaza qilish, uning zahiralardan unumli foydalanishga o'rgatish; maktabgacha yoshdagi bolarni tabiat bilan tanishtirish orqali etetik, aqliy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, jismoniy rivojlantirish barcha zamonlarda ham o'ta dolzarb muammolardan hisoblangan. Tabiat bilan tanishish insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo'lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega. Shu nuqtai nazardan O'rta Osiyo xalqlari tabiatni muhofaza qilish sohasida boy an'anaga ega.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish mazmuni quyidagilardan iborat bo'lishi lozim degan xulosaga kelish mumkin: Bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda "Ilk qadam" o'quv dasturi talablari va tamoyillariga rioya etishda innovatsion faoliyat (fasilitatsiya, moderatsiya, tyuterlik, kouch) elementlaridan samarali foydalanish. O'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda kollaborativ muhitni yaratishga erishish, ya'ni har bir bosqich uzviy ketma-ketlikda, bolalarning o'zaro hamkorligida, har bir bosqichda bajarilgan ishlarning keyingi bosqich uchun muhimligini anglagan holda bolalarda mas'uliyat hissini oshirishga e'tibor qaratish. Natijada bolalarning jamoadagi mavqei (status)ni sezish, hurmat qilishga sharoit yaratiladi. Pedagogik jarayondan kutilayotgan natijalarni kafolatlashga erishishda prognostik (har bir tarbiyalanuvchining imkoniyatlarini oldindan bilgan holda o'quv topshiriqlar murakkablik darajalarini belgilash va ularni tayyorlash) - diagnostik (jarayonda o'zini oqlamagan metod yoki yondashuvlarni tahlil qilish orqali moslashuvchan variantlarini tayyorlash hamda bolalar hatti-harakatlaridagi salbiy holatlarning sabablarini bevosita faoliyatda kuzatish) metodlardan samarali foydalanish orqali interfaol o'quv muhitini yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Sherzod Ibrohim O'g'li Ibrohimov, & Haytgul Omonboyevna Begaliyeva (2021). БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДА - ТАБИАТШУНОСЛИК ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 1), 438-445.

Ражабов, Ф. Т., & Абдимуротов, О. У. (2020). ТАБИЙ ГЕОГРАФИЯ КУРСЛАРИДА АМАЛИЙ МАШГУЛОТЛАРНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШДА ЯНГИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСЛУБИЎТИ. Academic research in educational sciences, (4), 663-671.

Nig'matov A.N. Ekologiya Asosiy atama va iboralarning izohli lug'ati. - T.: «Bioekosan» nashriyoti, 2001.

Ziyomuhamedov B. Ekologiya va ma'naviyat. T.: «Mehnat» nashriyoti, 1997.

To'xtayev A.S. Ekologiya Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 2001.

Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish: O'qituvchilar uchun fakultativ kurs yuzasidan qo'llanma. - T.: «O'qituvchi» nashriyoti, 1991.

M. Umarova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish. - T.: 2008.

SH.Sodiqova, M.A.Rasulxo'jayeva Tabiat bilan tanishtirish metodikasi- T.: 2013 yil - Fan va texnologiya

QORAQALPOQ XALQ MILLIY CHOLG'ULARI ASOSIDA O'QUVCHI -YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Otarbaev Daniyar Azatbaevich

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali «Xalk ijodiyoti» kafedrasida o'qituvchisi

Mazkur maqolada Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi -yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish, musiqiy badiiy asarlarni cholg'u asoblarda chertib o'rganish, bajarish insonning estetik, emotsional hissiyatini junbushga keltirib, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tarkib toptirishga xizmat qilishi, qadriyatlarga, an'ana va urf-odatlariga bo'lgan madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy-nazariy jihatdan tarixiylik tamoyiliga tayanib ochib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, ta'lim, ma'naviyat, tarbiya, kuy va qo'shiq, emotsional his, cholg'u asob, axloqiy fazilat, xalq qo'shiqlari, ohang, do'mbira, sibizg'a, chanqovuz, qo'shnay, g'ajirnay, bo'lamon, qo'biz.

РАЗВИТИЕ ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ И МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ КАРАКАЛПОКСКОГО НАРОДА

Otarbaev Daniyar Azatbaevich

*Преподаватель кафедры «Народное искусство» Нукусского филиала
Государственного института искусства и культуры Узбекистана*

В данной статье отражены на основе национальных инструментов каракалпакского народа развитие духовной культуры студентов и молодежи, изучение и исполнение музыкальных произведений искусства на музыкальных инструментах стимулирует эстетические и эмоциональные чувства человека и создает ощущение национальной идентичности, научно и теоретически раскрываемая на основе принципа историчности, приобретению которой она служит, имеет большое значение в формировании культуры, основанной на ценностях, традициях и обычаях.

Ключевые слова: музыка, искусство, воспитание, духовность, воспитание, мелодия и песня, эмоциональное чувство, музыкальный инструмент, нравственная добродетель, народные песни, мелодия, барабан, сибизга, чанквуз, кошнай, гажирнай, боламон, кобиз.

DEVELOPMENT OF SPIRITUAL CULTURE OF STUDENTS AND YOUTH BASED ON THE NATIONAL MUSIC OF THE KARAKALPOK PEOPLE

Otarbaev Daniyar Azatbaevich

Teacher of the department of "Folk Art" of the Nukus branch of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

This article reflects, on the basis of the national instruments of the Karakalpak people, the development of the spiritual culture of students and youth, the study and performance of musical works of art on musical instruments stimulates the aesthetic and emotional feelings of a person and creates a sense of national identity, scientifically and theoretically revealed on the basis of the principle of historicity, the acquisition of which it serves and is of great importance in the formation of a culture based on values, traditions and customs.

Key words: music, art, education, spirituality, education, melody and song, emotional feeling, musical instrument, moral virtue, folk songs, melody, drum, sibizga, chankvuz, koshnay, gazhirnay, bolamon, kobiz.

Yangilanayotgan O'zbekistonda san'at, ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy sohada kechayotgan islohotlar, yosh avlodni tarbiyalash yo'lida yaxlit uzluksiz ta'lim tizimini shakllantiruvchi o'qituvchi faoliyatida zamonaviylikni va yuksak pedagogik tajribaga ega bo'lishni talab etadi. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi ommaviy axborot vositalari, kino, teatr va musiqa san'ati vositasida yoshlar o'rtasida xalqimiz ma'naviyatini, milliy istiqlol g'oyasini targ'ib

qilishga, bugungi islohotlarning mohiyatini yoritishga xizmat qiladigan, jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat.

Ushbu vazifalarni to'laqonli ado etish va barkamol avlodni tarbiyalash bevosita san'at, kuy va qo'shiqlarga bo'lgan munosabatni shakllantirish o'qituvchi murabbiyning metodik bilimdonligi, pedagogik mahorati, psixologik xususiyatlari, san'atga bo'lgan munosabati faolligi, o'quvchi - yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga asos bo'luvchi psixologik omillar, pedagogik nazokat va axloqiy fazilatlarini asosida ruyobga chiqariladi.

Musiqqa-insoniyatning nozik hissiy kechinmalari, emotsional tuyg'usiga bevosita ta'sir etuvchi ma'naviy tarbiya vositasi. Musiqiy badiiy asarlarni cholg'u asoblarda chertib o'rganish, bajarish insonning estetik, emotsional hissiyotini junbushga keltiradi, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tarkib toptirishga xizmat qiladi, qadriyatlarga, an'ana va urf-odatlariga bo'lgan madaniyatni shakllantiriladi.

Respublikamizda, milliy musiqqa merosimiz, jumladan milliy cholg'u ijrochiligimiz tarixini o'rganishga e'tibor bir qator qarorlarda o'z aksini topgan bo'lib, bular:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 sentyabr 2023 yildagi PQ-300-sonli «O'zbekiston – 2030» Strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish masalalariga alohida urg'u berib o'tilgan. [1]

Qoraqalpoq musiqqa madaniyatida, O'rta Osiyoning boshqa xalqlari singari, o'zining murakkab ichki tuzilishiga ega bo'lgan asosiy qatlamlari: an'anaviy musiqqa va Evropa kompozitorlik ijodiyoti asosida rivojlangan professional (yozma) turdagi zamonaviy musiqqa san'ati misolida gavdalanadi. Xususan, Qoraqalpog'iston musiqqa hayotida fol'klor va an'anaviy musiqqa san'ati janrlari (bahsi, jyrau, qissaxonlik) va yangi ijro janrlari (simfonik musiqqa, balet, opera) rivojlanib bormoqda. [6]

Zero, an'anaviy musiqqa madaniyatining boshqa turlari va janrlari bilan birga, jyrau va baksalar ijodi Qoraqalpoq xalqining asl milliy madaniy qadriyatlarining ifodasi sifatida o'zining madaniy ahamiyatiga ega.

Tarixga nazar tashlasak, eramizning birinchi asriga tegishli ajoyib madaniy meros sifatida «Ayirtam»dan topilgan «Ud» asbobi, 1946 yili arxeologik ekspeditsiya natijasida «Topiraq qal'adan» toshga o'yib chizilgan rasmda «Arfa» chalib turgan musiqachini ham 1947 yili yana shu tuproqlardan ikki torli dutor turidagi cholg'u asbobini ushlab turgan inson fragmentini topilishi buning yaqqol dalilidir. Mana shu musiqqa asboblarining rasmi chizilgan yodgorlikning, shuningdek og'zaki va yozma bitiklardan qoraqalpoq xalqining ota-bobolarimizning makonidan topilishi ham keng tarmoqli qoraqalpoq xalqining boshqa tug'ishgan millatlar xalqlardagi singari, musiqqa madaniyatiga ega bo'lganligidan darakdir. [4]

Qoraqalpoq baxshichilik maktabi ikkita yo'nalishdan iborat – baksi (ichki ovoz uslubi dutor va g'ijjak jo'rnovozlida) va jirov (bo'g'iq ovoz uslubida qo'biz jo'rlogida). An'ana namoyandalari – baksilik bo'yicha Qayratdin Utemurotov, O'ralboy O'tambetov, Tengalboy Kalliyev, Ziyoda Sharipova, Gulbaxor Rametova, Gulnur Hamitova, Zamira Ibrohimova; jirovchilik bo'yicha Jumaboy jirov, Bakbergen Sirimbetov, Jonibek Piyazov, Baxtiyor Yesemuratov va b. Yosh avlodni milliy qadriyatlarimizga sodiq ruhda tarbiyalashda ezgulikka chorlaydigan, vatanparvar, adolatli, mard, jasur bo'lishga undovchi dostonlarining va umuman baxshichilik san'atining o'rni beqiyos [5]

Qoraqalpoq musiqqa madaniyati milliy og'zaki ijodda gavdalanadi. Milliy musiqiy madaniyat musiqani tashuvchi va saqlab qoluvchi ijodkorlar - qo'shiqchi, baxshi, qo'shiqchi dutor cholg'usi jo'rlogida qo'shiq va dostonlarni ijro etuvchi)lar, hikoyachi jyrau, qahramonlik hikoyalarni bayon qiluvchi qissaxonlar tomonidan namoyish qilinadi. Ular orasida G'aribniyaz, Eshbay, Aqimbet, Musa, Sueu, Shernazar, Arzy, Juman, Esjan, Japaq Orinbay.

Qoraqalpoq xalqining milliy o'zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san'ati atoqli baxshi-shoirimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnati, ijodiy tafakkuri bilan asrlarga o'tib kelayotgani O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019 yil 14 maydagi PQ-4320-sonli “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to’g’risidagi qarorida ko’rsatib o’tilgan. [2]

Qoraqalpoq xalq milliy cholg’ulari asosida o’quvchi - yoshlar ma’naviy madaniyatini rivojlantirish jarayonining muhim omillaridan biri baxshichilik san’ati sir-asrorlarini kelajak avlodga o’rgatish, o’zlarining ijrochilik mahoratini namayon etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi. Bugungi islohotlarda baxshi-shoirlar tomonidan ijro etilayotgan asarlarni yozib olish, ularni ilmiy o’rganish ishlariga respublikamizda jiddiy e’tibor qaratilmoqda. [6]

Yurtimizda ko’p tomlik «Qoraqalpoq fol’klori» to’plamari chop etildi, 100 tomlik «O’zbek xalq ijodi yodgorliklari» majmuasi nashr etilmoqda.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda baxshichilik san’ati rivoji uchun zarur bo’lgan musiqa cholg’ulari (do’mbira, sibizg’a, chanqovuz, qo’shnay, g’ajirnay, bo’lamon, qo’biz kabilar) ishlab chiqaradigan ustalar faoliyatini qo’llab-quvvatlash, ustaxonalar uchun joy ajratish, maxsus yog’och va metall mahsulotlari bilan ta’minlash choralari belgilash masalalari PQ-4320-sonli Qarori bilan e’tirof etib o’tilgani muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907-sonli Qarorida “yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog’lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish”ga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish” [3], masalalari muhim vazifa sifatida belgilab qo’yilgan.

Bu, albatta, birinchi navbatda, televidenie, radio, gazeta va jurnallar, Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar hamda faol veb-saytlar orqali iqtidorli yoshlarni san’atga bo’lgan qiziqishlarini takomillashtirish, ikkinchidan Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazida “Press-klub” tashkil etish va unda “Yoshlar kelajagimiz” rukni ostida ko’rsatuv va ijtimoiy roliklar tayyorlab, televidenie va Internet orqali jamoatchilik e’tiboriga havola qilib borishga, qaratilgan ta’sirchan targ’ibot usullarini joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish muhimligini ko’rsatadi.

Bizning fikrimizcha birgina Qoraqalpoq xalq va mumtoz kuy-qo’shiqlari - «Bozatau», «Shimbay», «Galgalay», «Nedag’» qo’shiqlari va «Nar iydiringen», «Nama basi», «Qara jorg’a», «Paxay», «Ariuxan» kuylari, «Ayjamal», «Jig’ali eki», «Auezim», «Durgalar», «Saltiq», «Xoja bag’man», «Muxalles», «Kor qiz», «Nariydiringen», «Yar anda qaldi» va boshqa kuylarning mazmun mohiyatini yoshlar ongiga etkaza olsak, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag’rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga erishamiz.

Qoraqalpoq xalqining musiqiy san’ati keng rivojlangan mashhur janrlardan biri hisoblanadi. Musiqa ta’sirchan kuchga ega bo’lib, ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozig’idir. U kishilarning zavqlanishi, maroqli dam olishi, taskin topishi, fikrlashi, falsafiy mushohada qilishi uchun yordam beradi. Demak, musiqa faqat badiiy ijod, san’at turi bo’lib qolmasdan, balki ma’naviy madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o’rganilishi lozim.

Musiqa madaniyatimizda sof ma’nodagi muallim-ustozning o’zi, ayni paytda u ham murabbiy, ham sozandalik san’atini o’zida mujassamlashtirgan inson hisoblanadi. Shu tufayli o’rgatish jarayonining o’ziga xos siru asrorini bilmay turib, bu an’ananing xususiyatlarini to’lalgicha anglab ololmaymiz.

Mazkur muammoning pedagogik asoslarini: mazmuni, shakli, metodlari, vositalari, shart-sharoitlari va omillarini ilmiy o’rganish zamirida ilgari surilgan g’oyalardan ta’lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish, ilg’or ish tajribalarni ommalashtirish, talaba yoshlarning psixologik, individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish har bir pedagog va akademik guruh rahbarlaridan o’z ishiga ijodiy munosabatni talab etadi. Shundan kelib chiqib, musiqa madaniyati qadimiy va rangorang, ayni paytda yangi zamon an’analarini o’zida mujassam etgan holda avvalo: xalq musiqasi, mumtoz musiqiy meros, milliy betakrorlik, shuningdek xalq badiiy ijodiyoti kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo jabhalarda namoyon bo’ladi. [7]

Qoraqalpoq xalq qo’shiqlarining tematikasi har xil bo’lishi uning musiqiy janr tomonidan

har xil bo'lishi bilan tig'iz bog'liq holda rivojlanib keladi. Har bir qo'shiq o'zining poetik matni va ohang ikkisining birikmasi bo'lgan – kuy orqali organik jihatdan mustahkam aloqada tuziladi. Har bir qo'shiqning matni bilan ohangi teng bahoga ega bo'lib, bir maqsadni bajarishga moslashgan. Xalq qo'shiqlarining ohanglik tuzilishi poetik matn satrlari bilan o'zaro tig'iz aloqada bo'lishi barobarida biri ikkinchisini to'liqtirib, kuchaytib boradi. Ohanglik tushunchalarning keyni matn satrlarining keyni bilan qo'shilib, poetik uezura ohanglik uezura ham hisoblanadi. Kezi kelganda aytiladigan yana bir narsa – xalqda «quruq so'z quloqqa yoqmas» deganidek, kuysiz qo'shiqning yalang o'zi saqlanib qolmaydi. Chunki, qoraqalpoq qo'shiq tuzilishida stix shakli bo'lmasdan, aytim qo'shiqlari keng tarqalib, kuyga solib aytilib kelganligining o'zi-yoq qo'shiqni yagona olib yuruvchi va keng tarqatuvchi, unuttirmovchi kuy ekanligi buning isboti bo'la oladi. Hatto dostonlardagi nasriy (qora) so'zlarning aytilish holatlari, bet ochar, naql-javob aytishlarning o'zida ham naqshli ohanglarga solinib aytiladigan musiqiy ohanglarni ko'ramiz. Qoraqalpoq xalq kuylarida mehnat odamlarining kelajakka intilishlari, orzu-istaklari, tarixiy voqealar, urf-odatlar, halol muhabbat va qayg'u-alamlari tasvirlanadi. Shu sababdan qo'shiqlarni tasniflash va tematik tomonnan ajratib o'rganishda ularning musiqasi bilan poetik matnining xususiyatiga qarab bo'lishga alohida diqqat qaratish zarur. Qoraqalpoq xalq qo'shiqlarini tasniflash ishlari haqida ba'zi olimlar tomonidan, masalan filologiya ilmlari doktori, marhum N.Davqoraev o'zining «Inqilobgacha qoraqalpoq adabiyoti tarixining ocherklari» (Nukus – QQDN. 1961 – 37 sahifa) asarida, professor N.A.Baskakov «Karakalpakskiy yazyk» asarinig 2 tomida (M-1951) xalq qo'shiqlarini bir nechta turlarga ajratadi. Bular xalqning poetik ijodiyotini o'rganishdagi muhim asarlardan hisoblanadi. Lekin, bu asarlarning qo'shiqlarning ohanglik xususiyatini emas, balki faqat mazmuniga qaray ajratishga harakat qilganligi ma'lum.

Qoraqalpoq xalq kuylarini musiqiy tomondan tahlil qilishga o'zbek musiqashunovs olimi I.Akbarov o'zining «Qoraqalpoq xalq kuylari» to'plamida yozgan so'zboshida qator fikrlarni aytadi. U qoraqalpoq xalq kuylarin «qo'shiqlar» va «dostonlar» deb ikki guruhga ajratadi, shuningdek, qoraqalpoq xalq kuylarining xususiyatlari, uning ohanglik, shodlik, ritmik tuzulishlari va uning boshqa xalqlarning musiqasi bilan aloqasi haqida qator baholi fikrlarni keltiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Qoraqalpoq xalq milliy cholg'ulari qubuz, dovil, balabon, dutordan taraladigan ohista kuylar asosida o'quvchi -yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad:

yoshlarni yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash;

– ommaviy axborot vositalari, kino, teatr va musiqa san'atida yoshlar o'rtasida xalqimiz ma'naviyatini, milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishga, bugungi islohotlarning mohiyatini yoritishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish;

–yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash;

– milliy qadriyatlarimiz, urf – odat va an'analarimiz, tarixiy merosimiz manbalariga tayanib talabalarning bilim va tasavvurlarini rivojlantirish qonuniyatlarini tahlil qilish;

–tarixiy va milliy xususiyatlar kontekstida talabalarni mehmondo'stlik, baynalminal do'stlik, madaniyatlararo mintaqaviy hamkorlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda, nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerakligini his etgan holda xorijiy ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish orqali, zamonaviy ilm va texnikaning cho'qqilariga erishishi uchun to'liq imkoniyatlar yaratildi. Haqiqatdan ham yosh avlodni innovacion, adaptacion sharoitda ishlashini, tez o'zgaruvchan sharoitlarga nisbatan qayishqoq bo'lishni zamonning o'zi talab etmoqda. Shu bois ham zamon talablariga javob bera oladigan darajada xalq milliy cholg'ulari asosida o'quvchi -yoshlar ma'naviy madaniyatini rivojlantirish, ta'lim, san'at va madaniyat tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 sentyabr 2023 yildagi PQ-300-sonli «O'zbekiston – 2030» Strategiyasini 2023 yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori. <https://lex.uz/docs/6600390>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi PQ-4320-sonli «Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi Qarori. <https://lex.uz/acts/4380951>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-sonli Qarori. <https://e-library.namdu.uz>

4. Адамбаева Т. Музыкальная культура каракалпакского народа до октябрьского периода. //АН КазССР. Ин-т литературы и искусства им. М.О. Ауэзова - Алма-Ата, 1967

5. Mustafayev Sh.N. Oliy ta'lim modernizatsiyasining artpedagogik asoslarini rivojlantirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Samarqand – 2023

6. <https://www.google.com/s>

7. <https://e-library.namdu.uz/>

ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ИШЛАР МОНИТОРИНГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА

Пулатов Джавдат Абдужабборович

*Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети “Педагогика ва психология”
кафедраси доценти, Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of
Philosophy)*

Аннотация: Мазкур мақолада олий таълим тизимида таҳсил олаётган ёшлар маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантиришида, улар онгида ҳалқимизнинг азалий анъаналарига, удумларига, тилига, динига, руҳиятига асосланиб, келажакка ишонч, меҳр-оқибат, сабр-тоқат, адолат, маърифат, инсонпарварлик, меҳнатсеварлик тўғрисида сингдиришида маънавий-маърифий ишларни таъкил этиши муҳим педагогик аҳамият касб этиши илмий-назарий жиҳатдан ёритиб берилган. Шунингдек мақолада, мониторинг орқали Олий таълим тизимида фаолият юритаётган тьютор ва педагогларни исталган вақтда “фаолиятини” баҳолаш ва прогноз қилиш имкониятлари тўғрисида тўхталиб ўтилган.

Таянч сўзлар: олий таълим, мониторинг, интеграция, маънавий-маърифий ва тарбиявий иш, дунё стандартлари, механизм, тьютор, педагог, касбий, педагогик маҳорат, креатив, умумбаширий муаммо, стратегия.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНТРОЛЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ – КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Пулатов Джавдат Абдужабборович

*Доцент кафедры «Педагогика и психологии» Узбекского государственного
университета мировых языков, Доктор философии по педагогическим наукам (Doctor
of Philosophy)*

Аннотация: В данной статье в формировании духовно-нравственных качеств молодежи, обучающейся в системе высшего образования, на основе вековых традиций, обычаев, языка, религии и духа нашего народа, чувства веры в их сознании формируется будущее, доброта, терпение, справедливость, просвещение, человечность, трудолюбие. Научно и теоретически объяснено, что организация духовно-просветительской деятельности в процессе привития приобретает важное педагогическое значение. Также в статье рассматриваются возможности оценки и прогнозирования «деятельности» преподавателей и педагогов, работающих в системе высшего образования посредством мониторинга.

Ключевые слова: высшее образование, мониторинг, интеграция, духовно-просветительская и воспитательная работа, мировые стандарты, механизм, наставник, педагог, профессионализм, педагогическое мастерство, творческая, универсальная задача, стратегия.

IMPROVING CONTROL OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM – AS A PEDAGOGICAL NECESSITY

Pulatov Dzavdat Abdujabborovich

*Associate Professor, Department of Pedagogy and Psychology, Uzbek State University of
World Languages Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences*

Abstract: In this article, in the formation of the spiritual and moral qualities of young people studying in the higher education system, on the basis of centuries-old traditions, customs, language, religion and spirit of our people, a sense of faith in their minds, the future, kindness, patience, justice, enlightenment are formed, humanity, hard work. It has been scientifically and theoretically explained that the organization of spiritual and educational activities in the

process of inculcation acquires important pedagogical significance. The article also discusses the possibilities of assessing and predicting the "activities" of teachers and educators working in the higher education system through monitoring.

Key words: higher education, monitoring, integration, spiritual, educational and educational work, world standards, mechanism, mentor, teacher, professionalism, pedagogical skill, creative, universal task, strategy.

Глобаллашув, техноген ривожланиш, халқаро иқтисодий интеграция жараёнларида таълим ва тарбия тизимини фан, техника ва ишлаб чиқариш соҳалари билан интеграциялашувини таъминлаш, Янги Ўзбекистоннинг кейинги тараққиёти ва истиқболи, ҳуқуқий, маънавий – маданий заминларини мустаҳкамлаш учун ёш авлодга дунё стандартлари талаби даражасида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш олдимизда турган муҳим педагогик вазифалардан биридир.

Олий таълим тизимида маънавий-маърифий ишлар мониторингини такомиллаштириш механизмларини ишлаб чиқиш, таълимий фаолиятда бой миллий маданий-тарихий анъаналар, урф-одатлар ҳамда умумбашарий қадриятларга асосланган маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларни ташкил этиш муҳим ижтимоий ва педагогик заруриятдир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28 январь 2022 йилдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги фармонида “маънавий тараққиётни таъминлаш ва соҳани янги босқичга олиб чиқиш”, “миллий манфаатлардан келиб чиққан ҳолда умумбашарий муаммоларга ёндашиш” [1] масалаларига алоҳида урғу бериб ўтилган.

Алоҳида эътироф этиб ўтиш жоизки, Олий таълим тизимида маънавий-маърифий ишлар мониторингини такомиллаштириш механизмларини ишлаб чиқишда тўр ва педагогларнинг касбий, педагогик маҳорати ва креатив қобилиятларига нисбатан талабларнинг ортиб бораётганлиги, жамият олдига ҳар бир педагогни маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш учун олиб борилаётган ислохотларнинг фаол иштирокчисига айлантириш ҳамда уни рўёбга чиқаришга қулай шароитларни яратиш муаммосини қўймоқда. Чунки бундай эҳтиёж педагогикадаги янги парадигма – шахсга йўналтирилган тарбия технологиялари асосини ташкил этувчи жамиятдаги янгича қарашлар– объектив дунёни яхлит идрок этадиган, ўзлигини тушунадиган, инсоний кадр – қимматни улуғлайдиган маънавий баркамол авлодни тарбиялаш мамлакат тараққиёти ва равнақининг бош мезонига айланмоқда. [5]

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 8 октябр 2019 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847 Фармонида белгилаб берилди. Бу биринчи навбатда, фармонда кўрсатилган “Олий таълим тизимида маънавий-маърифий ва тарбиявий ишларни ташкил этиш фаолиятини такомиллаштириш”, “Талабаларни адабиёт, санъат ва спортга, соғлом турмуш тарзига жалб этиш, уларда эстетик дид ва касбий этика, ахборот таҳлили маданиятини шакллантириш, ватанга муҳаббат ва унинг тақдирига дахлдорлик, фидойилик ҳиссини қарор топтириш бўйича маънавий-маърифий тадбирлар режасини ишлаб чиқиш ва барча олий таълим муассасаларида мазкур чора-тадбирлар режаси ижросини таъминлаш” [2] да муҳим аҳамият касб этади.

Президент Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида “Биз Ўзбекистонни ривожланган мамлакатга айлантиришни мақсад қилиб қўйган эканмиз, бунга фақат жадал ислохотлар, илм-маърифат ва инновация билан эриша оламиз. Бунинг учун, авваламбор, ташаббускор ислохотчи бўлиб майдонга чиқадиган, стратегик фикр юритадиган, билимли ва малакали янги авлод кадрларини тарбиялашимиз зарур” деган эътирофлари таълим тараққиётининг кейинги истиқболи кўп жиҳатдан Олий таълим тизимида таҳсил олаётган кадрлар салоҳияти, уларнинг келажак истиқболлари, ижодкорлиги ва ташаббускорлиги билан боғлиқлигини ижтимоий ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда.

Шунинг учун ҳам мактабгача таълим ташкилотларидан бошлаб олий ўқув юртигача

– таълимнинг барча бўғинларида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ислоҳ қилиш, Олий мактаб ва педагогика фани олдида турган муҳим вазифаларидан бўлиб ҳисобланади.

Бизнинг фикримизча, Олий таълим тизимида маънавий-маърифий ишлар мониторингини дидактик имкониятларини янада такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари сифатида:

– маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этишда янги малака талабларини ишлаб чиқиш;

– тьютор ва педагогларни зарур методик материаллар билан қуроллантириш;

– Олий таълимни бошқариш ахборот тизимини (EMIS) такомиллаштириш, вазирлик ва идораларнинг бошқа ахборот тизимлари билан интеграциялаш;

– халқаро стандартлар ва миллий анъаналар уйғунлигида юқори малакали, замонавий билим ва кўникмаларга эга профессионал кадрларни тарбиявий фаолиятни назорат қилиш ишларига жалб этиш;

– таълимда брендлар, миллий анъаналар, кадрлар тизимини яратиш асосида олий таълим ва олий таълим муассасалари имиджини шакллантириш стратегияси бўйича дастурлар ишлаб чиқиш ;

– талабаларни халқ оғзаки ижоди, адабиёт, санъат ва спортга, соғлом турмуш тарзига жалб этиш уларда эстетик дид, этика, ахборот таҳлили маданиятини шакллантириш;

– ватанга муҳаббат ва унинг тақдирига дахлдорлик, фидойилик ҳиссини қарор топтириш бўйича маънавий-маърифий тадбирлар режасини ишлаб чиқиш;

– маънавий тарбияни баҳолаш мониторингини илмий асосланган индикаторларини ишлаб чиқиш;

Фикримизча юқоридаги вазифалар ижросини таъминлашда халқаро миқёсда БМТнинг International Institute for Sustainable Development (IISD), Swiss Federal Institute of Technology (Швейцария), University of Bridgeport (АҚШ) каби дунёнинг етакчи олий таълим муассасалари ва илмий марказлари, Оломоўцкий университети Indigenous Teacher Education Project (ИТЕР) лойиҳаси (Чехия) томонидан олиб борилаётган тадқиқотларни ўрганиб чиқиш ва тарбиявий фаолият жараёнига татбиқ этиш муҳим аҳамият касб этади.

Юқорида кўрсатилган вазифалар ижросини таъминлаш учун Олий таълим тизимида маънавий-маърифий ишлар мониторингини такомиллаштириш тизимининг дидактик имкониятларини аниқлаштириш муҳим аҳамият касб этади. Бунинг учун:

– биринчидан, юқори самарали инновацион тарбия технологиялари асосида, илғор хорижий тажрибани кенг жорий этган ҳолда, олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабалар учун маънавий-маърифий тадбир режалари, дастур ҳамда услубларини тубдан янгилашни талаб этмоқда;

– иккинчидан олий таълим муассасаларида талабаларга сабоқ бераётган тьютор, профессор ўқитувчиларни замон билан ҳамнафас бўлишларига, тарбиявий фаолият жараёнига янгича инновацион креатив ёндашувлар, шунингдек, илғор услубларни кенг жорий этишга зарур шарт - шароит яратиш, шу билан бирга, тарбиявий ишларни ташкил этишда педагог маҳорати, педагогик ва маънавий тарбиявий фаолиятини муттасил ривожлантириб боришини талаб этади. Ваҳоланки, бугунги замонавий педагог ва тьютор:

– ҳар томонлама ривожланган илмий тафаккурга эга, касбига тегишли маълумоти бор, яъни ўз фанининг чуқур билимдони, педагогик мулоқот устаси, педагогик - психологик ва услубий билим ҳамда малакаларни эгаллаган бўлиши ҳамда турли педагогик вазиятларни таҳлил қила олиши, лозим;

– педагогик таъсир кўрсатишнинг дидактик усул ва воситаларини танлай олиш қобилиятига ҳам эга бўлиши, монодидактик тизимнинг комбинациясидан унумли фойдалана олиши;

– Ассоциатив-рефлекторли, бихевиористик, гештальттехнология, интериоризаторлик, ривожлантирувчи, нейролингвистик дастурлаштирилган ва суггестив таълим технологияларини амалиётга татбиқ эта олиши;

- ўқитувчи юксак даражадаги педагогик маҳорат, чунончи, коммуникативлик лаёқати, педагогик техника (нутқ, юз, қўл-оёқ ва гавда ҳаракатлари, мимика, пантомимика, жест) қоидалари чуқур ўзлаштириб олишга эришишлари лозим. [6]

Юқоридаги фикрларимиз мантиқий давоми сифатида биз айтишимиз мумкинки, бугунги кунда мутахассислар олдида турган муҳим вазифалардан бири бўлажак психологларамалийкомпетентлигинимониторингқилиштизиминитакомиллаштиришдан иборат.

Педагогик психологик адабиётлар ва илмий изланишларимиз таҳлили шуни кўрсатдики, “Мониторинг” тушунчасининг бир қатор изоҳлари мавжуд бўлиб, жумладан, “Педагогика” энциклопедиясида мониторинг monitor + инглизча - ҳаракат номи қўшимчаси: кузатиш, назорат қилиш маъноларини англатади. Уни биз қуйидагича талқин қилишимиз мумкин:

1. Бирон-бир жараёни унинг кутилган натижа ёки дастлабки тахминга мувофиқлигини аниқлаш мақсадида доимий кузатиб бориш.

2. Муайян воқеликни бошқариш, назорат қилиш орқали унинг натижаларини умумлаштирувчи жараён.

Тарихий тамойили нуқтаи назаридан ўрганиб чиққанимизда “Мониторинг” атамаси илк маратоба 1972 йил июнь ойида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Столфгольм” конференциясини ташкил этиш арафасида “назорат” атамасига муқобил сифатида ишлатила бошланган. Мониторингнинг яхлит тизим сифатидаги элементлари 1943 йилда Р.Манн, 1974 йилда В.Д.Федеров, 1985 йилда К.С.Бурдин тадқиқотларида таърифлаб, асослаб берилган. Шунингдек, мониторинг - маълум бир табиий, ижтимоий ва бошқа объектларнинг ўзгариш ҳолатини тизимли кузатиш, баҳолаш асосида кейинги ҳолатини прогноз қилиш деб чет тили сўзларининг катта изоҳли луғатида изоҳ берилган.

Педагогик адабиётлар ва луғатлар таҳлилига таяниб айтишимиз мумкинки, таълим тизимида инсонпарвар, шахсга йўналтирилган парадигмаларнинг пайдо бўлиши педагогика фанининг ривожланишига туртки берган, педагогика фанининг тили янги атамалар ва тушунчалар билан бойиган. Уларнинг аксарияти ўқув амалиётида кенг қўлланиши натижасида ўқув жараёнининг мазмунига сингиб кетган. Педагогик тушунчалар мазмуни концепциясини англаш унинг маъносини ёки моҳиятини ўрганиб чиқишни тақозо қилади. [3]

Шунинг учун “Педагогик мониторинг” тушунчасини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Маълумки, концепциянинг бир тилда қайд этилиши унинг луғатда қайд этилишидир. 1992 йилда “педагогик мониторинг” тушунчаси луғатларда қайд этилмаган. Бироқ, 1998 йилда В.А.Мижериковнинг “Психологик ва педагогик луғатида” “мониторинг” тушунчаси таърифи берилган эди, унда мониторинг объектни даврий равишда мониторинг қилиш ва мажбурий алоқа сифатида қайд этилган. 2000 йилда “таълимдаги мониторинг” тушунчасининг таърифи бўйича - ҳар қандай жараён исталган натижа ёки бошланғич тахминларга мувофиқлигини аниқлаш учун доимий мониторинг. [3]

Шу билан бирга, нашр адабиётларини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, мониторинг назорат қилмайди ва таълим тизимидаги мониторинг жараёни доимий равишда кузатиб бориш билан чекланмайди. Шунинг учун “педагогик мониторинг” тушунчасининг мазмунини ўрганишда биринчи қадам “мониторинг” сўзининг маъноси ва унинг илмий этимологиясини англаувчи белгиларнинг умумийлигини ўрганишдир. Шу билан бирга, педагогик адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, мониторинг жараёни доимий давом этади, “педагогик мониторинг” тушунчаси мазмунини ўрганишда биринчи қадам “мониторинг” ўрганиш ва илмий этимологиясини билишни тақозо этади.

Бир қатор педагог олимларимиз илмий изланишларида мониторинг - таълим тизими балки, унинг алоҳида элементлари тўғрисида асосли хулосалар чиқариш, исталган вақтда унинг ҳолатини баҳолаш ва прогноз қилиш имконини берувчи маълумот билан таълим тизими бошқарувни таъминлаш мақсадида ахборот йиғиш, қайта ишлаш, сақлаш ва тарқатиш [6] деб таъриф беради. Мониторинг - инглизча атама бўлиб, “узлуксиз

кузатиш” деган маънони англатади. Мониторингга ижтимоий бошқарув назариясида энг муҳим, бошқарув соҳасидаги нисбатан мустақил бўлим сифатида қарайди ҳамда таълим мониторинги доирасида педагогик фаолият натижалари юзага чиқарилади ва баҳоланади” [7] деб таъриф берса, Мониторинг-пировард натижадеб изоҳланади.

Демак, Олий таълим тизимида маънавий-маърифий ишлар мониторингини такомиллаштириш механизмларини ишлаб чиқиш олий таълим муассасаларида фаолият юритаётган тьютор ва педагогларни исталган вақтда “фаолиятини ” баҳолаш ва прогноз қилиш имконини берувчи маълумот билан таълим тизими бошқарувни таъминлаш мақсадида ахборот йиғиш, қайта ишлаш, сақлаш ва тарқатиш самарадорлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса қилиб айтганда, жаҳон тажрибаси ахборот -коммуникация технологиялари ва Интернетнинг таълим соҳасига кенг кириб келиши таълим хизматларининг глобаллашуви учун ҳам катта йўл очмоқда. Ривожланган давлатлар таълим соҳасида бўлаётган бундай ижобий жиҳатларни эътиборга олган ҳолда талабалар орасида маънавий-маърифий ишларни юксалтириш учун ахборот - коммуникация технологияларидан оммавий равишда кенг фойдаланиш механизмларини ишлаб чиқиш талаба-ёшларнинг мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш, уларда юксак ахлоқий сифатларни тарбиялаш, уларнинг касбий компетентлиги билан инсоний фазилатларини уйғунлаштириш, профессор-ўқитувчиларнинг тарбиявий масъулиятини ошириш, таълим ва тарбия уйғунлигини амалда таъминлаш учун фанларнинг ҳар бир мавзусидаги тарбиявий мақсаддан унумли фойдаланилишини таъминлаш билан боғлиқ жараёнларни амалга оширишга қаратиш давр талабига айланиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28 январь 2022 йилдаги ПФ-60-сонли “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. <https://lex.uz/docs/5841063>

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 й. “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847 Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси 2019 йил 9 октябрь. www.lex.uz.

3.Пулатов Дж.А. Бўлажак психология ўқитувчиларининг амалий компетентлигини мониторинг қилиш тизимини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) олиш учун ёзилган дисс. Тошкент-2020

4.Кинжаева Г. С Талабаларни касбий - педагогик таълим жараёнида маънавий-маърифий ишларни ташкил этишга тайёрлаш технологияси Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) олиш учун ёзилган дисс. Тошкент-2020

5.Нишонова С. Ёшлар тарбиясининг маънавий илдизлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 186 б.

6. Джураев Р.Х. Система комплексной оценки качества образования Специалиста // Высшее образование. - 2005. - № 2. - С. 72-78.

7.Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования.: Автореф. дис. д-ра пед. наук. - (Ташкент, 2002. - 44 с.

8.Ибрагимов Х.И., Йулдошев У.А., Бобомирзаев Х. Педагогика - психология / Ўқув қўлланма. Тошкент: Ўзбекистан файласуфлари миллий жамияти, 2007. - 134 б.

BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA BADIY-ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

*Rabbimva Farida To'qsanboyevna,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar biologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda nafaqat kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni, balki ularni ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, maxsus kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, badiiy-estetik kompetensiya, individual kompetensiya, asosiy kompetensiya, tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik, umumkasbiy, biologiya sohasiga oid kompetentlik.

РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ - КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

*Раббимва Фариди Токсанбоевна
Джизакский государственный педагогический университет
Доцент кафедры биологии и методики ее преподавания*

Аннотация: В современных условиях для студентов, обучающихся в сфере биологического образования, требования, предъявляемые к личности будущего учителя, заключаются не только в профессиональных знаниях, умениях и умениях, но и в их социальном, профессиональном и личностном развитии. Развитие художественно-эстетической компетентности у будущих учителей биологии является одним из важных показателей их подготовки как конкурентоспособных кадров.

Ключевые слова: Компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, социальная компетентность, художественно-эстетическая компетентность, индивидуальная компетентность, базовая компетентность, базовая компетентность, междисциплинарная компетентность, общепрофессиональная компетентность, биологическая компетентность.

DEVELOPMENT OF ARTISTIC-AESTHETIC COMPETENCE IN FUTURE BIOLOGY TEACHERS - AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

*Rabbimva Farida To'qsanboyevna,
Jizzakh State Pedagogical University. Associate Professor of the Department of Biology
and Methods of Its Teaching*

Abstract: In modern conditions, the demands placed on the personality of the future teacher are not only professional knowledge, skills and abilities, but also their social, professional and personal development is of particular importance for students studying in the field of biology education. Development of artistic and aesthetic competence in future biology teachers is one of the important indicators of their training as competitive personnel.

Key words: Competence, special competence, personal competence, social competence, artistic-aesthetic competence, individual competence, basic competence, basic competence, interdisciplinary competence, general professional competence, biological competence.

KIRISH. Bugungi kunda dunyoda fan va texnikaning jadal rivojlanishi, ta'limda nazariya bilan amaliyot birligi hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi talablari talabning mustaqil faol va ongli mehnatiga asoslangan, uning ijodiy faoliyatini rag'batlantiradigan, tafakkurini rivojlantiradigan, vaqtini tejaydigan, bilim o'rganishini qulaylashtiradigan zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tadbir

etishni taqozo etadi.

avlodining siyosiy faolligini oshirish, uning hayotda o'z o'rnini egallash, ta'lim-tarbiya maskanlarida yetuk inson bo'lib yetishish masalalari dolzarb bo'lib hisoblanadi. Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Zamonaviy psixologiyada elektron-hisoblash texnikasi, elektr va kimyoviy vositalar yordami bilan psixikani chuqur o'rganish kabilar qo'llanilmoqda. Psixologiyada o'zini o'zi kuzatish (introspeksiya) metodi atrofida keskin bahslar davom etmoqda. Ba'zi yo'nalishdagi psixologlar uni tadqiqot o'tkazishning asosiy metodi deb ta'kidlasalar, boshqalari esa uning cheklanganligini e'tirof qiladilar, buning o'rniga ob'yektiv metodlardan foydalanishni tavsiya etadilar. Obyektiv metodlar tufayli psixikaning moddiy negizi aniklangan, inson ichki munosabatlari bilan sub'yektiv holatlar sababiy bog'liqligi yakka shaxsda, jamoada namoyon bo'lishi dalillangan. Mavjudlik va ong, tabiat va ruh o'rtasidagi munosabatlar haqidagi savollarga javob izlash oxir-oqibat ikki falsafiy oqim atrofida birlashtirilgan ko'plab fikrlar, hukmlar va taxminlar paydo bo'ldi: idealizm, ruh materiyaga nisbatan asosiy deb e'tirof etilganda va materiyaning ruhning mavjudligini oldindan belgilab qo'ygan materializmdir. Umuman olganda, antropologik yondashuv, insonning yaxlit tabiatini bilishning ajralmas yo'nalishi sifatida bizning davrimizda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega; inson haqidagi bilim insonshunoslik amaliyotida va birinchi navbatda pedagogik amaliyotda juda muhimdir. Muhim davlat vazifasini - «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ni amalga oshirayotgan zamonaviy maktab o'qituvchisining xislatlari, uning ijodiy faoliyati XXI asrda shakllanib, asosan amaliy ishda, pedagogik tajribalarni egallash jarayonida o'sib rivojlana boradi. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki har bir pedagog dars o'tish jarayonida o'quvchilarining individual psixologik xususiyatlarini bilishi, yangi mavzuni tushuntirayotganda ham umumpsixologik qonuniyatlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etishi ta'limning sifatiga ijobiy ta'sir etadi. Pedagog har doim odamlar orasida bo'lgan, u birinchidan, odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Albatta, o'qituvchidagi bu tariqa qarashlar ko'p yillar davomidagi mehnat va hayot faoliyati jarayonida shakllanadi; ikkinchidan, o'qituvchining o'zi axborotlar olish uchun o'quvchilarga nisbatan cheklangan vaqt imkoniyatiga ega; uchinchidan, u o'ta tor doiradagi tengqurlari bilangina muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'lib, ko'pincha o'z kasbiga xos qiziqishlar bilangina cheklanib qoladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI V.Kessel tadqiqotlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq holda o'qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining mashhurligi ko'p jihatdan uning materiallarni ko'rgazmali, jonli va muammoli tarzda yetkaza olish qobiliyatiga bog'liq ekan. V.S.Abramova, S.M.Ilyusizova, V.A.Kan-Kalik va boshqalar «o'qituvchi-o'quvchi» munosabati bo'yicha izlanishlar olib borganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining muloqotda do'st sifatida o'z o'rnini o'quvchilarning tengdoshlari va ularning ota-onalariga berganligi ko'rindi. Ko'pchilik psixologlar, shu bilan birga o'zbekistonlik psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy o'qituvchilar uchun eng zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rossiya psixologlaridan N .Kuzmina, V.Slastenin, F. Gonobolin, o'zbekistonlik psixologlardan R.Gaynutdinov, M.Davletshin, Sh.Do'stmuxamedova, S.Jalilova, A.Jabborov, M.Kaplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ham o'qituvchilik kasbi va ta'lim jarayoniga doir muammolar keng tadqiq etilgan. Bunda o'qituvchilik kasbiga muvofiq yaratilgan professiogrammani ko'rish mumkin. O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Psixologik tadqiqot ishlarini olib borgan M.Abdullajonova, Ye.Gladkova, A.Mashkurov, T.Hamrokulov, E.Xidirov va boshqalarning ilmiy izlanishlari o'zbek maktablarida rus tili va maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari kabi qator mutaxassisliklar bo'yicha o'qituvchi professiogrammasining taxminiy modelini (namunasini) aniqlab olish imkoniyatini

berdi. O'qituvchining o'rni va uning vazifalari o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaratilishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi. «...O'qituvchi, — deydi Al Forobiy, — aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur». U o'z fikrini davom ettirib: « O'qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o'xshaydi, shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini chiroyli ifodalab berishni bilmog'i, shu bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lmog'i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt cho'qqisiga erishadi», — deb ta'kidlaydi. Illug' shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini xolisona baholab: «Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi», «Haq yolida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila, Aylamak emas oson oning haqqin yuz ganj ila», — kabi satrlar bitgan. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. Ta'limning barcha ko'rsatkichlari, Z.I.Kalmikovaning ta'kidlashicha, anglash tezligi, yangi vazifalar hal qilinishiga erishish mumkin bo'lgan aniq ma'lumotlar hajmi, uni bevosita hal qilishdagi bosqichlar soni, natijaga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar miqdori, shuningdek, masalani hal qilish uchun sarflangan vaqt miqdori, o'z-o'zining bilimni oshirish qobiliyati, ishchanlik va chiniqqanlik darajasiga bogliq. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi deganda, uning o'z bilimlarini doimiy ravishda kasbiy va umummadaniy axborotlar bilan toldirib, o'zining individual ijtimoiy tajribasini keng miqyosda doimo yangilab borishi tushuniladi. Odatda aksariyat o'qituvchilar mustaqil bilim egallash zarurligini tushungan holda, undan muvaffaqiyatli foydalanadilar. Buning motivlari odatda pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi oldida yuzaga keladigan muammolarni anglab olish natijasida shakllanadi. Ko'p hollarda bunday motivlar «o'qituvchilarni qanday o'qitib va qanday tarbiyalash kerak?» degan xohish-istaklar tariqasida, fanning oxirgi yutuqlari, o'zining pedagogik mahoratini takomillashtirish ehtiyoji tug'ilishi munosabati bilan shakllana boradi.

METOD VA METODOLOGIYA O'qituvchi pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi va ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan quyidagi burch va mas'uliyatlar ulardan talab qilinadi:

1. O'qituvchi eng avvalo mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.

2. O'qituvchi tabiatan ta'lim oluvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his-tuyg'ularini har lahzada ta'lim oluvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.

3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada ta'lim oluvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.

4. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.

5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi lozim.

6. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.

7. O'qituvchi kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lim va tarbiyaning eng samarali zamonaviy shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga va uning kompetentlik xususiyatlariga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. Jamiyatning o'qituvchi oldiga

qo'yadigan asosiy talablari quyidagilar:

shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boylklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muxabbati;

kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;

pedagogika, psixologiya, yoshlar fiziologiyasi, maktab gigiyenasidan o'z kasbiga doir bilimlarga mukammal bilishi;

o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, kompyuter va axborot texnologiyalari yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;

ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;

o'z kasbiga ijodiy yondashishi;

pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi. O'qituvchi uchun, inson haqidagi bilim, o'z-o'zini rivojlantirish tizimi sifatida, o'z kasbining mohiyatini tashkil etadi, tushunmasdan, mazmunli insoniy amaliyot mumkin emas. Pedagogik ta'limning insonparvarlik maqsadi uning mazmunini antropologizatsiyalashni, kelajakdagi o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarlikning yetarli shakllarini, usullarini va texnikasini topishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, L. K. Raxlevskayaning fikriga ko'ra, insonparvarlikning samarali usullari («insonparvarlashtirish») ta'lim tizimiga antropologik va madaniy yondashuvlardir. Antropologik yondashuv ta'lim tizimini «insonparvarlashtirish», inson haqidagi yaxlit bilimlarni va o'z hayotining madaniy hayotini o'z ichiga oladi. Madaniy yondashuv ichki dunyo madaniyatini, birinchi navbatda, o'qituvchini, so'ngra har bir o'quvchini «o'sishi» imkonini beradi. Bugungi kunda insoniyatning ma'naviy qayta tiklanishiga umid qilish, o'zo'zini himoya qilishning zarur usuli va yer yuzida omon qolish imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan inson muammosi turli jihatlarda faol ravishda muhokama qilinmoqda. Agar biz inson haqidagi nutq panoramasiga qarasak, unda kamida uchta yirik blok mavjud: din, falsafa va ilm-fan, ularning har biri o'z nuqtai nazarini tushunadi. Insonning sirlari hech kimga oxirigacha tushunilmaydi. Inson shaxsiyati dunyodan ko'ra sirli. N.A.Berdyaev uchun u butun dunyo. Uning uchun inson mikrokosmosdir, u hamma narsani o'z ichiga oladi. Haqiqatan ham, inson mikrokosmosdir va shuning uchun uning ideal qiyofasini yaratish juda murakkab va faqat nisbiy yechimga javob beradi.

TADQIQOT NATIJASI Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahoratning asosiy qonuniyati oz mehnat sarf qilib, ulkan natijalarga erishishda ijodkorlik uning hamisha hamrohi bo'ladi. Pedagogik va uning kompetentligiga faoliyatga qiziqqan, qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat hislatlari shakllanib boradi. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. O'qituvchi o'quvchi shaxsini shakllantiradi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi, o'quv jarayonini mustaqil boshqaradi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol strategiyalarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan mutaxassis o'qituvchilar kerak. Bu esa o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtual-texnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferensiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahsmunozara, sharhlovchi ma'ruza, online ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferensiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, portfoliolar, grafik

organayzerlar, axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etishdagi yana bir muhim komponent - o'qituvchi, uning kasbiy kompetentligi va innovatsion faolligi hisoblanadi. Ta'limda faqat qiziqishga tayanib qolish ham motivatsiyaning asosli samarasi bo'la olmaydi. Bunda eng muhim samarali usul motivatsion-muammoli vaziyatlarni quyish yoki o'rganilayotgan predmetning ijtimoiy mohiyatini aks ettiradigan maxsus bilishga oid vazifalarning qo'yilishidir. Quyidagilar mutaxassisning pedagogik tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

1. Dars berish mahorati.
 2. Tarbiyalash mahorati
 3. O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatleri;
 4. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati
- Dars berish mahorati:

Kasbiy layoqat va eruditsiya;
 Psixologik-pedagogik tayyorgarlik;
 Ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash va yangi bilimlar olishga o'rgatish mahorati;
 O'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;
 Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallanganlik, internetning global tarmog'i bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalar;
 Pedagog kadrlar malakasini oshirishning asosiy shakllarini bilish;
 Ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;
 Pedagogika fani va sohasinirivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini bilish; Fanlararo aloqalardan foydalanish mahorati;

Ritorika va notiqlik san'ati asoslarini bilish;
 Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlari (temperamenti, harakete-ri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos'tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rganiladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imko-niyatini beradigan, ilmiytexnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rganish muhim masaladir. Tarbiya psixol o'g'iyasining asosiy vazifasi — maktabdagi tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materialini mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Pedagog uchun eslash qobiliyatini boshqarish birmuncha qiyinroq va zarurroqdir. Uchtadan ikkita bizga ma'lum eslash jarayoni — eslab qolish va olingan axborotni qayta tiklashni — o'z-o'zini boshqarish bilan rivojlantirish mumkin. Eslab qolish jarayonining uchinchi — axborotni saqlab qolishni boshqarish mushkulroqdir, chunki u ong osti holati (shaxs tomonidan anglab olinmaydigan psixik holatlar yig'indisi) darajasida ishlaydi, holbuki yodlashni anglab tashkil etib, bevosita ularni ham boshqarish mumkin. Mnemik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish har xil usullarga asoslanadi, tasavvur assotsiatsiyalanib, bir butunga bog'lab, ongli ravishda ko'rib chiqiladi. Eslab qolish zarur bo'lgan narsalar ko'z orqali ko'rilsa, yoki biror narsa boglab tasavvur qilinsa yodda qolishi kuchayadi. Eslab qolishni tezlatish uchun sun'iy ravishda yodda bo'lgan perseptiv obrazlarni va tashqi narsalarni tafakkurda uyg'otib, ong orqali ularni yangi eslab qolishi kerak bo'lgan narsalar bilan bog'lash lozim. Ongli ravishda fikrlashni ham boshqarish, uni yanada samaraliroq qilish mumkin. Tafakkurni o'z-o'zida boshqarishning asosiy usullari quyidagilardir: — hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa shartlarni diqqat bilan tahlil qilish; — talab qilingan natijani berilgan shartlar bilan solishtirish, bunday maqsad kerakli natijani olish uchun yetishmagan narsani aniqlash; — doimiy ravishda mashq o'tkazib borib, tafakkurni chiniqtirish; — tafakkurni aniq yo'nalishdagi mashqlar bilan chiniqtirish, ya'ni ketma-ket izlanish va yetarli darajada hal qilinishning alternate yo'llarini ko'rib chiqish (bu — vosita anglash jarayoni «sikllanish» deb nomlanadi) vazifani hal qilishning yo'llari bilan bog'liq

bo'lgan aniq farazlarni o'z ichida yoki ovoz chiqarib so'zlash (gapirish). — bajarib bo'lingan xatti-harakatlar natijalarini va faraz (g'oya) larni doimiy ravishda yozib borish; — o'z-o'zini emotsional boshqarish organizmning muskul to'qimalari tizimini boshqara bilish qobiliyatiga asoslangan emotsiogen holatlarni tahlil qilib, tafakkurni ongli ravishda faol jalb etish. Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarini egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda. Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. Endilikda oliy ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonni emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish mahoratiga ega, o'zini o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi qo'yilmoqda. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, o'quvchilar bilan ta'lim va tarbiyaviy munosabatlarni yaxshi yo'lga qo'ya oladi. O'qituvchining shaxsiy namunasi va obro'-e'tibori ta'lim-tarbiya jarayonida bolada qat'iy nuqtayi nazar shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

MUHOKAMA Tarbiyalash mahorati-o'qitish va tarbiyalash jarayonining bog'liqligi, uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ularda yuksak madaniy va ma'naviy saviyasi qaror toptirishga, pedagogning yuksak shaxsiy sifatlariga. Uning vatanparvarlik, obro' va burchni his etishga, keng gumanitar va gumanistik tayyorligiga, shuningdek o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning amaliy ko'nikmalariga asoslanadi. Pedagogning o'quv-tarbiyaviy jarayondagi gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmomalalik. Ushbu sifatlar pedagogning ta'lim oluvchilar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. SHaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatadi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'z diqqat-e'tiborini o'quv materialining mazmuniga, uning qanday bayon etilishiga, o'quvchi fikriga qaratadi va shu bilan bir qatorda barcha o'quvchilarni kuzatib, ularning hissiy-emotsional holatlariga, e'tiborli yoki e'tiborsizligiga, darsni tushunish-tushunmasligiga ahamiyat berib, o'quvchilarning intizomini kuzatadi hamda oqibat natijada o'zining shaxsiy xulq-atvoriga ham (yurish-turishiga, o'zini tutishiga, mimika va pantomimikasiga) e'tibor beradi. Tajribasiz o'qituvchi, ko'pincha o'quv materialini bayon etishga berilib ketib, o'quvchilarning nima qilayotganliklarini sezmay qoladi va nazoratdan chiqarib qo'yadi, agar, bordi-yu, o'quvchilarni diqqat-e'tibor bilan kuzatishga harakat qilsa, bunday hollarda o'z bayonotining izchilligini yo'qotib qo'yadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlardan tashqari, o'qituvchi inson shaxsining maqsad sari intilishi, uddaburonlik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi qator ijobiy xislatlariga ega bolishi lozim. U o'quvchilarni tarbiyalar ekan, o'zining xulq-atvori, yurish-turishi, xullas, butun o'qituvchilik shaxsi bilan o'quvchilarga o'rnak bo'lishi kerak. O'qituvchining o'zini qo'lga ola bilishi muhim ahamiyatga egadir. Xulosa qilib, shuni aytish joizki, o'qituvchining barcha ijobiy, umuminsoniy axloq m e'yorlariga mos keluvchi xislatlari o'quvtarbiyaviy jarayonda katta ahamiyatga ega. N.V.Kuzmina o'qituvchi faoliyatidagi ba'zi qobiliyatlarga muvofiq keluvchi asosiy tarkibiy qismlarga konstruktivlik (pedagogik maqsadga mos keluvchi materialni tanlay olish va uni namoyon etish vositalarida aks etadi), tashkillashtirish, kommunikativlik (tarbiyalanuvchilar bilan muloqot o'rnatish olish qobiliyati) va gnostik (bilimlardan foydalanish va qo'lay olish qobiliyati) qobiliyatlarini kiritadi. Bundan tashqari, N.V.Kuzmina pedagogik qobiliyatlarga pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, pedagogik takt, diqqatning taqsimlanishi, talabchanlikni ham kiritadi. O'z ishini muvaffaqiyat bilan olib borishi uchun pedagog bir qator zarur bo'lgan umumiy va maxsus qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak. Umumiy qobiliyat deganda, har qanday inson faoliyatida yuqori natijalarga erishish mumkin bo'lgan, maxsus qobiliyat esa bolalarga ta'lim va tarbiya berishda yutuqlarga erishish mumkin bo'lgan pedagog faoliyati davomidagi kerakli qobiliyat tushuniladi. Umumiy qobiliyatlar faqatgina pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lib qolmaydi, maxsus qobiliyatlar esa pedagogik faoliyat samaradorligiga bevosita to'liq ta'sir ko'rsatadi. Bu

barcha maxsus qobiliyatlar — ta'lim berish, o'qitish, o'rgatish uchta o'zaro bog'langan bilim olish, malaka oshirish va ko'nikma hosil qilishning jihatlaridir. Ular ontogenezda qachon va qanday shakllana boshlanishini, shuningdek, qanday qonuniyatlar bo'yicha rivojlanishini aniq aytish qiyin. Ulardan qaysilaridir tug'ma hisoblanib, zehn ko'rinishida mavjud boiadi, holbuki hozirgacha ilm-fan bu narsalar to'g'risida aniq ma'lumot bera olmaydi. Boshqa qobiliyatlar kabi pedagogik qobiliyat ham tarbiyalanadi va ularni ongli ravishda bolalarda shakllantirish hamda rivojlantirish mumkin.

XULOSA Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir pedagog o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi degan muammo paydo bo'ladi. Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlash modelining asosiy tarkibiy elementlari maqsadli deb topildi, mazmunli, texnologik va samarali komponentlar, o'zaro ta'sirlar antropologik yondashuv (antropologik, axiologik, madaniy-mantiqiy, faoliyat, tizimli, individualizatsiya) asosida umumiy va ajratilgan printsiplarning ta'siri bilan belgilanadi. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarni antropologik tayyorgarlikning barcha masalalarini hal qilishni talab qilmaydi, chunki u pedagogik ta'limning o'quv rejalarida va dasturlarida o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, pedagogika ta'lim muassasalarining o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining antropologik jihatini o'rganishni talab qiladi. Bo'lajak pedagoglarning oliy o'quv yurtida olgan psixologik bilimlari unchalik yoqimli bo'lmagan xossaga ega. Ular, birinchidan, pedagogga amaliyotda zarur bo'lgan barcha bilimlarni o'z ichiga qamrab olmagan, bunga sabab pedagogik oliy o'quv yurtlarida psixologik fanlarni o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari hajmining chegaralanganligidir. Ikkinchidan, bu olingan bilimlar tezda eskirib qoladi va hech bo'lmaganda besh yilda bir marta yangilab turishni talab etadi, buni o'z-o'ziga ta'lim berish yoki malaka oshirishda amalga oshirsa bo'ladi. Pedagogning psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi deyilganda, uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishini nazarda tutadi, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, shuningdek, boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya. Pedagogning amaliy faoliyatida psixologik ma'lumotlar olishi mumkin bolgan adabiyotlar ro'yxati yetarli darajada salmoqlidir. Holbuki, pedagogga muntazam ravishda ilmiy kitoblarni va jurnallarni o'qishga hojat yo'q, asosiy psixologik bilimlar jamlangan holda keltirilgan, pedagogik faoliyat uchun foydali bo'lgan bo'limlarga murojaat qilishning o'zi yetarlidir. Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat — bu o'z-o'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq-atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir. O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq, shuningdek, shaxs xislatlari — xulq atvori, emotsional holati, vaziyatga munosabati. Yuqorida qayd etib o'tilgan psixik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyglulari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ichki tuyg'u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo'lib xizmat qiladi, iroda bolsa xatti-harakatlar quvvati va yo'nalishlarini ta'minlaydi. Qabul qilish o'z-o'zidan boshqaruvni aniq qabul qilish vazifalarini qo'yadi — obrazni tuzish, qo'yilgan savollarga — Nimani kuzatish kerak? Nima uchun kuzatish? Qanday qilib kuzatish? — kabi aniq javob topish kerak. Kuzatuvni boshlashdan avval biz o'zimiz uchun bu savollarga javob berishimiz lozim boiadi. Murakkab pedagogik sharoitlarda (vaziyatda) bunday savollarga aniq javob topishni iloji bo'lmaydi, bu vaziyatda aniq javob topish uchun birmuncha aqliy kuch sarf qilishga to'g'ri keladi. Bunday savollarni avvaldan o'ylab ko'rish va ularga amal qilishni talab qiladi, natijada o'z-o'zini boshqarishni nazarda tutadi. Diqqat-e'tiborni boshqarish birmuncha boshqa narsalarga asoslanadi. Ixtiyoriy bo'lmagan diqqat-e'tiborni boshqarish ular bilan bog'liq bo'lgan holatlar, ya'ni organizmning psixofiziologik holatlarini boshqarish orqali

bevosita amalga oshirish mumkin. Charchoq oqibatida ixtiyoriy boim agan diqqat-e'tibor yomon boshqariladigan bo'lib qoladi. Xuddi shunday holat kasallik davrida, haddan tashqari emotsional junbushga kelgan holatda, affekt yoki stress holatlarida ro'y beradi. Birmuncha ta'sir qiladigan vositalar — dam olish, davolash, psixofizik autotrening bu tarzda diqqatni boshqarishda yaxshi samara beradi. Ixtiyoriy diqqatni qiziqish uyg'otadigan so'z yordamida yoki qo'llab-quvvatlash orqali boshqarish mumkin. Odamning diqqatini biror narsaga qaratish uchun uning qiziqishini qo'llab-quvvatlash kifoya qiladi. So'z orqali o'z-o'zini yo'naltirish yoki verbal o'zi-o'zini boshqarish har doim to'g'ridan to'g'ri yoki bevosita qiziqishga asoslanadi. Ayrim hollarda o'zini majbur qilib qandaydir obyekt, holat yoki voqelikning qiziqarli tomonlariga e'tiborni qaratish, diqqatni uzoq bolm agan vaqt oraligida jalb qilish uchun yetarli bo'ladi. Qabul qilish orqali ham ularni ma'lum darajada boshqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Kuznetsova N.P. — O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTSlari talabalarini amalga oshirish sharti sifatida.

2. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-методическое пособие. –М., Издательство «Эйдос», 2013. -73 стр.

3. A.K. Shamsheva, R.N. Melibayeva, X.E. Usmanova, I.O. Xaydarov. - Umumiy psixologiya.

4. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova – Umumiy psixologiya. O'z. FMJ., 2008

5. Sh. Sodiqova “Maktabgacha Pedagogika” Toshkent: 2013. B.

6. N. Atayeva, F. Rasulova, M. Salayeva, S. Hasanov “Umumiy Pedagogika” Toshkent 2011.

7 O.A Xasanboeva, R.R. Avezova, G.J. Shamaribxodjaeva, H. Aliqulova “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Toshkent 2015.B.[69.72].

8. “Umumiy psixologiya” F.I. Xaydarov N.I. Xalilova. Toshkent 2009

9. “Umumiy psixologiya” M.V. Voxidov. Toshkent. 1992 yil.

10. “Umumiy psixologiya” A.V. Petrovskiy. Moskva. 1976

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIMNING UZVIYILIGI VA
UZLUKSIZLIGI HAMDA UNDAGI HARBIY TA’LIMNING O‘RNI**

*Umarov Ismoiljon Olimjonovich
Farg‘ona davlat universiteti
harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi*

**НЕПРЕРЫВНОСТЬ И ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ
В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В
НЕЙ**

*Umarov Ismoiljon Olimjonovich
Fergana State University
Lecturer at the Faculty of Military Education*

**CONTINUITY AND CONTINUITY OF EDUCATION IN THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN AND THE ROLE OF MILITARY EDUCATION IN IT**

*Умаров Исмоилжон Олимжонович
Ферганский государственный университет
преподаватель факультета военного образования*

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta’limga tamoyil va ta’lim standartlarini joriy etish mavzusi ko‘rib chiqiladi. Harbiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning asosiy g‘oyalari, tamoyillari va usullari kengyoritib berilgan. Kompetensiyaning asosiy tushunchalari va harbiy ta’lim tizimi kontekstida kompetensiyalarning tasnifi ko‘rib chiqiladi. Harbiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Harbiy ta’lim, kursant, kompetensiyaviy yondashuv, ko‘nikmalar, bazaviy kompetensiya, kompetentlik, qiyin vaziyat, amaliy mashg‘ulotlar, mutaxassislik.

Аннотация: В данной статье рассматривается внедрения образовательных стандартов и принципов в военное обучение на основе компетентностного подхода. Описываются основные идеи, принципы и методы компетентностного подхода применительно к военному обучению. Рассматриваются основные понятия компетентности и классификация компетенций в контексте военной образовательной системы. Анализируются проблемы и перспективы внедрения компетентностного подхода в военное обучение.


Ключевые слова: Военное обучение, курсант, компетентностный подход, навыки, базовая компетентность, компетенция, сложная ситуация, практическая подготовка, специальность.

Abstract: This article discusses the implementation of educational standards and principles in military training based on a competence-based approach. The main ideas, principles and methods of the competence approach in relation to military training are described. The basic concepts of competence and the classification of competencies in the context of the military educational system are considered. The problems and prospects of implementing the competence approach in military training are analyzed.

Keywords: Military training, cadet, competence approach, skills, basic competence, competence, difficult situation, practical training, specialty.


Kirish. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzviyligi va uzluksizligi hamda undagi harbiy ta’limning o‘rni ham muhim ahamiyatga ega. Harbiy ta’lim (chaqiruvga qadar boshlang‘ich harbiy tayyorgarlik) o‘rta maktab o‘quv dasturiga kiritilgan bo‘lib, uning maqsadi o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligini shakllantirish, fuqarolik mudofaasi va o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir. Harbiy ta’lim o‘quvchilarning

vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda va milliy o'ziga xosligini shakllantirishda ham muhim rol o'ynab, o'quvchilarda Vatanni himoya qilish uchun zarur bo'lgan fuqarolik qadriyatlari va ko'nikmalarini shakllantiradi.[2] Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni jismoniy tayyorlash, vatanparvarligi va fuqarolik qadriyatlarini shakllantirish uchun birinchi navbatda chaqiruvga qadar boshlang'ich harbiy tayyorgarlik harbiy rahbaridan kompetentlikni talab etadi. Shundan kelib chiqib, asosiy kompetensiyalarni harbiy ta'lim yo'nalishida quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm):



1-rasm. Asosiy kompetensiyalarni harbiy ta'lim yo'nalishida tasniflashnishi

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu kompetensiyalar ma'lum bir mamlakatga, harbiy doktrinaga va harbiy tashkilotning ehtiyojlariga qarab farq qilishi va to'ldirilishi mumkin.[13] Harbiy-kasbiy kompetensiya sifatlarini quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasm):



2-rasm. Harbiy-kasbiy kompetensiya sifatlarining ifodalaniishi

Ushbu shakllardagi kompetensiya harbiy xizmatchilarga o'z vazifalarini samarali bajarishga

va harbiy xizmat paytida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli engishga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'zbek olim-pedagoglari O.Xaitov va N.Umarovning tadqiqotlariga muvofiq kompetensiyalarning quyidagi tasnifini ajratib ko'rish mumkin:

1. Axborot bilan ishlashda kompetensiyalar: ma'lumot to'plash va tahlil qilish ko'nikmalari; qaror qabul qilish qobiliyati; ma'lumotlardan tegishli formatda samarali foydalanish va o'zgartirish.

2. Muvaffaqiyatga erishish bilan bog'liq kompetensiyalar: rejalashtirish qobiliyatlari; faoliyatni tashkil etish; olingan natijalarni tahlil qilish.

3. Odamlar bilan ishlashda kompetensiyalar: munosabatlarni boshqarish; muvaffaqiyatli jamoaviy ish; boshqalarga ta'sir o'tkazish qobiliyati.

4. O'z-o'zini takomillashtirish kompetensiyalari: o'z-o'zini tahlil qilish; kasbiy (professional) o'sish; innovatsion harakatchanlikka tayyorlik.

Kompetensiyalarni tasniflashga bunday yondashuv ularni muayyan toifalar asosida guruhlash imkonini beradi, bu esa kompetensiyalarni tizimli tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, olim E.S. Zair-Bek kompetensiyaviy yondashuvni o'rganib, uslubiy kompetensiyalarning quyidagi turlarini aniqladi:

Maqsadli kompetensiya ta'lim va rivojlanish maqsadlarini rejalashtirish va shakllantirishda ishtirok etish, shuningdek, o'z harakatlarini ularga erishish uchun ongli ravishda yo'naltirish qobiliyatini anglatadi. Bunga aniq maqsadlarni aniqlash, ularni kontekstga moslashtirish va ularga erishishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish qobiliyati kiradi. Maqsadli kompetensiya, shuningdek, maqsadlarga erishishni baholash va kerak bo'lganda o'z harakatlariga tuzatishlar kiritish qobiliyatini o'z ichiga oladi;

Mazmunli kompetensiya deganda ta'lim yoki faoliyat yo'naltirilgan mavzu bo'yicha etarli bilim va tushunchaga ega bo'lish qobiliyati tushuniladi. Ushbu kompetensiya nafaqat faktlar va nazariyalarni bilishni, balki olingan bilimlarni muayyan vaziyatlarda tahlil qilish, talqin qilish va qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Mazmunli kompetensiya, shuningdek, mavzu sohasidagi bilimlarning dolzarbligi va rivojlanishini kuzatish hamda ulardan foydalanish uchun turli xil usul va vositalarni qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi;

Kompetensiya monitoring doirasida ta'lim yoki kasbiy faoliyat jarayoni va natijalarini muntazam ravishda kuzatib borish va baholash qobiliyatini anglatadi. Bunga ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, ish sifatini baholash, muammoli daqiqalarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish qobiliyati kiradi. Monitoring sohasidagi kompetensiyalar, shuningdek, mezonlar va baholash ko'rsatkichlarini belgilash, ma'lumotlarni yig'ish vositalarini ishlab chiqish va olingan natijalar asosida harakatlar samaradorligini aniqlash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Olim M.B.Urazova loyiha faoliyati kontekstida kompetensiyalarning quyidagi tasnifini taklif qiladi:

Refleksiv kompetensiya loyiha faoliyati kontekstida o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini, ish jarayoni va erishilgan natijalar ustidan aks ettirishni anglatadi. Bu shaxsning kuchli va zaif tomonlaridan xabardor bo'lishi, xatolarni tahlil qilish va ish faoliyatini qanday yaxshilashni bilishni o'z ichiga oladi. Refleksiv kompetensiya, shuningdek, tajribadan o'rganish, tanqidni qabul qilish va uni rivojlantirish va takomillashtirish uchun ishlatishni o'z ichiga oladi. Refleksiv kompetensiya bilan bog'liq muhim ko'nikmalar qiyin vaziyatlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatidir;

Kognitiv kompetensiya loyiha faoliyati kontekstidagi analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini, shuningdek, turli fan sohalarida keng dunyoqarash va bilimga ega bo'lishni anglatadi. Bu ma'lumotni tahlil qilish va qayta ishlash, muammolarni hal qilish, strategiyalarni ishlab chiqish va natijalarni bashorat qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Kognitiv kompetensiya, shuningdek, g'oyalarni yaratish, mantiqiy fikrlash zanjirini yaratish va turli manbalardan ma'lumotlarni sintez qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Kognitiv kompetensiya bilan bog'liq muhim ko'nikmalar tanqidiy fikrlash, farazlarni shakllantirish va sinash, nazariy bilimlarni amalda qo'llash va ularning harakatlari natijalarini tahlil qilish qobiliyatidir;[14]

Axborot kompetensiyasi loyiha faoliyati kontekstida turli xil axborot resurslari va

vositalarini samarali topish, baholash, tanlash va ulardan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Bunga ma'lumot qidirish va to'plash ko'nikmalari, olingan natijalarni tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyati va to'plangan ma'lumotlarni tartibga solish va taqdim etish qobiliyati kiradi. Axborot kompetensiyasi, shuningdek, axborot bilan ishlash tamoyillari va usullarini tushunishni, shu jumladan uning ishonchliligi, dolzarbligi va loyiha vazifasi uchun dolzarbligini baholashni o'z ichiga oladi. Axborot kompetensiyasi bilan bog'liq muhim ko'nikmalar – bu axborot texnologiyalari va vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati, shuningdek ma'lumotni tushunarli shaklda taqdim etish qobiliyatidir;

Kommunikativ kompetensiya loyiha faoliyati kontekstida loyiha doirasida boshqa odamlar bilan samarali va samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. Bunga boshqalarni tinglash va tushunish qobiliyati, o'z fikrlari va g'oyalarini ifoda etish qobiliyati va ishonchli muloqot qilish va ishonirish qobiliyati kiradi. Kommunikativ kompetensiya, shuningdek, turli xil aloqa uslublariga moslashish qobiliyatini, ommaviy nutq so'zlash va taqdimotlarni o'tkazish qobiliyatini, shuningdek, nizolarni samarali boshqarish va loyihaning boshqa ishtirokchilari bilan konstruktiv munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya bilan bog'liq muhim ko'nikmalar tinglash va savol berish qobiliyati, o'z fikrlari va g'oyalarini aniq va mantiqiy ifoda etish qobiliyati, og'zaki bo'lmagan signallarni tushunish va muloqotdagi madaniy farqlarga moslashish qobiliyatidir;[12]

Ijtimoiy kompetensiya loyiha faoliyati kontekstida boshqa odamlar bilan samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish qobiliyatini anglatadi. Bunga jamoada ishlash, vazifalarni samarali topshirish, boshqalarni rag'batlantirish va ilhomlantirish qobiliyati va nizolarni konstruktiv hal qilish qobiliyati kiradi. Ijtimoiy kompetensiya, shuningdek, loyihaning hamkasblari, sheriklari va manfaatdor tomonlari bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini, shuningdek, turli madaniy va ijtimoiy kontekstlarga moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy kompetensiya bilan bog'liq muhim ko'nikmalar samarali muloqot qilish, boshqalarni tinglash va tushunish, muammolarni hal qilish va guruh kontekstida qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Tadqiqot davomida “kompetensiya” tushunchasining yagona ta'rifi va kompetensiyalarni tasniflashning umumiy tizimi yo'qligi aniqlandi. Biroq, tahlil natijalari xorijiy va mahalliy pedagogikada o'xshash muammoli yondashuvlarga ishora qiladi, bu esa akmeologik kontekstda shaxsning kompetensiyasini rivojlantirish yo'nalishini tasdiqlaydi. Shuningdek, yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar harbiy xizmatga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan umumiy so'zlar bilan keltirilganligi hamda tadqiqotimiz yo'nalishi shundan iboratki, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik harbiy rahbarlarida o'quv-jangovar sifatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish mavzusida bo'lganligini inobatga olgan holda barcha kompetensiyalarga qo'shimcha ravishda o'zgartirishlar kiritilishi, ya'ni harbiy shaxslarga nisbatan qaratilgan bo'lishi lozim deb topdik.

Mutaxassislarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosidagi konsepsiyalariga asoslanib, chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarlari kompetensiyalarining quyidagi paradigmasini asoslash mumkin:

1. Bazaviy kompetensiyalar

chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarining o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy talabni to'liq anglash;

chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbari uchun kasbiy kompetensiyaning bazaviy kompetensiyalari (jismoniy, aqliy, ijtimoiy, kasbiy);

chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish omillarini belgilovchi kompetensiyalar (shartlar, amaliy mashqlar va topshiriqlar, doimiy aloqa va munosabatlar, birgalikdagi faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirish va baholash).

2. Umumiy kompetensiyalar

kompetensiyaviy yondashuv asosida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarlarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirishga oid nazariy asos;

kompetensiyaviy yondashuvdan foydalangan holda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'lajak harbiy rahbarlarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy faoliyat mahorati.

3. Xususiy kompetensiyalar

o'quv-jangovar faoliyatga yo'naltirilgan amaliy mashqlar va topshiriqlar to'plamini, kompetensiyalar elementlariga (integrativ yondashuv, loihalash, texnologizatsiya) vaziyatli mashqlarni ishlab chiqishda kompetensiyalar;

rivojlanish, maslahat, tuzatish usullarini oqilona qo'llashda kompetensiyalar.

Ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash bo'yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilishda ko'pchilik olimlarning fikrlari umumiyligi aniqlandi, chunki kompetensiya har doim shaxsning shaxsiy qiziqishi sharti bilan faoliyatda shakllanadi va namoyon bo'ladi.

Ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish kursantlarga o'z ko'nikmalari va bilimlarini rivojlantirish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Ular amaliy loyihalarda faol ishtirok etishlari, olgan bilimlarini amalda qo'llashlari va ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishlari mumkin. Ushbu yondashuv, shuningdek, kursantlarda ijodkorlik, mustaqillik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Oxir oqibat, kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish materialni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishni ta'minlaydi va kursantlarni kelajakdagi muvaffaqiyatli karyera uchun tayyorlaydi.[7]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, harbiy ta'limga kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim standartlari va tamoyillarini joriy etish kursantlarni rivojlantirish va ularni Qurolli Kuchlar xizmatiga tayyorlash uchun zarur va dolzarb qadamdir. Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat bilimlarni, balki muvaffaqiyatli harbiy xizmat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni, malakalarni va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga ham e'tibor qaratish imkonini beradi. [3] Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish, shuningdek, materialni chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtirishga va harbiy ta'lim bitiruvchilari uchun xizmat faoliyati davomida foydali bo'ladigan barqaror ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Kursantlar amaliy loyihalarda faol ishtirok etish, o'z bilimlarini amalda qo'llash va o'zlarining ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq, harbiy ta'limning ko'rsatmalarini qat'iy bajarish, bo'ysunish va intizom kabi xususiyatlarini hisobga olish kerak. Shuning uchun kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish harbiy sohaning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilishi kerak.[11]

Umuman olganda, harbiy ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish individual rivojlanish, etakchilik fazilatlarini rivojlantirish va kelajakdagi harbiy mutaxassisni tayyorlash uchun imkoniyatlar yaratadi. Bu harbiy mutaxassislarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi, bu mamlakat xavfsizligi va himoyasi uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi 406-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi 458-sonli "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi RQ-4447-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida"gi Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-4947-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni;

2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni;

Abdullayev R.I. Psixologiya operatsiyalari. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2004.

Abdulla Sher. Axloqshunoslik -Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

Alixonto'ra Sog'uniy. Turkiston qayg'usi. -Toshkent, Sharq, 2003.

Bekmurodov M. Milliy mentalitet va rahbar ma'naviyati,. –T., Adolat, 2003.

Vatan tuyg'usi. –Toshkent:, O'zbekiston, 1996.

Vatan himoyasi – muqaddas burch /Tuzuvchilar: Inoyatov I.V., Abilov M.H. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.

Jo'rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojoralar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001.

MILLIY QO'SHIQLAR VA PEDAGOGIKA UYG'UNLIGI TALABALARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBİYALASHNING INTEGRATIV OMILI SIFATIDA

Uspanova Rano Anuarovna

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali San'atshunoslik fakul'teti
«Xalq ijodiyoti» kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy qo'shiqlar va pedagogika uyg'unligi oliy ta'lim muassasalarida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning integrativ omili sifatida tahlil qilingan. Shuningdek maqolada o'zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy merosi bilan bir qatorda milliy madaniyat va qo'shiqchilik ijrochisi namunalari talabalarning ma'naviy-axloqiy mulkiga aylantirish, milliy san'atni anglatish maqsadini ustuvor yo'nalish sifatida amalga oshirish, san'at vositasida milliy g'oya va mafkurani aholining ongi hamda qalbiga chuqur singdirish, uni xalqning ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish geosiyosiy jarayonlarda muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etishi yuzasidan mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: milliy qo'shiqlar, globalashuv, mafkuralararo ziddiyat, millatlararo totuvlik, tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma'rifiy va axloqiy meros, elatlar, xalqlar, madaniyatlar, tolerantlik tafakkuri.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПЕСНИ И ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ГАРМОНИЯ КАК ИНТЕГРАТИВНЫЙ ФАКТОР СТУДЕНЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ДУХЕ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Успанова Рано Ануаровна

Преподаватель кафедры «Народное искусство» факультета искусств Нукусского филиала Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Navbatdagi nazorat sinov mashqi yugurib kelib uzunlikka sakrash amaliy mashg'uloti bo'lib, ushbu mashq talaba yoshlarining tezkor-kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Joydan uzunlikka sakrash nazorat sinovida olingan natijalarga asosan o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 25 % da ushbu jismoniy sifat ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan "2" baho bilan qayd etildi. "Qoniqarli" natijani qayd etgan o'g'il bolalar 30 % ni tashkil etdi va "3" baho bilan baholandi. Talabalarning 25 % da tezkor-kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari "yaxshi" natija bilan bajarildi va "4" bahoga loyiq topildi. Ijobiy ko'rsatkichlar 20 % o'g'il bolalarda ham aniqlanib "5" baho bilan belgilandi. Ushbu nazorat sinovida olingan natijalar asosida umumiy hulosaga keladigan bo'lsak, o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning tezkor-kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari 55 % o'quvchilarda past darajada ekanligi aniqlandi va o'sib borish ko'rsatkichlari talab darajasida emasligi o'z isbotini topdi (2- rasmga qarang).

Jismoniy rivojlanish darajalarini aniqlashga yordam beruvchi nazorat mashqi 60 m ga yugurish amaliy sinovidan iborat bo'lib, ushbu berilgan jismoniy yuklama tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiladi. O'tkazilgan amaliy nazorat natijalariga ko'ra o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 30 % da tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi va "2" baho bilan baholanishdi. "Qoniqarli" natijani qayd etgan talabalar 35 % ni tashkil etdilar hamda ular "3" baho bilan baholanib nazorat sinovini yakunlashdi. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 20 % belgilangan nazorat sinovini "yaxshi" ko'rsatkichlar bilan bajarishdi. Ularning natijalari "4" baho bilan baholandi. 15 % talabalarda bu ko'rsatkich "a'lo" darajada bajarildi va "5" bahoga loyiq topildi. Umumiy natija 65 % kurash to'garaklarida mashg'ulotda qatnashayotgan borayotgan talaba (o'g'il bola)larda tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari past darajada ekanligi aniqlandi (2- rasmga qarang).

Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarining keyingi bosqichi to'pni uzoqqa uloqtirish orqali amalga oshirildi. 3-rasmda berilgan diagrammada to'pni uzoqqa uloqtirish nazorat sinovida o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlari qay darajada rivojlanib borish jarayonlari aks ettirilgan. Ushbu ko'rsatkich natijalariga ko'ra, talabalarning 25 % da kuch jismoniy sifati ko'rsatkichlarining "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi, ushbu ko'rsatkich natijalari "2" baho bilan baholandi. To'pni berilgan masofaga qoniqarli darajada uloqtira olgan o'quvchilar 30 % ni tashkil etib baholash mezonlariga ko'ra "3" baho bilan berilgan nazorat me'yorini bajarishdi. "Yaxshi" ko'rsatkichlarni qayd etgan talaba (o'g'il bola)lar 25 % ni tashkil etdi hamda "4" baho bilan qayd etildi. Yuqori natijalar esa 20 % talaba (o'g'il bola)larda ijobiy deb topildi va "5" baho bilan belgilab borildi. Yakuniy xulosa 50 % dan ortiq talabalarning kuch jismoniy sifati darajalari pastligi aniqlandi (3- rasmga qarang).



3-rasm. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari 4x10 m.ga mokisimon yugurish amaliy

mashg'ulotida yanada aniqroq baholanadi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari ushbu berilgan mashg'ulot davomida o'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning funksional holatlarini inobatga olgan holda shakllanib borishi va tezkorlik jismoniy sifatining shakllanib borishi aniqlandi. Natijalarga ko'ra, talabalarning 30 % belgilangan topshiriqni bajara olishmadi va nazorat sinovidan "2" baho bilan yiqilishdi. 35 % talabalar esa "qoniqarli" natijalar bilan "3" bahoga nazorat sinovini topshirishdi. Past ko'rsatkichlarni hisoblaganda talaba (o'g'il bola)larning 65 % da tezkorlik jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada ekanligi aniqlandi. Jismoniy sifat ko'rsatkichlarining 20 % ni "yaxshi" natijalar bilan bajargan talabalar "4" baho bilan baholandilar va yana 15 % talaba (o'g'il bola)larda ushbu ko'rsatkich "5" baho bilan "a'lo" darajada baholandi (3- rasmga qarang).

Chidamlilik jismoniy sifati ko'rsatkichlari 2000 m ga yugurish amaliyoti orqali aniqlanadi va talaba (o'g'il bola)larning tayyorgarlik darajasi ham, o'z navbatida, baholash mezonlari asosida munosib baholanib boriladi. 2000 m masofaga yugurishda talaba (o'g'il bola)lardan kuch, tezkorlik va ayniqsa chidamlilik jismoniy sifati ko'rsatkichlari ko'proq talab qilinadi. Agar talaba (o'g'il bola)larning mashg'ulot jarayonlarida olgan ko'nikma va jismoniy yuklamalari noo'rin berilgan bo'lsa, talaba (o'g'il bola)larda ushbu jismoniy sifat ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" darajada bo'ladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, talaba (o'g'il bola)larning 25% da belgilangan masofani o'z vaqtida bosib o'ta olishmadi va "qoniqarsiz" natija bilan nazorat sinovini yakunlashdi. Talaba (o'g'il bola)larning 30% da esa chidamlilik jismoniy sifati ko'rsatkichlari "qoniqarli" darajada ekanligi aniqlandi va baholash mezonlariga asosan "3" baho bilan nazorat sinovidan o'tishdi. O'g'il bolalardan iborat talaba yoshlarning 25% da samarali natijalar qayd etildi hamda ushbu natijalar "4" baho bilan baholandi. Nazorat sinovini "5" baho bilan topshirgan talabalar 20 % ni tashkil etdi. Jismoniy tayyorgarlik darajalari turli nazorat me'yorlarida turlicha natijalarni ko'rsatmoqda.

Kurash sport turining mashg'ulotlarida yuqori shiddatli yuklamalarni qo'llash o'sib kelayotgan yosh organizmniki o'ta charchashga bo'lgan extimolini oshiradi. Mashg'ulot davomida talaba yoshlarga yuklamalar hajmini kamaytirish umumiy jismoniy tayyorgarlikning pasayishiga olib keladi va sportchi organizmining mashg'ulot yuklamalariga yuqori moslashuvchanligini oshirish esa yangi sport formasi rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Talaba (o'g'il bola)larning mashg'ulot jarayonlariga individual yondashuv ularning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

X U L O S A. Talaba yoshlarda tashkil etiladigan kurash mashg'ulotlari samaradorligini oshirish va kurash sport turining texnik harakatlarini o'zlashtirishlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish uchun mashg'ulot dasturlarini tubdan islox qilish zarurati borligi ma'lum bo'ldi;

Talabalar uchun tashkil etiladigan kurash va uni o'qitish uslubiyoti fan dasturlari va to'garaklarining mashg'ulot rejalariga, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik va individual tayyorgarliklarning yaxshilanishiga yordamlashuvchi yangi metod va metodikalarni rivojlangan davlatlardagi kurash turlari tajribasini o'rganib chiqib, yangicha yondashuv dasturini ishlab chiqish va amalyotga tadbiq qilish zarur;

Kelgusida talaba yoshlar orasidan kurash sport turi bo'yicha milliy terma jamoa tarkibiga kiritiladigan sportchilar zaxirasini baytish maqsadida, talaba yoshlar orasida kurash sport musobaqalari sonini oshirish va yuqori saviyli musobaqalarni tashkillashtirish zarurati bor.

Oliy o'quv yurtlarida tashkil etilayotgan kurash sport turi to'garaklarining moddiy texnik bazasini yaxshilash orqali, kurash sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, hamda texnik va taktik tayyorgarligini yaxshilashga erishish;

Kurashchi talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajalari va kurash sport turining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ularning baholash mezonlariga muvofiq, umumiy tayyorgarliklari va ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha sinov mashqlari qatoriga kiritilgan barcha harakatlarni aniq bajara olish natijalari olindi va mezonda belgilangan tartibda ko'rsatilgan natijalariga mos ravishda baholandilar.

Qo'lga kiritilgan natijalar asosida kurashchi talabalarning umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda texnik va taktik tayyorgarlik darajalarini yaxshilash bo'yicha kerakli taklif va tavfsiyalar ishlab chiqilib xulosalar ishlab chiqildi.

Oliy o‘quv yurtlarida tashkil etilgan kurash va uni o‘qitish uslubiyoti fani va kurash sport to‘garaklarida shug‘ullanuvchi talabalarining umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini yaxshilashga yordamlashuvchi yangi metod va metodikalarni ishlab chiqish va amalyotga tadbiq qilish zarur;

Rivojlangan davlatlarning kurash (dzyudo, sambo va x.k.) turlari bo‘yicha ularning tajribasini o‘rganib kurashchi talaba yoshlarning mashg‘ulot dasturlariga, kerakli o‘zgarish va tuzatishlar kiritish kerakligi aniqlandi;

Oliy o‘quv yurtlarida tashkil etilgan kurash to‘garaklarning moddiy texnik bazasini yaxshilash orqali, shug‘ullanuvchi sportsilarning, umumiy jismoniy tayyorgarligini yaxshilashga erishishni taminlash zarurati borligi ma‘lum bo‘ldi;

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda kurash sport turi bo‘yicha milliy terma jamoamiz tarkibiga kirish imkoniyatiga ega talaba sportchilarimiz safini kengaytirish maqsadida, Oliy o‘quv yurtlarining talabalari o‘rtasida kurash sport turidan talabalar ishtirokidagi sport musobaqalar sonini yanada oshirish va bu musobaqalarni yuqori saviyada o‘tkazishni tashkillashtirish zarurati bor.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 oktyabrdagi “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-sonli Qarori lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli Farmoni lex.uz
3. Абдулхаков М.Р., Трапезников А.А. – Боротся, чтобы побеждают! Спорт в твоей жизни. – М.: Просвещение, 1990г. – С.144
4. Абдиев А.Н. – Борба монография. Ташкент, 2004 г.
5. Абдуллаев Ш.А. – Эркин кураш. Тошкент, ахборот пресс 2017 й.
6. Алиев И.Б. – Кураш билан шуг‘уланувчи талабаларнинг машг‘улот юкламалари. Тошкент – 2012.
7. Астахов Л.М. – Новое в методике обучения технике борьбы// Спортивная борьба: Ежегодник. – М, 1976г. С.29-30
8. Арсланов Ш.А. – Кураш турлари мусобака коидалари. Тошкент, истиқбол 2016й.
9. Абдуллаев Ш.А. – Малакали спортчиларни тайёрлашнинг илмий – услубий асослари. Услубий қўлланма. Тошкент-2015й
10. Абдуллаев Ш.А. – Эркин кураш назарияси ва услубиёти. Ўқув – услубий қўлланма. Тошкент-2016й.25-26-Б.

OLIV TA'LIM MUASSASLARIDA TALABALARNING INNOVATSION MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Xojamuratov Ramil Ibraximovich

Berdax nomidagi QDU "Ingliz tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi p.f.f.d. (PhD).

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassaslarida talabalarning innovatsion madaniyatini rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: lingvodidaktika, innovatsiya, kreativ, mezon, qadriyat, adaptiv, funksional, evristik, ijobiy-emotsional, analitik, refleksiv, pedagogik improvizatsiya, pedagogik sezgi, tasavvur.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В ВУЗАХ

Ходжамуратов Рамиль Ибрагимович

Каракалпакский Государственный Университет имени Бердаха Преподаватель кафедры «Английский язык и литература» к.п.н. (PhD).

Аннотация. В данной статье описаны лингводидактические основы развития инновационной культуры студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: лингводидактика, инновация, творческий, критерий, ценностный, адаптивный, функциональный, эвристический, положительно-эмоциональный, аналитический, рефлексивный, педагогическая импровизация, педагогическая интуиция, воображение.

LINGUODIDACTIC PRINCIPLES FOR THE DEVELOPMENT OF INNOVATION CULTURE OF STUDENTS IN UNIVERSITIES

Khojamuratov Ramil Ibrahimovich

Karakalpak State University named after Berdakh

Department of English Language and Literature, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. (PhD).

Annotation. This article describes the linguodidactic foundations for the development of innovative culture among students of higher educational institutions.

Key words: linguodidactics, innovation, creative, criterion, value, adaptive, functional, heuristic, positive-emotional, analytical, reflective, pedagogical improvisation, pedagogical intuition, imagination.

Oliy ta'lim va jamiyat rivojlanish sur'atlarini integratsiyalashda yangi metodikalardan foydalanishning didaktik tizimlarini takomillashtirish, talabalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari va modellarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

OTMda innovatsion madaniyatni rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayonida intilish zarur bo'lgan rivojlanuvchi, o'zini o'zi anglaydigan shaxs modelini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. Kasbiy pedagogik madaniyat mezonlari madaniyatni tizimli tushunish, uning tarkibiy va funksional tarkibiy qismlarini ajratish, madaniyatni o'qituvchi shaxsini kasbiy va ijodiy o'z-o'zini anglash davomidagi pedagogik qadriyatlarni va texnologiyalarni ijodiy o'zlashtirish, yaratish jarayoni va natijalari sifatida talqin qilish asosida aniqlanadi. Ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalarning innovatsion madaniyatini rivojlantirishning to'rtta darajasi mavjud: adaptiv, reproduktiv, evristik, ijodiy (kreativ) [1].

Innovatsion madaniyatning adaptiv darajasi o'qituvchining ingliz tilini o'qitishida pedagogik voqelikka nisbatan beqaror munosabati bilan tavsiflanadi. Pedagogik faoliyatning maqsadlari va vazifalari o'qituvchi tomonidan umumiy ma'noda belgilanadi. O'qituvchi psixologik-pedagogik bilimlarga befarq, bilimlar tizimi mavjud emas va bilimlarni aniq pedagogik vaziyatlarda ishlatishga tayyor emas. Kasbiy va pedagogik faoliyat kreativ

g'oyalarsiz, ilgari ishlab chiqilgan chizma bo'yicha quriladi. Ushbu darajadagi o'qituvchilar innovatsion takomillashtirish nuqtai nazaridan faollik ko'rsatmaydi, zarur bo'lgandagina malaka oshiradi yoki umuman rad etadi.

Reproduktiv daraja pedagogik voqelikka nisbatan barqaror qadriyatli munosabati tendensiyasini nazarda tutadi: o'qituvchi innovatsion madaniyat rolini yuksak baholaydi, ingliz tilini o'rganish davomida pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida sub'ektiv munosabatlar o'rnatishga intiladi, unga pedagogik faoliyatidan qoniqish darajasining yuqori ko'rsatkichi xosdir. Innovatsion madaniyat rivojlanishining ushbu darajasida o'qituvchi tomonidan maqsadlarni belgilash va kasbiy harakatlarni rejalashtirish bilan bog'liq bo'lgan konstruktiv va prognozli vazifalar muvaffaqiyatli hal qilinadi. Ijodiy faoliyat ishlab chiqarish faoliyati bilan cheklanadi, ammo standart pedagogik vaziyatlarda yangi yechimlarni izlash elementlari paydo bo'la boshlaydi. Ehtiyojlar, qiziqishlar va mayllarning pedagogik yo'nalishi shakllanadi. O'qituvchi malaka oshirish zarurligini anglaydi.

Innovatsion madaniyat namoyon bo'lishining evristik darajasi ko'proq maqsadga yo'naltirilganligi, kasbiy faoliyat usullari va vositalarining barqarorligi bilan tavsiflanadi. Innovatsion madaniyatning ushbu darajasida texnologik tarkibiy qism tuzilishida o'zgarishlar yuz beradi; shakllanishning yuqori darajasi sifatida baholash va axborot, tuzatish va tartibga solish masalalarini yechish ko'nikmalari belgilanadi. O'qituvchilarning faoliyati doimiy izlanish bilan bog'liq; ular o'qitish va tarbiyalashning yangi texnologiyalarini ajratadi, o'z tajribalarini boshqalar bilan bo'lishishga tayyor bo'ladi. Taklif etilayotgan malaka oshirish shakllariga tanlab yondashadi, o'zlarining shaxsiyati va faoliyatini bilish va tahlil qilishning asosiy usullarini o'zlashtiradi.

Ijodiy daraja pedagogik faoliyatining yuqori samaradorligi, psixologik va pedagogik bilimlarning mobilligi, talabalar va hamkasblar bilan hamkorlik va birgalikdagi ijod munosabatlarini tasdiqlash bilan tavsiflanadi. O'qituvchi faoliyatining ijobiy-emotsional yo'nalishi shaxsning barqaror o'zgaruvchan, faol ijodiy va o'z-o'zini yaratuvchi faoliyatini rag'batlantiradi. Analitik va reflektiv ko'nikmalar birinchi darajali ahamiyatga ega.

Texnologik tayyorgarlik yuqori darajada bo'lib, texnologik tayyorgarlikning barcha tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Pedagogik improvizatsiya, pedagogik sezgi, tasavvur o'qituvchi faoliyatida muhim o'rin tutadi va pedagogik muammolarni yechishga hissa qo'shadi.

Shaxs tuzilishida ilmiy, pedagogik qiziqish va ehtiyojlar uyg'un birlashgan. O'qituvchilarni pedagogik mahorat va pedagogik madaniyatni oshirishning turli usullari qiziqtiradi. Ko'pincha ular o'zlari malaka oshirishning tashabbuskori bo'lib, o'z tajribalarini baham ko'radilar va hamkasblarining tajribalarini faol ravishda o'zlashtiradilar, ular takomillashtirishga intilishi bilan ajralib turadi.

Demak, innovatsion madaniyat ko'p o'lchovli hodisa, murakkab ijtimoiy-psixologik va pedagogik voqelik sifatida quyidagi integral shakllanishlarni o'z ichiga oladi deb xulosa qilish mumkin, ya'ni o'qituvchi shaxsining psixologik-pedagogik madaniyati, kasbiy va psixologik kompetensiyasi, kasbiy xulq-atvor madaniyati.

OTMda talabalarining innovatsion madaniyatini rivojlantirishning uslubiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- talabalar tomonidan "Ingliz tili", "Tilshunoslik (Lingvistika)" va "Lingvodidaktika" kurslarida psixologik va pedagogik bilimlarning nazariy asoslarining o'zlashtirilishi;
- psixologik-pedagogik tarkibni hisobga olgan holda "Ingliz tili" kursi bo'yicha metodik ta'minot to'plamini ishlab chiqish;

OTM xorijiy til fakulteti talabalarining innovatsion madaniyati darajasini oshirishning metodik, tashkiliy vositalari tizimida biz quyidagi shartlarni eng samarali deb topdik:

- o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning demokratik, dialogik usullari (pedagogik muloqotni qurishga demokratik yondashish) [1];
- OTMda o'quv jarayonini tashkil qilishning innovatsion faol usullarini qo'llash bilan turli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning variantlilikligi;
- didaktik loyihalash texnologiyasi pedagogik tizimlarni boshqarishning innovatsion usuli

va pedagogik bashorat qilish vositasi sifatida.

Metodik ta'minot to'plamini loyihalash va ishlab chiqishda, kasbiy faoliyat sohasidagi guruhli, ijodiy vazifalarni, kasbiy reflektiv, ishchan o'yinlarni bajarishda biz talabalarning bilim darajasi, kognitiv qiziqishlari, motivatsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga oldik, bular pedagogik rejalashtirishning dastlabki bosqichlarida diagnostikalanishi zarur. Talabalarni o'qitish jaryonida ingliz tili bo'yicha mashg'ulotlar doirasidagi biz amalga oshirgan vazifalar orasidagi eng muhimlari quyidagilardir:

- samarali shaxslararo kasbiy muloqot, inson resurslarini boshqarish, kasbiy faoliyatning har xil turlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan psixologik-pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini dolzarblashtirish;

- shakllangan ko'nikmalarni kelajakda kasbiy faoliyat sohasiga o'tkazish maqsadida ta'limning o'zaro ta'siri jarayonida mazmunli muloqot o'tkazish usullarini o'zlashtirish;

- talabalarning bo'lajak kasbiy faoliyatida inson resurslarini boshqarish, kommunikativ va pedagogik faoliyatni kasbiy faoliyat turlari sifatida amalga oshirish imkonini beradigan innovatsion madaniyatning (aksiologik, kognitiv, texnologik, kommunikativ, tartibga soluvchi) quyi tizimlarini rivojlantirish;

- kasbiy tayyorgarlik va ta'lim jarayonida alohida e'tibor talab qiladigan innovatsion madaniyatning eng muhim quyi tizimlarini aniqlash.

Qoraqalpoq davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti 1- va 2-kurs talabalari uchun "Ingliz tili" o'quv fani mazmuni tanlanishini tahlil qilib, ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalar o'rganilayotgan mutaxassislikning konseptual bazasini o'zlashtirishdan ko'proq ijodiy topshiriqlarga o'tishadi degan xulosaga keldik, bu topshiriqlar nafaqat bilimlarni, balki kelajakda talabalarning kasbiy o'zini o'zi anglashi uchun zarur bo'lgan faoliyat usullari va vositalarini o'zlashtirishni talab qiladi. Butun ta'lim davomida kasbiy muloqot uchun zarur bo'lgan umumiy terminologiya va nazariy matnlarni o'zlashtirishni nazarda tutadigan reproduktiv ish shakllaridan ijodiy bosqichga o'tish amalga oshiriladi. Bu bosqichda hayotning barcha sohalarida o'zini o'zi rivojlantirishga intilayotgan faol ijodiy shaxsni rivojlantirish mashg'ulotning maqsadi sifatida qaraladi [2].

Mutaxassislarni tayyorlash sifati asosan o'quv jarayoni uchun metodik ta'minot to'plami mavjudligi bilan belgilanadi. Tadqiqotimizda metodik ta'minot to'plamiga ishchi dasturlari, o'quv mashg'ulotlari modullari, ma'ruza matnlari, muallifning o'quv-metodik qo'llanmalari, didaktik, namoyish materiallari, ishchan o'yinlar ssenariylari va boshqalar kiradi. Kasbiy yo'nalish o'quv mazmuni, fan dasturi, mavzuviy rejalarni tanlash bilan ta'minlanadi. Fan dasturi fanning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi mavzuviy reja, asosiy darslik, terminologik lug'at, talabalarni nazorat qilish shakllari (joriy, yakuniy, attestatsiya), nazoratning turli shakllari uchun topshiriqlar mavzulari, fanni o'zlashtirish sifatini baholash uchun savollarni o'z ichiga oladi [3, 190-bet].

Ingliz tili darslari samaradorligini oshirish talabalarni bevosita ta'lim jarayoniga jalb qilishga imkon beradigan faol o'qitish usullarini qo'llash orqali yuzaga keladi. Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan bunday usullarga quyidagilar kiradi: ishchan o'yinlar, amaliy misollarni tahlil qilish (keysar), rolli o'yinlar, guruh bahslari, psixologik va pedagogik mashg'ulotlar, mualliflik o'quv-metodik ishlanmalar va boshqalar.

Ushbu qo'llanmadan ingliz tilidagi amaliy mashg'ulotlar doirasida: o'rganilayotgan mavzuning ilgari o'rganilgan material bilan o'zaro aloqasini aks ettirish, o'tgan materialni mustahkamlash, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari innovatsion madaniyatining barcha tarkibiy asoslarini rivojlantirish uchun faol foydalaniladi.

Talabalar bilan ijodiy ishlash. Sizga ijodiy ish taklif etamiz. Siz:

1. Tanlangan matnni (masalan, London, Toshkent, madaniyat va boshqalar haqida) chet tilida mustaqil, matnning umumiy mazmunini tushunib o'qishingiz;
2. Tanlangan matnni yozma tarjima qilishingiz;
3. Tarjima bo'yicha o'zingizning variantingizni quyida ko'rsatilganlar bilan taqqoslab, imkon qadar yo'l qo'ygan xatolarni tuzatishingiz;
4. Tanlangan va diskda yozilgan matnni tinglashingiz;
5. Ushbu matn mazmunini aytib berishingiz yoki o'zingizning yozma tarjimangizga qarab

matn mazmunini ijro etishingiz kerak.

Xullas, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning innovatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik maqsadi, birinchidan, talabalar tomonidan psixologik va pedagogik bilimlarning o'zlashtirilishi, ikkinchidan, psixologik-pedagogik asoslarni hisobga olgan holda, "Ingliz tili" kursi bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ляшенко М.С. Научно-теоретические основы формирования психолого-педагогической культуры у студентов в вузе. – М., 2010 – 156 с.
2. Hojamuratov R.I. Talabalarнинг инновацион маданиятини ривожлантириш технологияси: Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Т., 2022. – 145 б.
3. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 190 с.

VOLEYBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KO'NIKMASINI BOSQICHMA-BOSQICH SHAKLLANTIRISH

*Xudayberganov Otabek Erkinovich,
Urganch davlat pedagogika instituti*

"Jismoniy madaniyat" kafedrasida dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari o'rtasida turli sport turlari, shu jumladan, voleybol bilan shug'ullanishning pedagogik oliy o'quv yurtlari jismoniy madaniyat fakulteti talabalari o'rtasida kasbiy ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Oliy o'quv yurtlari, vositalar, ko'nikmalar, dars, jismoniy madaniyat, shakllantirish, bilim, kasbiy mahorat, pedagogik ko'nikmalar.

Аннотация. В статье представлены результаты, проведенного среди специалистов в области физической культуры и спорта по выявлению влияния занятий различными видами спорта, в том числе волейболом, на формирование профессиональных умений и личностных качеств у студентов факультета физической культуры педагогических вузов.

Ключевые слова: Высшее учебное заведение, средство, навыки, урок, педагогические навыки, физическая культура, формирование, знание, профессиональные умения.

Annotation. The article presents the results of a questionnaire survey conducted among specialists in the field of physical culture and sports to identify the influence of practicing various sports, including volleyball, on the formation of professional skills and personal qualities among students of the Faculty of Physical Culture of pedagogical universities

Key words: Higher educational institutions, means, skills, lesson, pedagogical skills, physical culture, formation, knowledge, professional skills

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish dasturi konsepsiyasida yuqori malakali mutaxassislarni kelajakdagi kasbiy faoliyatlarining asosiy turlariga nisbatan tayyorlash sifatini oshirish - ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Ushbu vazifani amalga oshirish, jismoniy tarbiya mutaxassislarini oliy ta'lim muassasalarida tayyorlash tizimida nazariy va uslubiy - texnologik ta'minlashning aniq yo'llarini izlash hamda o'quv jarayonini takomillashtirish zaruriyatini belgilaydi.

Sport-pedagogik mahorat darajasi pedagog kasbiy mahoratining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularda jismoniy tarbiya va sport kasbiy faoliyatlarining real sharoitlarida amaliyotga yo'naltirilgan vazifalarni unumli hal etishga tayyorgarlikni hosil qiladi.

Shu sababli, ta'lim jarayonini loyihalash va amalga oshirishda, unda nafaqat bilim va mahoratlarning shakllanishiga, balki bo'lajak kasbiy faoliyat sub'ekti shaxsining yaratilishi zarurligiga urg'u beriladi. Ta'lim jarayoni o'qitishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish, bilish faolligini rag'batlantirish va ta'lim oluvchilarning o'z-o'zlarini takomillashtirishida ehtiyojlarini faollashtirishga yo'naltirilishi lozim.

Voleybol vositalari va muammoli o'qitish usullari yordamida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy va pedagogik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish.

Voleybolni o'rgatishda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish bilan moslashtirish maqsadida mashg'ulotlarning to'rtinchi oyidan boshlab mashg'ulot jarayoniga 1-jadvalda ko'rsatilgan maxsus mashqlar va vazifalar kiritildi.

Psixologik tayyorgarlikning maqsadi talabalarda voleybol bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish uchun zarur bo'lgan shaxsiy va psixik sifatlarni shakllantirish hisoblanadi.

Psixologik tayyorgarlik vositalari orasida sportchining psixik holatiga ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi o'zini-o'zi boshqarish usuli muhim o'rin tutadi. Mashg'ulotlar jarayonida

quyidagi asosiy usullardan foydalandik: tasavvur etish va hayol qilish mexanizmlarini o'z ichiga oluvchi autogen mashg'ulot (mashg'ulot yakunida), badanni qizdirishda harakatli va nafas olish mashqlari.

Mashg'ulot o'yini jarayonida qo'llaniladigan maxsus vazifalar:

1. Qadam tashlab kuchli vazifa qo'l bilan 4-3-2-zonalardan turli uzatishlar bilan to'g'ri hujum zarbasi.

2. Tayanch holatda turli usullar va keyingi yiqilish bilan to'p qabul qilishni bajarish: uzatishlar, turli hujum zarbalari, to'siq qo'yuvchilar va hujumchilar muhofazasida.

3. Turli usullarda hamda balandligi va masofasi bo'yicha turli uzatishlar bilan berilgan zarbalarga individual va guruhli to'siq qo'yish (to'siq qo'yuvchilarga zarbalarning zonalari va yo'nalishlari ma'lum).

1-jadval

Birinchi yil ta'lim olayotgan talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish

T/r	Kasbiy ko'nikmalar	Vazifalar va mashqlar	Bitta mashg'ulot davomiyligi vaqti (daqiq.)	Bir oy ichidagi mashg'ulotlar soni
1.	Shaxsiy qobiliyatni tanqidiy tahlil qilish	Mashg'ulot o'yinlarida bajarilgan shaxsiy xatolar va muvoffaqiyatli harakatlarni aniqlash hamda tahlil qilish. Setlar orasidagi tanaffuslarda va mashg'ulotdan so'ng murabbiyning savollariga javob berish	15	8
2.	Hatolarni tuzatgan holda mashqlarni bajarish texni kasin nazorat qilish	Shug'ullanuvchilarning mashg'ulot o'yinlari dagi xatolarini hamda muvoffaqiyatli harakatlarini aniqlash va tahlil qilish	10	8
3.	Shug'ullanuvchilar faoliyatini tahlil qilish	Murabbiy bilan suhbat, unda texnik, taktik, jismoniy tayyorgarlik, borkuch bilan o'ynash darajasini baholaniadi.	15	4
4.	Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun turli-tuman mashqlardan foydalanish	Shug'ullanuvchi o'zi ishtirok etgan holda umumiy yoki maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg'ulot o'tkazadi, murabbiy mashg'ulot jarayoniga tuzatishlar kiritadi	60	3
5.	Sportchini maxsus harakat faolligiga tayyorlash	Shug'ullanuvchi o'zi ishtirok etgan holda umumiy yoki maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulot o'tkazadi. Murabbiy mashg'ulot jarayoniga tuzatishlar kiritadi.	20	6
6.	O'z psixik holatini boshqarish	Mashg'ulot o'yini jarayonidagi maxsus vazifalar (vazifalar bayoni quyida keltirilgan)	6	6
7.	Jismoniy yuklamalarni boshqarish	Shug'ullanuvchilar tomonidan chigal yozdi mashqlari, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlarning o'tkazilishi	20	6
8.	Mashqlarni murakkablik darajasi o'sib borishiga qarab joylashtirish	Shug'ullanuvchi o'zi ishtirok etgan holda texnika va taktikani o'rganish va takomillashtirish bo'yicha mashg'ulotning asosiy qismini o'tkazadi. Murabbiy mashg'ulotlar jarayoniga tuzatishlar kiritadi	30	4

Har bir vazifa o'yin davomida almashinishlar bilan bajarildi. Keyinchalik bu vazifalarning to'g'ri va aniq bajarilishi mutaxassislar tomonidan baholandi va shu orqali diqqatni jamlash, o'zini-o'zi nazorat qilish, chidamkorlik darajasini, ya'ni o'zining psixik holatini boshqarish

qobiliyati tavsiflandi.

Nazorat va tajriba guruhlari talabalari bilan mashg'ulotlarni muammoli tashkil etish uslublarini talabalarning kasbiy malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning tanlagan sport turiga va o'quv jarayoniga bo'lgan munosabatiga ta'siri o'rganildi.

Muammoli o'qitish uslublaridan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish uslublari quyidagilardan iborat:

1. Aniq hujum zarbasini va keyingi javob harakati bilan aniq himoyani o'rganish va takomillashtirishda cheklangan tor vazifaga ega bo'lgan o'quv-mashg'ulot o'yinini qo'llash.

2. Mashg'ulot o'yini oldidan va uning davomida maqsadga muvofiq texnik va taktik usullarni tanlash va qo'llash bo'yicha hal qilishni talab etadigan muammolarni qo'yish.

3. Shug'ullanuvchi tomonidan mashg'ulot o'yinida harakat faoliyati yoki taktik usulning bitta yoki bir nechta tarkibiy qismlarini tanlash va qo'llash.

4. Berilgan muammoning hal etilishi samaradorligini shug'ullanuvchi tomonidan baholanishi.

5. Shug'ullanuvchilarning texnik-taktik harakatlarining to'g'ri tanlanganligi va samaradorligini murabbiy tomonidan baholanishi.

Voleybolni muammoli o'qitishdan foydalanishga ba'zi misollarni keltiramiz. O'yin boshlanishidan oldin o'qituvchi hujum harakatini aytadi, masalan, orqa chiziqdan to'rga kelayotgan o'yinchini to'pni uzatishi bilan orqa chiziqdan hujum zarbasi. Keyin o'qituvchi qarshi hujum harakatlarining bir necha variantlarini aytadi va himoya harakatlarini aytmaydi. Himoyani aniqlash va qarshi hujumlarni tanlash voleybolchining o'zi tomonidan mashg'ulot o'yinida amalga oshiriladi.

Mashg'ulot o'yinini bunday tashkil etish o'rganilgan usullarni haqiqiy o'yinda amaliy o'zlashtirish vositasi hisoblanib, shu bilan birga, shug'ullanuvchilar tafakkurini faollashtiradi. Muammoli o'qitishning kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga ta'siri natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida ekspert baholari 12% ga, tajriba guruhida 24% ga oshgan.

2-jadval

Voleybol vositalari yordamida birinchi yil ta'lim oluvchi talabalarda kasbiy ko'nikmalar shakllanishini ekspert baholash (n=30)

№	Kasbiy ko'nikmalar	Tajribadan oldin				Tajribadan keyin			
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	t	R	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	t	R
1.	Shaxsiy faollikni tanqidiy tahlil qilish	2,4±0,12	2,5±0,09	0,77	R>0,05	2,9±0,11	3,5±0,10	2,05	R<0,05
2.	Xatolarni tuzatgan holda mashqlarni bajarish texnikasini nazorat qilish	2,1±0,11	2,3±0,08	1,54	R>0,05	2,7±0,08	3,2±0,09	2,33	R<0,05
3.	Shug'ullanuvchilar faoliyatini tahlil qilish	2,7±0,09	2,5±0,07	1,82	R>0,05	3,4±0,12	4,0±0,11	2,68	R<0,05
4.	Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun turli-tuman mashqlardan foydalanish	3,1±0,13	3,0±0,11	0,59	R>0,05	3,5±0,06	3,8±0,07	2,26	R<0,05
5.	Sportchini maxsus harakat faolligiga tayyorlash	2,6±0,09	2,7±0,10	0,78	R>0,05	3,1±0,11	3,5±0,12	2,66	R<0,05
6.	O'zining psixik holatini boshqarish	2,3±0,07	2,4±0,06	1,09	R>0,05	2,8±0,07	3,6±0,09	3,71	R<0,05
7.	Jismoniy yuklamani boshqarish	2,5±0,12	2,7±0,13	1,25	R>0,05	3,4±0,09	3,7±0,10	2,22	R<0,05
8.	Mashqlarni murakkablik darajasi o'sib borishiga qarab joylashtirish	3,5±0,06	3,6±0,07	1,09	R>0,05	4,0±0,07	4,4±0,11	3,08	R<0,05

Shunday qilib, ekspert baholash voleybol bilan shug'ullanuvchilar oldiga ko'p hollarda

tipik pedagogik vazifalarni qo'yadigan voleybol hamda muammoli o'qitish uslublarining kasbiy ko'nikmalarning hosil qilinishiga ijobiy ta'sirini ishonchli tarzda ko'rsatdi.

2022-2023 -o'quv yili davomida o'sha tarkibdagi shug'ullanuvchilar bilan voleybol vositasi yordamida pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish masalalarini o'rganish davom ettirildi.

Muammoli o'qitish uslublaridan foydalanishning ijobiy natijalarini hisobga olgan holda nazorat guruhi talabalari bilan ushbu uslublardan foydalanishga qaror qilindi.

Shunday qilib, mashg'ulotlar uslubiyati har ikkala guruh uchun pedagogik tajribaning ikkinchi bosqichi yakunida natijalarni alohida chiqarish va ekspert baholarni qo'yish bilan bir xilda rejalashtirildi. Birinchi yil bilan solishtirganda, eng istiqbolli ko'nikmalarni aniqlash bo'yich aolib borilgan tadqiqotga ko'ra, sakkizta shakllangan ko'nikmalarga talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish mahorati qo'shilgan bo'lib, mashqlarni ularning murakkabligi oshib borishi bo'yicha joylashtirish ko'nikmasi esa yanada murakkab bo'lgan mashqlarning namoyishining to'g'ri bajarilishi ko'nikmasi bilan almashtirildi, chunki mashqlarni namoyish etish vaqtida bajarilayotgan harakatni asosiy texnik jihati va yo'l qo'yilishi ehtimoli bo'lgan xatolarga e'tibor qaratish zarur. Ko'nikmalarni shakllantirish va muammoli o'qitish uslublarini qo'llash, uy vazifalari yordamida ishlab chiqilgan sportchida mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish ko'nikmasidan tashqari, birinchi bosqichdagidek saqlanib qoldi. Talabalarga mustaqil ravishda o'z kamchiliklarini baholash va murabbiy tuzatishlar kiritadigan ularni bartaraf etish usullarini taklif etish so'raldi. Belgilangan muddat yakunida erishilgan natijalar baholandi va quyidagi vazifalar rejalashtirildi. Vazifalarni bajarish davomiyligi har bir sportchi uchun alohida belgilandi. Har bir shug'ullanuvchi yil davomida o'rtacha to'rtta topshiriqni bajardi. Topshiriqlarni bajarish bilan mashg'ulot va musobaqalarda ko'rsatilgan natijalar o'rtasida aniq bog'liqlik kuzatildi (3-jadval).

3-jadval

Voleybol vositalari yordamida ikkinchi yil ta'lim olayotgan talabalarda kasbiy ko'nikmalarning shakllanishini ekspert baholash(n=30)

№	Kasbiyko'nikmalar	Tajribadan oldin				Tajribadan keyin			
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	t	R	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	t	R
1.	Shaxsiy faollikni tanqidiy tahlil qilish	2,9±0,11	3,8±0,10	3,06	R<0,01	3,5±0,10	4,5±0,13	3,25	R<0,01
2.	Xatolarni tuzatgan holda mashqlarni bajarish texnikasini nazorat qilish	2,7±0,08	3,9±0,11	3,88	R<0,01	3,2±0,09	4,3±0,10	3,46	R<0,01
3.	Shug'ullanuvchilar faoliyatini tahlil qilish	3,4±0,12	4,1±0,09	2,67	R<0,05	3,7±0,11	4,7±0,09	3,14	R<0,01
4.	Harakat sifatlarini rivojlantirish uchun turli-tuman mashqlardan foydalanish	3,5±0,06	4,1 ±0,07	3,52	R<0,01	3,8±0,07	4,0±0,06	2,20	R<0,05
5.	Sportchinimaxsusharakatfa olligatayyorlash	3,1±0,11	4,3±0,11	5,00	R<0,001	3,5±0,12	4,6±0,07	2,86	R<0,01
6.	O'zining psixik holatini boshqarish	2,8±0,07	3,5±0,10	3,63	R<0,01	3,6±0,09	4,8±0,12	3,01	R<0,01
7.	Jismoniy yuklamani boshqarish	3,4±0,09	4,7±0,06	6,81	R<0,001	3,7±0,10	4,6±0,08	2,92	R<0,01
8.	Mashqlarni namoyish qilishni to'g'ri bajarish	4,0±0,07	4,9±0,12	3,43	R<0,01	3,8±0,11	4,7±0,10	3,00	R<0,01

3-jadvalda keltirilgan natijalardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin: birinchi o'quv yilida ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati voleybolga o'qitishning ikkinchi yilida ham o'z samaradorligini tasdiqladi, nazorat guruhida

muammoli o'qitish uslublaridan foydalanish natijalar bo'yicha tajriba guruhiga yetib olish imkonini berdi.

Voleybol vositalari yordamida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish uslubiyati shug'ullanuvchilarning intellektual rivojlanishini inobatga oluvchi va pedagog uchun zarur bo'lgan sifatlar-mustaqillik hamda ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi muammoli o'qitish tamoyillaridan foydalanishini o'z ichiga olishi kerak. Shunday qilib, voleybolchi mahorati shakllanishida ahamiyatli bo'lgan taktik ko'nikmalarni hosil qilish jarayonining oldindan so'zlash, bashoratlash, empatiya va antitsipatsiya bo'yicha pedagogik qobiliyatlarni shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashuvi sodir bo'ldi.

Kasbiy ko'nikmalarning shakllanishi shaxsiy sifatlar hamda qobiliyatlarni hosil qilish bilan birgalikda kompleks holda samarali kechdi. Voleybol vositalari orqali quyidagi irodaviy sifatlar – qat'iyatlik, tirishqoqlik, chidamkorlik, o'zini nazorat qilish, g'alabaga bo'lgan iroda, shuningdek intellektual qobiliyatlar yanada muvoffaqiyatliroq shakllanadi.

Voleybolni o'rgatish algoritmining qo'llanilishi kasbiy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarini parallel tarzda muvaffaqiyatli shakllantirishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 24-yanvar, PF-5924-son.

2. Abdiyev A.N. Yakkakurash sport turlarida ixtisoslashuvchi talabalarda murabbiyning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. p.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Tashkent.: 2004.-56 b.

3. Абдулина О.А. Проблемы педагогических умений в теории и практике высшего педагогического образования // Сов. педагогика; 1976. - №1.-С.76.

4. Айрапетьянц Л.Р., Пулатов, А.А. Волейбол назарияси ва услубияти: дарслик. – Т. – 2012.- 206 бет.

5. Кузьмина Н.В. Формирование основ профессионального мастерства в высшей школе. - Л.: ЛГУ, 1973. - С. 73.

6. То'xtaboev N.T. Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga tashkiliy-pedagogik yondashuv. p.f.n., ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2011, 24 b.

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINI MA'NAVIY-MA'RIFIY
TARBIYALASH TIZIMIDA O'Z-O'ZINI TARBIYALASHNING O'RNI**

*Zaripova Gulbahor Komilovna,
Buxoro davlat universiteti axborot texnologiyalari fakulteti "Axborot tizimlari va raqamli
texnologiyalar" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

**РОЛЬ САМООБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ДУХОВНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
ОБРАЗОВАНИЯ УЧАЩИХСЯ ОБЩИХ СРЕДНИХ ШКОЛЬНИКОВ**

*Zaripova Gulbahor Komilovna,
доцент кафедры информационных систем и цифровых технологий факультета
информационных технологий Бухарского государственного университета, кандидат
педагогических наук,*

**THE ROLE OF SELF-EDUCATION IN THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND
PEDAGOGICAL EDUCATION OF GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS**

*Zaripova Gulbahor Kamilovna,
Bukhara State University, Faculty of Information Technology, Associate Professor of the
Department of Information Systems and Digital Technologies, Doctor of Pedagogical PhD.*

Kalit so'zlar: o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ishlash, pedagogik-psixologik asoslar, metodologik asos, funksional tizimlar, nerv sistemasi, mantiq, o'z-o'zini bilish, psixologiya fani, o'zini tuta bilish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash tizimida o'z-o'zini tarbiyalashning o'rni haqida muallifning ilmiy-amaliy izlanishlari, nazariy tadqiqotlarini batafsil yoritishga bag'ishlangan. Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosini tashkil qiluvchi faoliyatni o'zi tartibga soluvchi tizimning pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotning dolzarb muammosi ekanligi va bu muammoni yechimi haqida ilmiy-amaliy tadqiqotlar bayon etilgan.

Ключевые слова: самообразование, самостоятельная работа, педагогико-психологические основы, методологическая основа, функциональные системы, нервная система, логика, самопознание, психологическая наука, самоконтроль.

Аннотация: Данная статья посвящена подробному изложению научно-практических исследований и теоретических изысканий автора о роли самообразования в системе духовно-образовательного воспитания учащихся общеобразовательных школ. При этом констатируется, что разработка педагогических и психологических основ системы, регулирующей деятельность, формирующую основу самостоятельного мышления учащихся, является актуальной проблемой научных исследований, а научно-практические исследования по решению этой проблемы являются актуальными.

Key words: self-education, independent work, pedagogical and psychological foundations, methodological basis, functional systems, nervous system, logic, self-knowledge, psychological science, self-control.

Abstract: This article is devoted to a detailed presentation of scientific and practical research and theoretical research of the author on the role of self-education in the system of spiritual and educational upbringing of secondary school students. At the same time, it is stated that the development of pedagogical and psychological foundations of a system that regulates activities that form the basis for independent thinking of students is an urgent problem of scientific research, and scientific and practical research to solve this problem is relevant.

«O'z-o'zini tartibga solish», «o'z-o'zini tarbiyalash» pedagogika va psixologiyada yakinda paydo bo'lgan emas. Pedagog va psixologlarga ko'proq «mustaqillik», «mustaqillik o'qish», «mustaqil ishlash» atamallari tanish va u mashhur chex pedagogi Y.A.Kamenskiydan boshlab hozirgacha

o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun sharoit, ularda o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish ko'nikmalarini tarbiyalash ta'kidlanadi [6].

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov o'zining «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasida: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo, bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir», - deb ta'kidlaydi [1].

Bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlash moddiy mohiyat kasb etishi bugungi kunning muhim masalasidir. Agar masalaga kengroq qaraydigan bo'lsak, mustaqil fikrlash faqat tashqi ta'sir vositasida emas, balki o'quvchining ichki intilishi, hissiy, fikriy va ruhiy jihatdan ichki ehtiyojiga aylangandagina samarali bo'lishi mumkin. Shuning uchun, o'quvchilarning mustaqil fikrlash asosini tashkil qiluvchi faoliyatni o'zi tartibga soluvchi tizimning pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish ilmiy tadqiqotning dolzarb muammosi hisoblanadi. Mazkur masalaning faqat ta'lim-tarbiya jarayonida emas, balki umumjamiyat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy mohiyat kasb etishi metodologik xarakterga ega. Uning metodologik asosida mustaqillik sharoitida ijtimoiy va fan-texnika taraqqiyotining tezlashuvi, jamiyat hayotining tezlashuvi hamda sohalarida inson omilining roli oshishi bilan bog'liqdir.

Faoliyatning samarasi, bilim va malakadan o'rinli foydalana olish insondan o'z faoliyatini tartibga solish va o'zini boshqarish mexanizmlarini ilmiy asoslarini bilishni talab qiladi.

Insonni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash avval oilada, maktabgacha ta'limda so'ngra maktabda amalga oshiriladi. Aynan shu mukaddas dargohda u uzluksiz o'qish, o'z qobiliyatlarini doimiy takomillashtirish boshqalar, jamiyat oldidagi burchini anglash, o'z xulq-atvorini jamiyat talablari asosida tartibga solish ko'nikmalarini egallaydi. Shuning uchun, o'quvchilarga o'z faoliyatini, holati va shaxsiy sifatlarini ijtimoiy talablar va organizmining xususiyatlari asosida tartibga solish mexanizmlari haqida ma'lumot berish va shu ruhda ularni tarbiyalash ta'lim jarayonining muhim masalasidir.

O'z-o'zini tartibga solish, boshqarish ancha keng muammo hisoblanadi. Bunda shaxsiy sifatlar, ruhiy holat va faoliyat, o'z-o'zini tartibga solish tamoyillarini bir-biridan farqlash lozim.

Shaxsning o'z-o'zini tartibga solishiga, eng avvalo, uning o'ziga va boshqalarga faol munosabati, ikkinchidan, uning shaxsining axloqiy va ijtimoiy yo'nalganligi, uchinchidan, uning shaxsiy va ijtimoiy tajribasi, birgalikdagi faoliyatda, muloqotda o'zini boshqalar bilan solishtirishi kabi masalalar kiradi. Ammo, bu boradagi tadqiqotlar endi boshlanmokka.

Bizni ko'prok o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashi bilan bog'liq bo'lgan o'zining ichki ruhiy va jismoniy mexanizmlari qiziqtiradi, u o'z-o'zini tarbiyalay oladimi, degan savolga javob qiziqtiradi.

Bunda biz inson organizmining hayot faoliyati bilan bog'liq qon aylanishi, nafas olishi, assimilatsiya va dissimilatsiya jarayonlarining o'z-o'zicha bo'lishini nazarda tutmaymiz. Biz faqat insonning o'z faoliyatini tartibga solishi bilan bog'liq imkoniyatlari u shug'ullanadigan faoliyat talablari asosida ayrim fiziologik va ruhiy holatlarini tartibga solish va boshqarish haqida fikr yuritamiz.

Kibernetika va avtomatik boshqarish nazariyasida o'z-o'zini tartibga solish ishlayotgan tizim parametrlarining ma'lum o'zgarishligidadir, yoki uning o'zgarishining umumiy holda tizimining maqsadga muvofiq doiralarda saqlanishi tushuniladi. Funktsional tizimlarning o'z-o'zini tartibga solishining nazariy asoslarini rus olimlari P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, O.A.Kanopkinlar tomonidan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga ular kishi holatini, faoliyatini o'z-o'zini tartibga solish va subyektning faol tarzda o'zini o'zgartira olishini ham asoslaganlar [4].

Faoliyatining anglangan o'z-o'zini tartibga solish tizimi o'z tuzilishiga ega bo'lib, har xil faoliyat uchun yagona hisoblanadi. U quyidagi bo'g'inlarni o'z ichiga oladi: faoliyat maqsadi, mohiyati, sharoit modeli, harakat dasturi, natijani baholash, o'zgartirish-korreksiya qilish.

Yirik rus fiziologi P.K.Anoxin inson miyasining ishlash prinsiplari, uning funktsional bloklari, yaxlitligi, harakat va vegetativ boshqarish zaruriy darajalarini organizmning aynan bir qismi, yoki barcha qismlarining yaxlit bir-biriga ishlashini hamda ularning organizmning hozirgi harakat, holati uchun bo'ysunishi, uning hayoti uchun foydali natijani olishga xizmat qilishini ilmiy asosladi. Uning g'oyalari asosida inson xulqining maqsadli yo'nalishi, emotsional reaksiyalari mexanizmini, xulq-atvor faoliyatini korreksiya qilishning murakkab mohiyatining tushunishning fiziologik asoslarini aniqlash mumkin bo'ldi [4].

Olimning funksional tizimlar faoliyati haqidagi fikrlari nafaqat fiziologiya fani uchun balki, umumnazariy ahamiyatga molik bo‘lib, jumladan pedagoglar uchun ham inson harakat, xulq-atvorini uning faoliyati uchun foydali tomonga burish mumkirligining ilmiy asosidir. Funksional tizimlar universal bo‘lib, har bir tizim bo‘lib, jonli organizm, mashina va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarda ham bemalol qo‘llanishi mumkin. Mazkur nazariya I.P.Pavlovning inson miyasining faoliyatini yangi dalillar bilan boyitdi, u reflekslar ta’limotini murakkab nerv mexanizmlari faoliyati bilan to‘ldirish imkoniyatini yaratdi [6].

Insondagi har bir ruhiy va fiziologik jarayonlar, ular qancha oddiy, yoki murakkab bo‘lmasin, funksional tizim hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, xulq-atvor harakati majmuasidan iborat bo‘ladi. Insonning har bir istagi uning ehtiyojini qondirish, yoki ijtimoiy – kasb-hunar egallash va xokazo bo‘lishi mumkin.

Miya katta yarim sharlari old qismida paydo bo‘lgan motivatsion ko‘zg‘alish ideal, ehtiyojlar, yoki organizmlarning ichki retseptor sohasidagi fiziologik ehtiyojlar, motivlar miyaning limbik tizimidagi retikulyar formatsiya tuzilishiga yo‘naltiriladi. Buning oqibatida xususiy bosh miya faolligi yuzaga kelib, busiz insonning biron harakati, yoki faoliyati amalga oshmaydi. Miyaning retikulyar faollik tuzilishi uni o‘rab olgan holatni o‘rganish va qulay vaqtda tashqi reaksiyaga maqsadga muvofiq javob reaksiyasini berishni ta’minlaydi. Bu jarayon afferent sintez bo‘lib, u maqsad va qaror qabul qilish uchun zarur sharoit hisoblanadi. Afferent sintez jarayonida miyaga tashqi organizmlardan keluvchi ko‘p sonli axborotni «saralab» ishlov beradigan, ko‘zg‘ovchi oqim bilan bog‘liq organizmga ta’sir qiluvchi tashqi muhit omillari afferentatsiya deyiladi. O‘z navbatida afferent sintez inson xotirasidagi tajriba bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun, funksional tizimning muhim zaruriy komponenti xotiraning neyrofiziologik apparati hisoblanadi.

Yuzaga kelgan holatni o‘rganib, miya mumkin bo‘lgan ko‘p sonli «qarorlar»dan shu holat uchun maqbulni qabul qiladi. Bu miya faoliyatida keskin burilish vaqti bo‘lib, undan so‘ng miya «qaror» qabul qilib, «harakat dasturi»ni ishlab chiqadi. Shu asosda ko‘zg‘aluvchilar oqimi afferent xarakter kasb etib, u bajaruvchilik vazifasini bajaradi. Ammo, miya harakat boshlashdan oldin boshlangich signalga ehtiyoj sezadi. Bu boshlovchi afferentatsiya ko‘zg‘ovchi okimidan iborat bo‘lib, organizm uchun qarorni ijro etishning qulay vaqtini belgilaydi. «Qaror» qabul qilish va «harakat dasturi»ni ishlab chiqishdan oldin miya «oldindan intilishini ko‘ra olish»ning maxsus apparatini shakllantiradiki, bu harakat akseptori deyiladi. Insonda akseptor harakat apparati uzoq evolyutsion taraqqiyot mahsuli hisoblanadi.

Oldinni ko‘ra olish insonga va butun jonli organizmlarga xos bo‘lib, u olamning makon-zamon tuzilishini anglash vositasidir. Oldini ko‘ra bilish insonga oldindan fiziologik jarayonlarni qayta ko‘rish va noqulay vaziyatlarga o‘ziga xos javob berishni taminlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgacha harakat akseptori aniq neyrofiziologik aniqlikka ega bo‘lmay, butun miya faoliyatining va xotira apparatining maxsuli hisoblanadi. Aynan shu tuzilmalar yuksak afferent sintezlar va «qaror» qabul qilish, harakat dasturini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Shu asosda organizm qabul qilingan qaror va harakat dasturi asosida turli harakatlarni amalga oshiradi. Ammo, har bir harakatni boyitish miyaning doimiy nazorati ostida amalga oshadi. Bunday nazorat teskari afferentatsiya, yoki ikki yoqlama aloqa yordamida bajariladi. Ikki yoqlama aloqa kanallari orqali axborot harakatni akseptoriga beradi, unda ushbu harakatning tayyor modeli va uni bajarish rejasi va yakuniy natija ham bo‘ladi. Harakatni bajarish chog‘ida emotsional fon muhim hisoblanadi. Agar harakatni bajarish natijasi u real model bilan mos kelsa, insonda qoniqish va ijobiy emotsiya paydo bo‘ladi. Olingan harakat natijasi real modelga mos kelmasa, salbiy emotsiya hosil bo‘lib, organizm o‘z kutilgan natijani olishga uchun rezervini yo‘naltiradi. Shunday qilib, xulosa qiladigan bo‘lsak, funksional tizimning tarkibiy mexanizmlari quyidagilardan iborat bo‘ladi: 1) afferent sintez; 2) qaror qabul qilish; 3) harakat akseptori, yoki oldinni ko‘ra bilish apparati, ya’ni bo‘lajak natijani modellashtiruvchi apparat; 4) afferent kuzgolvchilar kompleksini shakllantiruvchi somatik va vegetativ funksiyalarni harakat aktiga birlashtiruvchi; 5) harakat natijasi; 6) ikki yoqlama afferentatsiya – harakatni belgilovchi bosqich.

Insonda harakat aktini hosil qiluvchi funksional tizim va faoliyat iyerarxiyasining mexanizmlari qisqacha shundan iborat. Bundan ko‘rinadiki, inson o‘z organizmi xususiyatlarini o‘zgartira va boshqara oladi. Bu esa, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalashning imkoniyatlari cheksizligini ko‘rsatadi.

Inson nerv sistemasining imkoniyatlari uning nafaqat ayrim xususiyatlarini, balki o'zini butunlay o'zgartirish, uni yangidan yaratishi mumkinligini ko'rsatdi.

Faoliyat davomida uning shakli, dasturi o'zgarishi, ular bir-biriga moslashuvi mumkin. Ammo, faoliyat maqsadi to inson unga yetmagunicha, yoki boshqa maqsad uchun undan voz kechmagunicha o'zgarmay qoladi. Bolalarda, kattalarda ham faoliyat davomida uning asosiy qismlarida, sharoitga ko'ra yo'l va vositalar, harakat dasturi o'zgaradi, chunki birgina maqsadga turli yo'llar, vositalar bilan yetish mumkin. Ammo, bolalar kattalarga qaraganda muhimini nomuhimdan ajratishda qiynaladi va tajribasizligi tufayli xatolarga ko'proq yo'l qo'yishi va ish sifati pastroq ham bo'lishi mumkin. Bu kachiliklar bora-bora yo'qolishi mumkin. Faoliyatning navbatdagi tarkibiy qismi natijalarni baholashdir. Baholashda muvaffaqiyatli ishlash, harakatlar aniqligi, silliqiligi, ish unumi, sifati hisobga olinadi.

Faoliyatning «natijalarini baholash» qismidan keyin korreksiya – tuzatish bosqichi boshlanadi. Bunda qo'yilgan maqsadga to'la va to'g'ri erishilgan bo'lsa, korreksiya qilinmaydi. Inson o'z faoliyati subyekti sifatida o'z vazifalarini, maqsadga yetish yo'llarini, vositalarni aniqlaydi, ish jarayonini kuzatadi, sharoitga ko'ra yo'l va vositalarni o'zgartirardi, natijalarni baholaydi, oxirida o'z ishidan konikish hosil qiladi, yoki xatolarni aniqlab, shular ustida ishlaydi. Faoliyatni o'zgartirish, tamoyillashtirish jarayonida insonda ham aqliy, axloqiy ruhiy o'sish jarayoni ro'y beradi, u biror ishni o'rganadi, aqli o'sadi, kuch va imkoniyatlari takomillashadi. Pedagog va psixologlarni shu jihatlar qiziqtiradi. Faoliyatning biror bir turida boshqaruv tuzilishi vazifalari turli xil jarayonlarda: idrok, xotira, tafakkur, xayol va tasavvurda namoyon bo'ladi. Bunda farq kishining, yoki tajribasi, uddaburonligi, intellektida ko'rinadi. Shunga kura o'quvchiga o'quv faoliyati vazifalar tuzishda bu holni kurish mumkin. Bunda biz o'quvchining o'z-o'zini boshqarish faoliyati tizimi tuzilishidagi vazifalar o'zgarishlarni ko'ramiz.

O'quvchi o'quv faoliyatida o'z-o'zini boshqarishga o'rganishi natijasida uning shaxsi rivojlanishi va u boshqaruv subyekti sifatida o'zida mustaqillik xususiyatlarini o'stiradi.

O'z-o'zini nazorat qilish jarayonida qator psixik jarayonlar: diqqat, xotira, xayol, tafakkur o'sishi bilan birga shaxsiy sifatlar iroda, o'z-o'zini anglash, qobiliyat, xarakter ham shakllanadi.

O'z-o'zini boshqarishning shakllanishida o'quvchining o'zi haqidagi tasavvuri, o'z imkoniyatlarini bilish va ularga baho bera olishi mumkin. Psixologlar tadqiqotiga ko'ra, kishining o'z-o'zini, o'z imkoniyatlarini bilish darajasi uning faoliyat maxsulida ko'rinadi. Kishi bajargan ishiga qarab, uning bilimi, ko'nikmalari, qobiliyati, tirishqoqligi, puxtaligi, yoki yuzakichiligi, beburdligi, besabrliigi, ishyoqmasligini bilish mumkin.

O'quvchilarga o'quvchilarning o'z-o'ziga, o'z imkoniyatlariga baho berishining «to'g'ri-adekvat», «noto'g'ri-ortiqcha» (manman), yoki past (kamtar, xokisor, o'z qadrini bilmaydigan) baho berish hollari ma'lum. Bu, ayniqsa, yoshga ham bog'liq. O'smirlar ko'pincha o'z kuch va imkoniyatlariga oshirish baho beradilar, o'spirinlik davrida ham bu hol saqlanib qolishi mumkin. Shaxsning o'z-o'ziga, o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho berishi uni ilgoriga, yuksalishga intiltirsa; yaxshi, ammo, o'zida yo'q narsani bor, deb bilib, «uni o'qituvchi anglamadi, past baholadi» deb o'ylasa, bu alamzadalikka olib keladi va uning rivojlanishiga to'siq bo'ladi. O'ziga past baho berish ham salbiy sifatlarni keltirib chiqarishi mumkin: o'quvchi o'zining «ikkinchi»ligiga, «tanbal»ligiga, no'noqligiga ishonib, undan uyalmay, unga ko'nikib ketishi mumkin. Bu hol unda bir umr qolib ketishi, yoki kuchli bir ta'sir kuchi bo'lgunicha davom etishi mumkin. Masalan, yangi o'qituvchi unga ijobiy, induvidual ta'sir qilsa, unda o'ziga hurmat uyg'otsa, yoki shu o'quvchi birortasini sevib qolsa, u o'zgarishi mumkin.

O'z-o'ziga to'g'ri baho berish yoshga ko'ra va tajriba orttirish, o'z tengdoshlari bilan muloqot, kattalarning unga munosabati va bahosiga ko'ra shakllanib boradi.

Har bir bola faoliyati birin-ketinlik bilan yuz beruvchi davomli jarayon, uning boshlanishi va oxiri bo'ladi.

Shaxs bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida yoshga ko'ra faoliyat subyekti sifatida o'z-o'zini boshqarishni o'rganib boradi, o'z imkoniyat, qobiliyatlarini o'zini nimaga kodiriligini anglay beradi. U o'quvchilik davridayoq o'zini imkoniyatlari haqida anchagina yorqin tasavvurga ega bo'lib boradi: o'z oldiga maqsad qo'ya bilishi, uni amalga oshirishga intilishi;

o'z harakatini, yo'l va vositalarini shakllantirish, maqsadni amalga oshirish uchun eng qulayini tanlashi;

faoliyatini dasturlashtira olishi, maqsadga yetish yo'l va vositalari beradigan natijasini, birin-ketin

boradigan harakat qismlarini hisobga olish;

o'z-o'zini baholay olishi – o'zining faoliyat maxsullarini yo'l-yo'lakay va oxirgi natijasini baholay olishi;

olingan natijalarga o'zgartirish kiritish, tuzatishni bilishi;

o'z-o'zini boshqarishda munosabatlarni anglashi: odamlar va mehnat qurollari bilan munosabat o'rnatish kerak.

O'z-o'zini boshqarish o'z kuch va imkoniyatlarini anglashga bog'liq. Bu faoliyat yaxlit va anglangan bo'ladi. O'quvchida o'z-o'zini boshqarishga qiziqish hosil qilish, shunga doimo yo'naltirib borish, ularga o'z-o'zini boshqarish malaka, ko'nikmalarini hosil qiladi. O'quvchilar bora-bora faoliyat subyekti sifatida o'z hatti-harakatiga baho berishga o'rganib boradi. O'z-o'zini boshqarishda yarim avtomatlashtirilgan, anglangan mexanizmlarning, ya'ni malaka va odatlarning ham o'rni bor. Ammo, shaxs ongli bo'lsa, bu harakatlarni ham oqilona boshqara oladi [2].

Tarbiyaning maqsadi o'quvchilarni ongli intizom, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, mustaqil o'qish va ishlay olish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishdan iboratdir.

O'z-o'zini boshqara olish darajasini aniqlashda o'qituvchilar, o'quv ishlab chiqarish ustalari, guruh murabbiylari, do'stlari, kursdoshlari fikrini ham hisobga olish kerak. Bu o'quvchining o'z-o'zini boshqarish faoliyatidagi tuzilishidagi maqsad, yo'l va vositalarini mustaqil rejalashtira olishi, dasturlashi, o'z oldiga mustaqil maqsad kuya olishi, unga yetish uchun uddaburonlik ko'rsatishi, barqarorligi, o'ziga ishonchi, ongli intilishi, tashabbuskorligi, omilkorligi o'ziga tanqidiy karay olishi, mustaqilligi, javobgarlikni xis qilishi, tarbiyaga buyin berishi va o'z-o'zicha tarbiyalash ko'nikmalarini egallaganligi ham asosiy ko'rsatkich bo'la oladi. Bu o'z-o'zini boshqarish diagnostikaga asos bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini o'z-o'zini tarbiyasi ma'lum metodlar orqali amalga oshiriladi.

Professor A.I.Kochetov «Организация самовоспитания школьников» kitobida o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyasining asosiy metodi sifatida o'zini bilishni ko'rsatib, uning komponentlari tarzida o'zini kuzatish, o'zini tahlil qilish va o'zini o'rganishni ta'kidlaydi. Uning natijasi sifatida o'ziga baho berish va o'zini boshqarishni ko'rsatadi. Bunda asosiy metod 3 tarkibiy qismdan iborat. O'zini bilish bosqichlari: o'zini kuzatish, o'zini tahlil qilish va o'zini bilishni tan olishdir [3].

Bunda ma'lum mantiq bo'lib, shaxsning qolgan qator sifatlarini o'z-o'zida tarbiyalashda yordam beruvchi, o'ziga majburiyat, yozma og'zaki hisobot, o'z-o'zini yozma tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalash vositalari sifatida o'zini bilishni kuchaytiradi.

Shunday qilib, o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashining asosiy metodi – o'zini bilish desak, ma'lum asosga ega bo'lamiz. Biz avval o'zini boshqarishning ilmiy-amaliy masalalarini qarab chiqqan edik. Shunga asoslanib, quyida o'z-o'zini bilishning qisqacha mazmunini bayon qilamiz. Ta'kidlaganimizdek, o'quvchilarning o'zini-o'zi bilishi o'zini kuzatish, o'zini tahlil qilishdan, o'zini o'rganishdan iborat.

Insonning «men»ligini anglashi o'z-o'zini bilishi deyish mumkin. O'quvchi o'zi uchun bilish va faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'lib, o'zini boshqalar bilan solishtirish asosida o'zini anglaydi. Aynan bir vaqtda inson boshqa kishini ham bilib oladiki, shunda kuzatish, o'rganish, bilish obyektiga aylanadi. Shunda bilish va o'z-o'zini bilish yaxlit namoyon bo'ladi. Bunda inson boshqa kishiga o'zini solishtirish, o'z shaxsiy sifatlarini u bilan solishtirish va o'ziga boshqa kishi orqali qarash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu murakkab bilish jarayonining boshlanishidir. Shu asosda asta-sekin yuqori bosqichlarga ko'tarilish va o'z xulq-atvorining sabablarini anglash, o'z sifatlarini belgilash hamda shu asosda o'z kamchiliklarini tahlil qilish, kuchli va bo'sh tomonlarini tahlil qilish asosida u ijtimoiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini aniqlaydi. Bu jarayonda insonning bilish qobiliyati-tafakkur ishtirok etadi. O'zini bilish jarayonida hissiyot, qiziqish, qadriyatlarni fahmlash boshlanadi. Insonning o'z xususiyatlarini bilishi, o'z xulq-atvorini, o'z hatti-harakatini nazorat qilish, ya'ni o'zini boshqarishiga asos bo'ladi.

O'quvchilarning o'zini namoyon qilishini o'qishda, ijtimoiy foydali mehnat, o'yin va dam olish hamda jamoa bilan munosabatlarida olib qarash kerakki, unda ular yangi bir tomoni bilan ko'rinishini kuzatish mumkin. Bu qonuniyat ularning o'zlarini subyekt sifatida bilishlarida ham namoyon bo'ladi. Har bir kishi o'z shaxsiy sifatlarini bilmokchi bo'lsa, o'zini turli holatlarda kuzatishi, tahlil qilishi lozim. O'quvchilarning o'zini bilishida o'zaro muloqot, boshqalar va amaliy faoliyat orqali o'zaro

munosabati katta ahamiyatga ega.

Yuqori rivojlangan va jipslashgan jamoada uning har bir a'zosiga qo'yadigan talabi ularning o'z xususiyatlarini bilishi va takomillashtirishiga olib keladi.

O'zini bilish boshqa kishiga munosabat orqali amalga oshadi. «Men» haqiqiy tarzda faqat bevosita obyekt sifatida anglanishi mumkin emas. U faqat o'z munosabati orqali boshqalar bilan hamkorlik, aloqada o'zining mohiyatini anglaydi. Bunday murakkab insoniy munosabatlarda har bir konkret «men», boshqa konkret «men»ning obyekt sifatida namoyon bo'ladi. Shundagina insoniy, ya'ni shaxslararo munosabatlarda kishilar bir-birlarini bilib oladi. O'quvchilar o'zlarini boshqalar bilan solishtirib, ijobiy namunaga intilib, o'zini takomillashtiradi.

O'z-o'zini tarbiyalashda insonning insonni bilishi zaruriy faoliyatga aylanadi. Har bir kishida idrok kilayotgan kishisiga nisbatan o'ziga xos tomonini bilish va uni xulq-atvoridagi tashqi namoyon bo'ladigan tomonlari bilan solishtirish imkoniyati paydo bo'ladi. Ammo, o'zini o'rganish individual xarakterga egadir.

O'quvchilarni pedagogik o'rganish insonni inson tomonidan o'rganishning umumiy qonuniyatlariga asoslansada, u ancha chuqur va maqsadga qaratilgan xarakterga ega bo'ladi. O'qituvchining bu boradagi o'ziga xosligi uning bu faoliyatda tayyorgarlik darajasi muloqot va talablarni o'rganish saviyasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun, kishi o'zini bilishni o'zini kuzatishdan boshlashi kerak. O'zini kuzatish bu o'zini mushohada qilish emas. U eng avvalo xotira, fikr, o'z hatti-harakatini ma'lum vaqt birligida tahlil qilishdir. Bu faqat o'z-o'zicha mazmunga ega emas. Bunda hissiyot, fikr munosabat va shaxs sifatleri mohiyatlidir. Bola yoshligidan o'zini kuzatishga odatlantirilishi kerak. Chunonchi, bola har kecha yotishidan oldin kunduzi qilgan ishlarini fikran tahlil qilib, undan nima to'g'ri bo'ldi, nima noto'g'ri, ko'ngilsiz bo'lganligini o'z fikriy tahlilidan o'tkazishi lozim. Bolaning yoshi ulg'ayishi bilan bunga ko'proq vaqt ajratishi va buni umri davomida hayotining ajralmas qismiga aylantirishi zarur. Katta kishi hayotining ma'lum davrini tahlil qilishi va uni o'z odatiga aylantirishi lozim. Psixologiya fanida odamning harakatlari muntazam takrorlanib turganidagina odatga aylanishi isbot qilindi. Takrorlash oqibatida bosh miya yarim shartlarining ma'lum markazlarida muhim bog'lanishlar shakllanadi. Shu asosda takrorlanuvchi jarayonlar odatga aylanib, dinamik stereotip hosil bo'ladi. O'zini kuzatish o'zini tahliliga zamin hozirlashi lozim. O'z-o'zini tahlil o'zini bilishning ikkinchi usulidir. Bu jarayon ancha murakkab bo'lib, u narsalarni tanqidiy baholash, ularni ma'lum shaxs uchun ahamiyatli narsalar bilan solishtirish tarzida kechadi. O'zini kuzatish nima bo'lishini kutish bo'lsa, o'z-o'zini tahlil baholash jarayoni, nima uchun aynan shunday bo'ldi, nima sababdan, qaysi sifatlar oqibatida shunday bo'ldi, degan savollarga javob topishga undaydi.

O'quvchi o'z shaxsiy sifatlarini komil inson nuqtayi nazaridan baholab, o'zining psixologik, kasb, mayl va ijtimoiy shaxsiy sifatlarini ham baholaydi. Shu jihatdan o'z-o'zini tahlil o'quvchi hayotining qisqa bir «bo'lagi» emas, balki ancha uzoq davrini o'z ichiga olib, xulosa uchun asos beradi.

O'quvchilarda sog'lom tanqid va o'z-o'zini tanqidni shakllantirish ham zarur rivojlanish vositasi hisoblanadi. Xolisona, do'stona, beg'araz aytilgan fikr o'quvchilarda o'ziga to'g'ri baho berish, talabchan munosabat shakllanishiga asos bo'ladi. Bular asosida o'quvchida o'ziga baho berish hosil bo'ladi.

O'ziga baho berish o'quvchining faqat rivojlanish darajasini aniqlash emas, balki shaxs sifatlariga qadr-qimmat jihatidan yondashish, ijobiy sifatlaridan qanoat hosil qilib, ularni o'stirish ehtiyojini mustahkamlash, kamchiliklaridan norozilik va ularni bartaraf qilish uchun o'z harakatlariga o'zgartirish kiritishdir.

O'zini bilishni tashkil qilish, o'zini kuzatish, o'zini tahlil qilish garchi yaxlit bir tizimni tashkil qilib, o'zini anglashga zamin hozirlasa-da, uni kuchaytiruvchi vositalar shu bilan tugamaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning o'zini tarbiyalash masalalari bilan shug'ullangan S.B.Yelkanov bu metodni o'zini undash va o'ziga dastur berish, boshqarish, o'ziga ko'rsatma berish va o'zini nazorat qilish hamda o'zini ishontirish, o'zini majbur qilish va uni maxsus autotrening bilan to'ldirish lozimligini ta'kidlaydi [5, 40]. Fikrimizcha, o'zini bilishning o'z-o'zini tarbiyalashning bu vositalari bilan mustahkamlansa, o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyasi ma'lum bir tizim kasb etib, odat tusiga kirishi mumkin va ijobiy natija beradi.

O'quvchilarni tarbiyalash tizimida hayot maqsadi va ideallarining shakllanishiga ham alohida e'tibor berish tarbiyachining vazifasiga kiradi. Kelajakka intilmaydigan, mustahkam e'tiqod va hayot ideallariga ega bo'lmagan o'quvchilarni o'z-o'zini tarbiyalashga odatlantirish ham ancha qiyin

kechadi, yoki samara bermaydi buning uchun o'quvchida o'z hayot ma'nosi, maqsadi haqida sog'lom fikrni hosil qilish kerak. Insonni kamolga undovchi muhim rag'batlantiruvchi kuch uning kelajakka intilishidir. O'z-o'zini tarbiyalash uning o'quvchida shakllanishiga ko'maklashmog'i lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash, yoki bu borada o'z dasturini tuzish ham o'quvchi shaxsining rivojlanishida muhim hisoblanadi. Bu esa turlicha amalga oshishi mumkin: yozma reja, yoki o'ziga majburiyat olish tarzida. O'quvchilar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning shaklini belgilashi kerak. Bunda tajriba ko'rsatadiki, yozma reja ko'proq foydali bo'lishi mumkin. Chunki uning yozma-moddiy holda bo'lishi o'z-o'zini tarbiyalash vazifalarini belgilashda faol fikrlash uchun asos bo'ladi.

Inson shaxsining o'zini takomillashtirishdagi imkoniyatlari cheksiz. Bu yerda individual ijod uchun chegara yo'q. Shulardan biri o'ziga ko'rsatma berishdir. Bu usulning mohiyati shundaki, o'quvchi ma'lum vaziyatlarda o'z harakati va xulq-atvorini ongli ravishda oldindan tartibga solishi mumkin. Insonning o'z hatti-harakatini avvaldan o'ylab amalga oshirishi uni xatolardan asraydi va o'z hatti-harakatlarini oldindan rejalashtirish tajribasiga ega bo'lishiga olib keladi. O'ziga ko'rsatma berish go'yoki bo'lajak harakat oldidan mashqdek bo'lib, o'z navbatida obyektiv tartibga solish va boshqarish usuli hisoblanadi. Insonda oldinni chamalashga intilishning borligi uning hatto kutilmagan vaziyatlarda ham o'zini tuta bilishi, o'z fikri, diqqatini yo'naltirishiga sabab bo'ladi. Bunda inson kecha qilgan xatolaridan xulosa chiqarib, «nima uchun shunday bo'ldi?», «sababi nima?» savollariga ro'baro' bo'lib kelajakda yo'l qo'ygan kamchiligini tuzatish uchun oldindan o'ziga fikran ko'rsatma beradi.

Insonning bu boradagi barcha jonzotlardan ustunligi shundaki, u ongli, maqsadli, oldinni ko'ra bilishi va o'z oldiga qo'ygan vazifani bajarishda o'z irodasini ishga sola oladi.

Hadislarda aytiladiki, jismoniy baquvvat inson emas, balki o'z jahlini yenga oladigan odam kuchlidir. Inson ayni vaqtda o'zi hoxlamagan, u uchun yoqimsiz ishni qilsagina irodali hisoblanadi.

Inson hayoti quvonchlar va iltirob, azob-uqubatlarning almashinishi tarzida davom etishini o'quvchilar yoshligidan anglashi lozim. Buni o'z vaqtda anglab yetmasa, u kelajakda to'g'ri yo'l topishi ancha qiyin kechadi.

Buyuk rus bastakori P.I.Chaykovkiy shunday degan edi: «Inson o'zi istamagan paytda ham ishlay olishi kerak. Inson o'zini idora qila olishi va o'zini kerakli tomonga yo'naltira olishi kerak. Ilhom yalqovlarga kelmaydi»[7].

O'ziga buyruq berish o'zini majbur qilish usuli sifatida xohish, istakni yengib, uni bajarishga tayyorgarlik ko'rish, «kerak», «qilaman» kabi hozirlanishga erk berishdir. Ayrim hollarda o'ziga buyruq o'zini bo'ysundirish tarzida ham amalga oshishi mumkin. Bunday holatda inson o'z xohishi bilan kimgadir, yoki nimagadir zarurligini fahmlab o'zini bo'ysundiradi. O'zini bo'ysundirish o'zini intizomga o'rgatishning mazmuni, yoki o'z majburiyati va burchini halol bajarish, unga o'z irodasini bo'ysundirishdir. Bo'ysundirish ancha keng tushuncha: kishilarni, jamiyatni, xalqlarni bo'ysundirish, ular ustidan hukmronlik qilish va h.k. Ammo, biz uni ijtimoiy, siyosiy hodisa sifatida emas, balki o'quvchining o'z-o'zini tarbiyasining usuli sifatida pedagogik vosita tarzida ko'ramiz.

O'quvchi bilan olib borilgan ishlarda shu narsaga ishonch hosil qildikki, o'zini bo'ysundirish tug'ma sifat emas, balki faoliyat va tarbiyaning mahsuli sifatida ularda shakllantirilishi lozim. Bu sifatning unda shakllanishi oliy nerv faoliyati, shaxs yo'nalganligi, irodaviy xislatlari va hayot tarzi, tarbiyalanganligi, ayniqsa, uning axloqiy sifatleri bilan bog'liq. Shu bilan birga o'quvchining o'z hayoti va kelajagi haqidagi tasavvur va ideallari ham hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuning uchun, o'zini bo'ysundirishning o'quvchining xulq-atvor tarzi sifatida emas, balki shaxsiy iroda sifati, deb qarash o'rinli bo'ladi.

O'zini bo'ysundirishning bir usuli o'zini tuta olishdir. Bu o'quvchini, yoki jamoani zararli, yomon oqibatlariga olib keluvchi voqea va holatdan o'zini tiyishi, saqlashida namoyon bo'ladi. O'z navbatida o'zini tuta bilish, intizom namunasi hamdir. Uning yordamida kishi o'z hissiyotini jilovlaydi, keraqli joyda voqeaga aralashadi, keraksizidan o'zini tiyadi. O'quvchilarda bu sifatni tarbiyalash faqat o'z-o'zini tarbiyalash jihatidan emas, balki hayotda har kun, har qadamda uchraydigan holat, voqealarga, atrofdagilarning o'rinsiz, noqulay, yoqimsiz harakatlarini sabr-chidam bilan yengishda ham zarurdir. O'zini tuta bilmaslik, kishilar ishiga, hayotiga, hatto so'ziga o'rinsiz aralashish kishilar boshiga katta-katta ko'ngilsizlik, yoki kulfat keltiradi. Hissiyotni, jahlni bosa olmaslik insoniy munosabatlar tizimida katta noxushliklarga sabab bo'ladi. Hadisi sharifda: «O'z jahlini bosa olgan odam eng kuchli

odam deyiladi». «Jahling kelsa, turgan bo'lsang o'tir, o'tirgan bo'lsang tur, yoki jim tur», - deyilishi bejiz emas.

Shunday qilib, biz mazkur ishda dastlab mustaqillik sharoitida umumiy o'rta ta'lim maktablarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularni nafaqat kasbiy jihatdan yetuk, uz kasbining mohir ustasi qilib yetishtirish, balki ma'lum kasb sohibi sifatida ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy tarbiyalash zarurligini ilmiy tajribalar asosida bayon qildik. Buning boisi mustaqillik sharoitida jamiyat taraqqiyotining hamma sohalarida inson omilining oshganligi bilan belgilanadi. Mustaqil fikrlovchi mutaxassisni tayyorlash uning o'z xulq-atvorini o'zi nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Bunda biz insonning o'z faoliyati hissiyoti, qiziqishi va intilishlarini o'zi tartibga solishi oliy nerv faoliyati va bosh miya yarim sharlari ishi bilan bog'liq fiziologik mexanizmlariga bog'liqligini aniqlash orqali amalga oshirilishini ilmiy asosini aniqladik. Shu asosda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash metodlari va ularni amalga oshirish mexanizmlarini bayon qildik. Bularni amaliy faoliyatga tatbiq qilish umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlar yaxlit tizimini yaratishga va bu tizimga kiruvchi tarkibiy qismlarining o'zaro kelishib, yaxlit ishlashiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». – Toshkent: “O'zbekiston” 1999-yil.
2. Г. К. Зарипова. Педагогический подход в формировании личности учащегося в общей средней школе и его значение лидера в получении профессии. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 8–22. (2023). Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3794>
3. А.И.Кочетов. Организация самовоспитания школьников. Минск, «Народная osveta», 1990, 25-40 стр.
4. Анохин П.К. Условие вопросы теории функциональных систем. – Москва: наука, – 1980. – 372 с.
5. Abdullayev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. – Toshkent: Ma'naviyat, – 1999. – 104 b.
6. Zaripova G.K., S.Sayidova, I.Zhuraev, Zh.Zhurakulov. Theory and practice of systemic organization of spiritual and educational education of students in vocational colleges. BBK 74.200.51. UDK 371. “Problems of Science.” – Moscow: monograph. 2021 ISBN 978—1-64655-084-5. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:M3ejUd6NZC8C
7. 7. Ismailov T.X. P.I. P.I.Chaykovskiy asarlari mazmunining umumnazariy-tarixiy jarayonlari. «Science and Education» Scientific Journal / ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3 Issue 3. <https://cyberleninka.ru/article/n/p-i-chaykovskiy-asarlari-mazmunining-umumnazariy-tarixiy-jarayonlari/viewer>

КИМЁ ФАНИДАН ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Қаххоров Мадамин Абдинабиевич

Бухоро давлат университети таянч докторанти

Аннотация: Бугунги кунда жаҳон глобллашуви жараёнида таълим, фан ва илмий-техника соҳаларининг ривожланишида компетентли кадрлар муҳим ўрин тутиб, халқаро миқёсда кадрлар компетентлиги ва ўқувчилар билимини баҳолашга қаратилган “Қатта ёшдаги аҳоли компетенциясини баҳолаш халқаро дастури” (PIAAC), “Ўқувчилар билимини баҳолаш халқаро дастури” (PISA) каби дастурлардан кенг фойдаланиб келинмоқда. Касбий маҳоратни шахс сифатлари билан уйғунлаштириш, турли ўзгаришларга тез мослашиш каби талабларнинг прогрессив ортиб бориши компетенциявий ёндашувнинг таълим жараёнларига изчил жорий этилишига сабаб бўлмоқда.

Калит сўзлар: кимё, компетенция, мобил дастурий илова, компетенциявий ёндашув, лойиҳалаш технологияси, прототип, АКТ, маълумот, ахборот, технология, компетентлик, метод, таҳлил, восита, ўқитувчи, мутахассис, таълим, жараён, муассаса, фан, тизим.

РАЗВИТИЕ ХИМИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МОБИЛЬНЫХ ПРОГРАММНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

Қаххоров Мадамин Абдинабиевич

Докторант Бухарского государственного университета

Аннотация: Сегодня, в процессе мировой глобализации, компетентные кадры играют важную роль в развитии образования, науки и научно-технических сфер, а «Международная программа оценки компетентности пожилого населения» (PIAAC), «Международная программа оценки компетентности пожилого населения» (PIAAC), «Международная программа оценки компетентности пожилого населения» Широко используются программы «Оценка знаний учащихся» (такие программы, как PISA). Прогрессивное повышение требований, таких как сочетание профессиональных навыков с личностными качествами, быстрая адаптация к различным изменениям, является причиной последовательного внедрения компетентностного подхода в образовательный процесс. Ключевые слова: химия, компетентность, мобильное программное приложение, компетентностный подход, технология проектирования, прототип, ИКТ, информация, информация, технология, компетентность, метод, анализ, инструмент, учитель, специалист, образование, процесс, учреждение, наука, система.

DEVELOPMENT OF CHEMICAL COMPETENCIES OF STUDENTS USING MOBILE SOFTWARE APPLICATIONS

Khakhorov Madamin Abdinabievich

Doctoral student at Bukhara State University

Abstract: Today, in the process of globalization, competent personnel play an important role in the development of education, science and scientific and technical fields, and the “International Program for the Assessment of Competency in the Elderly Population” (PIAAC), “International Program for the Assessment of Competency in the Elderly Population” (PIAAC), “International Program for the Assessment of Competence in the Elderly Population” Student Assessment programs (programs such as PISA) are widely used. The progressive increase in requirements, such as the combination of professional skills with personal qualities, rapid adaptation to various changes, is the reason for the consistent introduction of a competency-based approach into the educational process.

Key words: chemistry, competence, mobile software application, competence-based approach, design technology, prototype, ICT, information, information, technology, competence, method, analysis, tool, teacher, specialist, education, process, institution, science, system.

Замонавий фан ва техника тараққиёти умумтаълим мактабларида кимё фанини ўқитишга янгича ёндашувни, ўқувчиларнинг бу фандан ўзлаштириши лозим бўлган билим ва кўникмаларининг мазмуни ва даражасига юқори талабларни қўймоқда. Бугунги кунга келиб, ўқув ахборотлари ҳажмининг ҳаддан ташқари кўпайиб кетганлиги ўқувчиларга нафақат билим бериш, балки уларни “ўқиш ва ўрганишга ўргатиш”ни талаб қиляпти. Жадаллик билан ўзгариб ва ривожланиб бораётган ахборотлашган жамиятда фаолият кўрсатиш ва яшаш ўқувчилардан нафақат шунчаки тайёр билимларни ўзлаштиришни, балки турфа кўринишдаги маълумотларни мустақил излаб топиш ва қайта ишлашни ҳамда улардан турли ҳаётий вазиятларда самарали фойдаланишни тақозо этмоқда.

«Компетенсе» сўзи «то компете» сўзидан олинган бўлиб, «мусобақалашмоқ», «рақобатлашмоқ», «беллашмоқ» деган маъноларни англатади. Илмий педагогик, психологик, дидактик адабиётларда, компетенция, компетентлилик ўта мураккаб, кўп қисмли, кўпгина фанлар учун ҳамоҳанг бўлган тушунчалар эканлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Шу боисдан унинг талқинлари ҳам ҳажми, ҳам таркибига кўра, ҳам маъно, мантиқ мундарижаси жиҳатидан турли-тумандир. Компетенциявий ёндашув нуқтаи назаридан қаралганда, таълим жараёни моҳияти - ўқувчиларнинг келажакда турли ҳаётий вазиятлар ва фаолият соҳаларида дуч келадиган муаммоларни ўз тажрибалари асосида мустақил ечиш лаёқатларини (қобилиятларини) ривожлантиришдан иборат. Бу эса ўз навбатида ўқувчиларга нафақат билим, кўникма ва малакаларни бериш балки, уларни ҳаётий эҳтиёжларида қўллай олиш лаёқатларини (компетенцияларини) шакллантиришни кўзда тутаяди. Шу нуқтаи назардан, компетенциявий ёндашувни жорий этиш умумий ўрта таълим тизими олдида турган шу куннинг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Компетенциявий ёндашувнинг асосий мақсади мактаб битирувчисининг ижтимоий ҳаётга мослашишига ёрдам беришдан иборат.

Ўзбекистон Республикаси таълимнинг узлуксизлиги, узвийлиги, ўқувчи шахси ва қизиқишлари устуворлигидан келиб чиқиб, уларнинг ёш хусусиятларига мос равишда қуйидаги таянч компетенцияларни шакллантириш назарда тутилган.

Таълимнинг инновацион электрон-дидактик шакллари ривожлантириш жараёнида таълим олувчиларнинг қобилиятлари ва қизиқишлари ҳисобга олинади. Таълим-тарбияда унинг мазмунини, таълимга қўйилган мақсадга мос равишда тизимни лойиҳалаш ҳамда педагогик-психологик, рақамли технологик методлар, шакллар ҳамда ўқитиш усуллари татбиқ этишга йўналтирилган дидактик ва шахсий услубий тартиблар асосида амалга оширилувчи таълим берувчи ва таълим олувчи ўртасидаги ўзаро таъсир тизимидир [51; 5-б.].

Дастлаб ишни 9-синф кимё фани мобил дастур ташкилий тузилмасини чизишдан бошлаймиз. Ташкилий тузилмада мобил дастурий илова қайси компонентлардан тузилиши келтирилади. Биз таклиф этаётган мобил илова қуйидаги таркиби қисмлардан тузилиши режалаштирилган ўқув-меъёрий ҳужжатлар, назарий машғулотлар, амалий машғулотлар, лаборатория машғулотлари, видеофильмлар, фанга оид қизиқарли маълумотлар, фанга оид турли ўйинлар, билимларни баҳолаш учун тест саволлари, чиқиш бўлимларидан ташкил топиши мумкин.

Ҳозирги кунда турмушни металлсиз тасаввур қилиб бўлмайди, ўнлаб металллар ва қотишмалар халқ хўжалигининг барча соҳаларини қамраб олган. Оғир юкларни ташувчи ва енгил машиналар, қишлоқ хўжалиги машиналари, тепловоз, паровоз, самолётлардан тор тиб оддий игна, мих, ручка ва ҳоказолар барчаси металллардан ясалган ёки асосий қисмини металллар ташкил қиладди. Темир, мис, рух, никел, кобалт, алюминий, магний, волфрам, молибден, тантал, титан, ниобий каби металллар ва пўлат, чўян, баббит, дуралюминий, нихром сингари қотишмалар катта амалий аҳамиятга эгадир.



1-расм: “Металларнинг табиатда тарқалиши, олиниши ва ишлатилиши”

инфографика

Мавзу мазмунига доир ўқув материалларни ўзлаштирилганлиги 1-расмдаги инфографикадан фойдаланиб аниқланади. Бу каби методлардан дарс машғулотларида фойдаланиш мавзуга доир ўқув материалларни, ўзлаштириш даражасини ошишига, ўқувчиларнинг кимё фанига бўлган қизиқишларини ошишига хизмат қилади.

“Мис ва унинг бирикмалари” мавзусини ўтишда ҳам муаммоли таълим технологиясидан фойдаланиш имкониятлари билан танишиб чиқамиз. Мазкур мавзуга доир куйидаги муаммоли саволлардан машғулот давомида фойдаланиш мумкин.

1. Миснинг Олмалиқда ишлаб чиқариш жараёнларини тушунтириб беринг.
2. Миснинг кимёвий хоссаларидаги ўзига хос хусусиятлар нималардан иборат?
3. Миснинг аммиакли комплексининг электрон тузилишини асослаб беринг.
4. Миснинг инсон организмидаги биологик аҳамиятини айтинг.

Мисол тариқасида 3-муаммоли саволни ҳал қилинишини келтирамиз. Саволни ҳал этишда ўқувчилар турли хил флкр билдирадilar. Биринчи ўқувчи миснинг аммиакли комплекси ҳосил бўлишида Cu^{+2} иом марказий ион вазифасини бажаради, деб жавоб қайтарса; 2- ўқувчи эса аммиак молекуласи лиганд вазифасини бажаради, дейди. 3-ўқувчи эса комплекс бирикма ҳосил бўлишида эритманинг ранги ўзгаради, деган флкрни билдиради.

Янги мавзуни тушунтиришда ўқитувчи мавжуд дарслик ва бошья адабиётлардан фойдаланиш билан бир қаторда интернет тармоғидан мавжуд мавзуга доир керакли маълумотлардан ҳам фойдаланиши мумкин.

Адабиётлар

1. UNESCO (1999) Recommendations Addressed to the United Nations Educational Scientific and Cultural Organization UNESCO (Reprint in: Outlooks on Children and Media. Goteborg: UNESCO & NORDICOM, 2001. -P.152). In Education for the Media and the Digital Age Vienna. -P. 273–274.

2. Lely Ika Mariyati., Hazim Hazim., Puput Eka Wati Handoko., Juraev Khusniddin. Validating an Academic Procrastination Scale Through Rasch Analysis// ICARSE 2022, ASSEHR 748, pp. 322–333, 2023. <https://doi.org/10.2991/978-2-38476-048-0> 37

3. Kakhkhorov S.K., Juraev Kh.O. A Model for Improving Students' Technical Creative Competences Based on Robotic Elements // Res Militaris (resmilitaris.net). –England, Winter-Spring 2023. vol.13, №1:– P. 245-250.

4. Juraev Kh.O., Khamdamova N.M. Methodology of Developing Technical Creativity of Students Through Training of Robotics Elements in Physics Lessons // Res Militaris (resmilitaris.net). –England, Winter-Spring 2023. vol.13, №1:– P. 251-257.

БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШДА ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМ ВА УНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ

Умурзақова Умида Носиржонова

Навоий Инновациялар Университети доценти, география фанлари бўйича фалсафа доктори, (PhD)

Аннотация. Ушбу мақола ҳозирги кунда дунё ҳамжамияти олдидаги беқарор экологик вазият ва уларни ҳал этишда экологик таълимни ўрни ҳақида фикр ва мулоҳазалардан иборат. Қолаверса, дунёда экологик таълимни шаклланиш тарихи ва ривожланиш истиқболлари, ваколатли халқаро ташкилотлар тамонидан амалга оширилган экологик таълимнинг тизимли тамойиллари таҳлил қилинган.

Калит сўзлар. Экологик таълим, экологик маданият, барқарор экологик таълим, таълимда халқаро ҳамкорлик, тизимли тамойил.

ECOLOGICAL EDUCATION IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND ORGANIZE IT ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS ACHIEVEMENT ISSUES

Abstract. This article consists of thoughts and opinions about the unstable environmental situation facing the world community today and the role of environmental education in solving them. In addition, the history and prospects of the formation of environmental education in the world, the systematic implementation of environmental education by competent international organizations principles are analyzed.

Key words. Ecological education, Ecological culture, Sustainable environmental education, International cooperation in education, systematic principle

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ И ОРГАНИЗОВАТЬ ЕГО НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Аннотация. В данной статье изложены мысли и мнения о нестабильной экологической ситуации, стоящей сегодня перед мировым сообществом, и роли экологического образования в их решении. Кроме того, история и перспективы становления экологического образования в мире, системная реализация экологического образования компетентными международными организациями анализируются принципы.

Ключевые слова. Экологическое образование, экологическая культура, устойчивое экологическое образование, международное сотрудничество в сфере образования, систематический принцип

Бугунги кунда жаҳон миқёсида инсонларни табиатга фаол таъсири экотизимлар турғунлигини жиддий ўзгартирмоқда. Оқибатида, флора ва фаунада айрим турларнинг йуқолиб бориши, ер юзи сув ресурсларининг кескин ифлосланиши ёки камайиши, атмосфера ҳавосида чиқит газлар концентрациясининг ортиб бориши, инсонларда турли касалликларни кўпайиши ва касалликларнинг ёшариши каби кўплаб экологик муаммолар авж ола бошлади. БМТ тамонидан бир қатор конвенциялар, стратегик режа ва келишувлар қабул қилинганига қарамай бу борада муваффақиятсизликлар кузатилмоқда. Айтиш мумкинки, инсонларнинг экологик билим, онг ва маданиятиларини шакллантириш бугунги кундаги энг долзарб мавзулардан бири бўлиб, улар ҳар куни ўзи ҳақида кўпроқ ва тезроқ эслатиб турмоқда.

Экологик билим бу - кишиларни жамият ва атроф муҳитда рўй берадиган ҳодисалар бўйича тушунчалари, воқеликни инсон тафаккурида акс этишидир [1; 28-б]. Экологик таълим – экологик муаммоларни ҳал этиш учун зарур кўникма ва малакани ривожлантирадиган, табиий комплексларни қайта тиклаш маъсулиятли харақатини амалга ошириш учун муносабат ва мажбуриятларни шакллантирадиган ўқув жараёнидир [2; 34-б].

Экологик таълим ва тарбиянинг асосий мақсади жамиятнинг барқарор ривожланиш тараққиётига ўтиш жараёнида энг муҳим принципларидан бири бўлиб, экотизимларни бир бутунлиги ва ўзаро боғланишда эканлигини (модда ва энергиянинг айланиши, ахборот алмашинуви) инсонлар тафаккурида акс этдиришдир.

Экологик таълимни ривожланиш басқичига назар ташласак, у ҳозирги даврга қадар уч босқичда ривожланаётганлигини кўришимиз мумкин [3; 74-б], яъни:

1970 йилгача бўлган – Табиатни муҳофаза қилиш таълими;

1970 – 1992 йилларни ўз ичига олган – Экологик таълим;

1992 йилдан ҳозирга қадар ривожланаётган – Барқарор ривожланиш учун таълим босқичларини ўз ичига олади.

Экологик таълим тарбияни аниқлаштириш, такомиллаштириш бўйича илк ҳукуматлараро конференция БМТ тамонидан 1977 йили Тбилисида ўтказилган. Айтиш мумкинки, бу конференция дунё миққоёсида Экологик таълим тизимини ривожланишида муҳим босқич бўлиб хизмат қилган [4; 1987]. Ушбу конференцияда миллий миққоёсида экологик таълимни ривожлантиришнинг комплекс стратегияси ишлаб чиқилган ва таълимни турли босқичлари, хусусан, аҳолини турли тоифаларига нисбатан экологик таълимни такомиллаштириш бўйича 40 дан ортиқ таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилганлиги билан ажиралиб туради.

Кейинчалик экологик таълим соҳасидаги халқаро ҳамкорлик Найроби (1982 й), Бече (1983 й), Москва (1987 й) ва бошқа конференцияларда давом эттирилди. Бу вақтга келиб дунё аҳолисини ҳам демографик, ҳам иқтисодий ўсиб бориши табиий ресурсларга жиддий босимни юзага келтира бошлаган эди. Бу конференцияларда бош ислохот экологик таълимни ривожлантириш орқали умумбашарий экологик тушунчаларни ривожлантириш ва унинг интеграциялашуви асосида атроф муҳит муҳофазасини мактабгача таълим муассасаларидан бошлаб барча таълим тизими ўқув дастурларида амалга оширилиши белгилаб олинди.

Қолаверса, халқлараро экологик таълим стратегиясининг асосий муаммоси – унинг услубий жиҳатдан ташкил этиш масалалари сифатида ҳам баҳоланди. Бир гуруҳ экспертлар “Экология” фанини алоҳида шакиллантириш заруратини таъкидлаб, экологик таълим шакилланиш тарихига кўра биологик, географик ва бошқа фанлар билан чамбар-час боғлиқ бўлсада, мустақил фан соҳаси сифатида ривожланиши лозим эканлигини эътироф этган бўлсалар, бошқа гуруҳ экспертлар эса, ўқув фанлар мазмунига табиий имкониятлари доирасида экологик билим, кўникма, малака ва компетенциялар сингдириш самаралироқ эканлигини таъкидладилар.

Таълимнинг ривожланишини кейинги босқичларида дунёни кўплаб мамлакатлари Давлатнинг барқарор ривожланиш стратегиясида “Экологик таълим”ни ўзини устивор йўналиши сифатида белгилаб олди. Жамият ва табиат муносабатлари тобора ёмонлашиб бораётган шароитда минтақалар аҳолиси мазкур масалалар моҳиятини чуқур англаб, уларни ечимини топишга хисса қўшишлари миллий экологик таълимда урғуланди. Таълим тизимида ижтимоий – экологик дунёқарашни, экологик ҳуқуқий позицияларни, фанлараро интеграциялашувни, таълим ва амалиёт ҳамкорлигини шакиллантиришга эътибор қаратилди. Бутун жамиятни экологик маданиятини, инсонларни экологик ахлоқий фазилатларини юксалтиришга қаратилган ҳаракатлар бошланди.

Шундай қилиб, атроф-муҳитни муҳофаза қилувчи ваколатли халқаро ташкилотлар ва ўтказилган конференциялар тавсиясига кўра экологик таълимнинг асосий тамойиллари этиб: 1) Экологик муаммоларнинг ижтимоий жиҳатларини устиворлиги. 2) табиий ва техноген муҳитни таҳлил қилиш; 3) фанлараро интеграциялашув, экологик билим, кўникма, малака, компетенцияларни сингдирилиши; 4) миллий қадриятларда атроф-муҳит муҳофазаси масалаларини урғуланиши; 5) аҳоли қатламлари ҳудудий ва минтақавий экологик қарорларни қабул қилишда [6; 304-б] фаол иштирок этишлари каби масалалар белгилаб олинди.

Жаҳоннинг турли мамлакатларида экологик таълим муаммосини ретроспектив таҳлили ўтказилгандан сўнг, таълимнинг ҳозирги устиворлик нуқтаи-назаридан йўналишлари шакиллантирилди. Дунёнинг ривожланган АҚШ, Канада, Англия,

Голландия, Дания, Швеция, Германия ва бир қатор давлатларида Экологик таълимни устивор йўналиши сифатида очик хавода ўтказиладиган машғулотлар, махсус лойиҳалар асосида мавзули кунлар ва ҳафталарни ажиратиш ишлари тизимлаштирилди [5; 2022].

Машғулотларни ташкил этиш асосида:

аҳолини экологик тарбиясини ошириш, экологик билим ва маданиятини шакиллантириш; кишилар амалий фаолияти давомида экологик муаммоларни ҳал этиш қобилиятларини такомиллаштириш;

атроф муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида янги илмий ғоялар, илмий тадқиқотларни ривожлантириш ишлари тизимлаштирилди.

Республикамиз ўз мустақиллигини қўлга киритгач таълимни барча соҳалари қаторида атроф муҳит муҳофазаси ва экологик таълим тизимини такомиллаштириш ва ислоҳ этишга қаратилган бир қатор фаолиятни амалга оширган бўлсада, экологик таълим жараёнини тизимли ташкил этишда ислоҳотларни тўлиқ амалага оширилишига тўсқинлик қилувчи бир қатор муаммо ва камчиликлар сақланиб қолмоқда.

Жумладан, узлуксиз таълим тизимидаги барча ўқув муассасаларида, Ўзбекистон Республикаси “Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги 1992 йил 9 декабрда қабул қилинган қонуннинг 4 - моддасида Экология ва Табиатни муҳофаза қилиш ўқувининг мажбурийлик принциби белгилаб қўйилган. Лекин, амалдаги таълим тизимида қонунмувофиқлашмаганлигини кўришимиз мумкин. Шунингдек, амаладаги ўқув дастурлари ва стандартлардаги фанлар экологик тушунчалар билан етарлича бойтилмаган.

Мамлакатимизда таълим муассасаларида мавжуд Экология ва атроф-муҳит муҳофазаси мустақил фан сифатида ўз ўрнига эга. Экология илмий назарий асосларининг фундаментал хусусиятлари фанлараро интеграция орқали амалга ошириб келинмоқда. Шундай бўлсада, таълим тизимида кириб келаётган интерфаол ва инновацион методлар, рақамли технологиялар орқали атроф муҳит муаммоларига ечим топиш масалалари экологик таълим тизимидаги айрим жиҳатларни қайта кўриш ва ривожлантиришни тақозо этмоқда.

Шу билан бир қаторда, экологик таълим йўналишида илгор миллий ва хорижий тажрибани ўрганиш, улар асосида таълим олувчиларда экологик тафаккурини шакллантиришнинг аниқ параметрлари ишлаб чиқилмаган, таълим тизимининг барча босқичларида амалда бўлган таълим дастурлари барқарор ривожланиш шароитида глобал экологик муаммоларни бартараф этиш, мавжуд экологик хавф-хатар даражасини камайтириш, табиий муҳитни қайта тиклашга қаратилган умуммиллий тадбирлар моҳияти билан мувофиқлаштирилмаган. Қолаверса, мактабгача таълим муассасалари ва умумий ўрта таълим мактаблари таълим дастурларининг мавзулари бугунги кун талабларига жавоб бермайди, жумладан, уларда таълим олувчиларда экологик онгни шакллантирувчи экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, она табиатни асраб-авайлаш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш соҳасига оид мавзулар етарли эмас [7; 187-191-б].

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳар қандай давлатда экологик таълимнинг асосий мақсади талабалар, умуман жамиятда илмий ва амалий таълим яхлитлигига асосланган экологик дунёқарашни шакллантиришдир. Мамлакатларнинг иқтисодий, сиёсий, ижтимоий ва экологик барқарорлиги экологик таълимни тизимли тарзда такомиллаштирилишига бевосита боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйиҳати.

1. А.Н.Нигматов. “Экология нима”/ ТДЮИ.: 2004. – 28 б.
2. С.Т.Норбоев. ЎзМУ ахборотномаси/ ПККТМО 13.10.2015. – 34 б
3. Захлебный, А.Н. На экологической тропе / А.Н. Захлебный. – М. : Просвещение, 1996. – 74 с.
4. Гро Харлем Брунтланд “Бизнинг умумий уйимиз”. Нью-Йорк, 1987 йил.
5. Mona Khalifé, Rawad Chaker, Slaven Gasparovich. “Environmental education and digital solutions” Front. Education, October 10, 2022 Sec. Digital education. Volume 7
6. А. В. Каверин, Д. А. Массеров. “Роль Экологического образования в устойчивом развитии общества” Интеграция образования. 2014, № 3 37:574:304
7. О.Д. Утегенов “Экологик таълимни ривожлантириш-Ўзбекистон экологик сиёсатининг устивор йўналиши” Stars International University-pp 2023, №2 187-191

САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ И РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Хашимова Масуда Камилжановна

Доцент кафедры «Педагогика» Ташкентского университета прикладных наук

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена вопросу организации самостоятельной деятельности учащихся учреждений профессионального образования. Автор рассматривает вопросы организации самостоятельной деятельности студентов, задачи, которые должны решать преподаватели в процессе самостоятельной деятельности студента, анализирует взгляды различных авторов, перечисляет наиболее распространенные виды самостоятельной деятельности студентов в профессиональном образовании, раскрывает важность самостоятельной деятельности в формировании профессиональные навыки у будущих специалистов, предлагается сосредоточить внимание на проблемах, которые в настоящее время существуют в этой области.

Ключевые слова: креативность, самостоятельная творческая деятельность, технология, формирование, компетенции, способность самостоятельно решать задачи, креативность, воспроизводство, эвристический подход.

TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATI VA KREATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Xashimova Masuda Kamiljanovna,

Toshkent amaliy fanlar universiteti «Pedagogika» kafedrasida dotsenti

Bu borada bojxona organlari tizimida ham mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash aholi turmush-sharoitini ayniqsa, import qilinayotgan sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlariga sifatli shaffof xizmat ko'rsatish va davlab byudjetiga bojxona to'lovlarini to'liq va to'g'ri undirilishini ta'minlash borasida bir qator tub islohotlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 19-oktyabrdagi "Bojxona xizmati to'g'risidagi" O'RQ-502-son Qonuniga [1] asosan bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar bo'lib mamlakatimiz ravnaqi va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish, davlat byudjetiga bojxona to'lovlarini o'z vaqtida, to'g'ri undirilishini ta'minlash kabi o'ta muhim vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi.

Bojxona organlari tizimida oldiga qo'yilgan vazifalari bajarishda Milliy kinologiya xizmati alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bojxona postlarida maxsus tayyorlangan xizmat itlaridan muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda hamda, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qo'llash ishlari tashkil etilgan. Kuzatishlar natijasida shu narsa aniqlanganki - itlar bir qator haddan tashqari qimmatli tug'ma sifatlariga ega bo'ladi. Ular uzoq va tez chopa olishi mumkin bo'lib, bu xususiyat itdan turli xil xizmatlarda foydalanishda juda muhim hisoblanadi shuningdek, itlar o'z joyini tez yodda saqlaydi va yangi sharoitlarga juda yengil moslashadi.

Bojxona organlarining tarkibiy tuzilishiga ko'ra Milliy kinologiya markazi ham tizimda asosiy bo'g'inlardan biri hisoblanadi. Bojxona organlari xizmat faoliyati samaradorligini oshirish, milliy iqtisodiyotni himoya qilish, qonun yo'li bilan ta'qiqlangan tovarlarni (qurol-yaroq, portlovchi, narkotik moddalar va boshqalar) noqonuniy ravishda mamlakatimiz hududiga olib kirilishi va undan olib chiqilishini oldini olish hamda bugungi geosiyosiy jarayonlarda qurollangan jinoyatchilarni mamlakatimizga kirib kelishini oldini olish, ushlab va zararsizlantirishda Milliy kinologiya markazining katta o'rin tutadi.

Ayniqsa, Fransiya, Avstriya, Latviya, Rossiya, Belarus, Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston kabi davlatlar, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Giyohvand moddalar ustidan nazorat qilish va jinoyatlarning oldini olish boshqarmasi bilan yaqin va o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Markaziy Osiyo va boshqa mamlakatlar bojxona xizmatlari uchun kinologiya xizmatlari xodimlari uchun qayta tayyorlash, malaka oshirish amaliyoti yo'lga qo'yilganligi, giyohvand, qurol-aslaha va portlovchi moddalarni qidirib topishga ixtisoslashgan hamda aksil terror yo'nalishi bo'yicha 126 ta xizmat iti tayyorlanib, xorijiy kinolog mutaxassislar qayta tayyorgarlikdan o'tkazilganligi e'tiborlidir.

Ta'kidlash joizki, Milliy kinologiya markaziga Butunjahon bojxona tashkilotining mintaqaviy kinologiya markazi maqomi berilgan.

Mintaqaviy kinologiya markazikelgusidachegaradosh, umumanmintaqamiz mamlakatlarida

ham kinologiya sohasini rivojlantiruvchi o'quv-uslubiy tayanch markaz vazifasini o'tashi bilan birga, qo'shni davlatlar uchun xizmat itlarini yetishtirish va yetkazib berish, xizmat itlaridan unumli foydalanishni tashkil etishga bosh-qosh bo'ladi. Ushbu muassasada xorijiy bojxona xizmatlar uchun ham kinologlar tayyorlanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Jahonda kinologlarni tayyorlash va ular tomonidan xizmat itlarini boshqarishga o'rgatishning xalqaro tajribalari shuni ko'rsatadiki, jumladan, 2007-yilda qabul qilingan Isroil davlati tajribasi mavjud bo'lib, ularning o'ziga xos uslub (metod)lari qo'llanilmoqda.

Germaniyada XIX asr ohirlarida nemis ovcharkalarning yangi zoti yaratilgan.

Germaniyalik mashhur harbiy rotmister Maks Emil Frederik fon Shtefanis 1899-yilda "Nemes ovcharkalari Jamiyati"da ilk bora nemis ovcharkasi zotini yaratishida yangi standartlari qabul qilinishida va ular zotlarini takomillashtirish borasida ulkan hissa qo'shgan [4].

Rossiyalik bir qator olimlar V.P.Vasilyev, L.V.Krushinskiy, I.P.Pavlov, Ye.N. Mychko, Belenkiy V.A, N.P. Dyachenko, I.V. Novikova, V.I.Davydenko, A.P Bednarlar tomonidan itlarning zotlari, ularning biologik tuzilishi, asab tizimlari hamda ularni tayyorlash borasida hamda T.O.Bunkova [3] A.A.Votinov, S.L. Bobyr, P.S. Osipovlar tomonidan harbiy itlarni tayyorlash asoslari, L.Yu.Denisova, V.S. Dorofeev, V.A. Demyanov, Don Silviya-Stasiyevich va Larri Keylar [8] tomonidan esa kinologlarni tayyorlashda kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Shuningdek, zamonaviy rus olimlari P.C. Belkin, B.T. Bezlepkin, A.I. Vinberg, E.V. Garitovskaya, V.N. Grigoryev, C.B. Gurdin, Yu.T. Tree-gin, P.P. Ishchenko, V.N. Maxov, M.P. Polyakov, M.V. Saltevskiy, V.I. Staro-voitov, E.A. Semenov, L.Yu. Denisovalar [7] tomonidan Rossiyada huquqni muhofaza qiluvchi organlarida kinologlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini aniqlash va takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbekistonlik olim, iqtisod fanlari doktori, professor R.A.Turapov [10] tomonidan O'zbekiston Respublikasida bojxona faoliyatini samaradorligini oshirish uslubiyati, holati, asosiy yo'nalishlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borgan.

Mamalakatimizda olib borilayotgan tub islohotlar zaminida barcha sohalar kabi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ham jumladan, kinologiya yo'nalishida soha faoliyatiga xizmat itlarini tayyorlashda yangi innovatsion texnologiyalarni jumladan masofadan boshqarish amaliyotini o'quv-o'rgatuv jarayonlariga qo'llash metodologiyalarini takomillashtirish masalalari dolzarb vazifalarga aylangan.

Bu boradi O'zbekiston kinologiya xizmatida xizmat itlarini turli yo'nalishlarda tayyorlashda ularning to'g'ri ratsion asosida ozuqlantirish muhim omil hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 18-yanvardagi 1029-son qarorida xizmat itlarini kunlik ovqatlantirish ratsion normalari belgilangan[4]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish

to'g'risida" 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son Farmoniga muvofiq[2] O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazida kinologlarni tayyorlash, xizmat itlarini o'rgatish va sotish, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarga veterinariya sohasida pullik xizmat ko'rsatish sohasidagi faoliyatni huquqiy tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida"gi 21-son qarori qabul qilingan[5].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-aprel kunidagi "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-122-son Farmonida 2022-2023-yillarda bojxona organlari xizmat faoliyatida bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha yo'l xaritasi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlangan. Jumladan Davlat bojxona qo'mitasi Milliy kinologiya markazi faoliyatida kinologiya va veterinariya xizmatlaridagi jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha "Raqamli kinologiya" axborot tizimini yaratish vazifalari belgilangan[3].

TAHLIL VA MUHOKAMALAR. Bizga ma'lumki, itlarning ming yillar davomida odamlar bilan birga yashab, sodiq do'st va yaqin yordamchi sifatida qilgan xizmatlariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Jumladan, Misrliklarning taxminan 5–6 ming yillik tarixidan ma'lumki, topilgan qadimiy tasvirlarda kamonchilar dushman iziga tushish va ularga hujum qilishda, asosan, itlardan foydalanishgan. Ular xonaki itlarni ko'paytirib, ulardan unumli foydalanishlari bilan faxrlanishgan.

Eng qadimgi it qoldiqlari Germaniyaning Bonn shahri atrofidan topilgan. Uning yoshi 14 ming yilni tashkil etib, mezolit davriga taalluqlidir. Itlarni asosiy xonakilashtirish markazlari sifatida Hindiston va kichik Osiyo tan olingan. Jumladan, Misrliklarning taxminan 5–6 ming yillik tarixidan ma'lumki, topilgan qadimiy tasvirlarda kamonchilar dushman iziga tushish va ularga hujum qilishda, asosan itlar yordamidan foydalanishgan.

O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimida kinologiya xizmatining tashkil etilishi, bojxona tizimi zimmasiga fiskal vazifalardan tashqari yana bir muhim vazifa – davlat bojxona chegaralaridan qurol-aslaha, giyohvand va portlovchi moddalar hamda noqonuniy tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan.

Ushbu qarorlar asosida Milliy kinologiya markazi oldiga bojxona organlarida kinologiya xizmatini takomillashtirish, Markazda naslchilik ishlari samaradorligini tubdan oshirish, kinologlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xizmat itlarini tayyorlash hamda ushbu yo'nalishda kadrlar salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, mazkur sohada samarali xalqaro hamkorlikni amalga oshirish bo'yicha birinchi galdagi ustuvor vazifalar belgilandi[5].

Shuningdek, Milliy kinologiya markazida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xizmat faoliyatida foydalanish uchun xizmat itlarini maxsus yo'nalishga masofadan boshqarishga o'rgatish metodologiyasini yaratish borasida ilmiy-amaliy ishlari olib borilmoqda. Ushbu metodologiyani yaratish va o'quv-o'rgatuv jarayoniga tadbiiq etish borasida bir qator olimlarning metodologiyalari hamda xizmat itini masofadan boshqarishga o'rgatish metodlarini aniqlashda it zotlarini tanlash borasida jahon tajribalari o'rganilgan.

Shu bois, xizmat itini har qanday yo'nalishlarda o'rgatishda eng avvalo umumiy mashq kurslarini puxta o'rgatishni taqozo etadi. Bu borada Bojxona organlari Milliy kinologiya markazida xizmat itlarini umumiy mashq kursiga o'rgatish metodologiyasi mavjud biroq yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida maxsus yo'nalishlarga tayyorlash metodologiyasini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq.


Bugungi kunda bojxona postlarida maxsus tayyorlangan xizmat itlaridan muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda hamda, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va qo'llash ishlari tashkil etilgan.

Kuzatishlar natijasida shu narsa aniqlanganki - itlar bir qator haddan tashqari qimmatli tug'ma sifatlarga ega bo'ladi. Ular uzoq va tez chopa olishi mumkin bo'lib, bu xususiyat itdan turli xil xizmatlarda foydalanishda juda muhim hisoblanadi shuningdek, itlar o'z joyini tez yodda saqlaydi va yangi sharoitlarga juda yengil moslashadi.

Xizmat itlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga xizmat faoliyatida foydalanish uchun maxsus yo'nalishlar bo'yicha (qurol-yaroq, portlovchi va narkotik moddalar, valyuta qimmatliklari va boshqalar) tayyorlashda yuqorida keltirilgan oltin qoidalar asos qilib olishni talab etadi.

Ta'kidlash joizki, xizmat itini boshqarish va uni muvaffaqiyatli o'rgatishning asosiy shartlaridan biri – bu it bilan kinolog o'rtasida to'g'ri va mustahkam aloqa o'rnatishdir. Aloqa o'rnatishdan asosiy maqsad itni o'z egasiga ishonirish va unga ko'niktirishdir. Buning uchun o'rgatuvchi doimo o'ziga biriktirilgan xizmat itini to'g'ri saqlashi, parvarishlashi va ozuqalantirishi kerak bo'ladi. Aloqa o'rnatishda o'rgatuvchi itga ehtiyotkorlik bilan muomala qilishi, qo'pollik bilan uni qo'rqitib qo'ymasligi, lekin o'zining buyruqlarini itga qat'iy va aniq bajartirishi lozim bo'ladi.

Shu bois, bizning fikrimizcha xizmat itlarini umumiy mashq kursiga o'rgatishda quyidagi medologiya asosida bosqichma-bosqich o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).



2-rasm. Kinolog va xizmat iti o'rtasida aloqa o'rnatish metodi

(O'quv-o'rgatuv mashg'ulotlari asosida muallif ishlanmasi.)

Ushbu metodda xizmat itlari umumiy mashq va maxsus mashq kursi kursiga o'rgatish jarayonida xizmat itida yashirib qo'yilgan buyum yoki moddani qidirib topishda uning modda va bumlarga tegishi, tishlashi kabi kamchiliklar aiqlangan hamda uni qayta qidiruvga yo'naltirishda xizmat itiga ovoz va ishoralar orqali yo'naltirib amaliy mashg'ulotlar olib borilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Yuqorida keltirilgan ma'lumot va tahlillar shuni ko'rsatdigi, bizning fikrimizcha xizmat itlarini aynan maxsus mashq kursi ko'nikmalari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarida ya'ni moddani qidirib topganida belgi berishga o'rgatish jarayonida, uning topilgan moddaga tegishi, tishlashi kabi kamchilikranini xizmat itini boshidan qayta qidiruvga yo'naltirish orqali noverbal (ovoz va ishoralar bilan ta'sir etmasdan) usulda kamchiliklarini bartaraf etish maqsadga muvofiq.

Natijada xizmat itlarini umumiy va maxsus mashq kursi bo'yicha tayyorlash natijasida xizmat itlarining turli obyektlarni qidiruv jarayonida ularga aktiv ravishda zarar yetkazmaslik holatlari kamayadi.

Shuningdek, umumiy va maxsus mashq kursi ko'nikmalari bo'yicha yashirilgan moddani qidirib topganda belgi berishga o'rgatish jarayonida, xizmat iti aktiv usulda belgi berganda, uni noverbal usulda kamchiliklari bartaraf etish orqali keyingi mashg'ulotlarda xizmat itida ushbu kamchiliklar takrorlanmasligiga hamda asta-sekin yo'qolib borishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasining "Bojxona xizmati to'g'risidagi"

O'RQ-502-son Qonuni. 2018-yil 19-oktyabr.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" PF-6005-son Farmoni. 2020-yil 5-iyundagi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-122-son Farmoni. 2022-yil 27-aprel.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1029-son qarori. 2018-yil 18-yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida"gi 21-son qarori. 2021-yil 18-yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning

Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr.

O'zbekiston Respublikasi "Bojxona Axborotnomasi" iqtisodiy, huquqiy. Ilmiy-amaliy jurnal. 2019-yil 2-son.

Maks Emil, Fredirik fon Shtefanis. "Oltin qoidalar".

Пыльщикова Ю.Н., Мазовер А.П., Виноградова М.Г.

"Наш друг", "Кайнар" Алма-ата 1973 г.

Ришина Н., Багоцкая М. "Хочу хорошую собаку" Москва, 2015 г.

Степанов В. "Все о дрессировке собак" Москва, 2020 г. Дон Сильвия-Стасиевич ва Ларри Кей. Дрессировка без наказания.-Москва:Экмо, 2021.-352 с.

PEDAGOGIK QOBILIYATLARNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI

Komilova Aziza Sunatullaevna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali "Yoshlar psixologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol shaxs kamolotida pedagogik mahorat va qobiliyatlarining o'rnini qay darajada muhim ekanligi hususida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, taraqqiyot, qobiliyat, didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, persiptev qobiliyat, avtoritar qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish, nutqiy qobiliyat.

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Комилова Азиза Сунатуллаевна

Джизакский филиал Национального университета Узбекистана Старший преподаватель кафедры «Психология молодежи»

Аннотация: В данной статье рассматривается значение педагогических навыков и умений в развитии всесторонне развитой личности.

Ключевые слова: личность, развитие, способность, дидактическая способность, академическая способность, пронциательная способность, авторитарная способность, организаторская способность, способность распределять внимание, речевая способность.

THE ROLE OF PEDAGOGICAL SKILLS IN PERSONAL FORMATION

Komilova Aziza Sunatullaevna

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan Senior teacher of the «Youth psychology» department

Abstract: This article discusses the importance of pedagogical skills and abilities in the development of a comprehensively developed personality.

Key words: personality, development, ability, didactic ability, academic ability, perceptive ability, authoritarian ability, organizational ability, ability to divide attention, speech ability.

Shaxs va uning kamoloti muammosi, taraqqiy etayotgan va o'z taraqqiyotining yuksak cho'qqisiga intilayotgan jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. O'zining mustaqil taraqqiyoti yo'ldan borayotgan O'zbekiston Respublikasida har bir fuqaroning ma'naviyati, shaxsiy rivoji va kamoloti, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligi har qachongidan ham muhim qadriyat sifatida qaralmoqda. Barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olish masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi – bu fikrning yorqin isbotidir. Shu sababli ham pedagoglar o'z faoliyatlarini yuqori darajada tashkil qilishi uchun nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishlari, balki muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni ham egallashlari talabi qo'yilmoqda. Shuningdek o'zligini anglash – o'z ichki dunyosini kashf qilishi, u haqda yaxlit bir tasavvurga ega bo'lish, o'z-o'ziga emotsional munosabat orqali, axloqiy va irodaviy sifatlarini baholash talab etiladi.

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham muhim darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylandi. O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev yoshlar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish zarurligi haqida shunday yozadi: "Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan,

zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorism, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur[1].

Darhaqiqat bu muhim ishlarni amalga oshirish bugungi kun pedagogiga katta ma'suliyat yuklaydi. Yosh avlod bilan ta'lim tarbiya ishlarini tashkil qilish ko'p jihatdan pedagogning pedagogik qobiliyatlariga bog'liq. Har bir pedagog faoliyati davomida o'quvchini hozirgi zamon talabiga javob beradigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o'zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo'lishi va o'zida bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib borishi lozim. Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi — sinfdagi o'quv jarayoni tashkilotchisidir. O'qituvchi o'quvchilar uchun dars payti, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbayidan biridir. Pedagogga qo'yiladigan asosiy, bosh va o'zgarimas talablar bolalarga bo'lgan mehr, pedagogik faoliyat, o'zi ishlaydigan soha bo'yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi xulqqa ega bo'lish, bolalarni o'qitish va tarbiyalashning turli uslublaridan mohirona foydalana olishni bilishdan iborat.

Pedagogik faoliyatning eng muhim jihatlaridan biri ham aynan pedagogik qobiliyatlarning qay darajada yaxshi rivojlanganligidir. Pedagogik qobiliyat bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga yaroqliligini va shu faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olishini aniqlab beradi. Har bir pedagog pedagogik qobiliyatning barcha turlarini o'zida yaxshi rivojlantirgan bo'lishi va shu qobiliyatlari ustida doimiy ishlashi lozim. Pedagogik qobiliyat turlariga didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perseptiv qobiliyat, nutq qobiliyat, tashkilotchilik qobiliyati, avtoritar qobiliyat, kommunikativ qobiliyat, pedagogik xayol, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati kabilar kiradi. Pedagogik faoliyatda pedagog uchun bu qobiliyatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib har bir ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlari va qobiliyatlarini ochish va rivojlantirishda aynan shu qobiliyatlar muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar pedagogik qobiliyatlar murakkab va ko'p qirrali psixologik bilimlardan iboratligini ko'rsatib beradi. Shuni xisobga olgan holda aytish mumkinki o'quvchilarni har tomonlama shakllantirish va rivojlantirishda o'quvchilarga individual munosabatda bo'lish orqali yondoshish muhimdir. Individual yondoshishda o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan g'amho'rliigi va nazokati, o'z xatti-harakatlarining psixologik oqibatlarini oldindan ko'ra olishi nazarda tutiladi. Individual yondoshishda shaxsda biror xislatning tarkib topishiga ta'sir etadigan individual maxsus sharoitlarni bilish va xisobga olish nazarda tutiladi[3].

O'quvchilarning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishda ular uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim omillardan biri sanaladi. 1980 yillarda amerikalik olimlar M.Karne, A.Shvedel va S.Minnemayerlar o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarning inobatga olinishi muhim ekanligini alohida qayd etib o'tganlar:

Har bir bola takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qobiliyatli bolalar o'zlariga nisbatan nihoyatda tanqidiy yondashadilar va ko'p hollarda u qadar ijobiy bo'lmagan "Men" obraziga egaliklari bilan ajralib turadilar.

Oila qobiliyatli bolalarga ta'lim berishda yetakchi o'rinni egallashi lozim.

Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dasturda ularning qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq keluvchi turli-tuman o'quv materiallari o'rin olishi kerak.

Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dastur uning har tomonlama – harakat, hissiy, shuningdek, muloqot malakalarini shakllantirishdagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashi hamda ularni rivojlantirishga yordam bera olishi zarur.

Qobiliyatli bolalar "bilimlarni o'rtacha o'zlashtiruvchi" o'quvchilar bilan bir guruh (sinf) da o'qitilganda xuddi o'zlari singari qobiliyatli bolalar bilan muloqot qila olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak.

Bu kabi dasturlarni amalga oshirishga maxsus tayyorgarlik va qobiliyatli bolalar bilan ishlash tajribasiga ega mutaxassisning rahbarlik qilishi yuqori natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Qobiliyatli bolalar uchun namunaviy dasturlar o'quvchilarni bir ta'lim muassasasida uzluksiz o'qitishni talab etadi.

Ota-onalar va mutaxassislar uchun bola oldiga qo'yiluvchi maqsadlar va ularni amalga oshirish yo'llarini aniqlashga bo'lgan munosabatlarda hamkorlik qilish muhim sanaladi.

Dasturning ajralmas qismi bola muvaffaqiyatlarini baholovchi tizim bo'lishi lozim.

Dastur o'zida ota-onalar ham muhim rol o'ynaydigan qobiliyatlikning namoyon bo'lishini ta'minlovchi yaxshi tashkillashtirilgan, samarali va doimiy harakatdagi tizimni qamrab olishi lozim.

Dastur bolaning rivojlanishini ta'minlovchi hamda bir darajadan ikkinchi darajaga samarali va izchil o'tishi uchun zarur imkoniyatga ega bo'lishi zarur.

Dastur maqsadlariga erishishga bo'lgan intilishni rivojlantira olishi kerak.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – dasturning muhim maqsadlaridan biri sanaladi.

Qobiliyatli rahbarlarni iqtidorli bolalarga ta'lim berishga jalb etishning zaruriy yo'llarini topish maqsadga muvofiqdir[2].

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish ko'p jihatdan bo'lajak pedagoglarni tayyorlash ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan ham bog'liq. Buning uchun oliy o'quv yurtlarida qobiliyatli talabalarni saralash bevosita ularni qobiliyatlarining yo'nalishlari va darajalariga ko'ra muayyan guruhlariga biriktirish asosida tabaqalashtirilgan ta'lim asosida o'qitilishi alohida e'tibor qaratish zarur. Tabaqalashtirilgan ta'lim o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, uni joriy etish orqali:

har bir talabaning pedagogik-psixologik xususiyatlari, shaxsiy sifatlarini inobatga olish asosida yondashish;

talabalarni ularning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini aniqlash orqali boshqarish;

ko'zlangan maqsadga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish;

bo'lajak mutaxassislarda qunt va chidamlilik kabi sifatlarini mustahkamlash;

ularda mas'uliyat tuyg'usi va intizomga qat'iy amal qilish sifatlarini tarbiyalash;

o'quvchilarning bilish jarayoniga nisbatan befarq bo'lmasliklariga erishish asosida ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish;

talabalarda o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash va erishilgan yutuqlaridan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish;

talabalarni ijodiy izlanishga rag'batlantirish orqali ularda tadqiqotchilik malakalarini takomillashtirish;

ta'lim jarayonini erkinlashtirish, talabalarining mustaqillik ko'nikmalariga ega bo'lishlariga erishish;

o'quvchilarda o'z kuchi va imkoniyatiga bo'lgan ishonch hamda yorqin istiqbolga ishonch hissini tarbiyalashga erishiladi[4].

Tabaqalashtirilgan ta'lim asosida har bir talabani qobiliyatli o'quvchilarning ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish, ularda ijodkorlik (kreativlik) xislatlarini shakllantirishga o'z hissasini qo'sha olishi talab etiladi. Zero, talabalarining ijodiy qobiliyatlari ta'lim muassasasi jamoasi e'tiborini yagona maqsadga qaratish, shuningdek, bu jarayonga jamoatchilikni faol jalb etish orqali erishiladi[5].

Talabalar tabaqalashtirilgan ta'lim dasturi bo'yicha tashkil etiladigan har bir mashg'ulotda yangidan-yangi yutuqlarni qo'lga kiritish imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak. Tabaqalashtirilgan guruhlarda shug'ullanish talabalarni doimiy ravishda o'z ustida ishlashga yo'naltiradi, bu esa ularga o'z guruhlaridan ko'ra qobiliyatliroq o'quvchilarga biriktirilgan guruhlariga o'tishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Eng qobiliyatli talabalar esa har bir mashg'ulotda yangi o'quv materiallarini muhim axborot va texnik vositalar yordamida o'zlashtiradilar[6].

Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida faoliyat yuritish umumiy va maxsus fan o'qituvchilaridan quyidagi sifatlarga ega bo'lishlarini talab etadi: mutaxassislik fanlari asoslarini chuqur o'zlashtirish, keng ilmiy tafakkur va bosh dunyoqarashga egalik, pedagogik

mahorati yuqori, o'quvchilarni tushuna oladigan, sabr-toqatli, tirishqoq, harakatchan, ijodkor, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalana olish, o'quvchilarga shaxsiy ibrat ko'rsata oluvchi, yuqori darajadagi umumiy madaniyatga ega, har qanday vaziyatda ham adolatli bo'lish, mavjud vaziyatni ob'ektiv baholay olish, talabchan, tashkilotchi, tashabbuskor, intizomli, izlanuvchan, o'zgalarning fikrlarini hurmat qiladigan.

Ta'limning tabaqalashuvi asosida esa: o'quvchining "Men"i, shuningdek, bilish, ijodiy va hissiy qobiliyati rivojlanadi, ta'limning demokratlashuvi ta'minlanadi, o'quvchining imkoniyatlari to'la ro'yobga chiqadi, o'quvchi qat'iyatli va shijoatli bo'lib, o'z kuchiga ishonchi ortadi, undagi hadiksirash, tortinchoqlik va xavotir yo'qoladi, ichki his-tuyg'ulari rivojlanadi, erkin fikrlash ko'nikmasiga ega bo'ladi, intizomi va mas'uliyati kuchayadi.

Adabiyotlar ro'yhati.

1. Mirziyoyev.Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

2. Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Психолого-педагогическая работа по организации самовоспитания подростков. Молодой ученый, (10), 1306-1308.

3. Комилова, А. (2021). Роль родителей в подготовке молодежи к семейной жизни. Общество и инновации, 2(10/S), 437-441.

4. Жуманова, Н. Ш., Тошпулатова, Н. Х., & Комилова, А. С. (2016). Развитие инновационных систем в образовании. Молодой ученый, (4), 777-778.

5. Алимкулов, С. О. У., Мелибоев, А. Р., Комилова, А. С., & Туракулов, Л. Т. (2016). Решение разных проблем в образовании с помощью 3D-технологии. Проблемы педагогики, (12 (23)), 12-13.

6. Sunatullaevna, K.A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 518-521.

OILADAGI AVLODLARARO MUNOSABATLAR BOLA SHAXSI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETISH MEKANIZMLARI

*Ochilova Farida Baxriddinovna
Samarqand davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti*

ANNOTATION. In this article, the scientific point of view of the mechanisms of intergenerational relations affecting the development of the child's personality, and the importance of intergenerational relations as an important social phenomenon in the development of the child's personality are presented.

Key words: child personality, development, relationship, intergenerational relationship, scientific mechanisms, social phenomenon.

МЕХАНИЗМЫ ВЛИЯНИЯ МЕЖПОКОЛЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА

*Очилова Фариди Бахриддиновна
Самаркандский государственный университет, докторант кафедры психологии*

АННОТАЦИЯ. В данной статье представлена научная точка зрения на механизмы межпоколенческих отношений, влияющие на развитие личности ребенка, а также на значение межпоколенческих отношений как важного социального явления в развитии личности ребенка.

Ключевые слова: личность ребенка, развитие, взаимоотношения, межпоколенные отношения, научные механизмы, социальный феномен.

MECHANISMS OF INFLUENCE OF INTERGENERATIONAL RELATIONS IN THE FAMILY ON CHILD PERSONALITY FORMATION

*Ochilova Farida Baxriddinovna
Samarkand State University
Assistant doctoral student of the Department of Psychology*

ANNOTATSIIYA. Ushbu maqolada bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi avlodlararo munosabatlarning mexanizmlarini yoritib berishga, avlodlararo munosabatlar bola shaxsi kamolotida muhim ijtimoiy hodisa sifatida ahamiyatligi bilan ajralib turishi yuzasidan ilmiy qarash nazariyalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: bola shaxsi, rivojlanish, munosabat, avlodlaro munosabat, ilmiy mexanizmlar, ijtimoiy hodisa.

Kirish. Inson dunyoga kelibdiki, atrof muhitni o'rganish orqali o'zini rivojlantira boshlaydi, dunyoga kelgan farzand oilada ota-ona qaramog'ida bo'ladi hamda o'z shaxsiy xususiyatlarini shakllantiradi. Oilada bola shaxsini shakllantirish jarayonida ota-onaga katta avlod vakillari namuna sifatida gavdalanadi. Bolaning shaxsiy xususiyatlarida nafaqat ota-onasining individual xususiyatlari balki, katta avlod vakillarining xususiyatlarini ta'siri ham namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bobo va buvilari bilan yashaydigan bolalarda bu xususiyatlar yanada kuchliroq namoyon bo'ladi.

Xozirgi kunda bizning oilalarimizda yoshlar tarbiyasida atrof muhit va telexborotkommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sababli, oilada bola tarbiyasiga yangicha tarbiyaviy ta'sirlardan foydalanishni o'rganish yosh ota-onalar uchun muhim sanalmoqda. Sababiki, bola tarbiyasida aniq bir resipt mavjud emas. Tarbiyaviy jarayonlar bu doimiy rivojlanishdadir, bunda yosh ota-onalardan zamon bilan hamnafas bo'lish, bola shaxsini tarbiyalash ilmini o'rganish zarurdir. Bola tarbiyasida oilada avlodaro munosabat esa yosh ota-onalar uchun ahamiyatlidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili: (Literature review)

Bola shaxsining shakllanishi oiladagi avlodlararo munosabat asosida oilaviy an'analar, tarbiyaviy jihatlari o'tib sayqallanib boradi. Bola oilada o'zaro munosabatlarni o'ziga singdirib borishadi.

Oilada asosan hozirgi kunda uchta tarbiya uslub mavjud. Birinchisi bu avtoritar tarbiya stili bo'lib, bu tarbiya stilida oilada ota yoki onaning xukmron tarbiya stili namoyon bo'ladi, ya'ni bolalar oilada berilgan qarorlarni bajaruvchisi bo'lib shakllanadi va o'z mustaqil fikrlarini namoyan qilishda tortinchog'lik, uyatchanlik, qo'rqoqlik xolatlarini kuzatiladi. Ikkinchisi demokratik uslub, bu tarbiya usulida ota-ona va farzandlar o'rtasida kelishilgan, o'zaro bir-birini qarorlarini tinglab, hurmat qilish asosida namoyon bo'ladi. Bu tarbiya usulida bola erkin o'z fikrlarini mustaqil ko'rsata oladigan bo'lib shakllanadi. Uchunchi, lebral bu tarbiya usulida oila a'zolari o'z-o'zlari bilan o'zaro bir-birini qo'llab quvvatlash xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Bu tarbiya usulida, bolalar o'zaro xisssiy bog'lanishlar shakllanmaydi, faqat o'z manfaatlari ustun qo'yish xususiyatlari paydo bo'ladi.

Bolani shaxsini tarbiyalashda xar tomonlama mukammal shakllangan tarbiya uslubini qo'llash zarur. Avlodlararo munosabat bu borada, ahamiyatlidir.

Chunki, oilaviy tarbiya usullari bola shaxsining shakllanishida kuchli ta'sir kuchiga egadir. Bolaning ham ruxiy, ham qalban sokinlik ham, oilaviy munosabatlar, o'zaro muloqot qilish, birgalikda qiyin vaziyatlarda to'g'ri qaror chiqarish jarayonlarida bola fikrini ham inobatga olish, munosabatlar jarayonida bola rolini muhimligini ta'kidlab borish kabi mexanizmlar tarbiya jarayonining ajralmas qismidir.

Bola shaxsida avlodaro munosabatlarning yuqorida aytib o'tilgan mexanizmlari bola o'z-o'zini kuzatish, o'zini nazorat qilish, o'zini adekvat (etarli) darajada baholay olish xususiyatlari shakllana boradi.

O'zini kuzatish va o'rganish har doim inson uchun eng qiyin vazifalardan biri bo'lgan. O'zini hukm qilish, ya'ni nazorat qilish qobiliyati har doim sub'ektivlik ta'sirida bo'ladi. Odanning o'zini, fikrlarini, his-tuyg'ularini va xatti-harakatlarini avtomatik ravishda reaksiyaga kirishmasdan kuzatish juda qiyin.

Tadqiqot metodologiyasi: (Research Methodology) Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Aslida oilaviy turmushda yuzaga keladigan muammolar, hatto oilaning buzilishi va uning salbiy asoratlari, hamma-hammasi undagi shaxslararo munosabatlar ta'sirining natijasi ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, oila barqarorligi, baxtli va farovon turmush kechirish, albatta, shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli, aynan shu muammo yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Bolani oilada shaxs bo'lib shakllanishida oilaviy munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Yosh ota-onalar bola tarbiyasida qaynona va qaynotalari bilan ham maslak holda amalga oshirishi bola ruxiy xolatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Oilada bola shaxsiga e'tibor muhim sanalib, kelin-kuyovlarining o'zaro munosabatlarining mustaxkam bo'lishida oiladagi katta avlod vakillarining roli katta va hozirgi kunda bola shaxsi shakllanishida muhim ekanligi tadbiq etilishi oshib bormoqda.

"Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta'sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o'ziga yarasha sifat va fazilatlarini shakllantirib boradi, ikkinchidan, har tomonlama yetuk, barkamol, aqlli, sog' va salomat shaxs bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, oila va uning sog'lom ma'naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o'ziga o'xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo'lish, muomalada ahloq-odob normalariga bo'ysunishga o'rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Rus sotsiolog olimi A.Antonovning ta'kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta'sirlarini ko'rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi" [1]

Oilaga moslashish jarayonida turmush o'rtog'ining va oilaning boshqa a'zolari rolini

ko'rsatib o'tgan holda, kelinlar mazkur jarayonning qanday kechishi ularning o'zlariga ham bog'liq ekanliklarini unutmaganlari tadqiqotdan ma'lum bo'ldi.

Yangi oilaga moslashish kelinlardan ham ba'zi bir chegaralanishlarni qabul qilish, yangi xulq-atvor normalarini o'zlashtirish malakasini talab qiladi. Ana shu xulq-atvor normalarini o'zlashtirishda esa ulardagi individual-psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda atrofdegilarning kelin bilan hamkorlikka tayyorligi ham muhim rol o'ynaydi.

Kelinlarda o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, yangi oilaga moslashib ketish har ikkala millat vakillari bo'lmish kelinlar uchun murakkab jarayon hisoblanadi. Buni kelinlarning o'zlari ham subyektiv jihatdan yaxshi tushunadilar va bunga ruhan tayyor hamdirlar. Qozoq oilasi kelinlarining 64%i va o'zbek oilasi kelinlarining 40%i qaynona bilan, qozoq oilasi kelinlarining 18%i, o'zbek oilasi kelinlarining 12%i qayinsingil bilan til topishish va unga moslashish qiyin kechayotganligini qayd etishgan. [2]

Qaynona va kelin munosabatlari oilaviy munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Quyida aynan shu munosabatlarida ayrim oilalarda nizolar namoyon bo'lishi tadqiqot asosida yoritilgan.

“X.Karimovning ilmiy ishlarida o'zbek oilasida er-xotin orasidagi nizolar boshqa millat vakillari (rus, ukrain va boshqa) oilalaridagi nizolardan farqlanishi, ya'ni o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan o'zbek oilalaridagi er-xotin orasida nizolarning kelib chiqishiga milliy-madaniy muhitiga xos bo'lgan nikoholdi omillarining xususiyatlari: ya'ni ba'zida tanishish imkoniyatining bo'lmasligi yoki qisqaligi ham ta'sir etishi, natijada yuzaga kelgan nizo sabablarini tomonlar o'zidan qidirmasligi, uni bartaraf etishda ota-onalarga tayanish, oiladagi o'zaro munosabatlar qo'pollik asosiga qurilishi va boshqa bir qator salbiy holatlar yuzaga kelishi ko'rsatib o'tiladi”. [3]

Nizolarning kelib chiqishiga qarab shuni ta'kidlash zarurki, yangi bunyod bo'lgan oilani mustahkamlanishida kuyov va kelinning oiladagi olgan tarbiyasi asosida munosabatga kirishishlari ahamiyatli ekanligi o'z isbotini topmoqda. Tarbiyalanlik darajasini tadbiq etishda turli avlod vakillarining o'zaro munosabatlarining kuchli ta'siri kuchga ekanligi ko'rinadi.

“Turli avlod vakillarining qadriyatlarida mustaqillik, mehribonlik, konformlilik-ning o'ziga xos integrativ namoyon bo'lishi tufayli hayot mazmunini yo'nalganligi, hayotiy turg'unlik va ekzistensiya ko'rsatkichlari normativ ideallar, individual ustuvorlik, mentallik va qo'rquvlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari ekanligi isbotlangan; oilaviy qadriyatlarning oila xarakteristikasi, ijtimoiy-demografik xususiyatlarga muvofiqligiga ko'ra, «oila tarixini bilish», «oila chegaralarining o'tkazuvchanligi», «qarindoshlarning jipsligi» ko'rsatkichlarini jins va hududiy tafovutlarga bog'liq ravishda ifodalanishi dalillangan; turli avlod vakillarining hayotiy qadriyatlarini differensial ifodalanishiga ko'ra nazariy-metodologik tahlil hamda empirik tadqiqot natijalariga asoslanib, avlodlarning emotsional, mentallik, kommunikativ funksiyalarini o'zaro integrativ rivojlanishini yoritib beradigan «Avlodlar dialogi» hamda «Ta'lim va mahalla tizimlarida qadriyatlarni shakllantirish» ijtimoiy-psixologik modellari kiritish zarurati asoslangan”.

Tahlil va natijalar. (Analysis and results) Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilada shaxslararo munosabatlarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, ularni xayotda tadbiq etish muhimligi, ularni ijtimoiy –psixologik xususiyatlari muammolarini tadbiq etish jarayonlarini o'rganish jarayonida katta avlod vakillarining bola shaxsiga alohida ahamiyat qaratish bobo, buvilar bilan munosabatlarni rag'latlash, mahallarda turli avlod vakillari uchrashuvlarini tashkil etish, oilada bolalarning katta avlod vakillari bilan ko'proq birga vaqt o'tkazishlari uchun imkoniyat yaratish buyicha yosh ota-onalarga bu uchrashuvlarning afzallik jihatlarini anglashiga qaratilgan bola tarbiyasiga ta'sir etuvchi mexanizmlarni o'rgatuvchi psixologik treninglarni joriy qilish kabi tadbirlarni amalga oshirish buyicha rejalar ishlab chiqish zarur.

Xulosa va takliflar. (Conclusion/Recommendations) Maqolamizda katta avlod vakillarining oilada bola tarbiyasida, shaxsini shakllanishida ahamiyatli jihatlarini tadbiq etish zarur. Tarbiya jarayonida avlodaro munosabatlarning ijobiy jihatlarini ko'rsatib o'tish natijasida, oilada yosh avlod ota-onalar uchun katta avlod vakillarini ko'magi muhimligi, namunaviy jihatlarini, afzalliklarini, ijtimoiy-psixologik ta'sirini tadbiq etish bola tarbiyasida ijobiy

yangicha tarbiyaviy jarayonlarni mustaxlashga, hamda bola shaxsi shakillanishida mustaxkam aloqalarni o'rnatishga zamin yaratadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Feruza Saidova Mamatova Nafisa (Andijan, Uzbekistan) Bola ijtimoiylashuvida oila maskanining roli.

Arapbayeva Damegul Qurbonovnaning "Kelinlar oilaga moslashuvining etnopsixologik xususiyatlari" nomli Psixologiya fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiya aftoreferati. Toshkent – 2019 yil.11-b.

Kushmatova Maftuna Maxamadali qizi. Farzand tarbiyasida oilaviy munosabatlar va tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Andijon-2017.15-bet.

Dalimova Nilufar Melibayevnaning "Turli avlod vakillarining hayotiy qariyatlarining ijtimoiy-psixologik determinantlari" nomli Psixologiya fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiya aftoreferati. Toshkent – 2019 yil.10-b.

O'SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING SHART-SHAROITLARI

Ostanov Shuhrat Sharifovich

Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi p.f.f.d, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi, psixodiagnostika, psixokonsultatsiya va psixologik trening dasturi ishlab chiqilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi bo'yicha amaliyotchi psixologlar, ota-onalar va tarbiyachilarga mo'ljallangan qo'llanmalar ishlab chiqilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi muammosining psixologik talqini olib borilgan. O'smir va o'spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasini tadqiq qilish usullarini qo'llash haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: depressiya, psixokorreksiya, xulq-atvor, destruktiv, shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishi, agressiya, psixokonsultatsiya, diagnostika.

ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Ostanov Shuhrat Sharifovich

Бухарский государственный университет Психология и социология преподаватель кафедры п.ф.ф.д.(PhD), доцент

Аннотация. В данной статье анализируется психокоррекция деструктивного поведения у подростков и подростков с теоретической и практической точек зрения, разработана программа психодиагностики, психоконсультации и психологического тренинга. Разработаны пособия для практикующих психологов, родителей и воспитателей по психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков. Проведена психологическая интерпретация проблемы психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков. Речь идет о применении методов исследования психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков.

Ключевые слова: депрессия, психокоррекция, поведенческая, деструктивная, становление и психическое развитие личности, агрессия, психоконсультация, диагностика.

CONDITIONS FOR THE FORMATION OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE

Ostanov Shuhrat Sharifovich

Bukhara State University Psychology and sociology chair teacher P.f.f.d.(PhD) dotsent

Annotation. This article analyzes destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents theoretically and practically, has developed a program of psychodiagnostics, psychoconstruction and psychological training. Guidelines for destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents have been developed for practicing psychologists, parents, and caregivers. A psychological interpretation of the problem of destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents has been carried out. There is talk of using methods to research destructive behavioral psychocorrection in adolescents and adolescents.

Key words: depression, psypchocorrection, behavior, destructive, personality formation and psychic development, aggression, psychoconsultation, diagnostics.

Kirish. O'smirlik yoshi bolalikdan yetuklikka o'tish davri sifatida doimo keskin davr deb hisoblanadi. Bu yosh davr inqirozi kichik yosh davr deb kelingan. Bu yosh davr inqirozi kichik yosh davridan ancha farq qiladi. U eng jiddiy va eng uzoq davom etuvchi davr hisoblanadi.

Bu davr mobaynida bolaning atrofga va o'ziga bo'lgan avvalgi munosabatlari sinib, qayta tiklanadi va o'smirning mustaqil hayotga qadam qo'yish bosqichi shakllanadi. Hayotga qadam qo'yish birdaniga yuz beradigan hodisa emas, balki uzoq davom etuvchi jarayon bo'lib, uning biologik, psixologik va ijtimoiy tomonlari o'z qo'zg'aluvchi kuchlari, taraqqiyotining o'z maromi va sur'atlariga ega. O'smirlarning fizik va psixologik taraqqiyotining yuqori, biroq bir-biriga mos bo'lmagan sur'atlari bilan bog'liq holda hali yetarli bo'lmagan ijtimoiy yetuklik jarayoni vujudga kelgan bu ehtiyojlarni har doim ham qanoatlantirib bo'lmaydi.

Shu sababli o'smirlik yoshida ehtiyojlarining inkor etilishi tez-tez kuzatiladi va kichik yosh davrlariga nisbatan kuchliroq ifodalanib, uni o'smirning psixik va ijtimoiy taraqqiyotida moslikning yo'qligi sababli yengish juda qiyin. Bu qiyin davrda o'smirning ong va kechinmalari maqsadi jinsiy mayl kabi kuchli biologik ehtiyoj bo'lib qolib, u bilan bog'liq bir qancha tajang kechinmalar vujudga keladi, emotsional doira o'zgaradi. Intellektual inkoniyatlar yangi bosqichga ko'tariladi, dunyoqarash kengayadi, yangi qiziqish va manfaatlar paydo boladi. O'smir o'zida yuz berayotgan o'zgarishlarni sezadi, biroq ularning hammasini anglab yetavermaydi va tushunavermaydi. Tengdoshlari bilan uzviy muloqotda, o'zini ular bilan qiyoslab hayotiy munosabatlar doirasini kengaytirish zarurati paydo bo'ladi.

Tengdoshlar fikri, ota-onalar va o'qituvchilar fikriga nisbatan ahamiyatli bo'lib boradi. Yetuklikning kirib kelishi bilan o'smirning ijtimoiy ahvoli, risolaga ko'ra, o'zgarmaydi - u o'quvchi bo'lib qolaveradi va ota-onasi qaramog'ida bo'ladi. Shuning uchun uning ko'pgina talablari (da'volari) yengilmas qiyinchiliklarga olib keladi, nizo yoki real voqelik bilan ziddiyatga kirishadi. O'smirlik davri inqirozining psixosotsial sababi ham shunda paydo bo'ladi.

Hayot tarzini amalda o'zgartirib bo'lmaslik o'smirda, psixologlar tomonidan shu yoshga xos deb ko'riladigan, orzularni vujudga keltiradi. Ba'zan o'smirlar, ayniqsa, o'z istak-hohishlari va ularni qanoatlantirish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni jiddiy kechirayotganlari, o'z orzularini maktabdan va ota-ona uyidan tashqarida amalga oshirishni qaltis yo'llarini qidirishga kirishadilar. Bunday hollarda, o'smirlar ko'cha "qo'liga tushib" qoladilar, ular maktabni tashlab, shunday maktabdan "uzilib" qolgan bolalar guruhiga tushib qoladilar, bu esa darbadarlik va xulq-atvorning asotsial ko'rinishlarga olib keladi. Agarda o'smir o'zida bilim va estetik ehtiyojlar, ma'naviy-axloqiy komillikka intilish kabi barqaror shaxsiy manfaat va xulq-atvor motivlarini yetarli darajada shakllantirsa, o'tish davri inqirozi ancha yengil o'tadi. O'smirning ibratli kishilarni nazarda tutib ish ko'rishi, oliy va istiqbolli maqsadlarga munosib taqlid qilishi sub'ektning istalgan yo'nalishdagi xulq-atvori, emotsiya va axloqini aniqlashga qodir. Bu kabi mo'ljalli ish tutish xulq-atvorning turli yo'nalgan motivlar qarama-qarshiligiga barham berish yoki ularni qaysidir ma'noda tekislash va o'smirlarni yanada ichki uyg'unligini ta'minlashga qodir. Shu bilan birga o'smirlik davri L.V.Vigotskiy (1960) ifodalaganidek, birgina formula bilan qamrab olinishi mumkin emasligini unutmazlik lozim. Uning xususiyatlarini tushunish uchun ushbu davrning psixik taraqqiyotiga dahldor ichki harakatga keltiruvchi kuch va ziddiyatlar o'rganilishi, o'smirlik davrining barcha belgilar majmui tabiatini ochuvchi o'ziga xos psixologik va ijtimoiy yutuqlarni ajratish lozim. Bunday bosh psixosotsial muvaffaqiyatlardan biri ilk bosqichda (12-14 yoshda), L.I.Bojovich fikriga ko'ra, o'smirlar o'z fikrini ifodalash va o'zini namoyon qilish imkoniyatini yaratuvchi o'z-o'zini anglash bosqichi, yakunlovchi bosqich (15-17 yosh) da esa o'z kelajak muammosini ilk bosqichga xos orzu havaslar asosida emas, balki o'zining haqiqiy imkoniyatlarini va tashqi sharoitlarni hisobga olgan holda hal etish zarurati bilan bog'liq o'z taqdirini o'zi belgilash hisoblanadi. O'smirlarning u yoki bu ijtimoiy vaziyatga nisbatan xulq-atvor reaksiyasining hali psixologik bo'lmagan, ammo o'zida uning shunga aylanish xavfini yashirgan o'ziga xos ko'rinishlaridan "opozitsiya" (qarshilik), "imitatsiya" (taqlid), "kompensatsiya" (og'ishlarning yo'qolishi), "giper-kompensatsiya", "emansipatsiya" (ozodlikka chiqish), "guruhlanishi", shakl-lanayotgan jinsiy mayllar bilan sharhlangan ayrim reaksiyalar (o'zgarishlar)ni sanab o'tish zarur.

"Opozitsiya" reaksiyasi - bu faol qarshilik. O'smiringa kutilmagan yuqori talablar, kuchi yetmaydigan ish, ota-ona yoki tarbiyachilarning yetarli darajada e'tibor bermasligi buning sababi bo'lishi mumkin. Opozitsiya bolalikda paydo bo'lib, o'smirlik davrida ham saqlanib

qoladi.

“Imitatsiya”(taqlid) reaksiyasi ma'lum timsolga taqlid qilishga intilishda namoyon bo'ladi. Taqlid timsoli - asotsial bo'lsa, bunday reaksiya xulq-atvor buzilishi sababi bo'ladi.

“Giperkompensatsiya” reaksiyasi o'smirning o'zi kuchsiz bo'lgan sohada yutuqqa erishishga intilishida ifodalanadi. Muvaffaqiyatsizlik ayrim hollarda asab buzilishlari bilan yakun topadi.

“Emansipatsiya” reaksiyasi kattalarning nazorati, qaramog'i va homiyligidan ozod bo'lishga intilishda namoyon bo'ladi. U kattalarning tartiblari, qonun va “andoza”lariga ham yoyiladi. Ozod bo'lish ehtiyoji mustaqillik, o'zini shaxs sifatida namoyon qilish, tan oldirish uchun kurash bilan bog'liq. Kundalik xulq-atvorda - bu “o'zicha” hamma ishni bajarmoq, keskin hollarda - undan ketish yoki qochishdir. AQShda bu hodisa ofatga aylandi: 1970 yilda 13-17 yoshlardagi 600 ming o'smirlar oilalari va internatlardan qochib ketdi. Rossiyada bunday hodisalar nisbatan kam sodir etilib, xulq-atvorning patologik buzilishlari sifatida baholanadi.

“Guruhlanish” reaksiyasi - filogenetik omma instinktidir. O'smirlar orasidagi guruhlar o'zlarining hali yetarlicha o'rganilmagan ijtimoiy-psixologik qonunlari asosida vujudga keladi va faoliyat yuritib, ular orasida “avtonom axloq” deb nomlanuvchi guruh ota-onalar, maktablar va qonunlar talablariga mos kelmaydigani ko'proq xavf tug'diradi. U ayniqsa voyaga yetmagan huquqbuzar va jinoyatchilarda kuchli ifodalangan. Aniqlanishicha, huquqbuzarlikning katta qismi o'smirlik guruhlari tomonidan sodir etilar ekan. Aynan guruh pedagogik qarovsiz o'smir xulq-atvorining boshqaruvchisi hisoblanadi. Ayniqsa, giyohvand (narkoman)lar, ijtimoiy tartibsiz, beqaror, asotsial xulq-atvor malakasiga ega o'smirlar guruhlarga oson birikadilar. Shu yerning o'zidayoq jinsiy mayllar bilan bog'liq reaksiyalarni ko'rsatib o'tish zarur. Ko'rsatilgan jinsiy reaksiya ko'rinishlari tarqalganligi ancha yuqori.

Bu yerda keltirilgan ko'pgina reaksiyalarni o'smirlik me'yori doirasida ko'rib chiqar ekanmiz, shu bilan birga ularning hech bo'lmaganda patologik ko'rinishlarga o'tish mezonlarini belgilab o'tish zarur. Masalan, A.E.Lichko (1977) fikricha, bu xil reaksiyalar quyidagi hollarda patologiyaga aylanishi mumkin, agarda:

- ular o'zlari vujudga kelgan vaziyat va mikro guruhlar doirasidan chetga chiqsa;
- ularga nevrotik buzilishlar qo'shilsa;
- generalizatsiyaga moyillik rivojlansa, ya'ni har xil vaziyatlarda paydo bo'lish yoki nomutanosib qo'zg'atuvchilar tomonidan yuzaga kelish qobiliyatining rivojlanishi;
- patologik stereotip xarakteri (xususiyati) namoyon bo'lsa;
- ma'lum jamiyatda ruxsat etilgan xulq-atvor buzilishlarining “cho'qqisidan” dan ohsa;
- ular ijtimoiy moslashuvni buzsa yoki qiyinlashtirsa.

Bu reaksiyalar patologiyaga aylangach, turli xulq-atvor ko'rinishlar, turli delikvent xatti-harakatlar (mayda o'g'rilik, haqorat, bezorilik va h.k), uydan qochish va darbadarlik, mastlik, fohishabozlik, giyohvandlik, suitsidal harakatlar va boshqa shaxs kasalliklari toifasiga doir buzilishlarni keltirib chiqarish mumkin.

So'nggi yillarda JSSTning maxsus komissiyalari tomonidan o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, butun dunyoda psixik kasalliklarning, jumladan shaxs kasalliklarining ham, keskin o'sishi kuzatilmoqda. Afsuski, bolalar va o'smirlar psixik buzilishlarining tarqalganligi, ular orasida shaxsiy buzilishlar chastotasi to'g'risidagi ma'lumotlar uncha to'liq emas va bir-biriga ziddir. Tajribaga ko'ra, psixonevrologga murojaat etish chastotasi bilan miqdori belgilangan ommaviy nerv-psixik salomatlikni faol baholash natijasi bir-biriga mos kelmaydi. Nerv-psixik patologiyasi ko'rinishlarining tarqalganlik ko'rsatkichlari tafovuti 40 % ga yetadi. Bunday qarama-qarshilik, bola psixikasining favqulodda murakkabligi, ontogenezning keskin bosqichlaridagi yuqori sezgirlik bilan bir qatorda eng yuqori mutanosibligi va jo'shqinligi bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari bolalar va o'smirlarning psixik chegara kasalliklari u yoki bu ko'rinishlarini uchrash chastotasi to'g'risidagi axborotning har xilligi, shuningdek, bu buzilishlarning klinik manzarasi to'liq ifoda etilmaganligi, yagona metodik yondashuv va me'yor, patologiyaning aniq differensial o'lchovlarining mavjud emasligi, xulq-atvor reaksiyalarini izohlashdagi farqlar, shuningdek allaqachon rivojlanib ulgurgan og'ishlar holatidagina tashxis qo'yish ko'rsatmasi bilan ham

tushuntirilishi mumkin. Chegara kasalliklari etiologiyasi va epidemiologiyasi sohasidagi zamonaviy bilimlar darajasi ularning tashxisiga (diagnostikasiga) muhim tuzatishlar kiritishni talab qiladi. Chegara kasalliklari epidemiologiyasi, V.V.Kovalyov ta'kidlaganidek, bolalar psixik salomatligi ahvoli va dinamikasini tekshirishda shaxs-dinamik yondashuvsiz va bolalar hamda, ularni qurshab turgan mikromuhit taraqqiyotini ijtimoiy-psixologik tahlil qilish usullaridan foydalanmay turib to'liq bo'la olmaydi.

Psixik salomatlikni chegara patologiyasidan ajratish mezonlari muammosi so'nggi yillarda ko'pgina tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortmoqda. Ular nerv-psixik salomatlik og'ishlarining boshlang'ich ko'rinishlarini mualliflar tomonidan turlicha nomlangan o'ziga xos guruhlariga birlashtirib ajratib ko'rsatishga harakat qiladilar. Bu muammo taraqqiyotning keskin davrida nerv-psixik salomatlik ahvolini tahlil qilishda o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Organizmning o'tish davrlarida fiziologik qayta tuzilishi ta'sirchanligini o'zgartiradi, uning ichki va tashqi omillar ta'sirining sezuvchanligini oshiradi. Psixologik ta'sirlarga javob berishda ham yuqori chidamsizlik kuzatiladi. Organizmning patologik reaksiyalarini odatda yuzaga keltirmaydigan omillar ham patogen ahamiyatga ega bo'lib boradi. Markaziy nerv tizimining kuchli qo'zg'alishi va faoliyatidagi murakkab tuzilishining o'ziga xos omillari muhit bilan o'ralgan organizm va alohida tizimlar orasidagi o'zaro ta'sir xususiyatini o'zgartirib, nerv-psixik kasalliklari vujudga kelishiga asos yaratadi.

Bolalar va o'smirlar gigienasi instituti tomonidan so'nggi yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda o'z ichiga motivlashmagan o'jarlik, harakatli qo'zg'alishlar, qo'rquv, patologik odatlarni olgan nevrotik va patoxarakterologik turdagi nerv-psixik og'ishlarning ortishi hollarida ontogeneznining keskin davrlari ahamiyati aniqlandi. Bu kabi og'ishlar bir qator 3-4 yoshli bolalarda topilib, keskin davrning o'tishi bilan bu buzilishlar miqdori kamaydi, shu bolalarning 5-6 yoshida esa, ya'ni ontogeneznining keyingi keskin bosqichiga o'tish chegarasida bu og'ish yana sezilarli darajada o'sdi (Shashkova I.A.). Bulardan keyingi keskin davrda, bolalarni maktabda o'qitilishining birinchi yilida tekshirilganda, bundan-da yuqori natijalar olindi. Klinikaga qadar darajadagi nerv-psixik og'ishlar ko'pgina birinchi sinf o'quvchilarida ham kuzatildi. Shu bilan bog'liq ravishda, bu kasalliklarni qanday qilib izohlash mumkin: bolalarning maktabga kirishiga doir ijtimoiy ahvoli o'zgarishlari bilan bog'liq moslashuv (adaptatsiya) hodisalari sifatidami yoki asosan inqiroz davrining biologik mohiyatiga ega endogen neyrohumoral (gormonal) o'zgarishlar natijasi sifatidamiq, degan savol tug'iladi. Keskin davrning o'tishi bilan kasallik belgilarining sezilarli kamayishi biologik omillar ahamiyati to'g'risida guvohlik bersa-da, birinchi sinf o'quvchilarining maktabga moslashmasligida ijtimoiy sharoitlar ahamiyatini ham hisobga olish zarur. Bolalar va o'smirlar orasida nerv-psixik kasalliklari u yoki bu ko'rinishlarining tarqalganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni salmoqli me'yorlar bo'yicha takroriy va yoppasiga o'tkazilgan tadqiqotlar berishi mumkin. Bu kabi boshlang'ich va uncha ifodalanmagan hollarning faol va o'z vaqtida namoyon bo'lishi barqaror buzilishlarning ilk terapiyasi va amaliy profilaktikasiga imkon berishi mumkinligi uchun, ular nafaqat ilmiy, balki amaliy munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega.

Bolalar va o'smirlar nerv-psixik salomatligi tadqiqotlari bu davr- yetuklik davri salomatligi asosi bo'lganligi uchun va bu ontogeneznining nisbatan katta bo'lmagan davri bir qator keskin bosqichlarni – o'smirning o'zi va atrofida u uchun eng murakkab davr bo'lmish pubertat (jinsiy yetilish) davri kabi eng muhim davrlarni – o'z ichiga olgani uchun ahamiyatga egadir.

12 yoshli o'smirlarning nerv-psixik salomatligi tekshirilganda, bolalarning bir qismida astenonevrotik xarakterdagi og'ishlar ham mavjudligi aniqlandi. Bolalar uyquning buzilishi, o'ta charchash, bosh og'rig'i, yomon ishtaha, ishga layoqatning pasayishi, ayrimlari esa oftob yoki transportga chidamsizlik, bosh aylanishi, hushidan ketish hollari (vegetativ-qon tomirlari kasalliklari)dan arz qilsalar, boshqalarida asosan nevrotik hodisalar kuzatiladi: turli miyaga o'rnashib qolgan odatlar, qo'rquvga moyillik, tungi enurez, oyparastlik, alahsirash, ko'ngli noziklik, yig'loqilik va b. Agar 12 yoshli bolalarda, ya'ni pubertat davrining birinchi fazasida u yoki bu og'ishlar aniqlangan bo'lsa, ikkinchi fazasi - 14-15 yoshli o'smirlarda kasalliklar chastotasi yuqori bo'lib chiqdi, shuningdek bu kasalliklar 8-sinf o'quvchilarida ham kuzatildi. Bu o'smirlarning 16 yoshida astenonevrotik hodisalar miqdori kamayib, alohida hollardagina namoyon bo'lgan.

Shunday qilib, bu tadqiqotlar natijasi o'smirlarning astenonevrotik xususiyatiga ega shikoyatlarining vujudga kelishida psixofiziologik pubertat perturbatsiyalar ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga anamnestic (kasallik tarixiga doir) ma'lumotlar tahlili homiladorlik, tug'ruq patologiyasi, jismoniy holsizlanish kabi o'smirlar nerv-psixik salomatligidagi turli og'ishlarning vujudga kelishidagi salbiy biologik omillar haqida so'z yuritishga imkon beradi. Sog'lom bolalar va o'smirlar bilan nerv-psixik salomatlik og'ishlariga ega bo'lgan o'smir va bolalar anemnezi ma'lumotlarini qiyoslab tahlil qilinganda, ular orasidagi farqlar ko'pgina mikroijtimoiy sharoitlar (ota-onalar savodxonligi darajasi, oila byudjeti, uy sharoitlari va b.) bo'yicha ham kuzatildi. Ayniqsa, ichki oilaviy munosabatlarda (oilalarning a'zolarining xarakter xususiyatlari, maishiy ichkilikbozlik va surunkali alkogolizm bilan bog'liq nizo va ajralish hollari) ham bu farqlar ancha katta ekan. Tekshiruv natijalari bolalar va o'smirlar nerv-psixik salomatligining ko'p omilliligi haqida guvohlik beradi va uning buzilishlari vujudga kelishida somotogen, psixogen va sotsiogen etiologiyasi (kelib chiqishi)ni farqlash imkonini beradi.

Tanlanmagan ommaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikki qarama-qarshi holat - salomatlik va kasallik orasida ko'pincha aniq chegara bo'lmaydi. Bu ayniqsa, nerv-psixik kasalliklariga tegishli bo'lib, shu sababli chegara holatlari eng dolzarb tibbiy va biologik muammolardan biri bo'lib qoldi. Salomatlikdan kasallikka o'tishida ketma-ket o'rin almashuvchi fazalar mavjud: kasallikning vujudga kelishiga sabab bo'lgan eng yuqori tajangligi va kamayishi, moslashuv mexanizmlarini, ularning faollashuvini o'z ichiga olgan. Psixogigiena va psixiatriya oldida moslashuv mexanizmlari tajangligini qanday klinik holatlar aks ettiradi, ularning kamayishi to'g'risida nima guvohlik beradi, eng birinchi kasallik belgilaridan qaysilari salbiy bashoratga ega, klinik hodisalarning qaysilarini himoyalovchi, kompensatorlik, patologik deb hisoblash mumkin va shunday turdagi klinik va klinikagacha holatlar qancha ko'p uchraydi kabi savollarga javob berish vazifasi turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Merlin V.S. Leksiya ro'sixologii motivov shelveka. 1971– S. 46.

Nekrasov V.R., XYdadov N.A., Rikkenxan L., Frester R. «RsixoregYIYatsiYa v rodgotovke srortsmenov». M.:FiS. 1985. – S.74.

Retrovskiy A.V., Yaroshevskiy M.G. «Rsixologiya IYg'ati». M. 1990. – S.241.

RaYgorodskiy D.Ya. «RraktisheskaYa rsixodiagnostika», Metodiki i testy, Samara 1999. – S.98.

Sandomirskiy M.E. «Zashchita ot stressa». M. 2002. – S.26.

Sele G. «Stress bez distressa». M.Rrogress, 1979. – S.338.

Internet saytlari:

[htr://koob.rY](http://koob.rY)

[htr://librarY.bY](http://librarY.bY)

[htr://narod.rY](http://narod.rY)

BO'LAJAK PSIXOLOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna
Psixologiya va sotsiologiya kafedrası o'qituvchisi

Anotatsiya. Bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatishi, buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga kompetentlikning xorijda va sharq olimlar tomonidan berilgan nazariy ma'lumotlar ham keltirilgan. Shuningdek, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda e'lon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollari oshib berishga xizmat qilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetentlik, metodologiya, professional kompetentlik, kategoriya, oliy kompetentlik, motivlashtirilgan qobiliyatlar, kvalimetrik, semantik, ixtisoslashgan ko'nikmalar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Кадырова Дильноза Муртазоевна
преподаватель кафедры психологии и социологии

Аннотация. Приводятся данные о том, что экспериментальное исследование важных на сегодняшний день факторов коммуникативной компетентности неизбежно, а для этого, прежде всего, необходимы исследования пропорциональных и корреляционных показателей между типами личности и особенностями личности у практикующих психологов. Одновременно приводятся теоретические данные, предоставленные зарубежными и восточными учеными. Также было высказано мнение, что каждый исследованный и опубликованный в научной прессе показатель служил для того, чтобы превзойти Перспективы науки социальной психологии.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, методология, профессиональная компетентность, категория, высшая компетентность, мотивированные способности, квалиметрические, семантические, специализированные навыки.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE PSYCHOLOGISTS

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna
Teacher of the Department of Psychology and Sociology

Annotation. There is evidence that an experimental study of the currently important factors of communicative competence is inevitable, and for this, first of all, studies of proportional and correlation indicators between personality types and personality traits in practicing psychologists are necessary. At the same time, theoretical data provided by foreign and Eastern scientists are presented. It was also suggested that each indicator studied and published in the scientific press served to surpass the Prospects of the science of social psychology.

Keywords: communicative competence, methodology, professional competence, category, higher competence, motivated abilities, qualimetric, semantic, specialized skills.

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligi muammosini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'rganar ekanmiz, ulardagi kommunikativ kompetentlik metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Ilmiy adabiyotlarning tahliliga qaraganda, kommunikativ

kompetentlikni aniqlashga doir tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar mavjud.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o'quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jaddalashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o'qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o'qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishontirish, isbotlash san'atida ko'zga tashlanadi. O'qituvchi birinchi navbatda o'zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o'quvchilarda shu ko'nikmani o'rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi.

So'nggi yillarda kompetentlik muammosi yangicha talqinlarda namoyon bo'lmoqda. Ko'pgina olimlar nafaqat kompetentlik balki professional kompetentlik haqida mutaxassisning kommunikativ mehnat talablariga muvofiqligi ko'rsatkichi sifatida fikr yuritishgan.

Jahon va respublikamizdagi psixologik o'quv markazlarida insonni tahlil qilish, uni har tomonlama rivojlantirishda turli xil psixologik usullardan foydalanish tobora jaddalashmoqda. Zero, qadimgi qomusiy olimlarimizning ilmiy asarlarida ham o'qituvchining shaxs sifatida rivojlanishiga oid bir qancha fikrlar uchraydi. Jumladan, Aflotun, Arastu, Kvintilian va boshqa antik davr olimlarining asarlarida o'qituvchi shaxsining asosiy fazilati sifatida ulardagi notiqlik qobiliyatini shakllantirish, mulohaza, ishontirish, isbotlash san'atida ko'zga tashlanadi. O'qituvchi birinchi navbatda o'zidagi notiqlik qobiliyatini shakllantirishi va undan keyin o'quvchilarda shu ko'nikmani o'rgatishi ulardagi hayotiy muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili. Mashhur psixolog V.I.Baydenko ta'kidlaganidek, so'nggi paytlarda "kompetentlik" atamasi o'qitish sifatining integrativ xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiluvchi va ta'lim jarayoni kategoriyasining natijasi vazifasini bajaradi. U G'arb ta'lim (pedagogik) va kvalimetrik ilmiy-nazariy va amaliy ishlanmalarda qo'llaniladi. Kompetensiya maqsadlarni belgilashning yangi turi ta'lim tizimlarini loyihalashdir. Bu mohiyatan, bozor qiymatiga e'tibor qaratadigan bitiruvchilarning ijtimoiy tayyorgarligini tashqi baholashga baholashning faqat (yoki asosan) akademik normalaridan o'tishni belgilaydi.

Shuningdek, taniqli olim M.A.Xolodnayaning fikricha "kompetentlik" bu - ma'lum bir faoliyat sohasida samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradigan maxsus bilim deb hisoblaydi.

Dj.Raven o'z ilmiy tadqiqotlarida "kompetentlik" atamasiga umumiy holda ta'rif beradi. Uning ta'rifiga ko'ra, kompetentlik – ma'lum bir sohadagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat bo'lib, yuqori ixtisoslashgan ko'nikmalarni o'z ishiga oladi. Ixtisoslashgan ko'nikmalar deganda fikrlash usullari, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga aytiladi. Bundan tashqari Dj.Raven (kichkinasi) "Oliy kompetentlik" haqida ham fikr bildiradi. Unga ko'ra "Oliy kompetentlik" qaysi sohada namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, insonning yuqori darajaga ega ekanligini, tashabbuskorligi, tashkilotchiligi va o'z maqsadlariga erishish uchun o'z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash hamda tahlil qilishga bo'lgan qobiliyatlarni tushuniladi.

"Oliy kompetentlik" ni barcha turlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

1. Tashabbuskorlik
2. Tashkilotshilik va boshqaruvchanlik qobiliyati
3. Hamkorlik va muloqot

Dj.Raven kompetentlikni bir nechta tarkibiy qismlari mavjudligini ta'kidlaydi. Uning tarkibiy qismlari bir-biridan nisbatan mustaqil bo'lib, kompetensiyalarning o'zaro almashinuvchanlik xislatlariga ega. «Kompetentlik turlari» atamasi ma'lum ma'noda «motivlashtirilgan qobiliyatlar»dan boshqa narsani anglatmaydi, ya'ni, motivlashtirilgan xulq-atvorning kognitiv, ta'sirchan va irodaviy tarkibiy qismlari «tashabbus» kabi atamaga mos keladi.

Mashhur rus pedagog-psixologi O.A.Kozireva o'z ilmiy tadqiqotlarida kommunikativ yuksalish bosqichlari va kommunikativ kompetentlik rivojlanishini qiyoslab o'rgangan. Uning talqinicha, kommunikativ yetuklikning 3 ta bosqichi bo'lib, ularning har biri «anglanmagan kompetentsizlik ® anglanilgan kompetentsizlik ® anglangan kompetentlik» ko'rinishidagi

kommunikativ kompetentlikni namoyon etadi.

N.B.Moskvina fikricha «kompetentlik» asosiy xarakterga ega bo‘lib, uni mazmuni, inson bilishi va amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan yangi kashfiyotlarni o‘zlashtirish bilan bog‘laydi.

N.B.Moskvina o‘z tadqiqotlarida «Kompetentlik»ni uch jihatini keltirib o‘tadi:

- semantik, shu jumladan, tushunishning adekvatligi, ijtimoiy munosabatlarni tushunishni madaniy shakllarini baholay olish;
- amaliy - turli ko‘rinishdagi sotsial munosabatlarni adekvat baholay olish, maqsad, vazifa, normalarini malum bir sharoitda kerakli darajada shakllantirish va ijobiy amalga oshirish.

I.A.Zimnyaya «Kompetentlik»ni 3 guruhini keltirib o‘tadi:

- o‘z-o‘ziga shaxs sifatida va hayot faoliyatining subyekt sifatida qarashligi;
- insonning boshqa kishilar bilan o‘zaro ta’sir munosabati bilan bog‘liqligi;
- inson faoliyati bilan bog‘liq kompetensiyalar uning barcha turlari va shakllarida namoyon bo‘lishi. Bizning fikrimizcha, amaliyotchi-psixologlarning kommunikativ tayyorgarligini tashkil etish jarayonida I.A.Zimnyaya asarlari juda muhim sanaladi.

Kompetentlik keng ma’nodda qobiliyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, ko‘nikma, malaka va boshqalar. Kompetentli shaxs - yetarli malakaga, bilim va imkoniyatlarga ega shaxs hisoblanadi.

T.V.Zamorskaya talqiniga ko‘ra, “amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetensiyasi” – samarali faoliyatga asos bo‘luvchi murakkab psixologik ta’lim, hamda bilim, ko‘nikma malakalar hamda shaxsiy fazilatlar tizimini o‘z ishiga oladigan sifatlar jamlanmasidir.

V.A.Yadov sotsiologiyada kompetensiya kommunikativ mahoratning atributi sifatida faoliyat yuritishi va o‘z ishi uning mohiyati, murakkab aloqalari, undagi munosabatlar, ko‘zlangan maqsadlarga erishishning mumkin bo‘lgan vositalari va usullari to‘g‘risida eng puxta bilim sifatida tavsiflanganligini ta’kidlaydi.

Shu munosabat bilan E.F.Zeerning ta’kidlashisha, kompetensiya nafaqat bilim va malakaning mavjudligi, balki, mazkur faoliyatni o‘z vaqtida bajarish hamda o‘zining kasbiy faoliyatida maksimal foydalana olish bilan belgilanadi.

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan olimlar T.G.Braje, S.G.Molshanov va boshqalar professional kompetentlikni atroflicha o‘rganib chiqishgan. Shunday qilib, T.G.Braje nafaqat bilim va ko‘nikmalar shaxsni kompetentligini belgilaydi, balki mutaxassisning faoliyati motivlari, odamlar bilan munosabatlarning uslubi, umumiy madaniyati, ijodiy salohiyatini rivojlantirish qobiliyati, muhim shaxsiy sifatleri ham alohida ahamiyatga ega ekanligini aytib o‘tadi.

V.N.Karandashevaning fikricha, amaliyotchi psixologlarning kasbiy kompetentligi faoliyati davomida o‘rganilgan tajriba, ko‘nikma hamda malakalarni qamrab oladi. Kasbiy ko‘nikmalar-psixologning o‘z faoliyatini oson va ishonch bilan bajarishga imkon beruvshi harakatlardir.

Mashhur olimlardan N.S.Pryajnikov va E.Yu.Pryajnikovalar o‘z tadqiqotlarida amaliyotchi psixologlarning matematik hamda kasbiy kompetentligini shakllantirishning 7 darajasini ifodalab o‘tadi:

g‘ayrat-shijoat;

ishonch;

o‘z faoliyatidagi malakalardan kelib shiqib, tegishli ma’lumotlarni tahlil qila olish;

ba’zi psixologik muammolarni mustaqil tarzda bartaraf etish;

yuzaga keladigan to‘siqlarni yengishda ijodiy yondashish;

nazariy psixologik bilimlarga ega bo‘lish.

Shuningdek, L.A.Petrovskaya esa birgalikdagi va boshqaruv faoliyatida, shuningdek, turli xil muloqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega kommunikatsiya kompetensiyasining maxsus konsepsiyasini ishlab shiqdi. M.I.Lukyanova kommunikativ kompetentlik tarkibida o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetentligi tushunchasini belgilaydi, ya’ni pedagogik faoliyatga kommunikativ tayyorgarlik darajasini va ta’lim jarayonida talabalar bilan samarali hamkorlikni hisobga olgan holda insonning muayyan fazilatleri (xususiyatlari) majmuini

anglatadi.

Tahlil va natijalar Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentligini o'rganish maqsadida quyidagigi omillar orqali olingan statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili

Omillar		3-yilgacha		5-yilgacha	
		N=40		N=50	
		n	%	n	%
«A» omil	Muloqotchan	15	46,4	28	52,9
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	53,6	32	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«V» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	18	42,9	35	55,9
	Zaif fikrlaydigan	22	57,1	15	44,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«S» omil	Barqaror	15	46,4	30	52,9
	Beqaror	25	53,6	20	47,1
	Jami	40	100,0	50	100,0
«D» omil	Optimizm	25	57,1	22	44,1
	Pessimizm	15	42,9	28	50,0
	Jami	40	100,0	50	94,1
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	31,4	28	42,9
	Realist	24	68,6	22	39,4
	Jami	40	100,0	50	82,4
«H» omil	O'zini nazorat qila oladigan	23	55,7	26	40,0
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	17	44,3	24	54,1
	Jami	40	100,0	50	94,1
«M» omil	O'ziga yo'nalgan	13	30,7	26	57,6
	O'zgalarga yo'nalgan	27	69,3	24	42,4
	Jami	40	100,0	50	100,0
	Jami	40	100	50	100

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi» metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko'ra «A» omil bo'yicha «muloqotchanlik» 3 yilga nisbatan 5 yilgacha 52,9% ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki kommunikativ muloqot jarayoniga moslashish yil hisobidan olib qaraganda biroz ko'proq vaqtni talab qiladi. «O'z-o'zidan muloqotga kirishishga qiynalish» omili 3 yilgacha 53,6% ni tashkil qildi. «B» omil bo'yicha «mantiqiy fikrlash» darajasi 3 yilga nisbatan 5 yilda 55,9% ni, «zaif fikrlash darajasi» esa 3 yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo'lgan psixologlarda 57,1% ni ko'rsatdi. «Mantiqiy fikrlash» qobiliyati psixologlarda yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunga bevosita intellektual jarayonning roli beqiyosdir. «Barqarorlik» va «beqarorlik» omillari bo'yicha ham 5 yilgacha 52,9%, beqarorlik esa 3 yilgacha 53,6% ni tashkil etdi. Bundan ma'lumki, barqaror ijtimoiy munosabatlar 3 yilga nisbatan ko'proq vaqtda shakllanadi. Keyingi mezon, ya'ni, «optimizm» va «pessimizm» omili 3 yilgacha 57,1% ni, «pessimizm» esa 5 yilgacha mehnat amaliyotiga ega bo'lgan psixologlarda 50,0% ni tashkil etdi. Optimizm, ya'ni yuqori kayfiyatda atrofdegilar bilan munosabatga kirishish 3 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda ustun bo'lsa, pessimizm – ya'ni kayfiyatdagi o'zgarishlar, shaxsiy pragmatik

kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar 5 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda yuqori o'rin egallashi aniqlandi.

Xulosa. Amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligini rivojlanishida matematik usullardan foydalanishning ahamiyatini amaliy jihatdan o'rganish, ijtimoiy psixologik muammo sifatida o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy manbalarni tadqiq etish, amaliyotchi psixologlar kommunikativ kompetentligiga xizmat qiluvchi omillar haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa amaliyotchi psixologlar shaxsini, uning kommunikativ kompetentligini yanada chuqurroq tadqiq qilish uchun zamin yaratadi.

Kasbiy kompetentlikka nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda Sharq va G'arb mutafakkirlari ijodida, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida sayqal topib kelgan.

Bu esa zamonaviy psixologiya sohasida yangi texnologiyalarni qo'llash muammosini dolzarbligini bildiradi. Jahondagi juda ko'plab psixologiya namoyondalari amaliyotchi psixologlarning kasbiy yetukligi borasida qarashlari o'rganilganda, mazkur jarayon shaxsning ijtimoiylashuvi va shakllanishi uchun muhim tadqiqot ekanligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili, bugungi kunda muhim bo'lgan kommunikativ kompetentlik omillarini tajribaviy tadqiq qilish muqarrarligini ko'rsatdi. Buning uchun esa, eng avvalo, amaliyotchi psixologlardagi shaxs tiplari va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va korrelyatsion ko'rsatkichlarni tadqiq qilish talab qilinadi. Ayni paytda, tadqiq etilgan va ilmiy matbuotda elon qilingan har bir ko'rsatkich ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini oshib berishga xizmat qiladi.

Amaliyotchi psixologlarning kommunikativ kompetentlik va uning shaxs faoliyatidagi o'rnini o'rganish muammosining mavjudligiga ehtiyoj sezilmoqda. Ushbu muammoni har xil madaniy muhitda, kommunikativ rivojlanish darajasi bilan uzviyligini tahlil qilish esa yangi ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bondorevskaya Ye.V., Kulnevich S.V. Psixologiya. 2004. № 10.
2. Blinov V.I. Prakticheskaya podgotovka budущix uchiteley: pragmatika, prespektivy. Moskva. IOO. MONRF. 2000
3. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o'quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari.. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.
4. Qodirova D.M. (2022). Katta va kichik guruhlardagi o'quvchi shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 542-547.

O'SMIRLARDA O'Z-O'ZIGA MUNOSABAT MOTIVATSIYASINI O'RGANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Sayfulloeva Aziza G'ulomjonovna
Zarmed universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarining nazariy tahlillar bayon qilingan. Shuningdek o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini o'rganishning psixologik, fiziologik asoslari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kreativ tafakkur, ehtiyojlar, motivatsiya, maqsad, psixologik muloqot, qobiliyat, stereotip, guruh, ijtimoiy tasavvur

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ САМО РЕЛЯЦИОННОЙ МОТИВАЦИИ У ПОДРОСТКОВ

Сайфуллаева Азиза Гуломжоновна
Преподаватель университета Зармед

Аннотация: В статье рассматривается само реляционная мотивация у подростков. Описан теоретический анализ социально-психологических факторов, влияющих на его формирование. Также показаны психологические и физиологические основы исследования само реляционной мотивации у подростков.

Ключевые слова: творческое мышление, потребности, мотивация, цель, психологическое общение, способности, стереотип, группа, социальное воображение.

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF SELF- RELATIONAL MOTIVATION IN ADOLESCENTS

Sayfulloeva Aziza G'ulomjonovna
Zarmed university lecturer

Abstract: The article examines self-relational motivation in adolescents. a theoretical analysis of the socio-psychological factors influencing its formation is described. The psychological and physiological foundations of the study of self-relational motivation in adolescents are also shown.

Key words: creative thinking, needs, motivation, goal, psychological communication, abilities, stereotype, group, social imagination.

Mavzuning dolzarbligi. Psixologik muhofaza qilish muammosi hamisha insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Zero, insonning har jihatdan ijtimoiy taraqqiyoti, shaxs sifatidagi faolligi va o'zini o'zi rivojlantira borishi ko'p jihatdan ushbu jarayonga bog'liqdir.

Alohida ta'kidlash joizki, shaxslar o'zlarining ma'lum doiradagi psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsalar, bu ularning hayotda uchraydigan har qanday muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan bartaraf etishga, o'z imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalana olishga, bir so'z bilan aytganda, o'zlari haqida yanada teran, ijobiy va o'ziga xos ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan tasavvurlarning shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratadi. O'smirlik davri esa xuddi shunday imkoniyatlar ko'lamini yanada kengaytirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlar va ularning tarbiyaviy imkoniyatlari alohida qadriyat sifatida tobora yuksaklarga ko'tarilmoqda.

Metodika. O'smirlarda psixologik, fiziologik muhofaza mezonlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi asosan psixologik muhofaza haqidagi nazariy-metodologik tushunchalarga tayanadi. Jumladan, har bir mezon ma'lum darajada o'smir shaxsidagi psixologik muhofaza imkoniyatlarining u yoki bu jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Binobarin, har bir tadqiqotni olib borish, uning natijalarini ilmiy tahlil qilgan holda tegishli

xulosalar qilish uchun shartli ravishda u yoki bu mezonlar qabul qilinadi. Xuddi shu qabul qilingan mezonlar yordamida tadqiqot maqsadi, vazifalari, ilmiy xulosalar ochib beriladi. Shu an'anaga amal qilgan holda olib borilishi lozim bo'lgan tadqiqotimizning ilmiy salohiyatini yaqqolroq ko'rsatish maqsadida o'smirlar uchun xarakterli bo'lgan o'zini o'zi psixologik muhofaza qilish jarayonini ochib beruvchi mezonlarni tanlash va tadqiq qilish uslubi belgilab olinadi.

Tabiiyki, har bir tanlanilgan mezon yoki uslub o'smirlar guruhi uchun xarakterli bo'lgan psixologik muhofaza ko'rsatkichlari dinamikasining u yoki bu jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Endi har bir mezonning tanlanishi va tadqiq qilish uslubi haqidagi mulohazalarni qisqacha bayon etishga o'tamiz:

1. Ko'pgina adabiyotlardan ma'lumki, har qanday psixologik muhofaza ko'rsatkichlarining namoyon etilishi eng avvalo shaxsning hissiy bezovtalik darajasi, asabiylik holatlarining kechishi va bu jarayonga adekvat harakatlarni yo'naltira olish bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan o'smirlardagi psixologik muhofaza ko'rsatkichlarini tahlil qilishning birinchi mezoni sifatida "O'smir bezovtaligi va asabiylik holati" tanlab olindi. Mazkur mezonni aniqlash uslubi Kondashning (1973 yil) ijtimoiy holat bezovtaligi shkalalari talabiga mos ravishda ishlab chiqildi. Ushbu mezon ko'rsatkichlari orqali har bir o'smirlarning maktab hayoti bilan bog'liq bezovtalik darajasi – "a", o'zini o'zi baholash bilan bog'liq bezovtalik darajasi – "b", shaxslararo muloqot bilan bog'liq bezovtalik darajasi – "v" aniqlanadi va tadqiqot talablariga mos ravishda tahlil qilinadi.

2. Psixologik muhofazaning ikkinchi mezoni sifatida tanlangan uslub bu o'zini o'zi hissiy baholash shkalasidir. Mazkur mezon Riks- Uessman shkalasi talablariga mos ravishda tanlandi. Ushbu mezon ko'rsatkichlari orqali o'smirlardagi o'zini o'zi hissiy baholash bilan bog'liq tasavvurlar ko'lamiga baho berish mumkin. Bu tasavvurlarning shakllanishi esa Riks-Uessman shkalasida qayd etilgan asabiylik-xotirjamlik, toliqqanlik-g'ayrat-shijoatlilik, tushkunlik-ko'tarinkilik, ishonchsizlik-o'z-o'ziga ishonch kabi shaxs hissiy holatidagi mazkur sifatning nechog'lik namoyon etilayotganligi bilan bevosita bog'liqdir.

3. Psixologik muhofazaning ko'rsatkichlarini aniqlashning uchinchi mezoni ziddiyatli holatni yengishga bo'lgan individual xulq-atvor motivatsiyasining namoyon etilishidir. Mazkur mezon Tomas testi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib o'smirlarning ziddiyatli holatdan o'zini muhofaza qiluvchi individual uslubi harakterini aniqlashga va shu asosda o'smirdagi individual yondashuv imkoniyatlarini o'rganishga yordam beradi. Mazkur mezon ko'rsatkichlari Tomas testida qayd etilgan quyidagi 5 ta yo'nalish bo'yicha tahlil qilinadi.

- A) bahs-munozara
- B) hamkorlik
- V) kelishuv (kompromiss)
- G) o'zini chetga olish
- D) o'zini moslashtirish

Tabiiyki, ushbu yo'nalishlarning qaysi biri u yoki bu o'smir uchun xarakterli ekanligiga qarab shu o'smirdagi ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish yo'llari haqida tegishli ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin bo'ladi.

4. Psixologik muhofaza ko'rsatkichlarini aniqlashning 4-mezoni shaxsdagi dinamik xususiyatlar (ekstroversiya, introversiya) va uning psixologik muhofaza ko'rsatkichlariga ta'siri darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunda ilmiy psixologiyada ma'lum va mashhur bo'lgan Ayzenk metodikasi asos qilib olinadi. Jumladan, o'smir shaxsi xulq-atvori yoxud faoliyatida yaqqol namoyon bo'luvchi xususiyatlar (ekstroversiya, introversiya, neyrotizm, hissiy beqarorlik, hissiy barqarorlik) psixologik muhofaza imkoniyati sifatida qaraladi. Darhaqiqat, o'smirdagi mavjud dinamik xususiyatlari o'z hissiyot dunyosini jiddiy ravishda jilovlay olish bilan ham belgilanadi. Chunonchi, Diomond ta'limotida bu xususiyat faollik darajasida va ko'p jihatdan his – tuyg'uning ortiq darajada bo'lishi deb qaralsa, G. Ayzenk bu hususiyat ekstroversiya – introvesiya va neyrotizm tushunchalari orqali izohlaydi. V.S. Merlin asarlarining mazmuniga ko'ra shaxs dinamik xususiyatlari yoxud temperamentlarning har bir xususiyati ba'zi sharoitlarda ish faoliyatining samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa,

xuddi shu xususiyatning o'zi boshqa sharoitlarda ish faoliyatiga moslashuvni qiyinlashtirib, uning ijtimoiy samaradorligiga bir muncha salbiy ta'sir etishi mumkin. Masalan, diqqatning qo'zg'aluvchanligi bir tomondan yangi sharoitlarda to'g'ri yo'lni tanlab olishni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan qo'zg'atuvchilar bular diqqatning chalg'ishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'smir shaxsining o'zini o'zi ayrim muvaffaqiyatsizliklardan psixologik muhofaza qilish tizimiga ma'lum darajada ta'sir etmay qolmaydi. Bu ta'sirning "adekvat" yoki "noadekvat"ligini tadqiq qilish juda muhimdir, deb o'ylaymiz.

I-jadval

O'smirlar guruhida o'zini o'zi psixologik muhofaza mezonlarini tizimini tadqiq qilish uslubi

Muxofaza Omili	Muhofaza mezon	Psixologik muhofaza belgisi	Psixologik muhofaza ierarxiyasi
Sotsial vaziyatga bog'liq bezovtalik	Adekvat psixologik himoya (Kondash usuli asosida)	Ijtimoiy me'yoriy faollik Nome'yoriy faollik	1.Mak.hayoti.bilan bog'liq faollik 2.O'zini o'zi baholash bilan bog'liq faollik 3. Shaxslararo muloqot bilan bog'liq faollik
O'zini o'zi hissiy baholash	Me'yoriy hissiy faollik (Riks – Uessman usuli asosida)	O'zini o'zi adekvat boshqarish	1. Xotirjamlik 2.G'ayrat- shijoatlilik 3.Hissiy ko'tarinkilik 4. O'z-o'ziga ishonch
Ziddiyatli holatdan saqlanish	Adekvat xulq-atvor motivatsiyasi (Tomas metodikasi asosida)	Individual uslubni namoyon qila olish	1.Baxs-munozara 2.Hamkorlik 3.Kelishuv (kompromiss) 4.O'zini chetga olish 5.Moslashish
Faoliyat va individual yondashuv mutanosibli	Shaxs dinamik xususiyatlari (Ayzenk uslubi asosida)	Faoliyat va shaxs dinamik xususiyatlari mutanosibli	1.Ekstroversiya 2.Introversiya 3. Neyrotizm

O'smir shaxsida namoyon bo'luvchi har bir individual xususiyat darajasidan (quyi, o'rta, yuqori) kelib chiqib umumiy psixologik muhofaza ko'rsatkichlariga izoh beriladi. Binobarin mazkur mezon ko'rsatkichlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi tadqiqotning empirik salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Xulosa. Olib borilgan nazariy-ilmiy tahlillar mavzu doirasidagi muammolarni, xususan, o'smirlik davrida o'zini o'zi psixologik muhofaza qilish haqidagi tasavvurlarni nazariy tadqiq qilinishiga bag'ishlangan ishlarning bugungi kunda taqchilligi va shu bilan birga dolzarbligini ko'rsatdi. Dunyodagi ko'plab ilg'or psixologiya namoyandalarining psixologik, fiziologik

muhofazaga oid qarashlari tadqiq qilinganda bu jarayon shaxs ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun o'rganilishi muhim bo'lgan tadqiqot yo'nalishi ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi.

Ayni paytda, Rossiyadagi olimlar hamda mamlakatimiz olimlari ham aynan shu muammoning ayrim xususiyatlarini yoritishga va tadqiq qilishga o'z e'tiborlarini qaratmoqdalar. Bu boradagi qator izlanishlar va ilmiy mushohadalarning tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Umuman, shaxsning o'zini o'zi psixologik muhofaza qilish shakllariga nisbatan tarixda va bugungi kunda turli xil munozarali fikrlar mavjud bo'lib, bu qarashlar turli manbalarda, sharq va g'arb mutafakkirlari ijodida, ilg'or psixologiya vakillarining ilmiy asarlarida asrlar davomida ilmiy sayqal topib kelgan. Ayni paytda, psixologik, fiziologik muhofaza shaxs o'zligini anglashning, o'zini o'zi rivojlantirishning va o'z imkoniyatlariga adekvat baho berishning muhim omili sifatida olimlar e'tiborini tortgan doimiy tadqiqotlar ob'ekti hamda sub'ektiga aylantirilgan.

2. O'smirlar guruhida psixologik, fiziologik muhofaza jarayonini tadqiq qilish bilan bog'liq nazariy-ilmiy manbalarning o'rganilishi psixologik muhofaza omillari haqida batafsilroq mushohadalar yuritish imkonini beradi. Bu imkoniyat esa o'smirlardagi psixologik muhofaza motivatsiyasi va dinamikasini o'rganishni taqozo etadi.

Адабиётлар:

Андреева Г.М. Психология социального познания: Учебное пособие. М., 1997.

Асеев В.Г. Мотивация поведения и формирования личности. М.: Мысл. 1976.

Баротов Ш.Р. Социально- психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореф. дис. ... док. психол. наук. - Тошкент: 1998.

4. Узнадзе Д.Н. Экспериментальные основы психологии установки. – Тбилиси. 1961.- 212 с.

5. Umumiy psixologiya /A.V.Petrovskiy tahriri ostida 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha nashr tarjimasini. –Toshkent : O'qituvchi, 1992. - 512 b.

6. Umumiy psixologiyadan amaliy mashgulotlar. A.I.Shcherbakov tahriri ostida- T.:O'qituvchi, 1984.- 336 b.

BOLALARNI MAKTABGA DEZADAPTATSIYASINI PSIXOLOGIK JIHATLARI

*Tursunbaev Sandjar Baxtiyarovich,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti*

